



**O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat instituti
XABARLARI**

**ВЕСТНИК
Государственного института
искусств и культуры Узбекистана**

**BULLETIN
of the Uzbekistan State
Institute of Arts and Culture**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti xabarlari

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal

BOSH MUHARRIR –

SAYFULLAYEV Nodirbek Baxtiyorovich –

Tarix fanlari nomzodi, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI –

YAKUBOV Baxtiyor Choriyevich –

San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY'ATI

ISMOILOV Abdurahim Isroilovich –

O'zbekiston san'at arbobi, professor

MAVRULOV Abduxalil Abdulkayevich –

Tarix fanlari doktori, professor

TULYAXODJAYEVA Muhabbat Turobovna –

San'atshunoslik fanlari doktori, professor

QODIROVA Sarvinov Muhsinovna –

San'atshunoslik fanlari doktori, professor

ALIMASOV Viktor Aleksandrovich –

Falsafa fanlari doktori, dotsent

TO'YCHIYEVA Sayyora Suyarqulovna –

Falsafa fanlari doktori, professor

ABDULLAYEVA Munavvara –

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor

MAXMUDOVA Xamida Axyulovna –

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor

RIZAYEV Amanulla Zufarovich –

San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

XALIKULOVA Go'zal Erkinovna –

San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

RASHIDOV Temur Maxmudovich –

San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

SAFAROV Orolmirzo Abdumannonovich –

O'zbekiston xalq hofizi, professor

KOSHELEVA Antonina Fyodorovna –

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ISMOILOV Hamdam –

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent

MAXMUDOV Mirali Xaydarovich –

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

ISOQOV Ziyodulla Safaraliyevich –

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

NASIMOV Hilol To'liqinovich –

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, dotsent

XUDOYEV G'ani Muhammadovich –

San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

JAMOATCHILIK KENGASHI

NAZARBEKOV Ozodbek Ahmadovich –

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri,

O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

XASANOV Otabek Abdurashidovich –

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi direktori,

siyosiy fanlari doktori (DSc)

Sirojiddin SAYYID –

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi,

O'zbekiston xalq shoiri

RIZAYEV Shuhratilla Tursunovich –

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi

Kinematografiya agentligi direktori,

filologiya fanlari nomzodi, professor,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi

ABDULLAYEV Rustam Abdullayevich –

O'zbekiston Bastakorlar uyushmasi raisi,

O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi

SAGDIYEV Yodgor Xabibovich –

O'zbek Milliy akademik drama teatri direktori,

O'zbekiston Respublikasi xalq artisti

MUSTAFAYEVA Nodira Abdullayevna –

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi

ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi boshlig'i

MAMATMUSAYEV Toxir Shaydulovich –

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar

vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining

Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha bosh inspektori,

arxitektura fanlari doktori (DSc), professor

KASIMOV Nodir Ulug'ovich –

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar

vazirligi Yoshlar siyosati va ma'naviy tarbiyaviy ishlar

boshqarmasi boshlig'i

AKILOVA Kamola Boltaboyevna –

O'zbekiston tasviriy san'at galereyasi direktori, O'ZBA

akademigi, san'atshunoslik fanlari doktori (DSc), professor,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

ISMOILOVA Jannat Xamidovna –

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori,

tarix fanlari doktori, professor

TESHABOYEVA Umida Alimdjanovna –

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi

huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar

agentligining Alisher Navoiy nomidagi

O'zbekiston Milliy kutubxonasi direktori,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining
2017-yil 29-noyabrda 245/6-sonli qarori bilan San'atshunoslik fanlari bo'yicha dissertatsiyalar
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

*Maqolada keltirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun
muallif mas'uldir*

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro'yxatga olingan

Вестник Государственного института искусств и культуры Узбекистана

Научно-теоретический, практико-методический,
духовно-просветительский журнал

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

САЙФУЛЛАЕВ Нодирбек Бахтиёрвич –
кандидат исторических наук, профессор

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

ЯКУБОВ Бахтиёр Чориевич –
доктор философии (PhD) по искусствоведческим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

ИСМОИЛОВ Абдурахим Исроилович –
заслуженный деятель искусств Узбекистана, профессор

МАВРУЛОВ Абдухалил Абдулхаевич –
доктор исторических наук, профессор

ТУЛЯХОДЖАЕВА Мухаббат Туробовна –
доктор искусствоведческих наук, профессор

КАДЫРОВА Сарвиноз Мухсиновна –
доктор искусствоведческих наук, профессор

АЛИМАСОВ Виктор Александрович –
доктор философских наук, доцент

ТУЙЧИЕВА Сайёра Суяровна –
доктор философских наук, профессор

АБДУЛЛАЕВА Мунаввара –
заслуженный наставник молодёжи Узбекистана, профессор

МАХМУДОВА Хамида Ахюловна –
заслуженный наставник молодёжи Узбекистана, профессор

РИЗАЕВ Аманулла Зуфарович –
кандидат искусствоведческих наук, профессор

ХАЛИКУЛОВА Гузал Эркиновна –
кандидат искусствоведческих наук, профессор

РАШИДОВ Темур Махмудович –
кандидат искусствоведческих наук, профессор

САФАРОВ Оролмирзо Абдуманнонович –
народный хофиз Узбекистана, профессор

КОШЕЛЕВА Антонина Фёдоровна –
кандидат педагогических наук, доцент

ИСМОИЛОВ Хамдам –
кандидат филологических наук, доцент

МАХМУДОВ Мирали Хайдарович –
кандидат педагогических наук, доцент

ИСОКОВ Зиёдулла Сафаралиевич –
кандидат исторических наук, доцент

НАСИМОВ Хилол Тулкинович –
заслуженный работник культуры Узбекистана, доцент

ХУДОЕВ Гани Мухаммадович –
доктор философии (PhD) по искусствоведческим наукам,
доцент

ОБЩЕСТВЕННАЯ РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

НАЗАРБЕКОВ Озодбек Ахмадович –
министр культуры Республики Узбекистан,
народный артист Узбекистана

ХАСАНОВ Отабек Абдурашидович –
директор республиканского центра культуры и
просвещения, доктор политических наук (DSc)

Сирожддин САЙИД –
председатель Союза писателей Узбекистана,
народный поэт Узбекистана

РИЗАЕВ Шухратилла Турсунович –
директор агентства кинематографии при
Министерстве культуры Республики Узбекистан,
кандидат филологических наук, профессор,
заслуженный наставник молодёжи Узбекистана

АБДУЛЛАЕВ Рустам Абдуллаевич –
председатель Союза композиторов Узбекистана,
заслуженный деятель искусства Республики Узбекистан

САГДИЕВ Ёдгор Хабибович –
директор Узбекского Национального академического
драматического театра,
народный артист Республики Узбекистан

МУСТАФАЕВА Нодира Абдуллаевна –
заведующий отделом общественно гуманитарных наук
Академии наук Республики Узбекистан

МАМАТМУСАЕВ Тохир Шайдулович –
главный инспектор по общественно-гуманитарным
наукам высшей аттестационной комиссии при
Министерстве Высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан,
доктор архитектурных наук (DSc), профессор

КАСИМОВ Нодир Улугович –
начальник Управления молодёжной политики и духовно
воспитательных дел министерства Высшего образова-
ния, науки и инноваций Республики Узбекистан

АКИЛОВА Камола Болтабоевна –
директор галереи изобразительного искусства
Узбекистана, академик ХАУз,
доктор искусствоведческих наук (DSc), профессор,
заслуженный работник культуры Узбекистана

ИСМОИЛОВА Жаннат Хамидова –
директор государственного музея истории Узбекистана,
доктор исторических наук, профессор

ТЕШАБОВЕВА Умида Алимджановна –
директор Национальной библиотеки Узбекистана имени
Алишера Навои Агентства информации и публичных
коммуникаций при Администрации Президента
Республики Узбекистан,
Доктор философии (PhD) по истории

Журнал введён в список научных изданий, рекомендуемых к публикации основных научных
результатов диссертаций по наукам Искусствоведения решением № 245/6 от
29 ноября 2017 года Советом Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан

Автор ответственен за верность сведений,
приводимых в статье

Введен в список №0862 от 14 декабря 2015 года
Агентством печати и информации Узбекистана

Bulletin of the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

A scientific-theoretical, practical-methodological,
and spiritual-educational journal

EDITOR-IN-CHIEF

SAYFULLAEV Nodirbek Bakhtiyorovich –
Candidate of Historical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

YAKUBOV Bakhtiyor Chorievich –
Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies,
Associate Professor

EDITORIAL BOARD

ISMOILOV Abdurahim Isroilovich –
Honored Art Worker of Uzbekistan, Professor

MAVRULOV Abdukhalil Abdukhaevich –
Doctor of Historical Sciences, Professor

TULYAKHODJAEVA Muhabbat Turobovna –
Doctor of Art Studies, Professor

KODIROVA Sarvinoz Muhsinovna –
Doctor of Art Studies, Professor

ALIMASOV Viktor Aleksandrovich –
Doctor of Philosophical Sciences, Associate Professor

TUYCHIYEVA Sayyora Suyarkulovna –
Doctor of Philosophical Sciences, Professor

ABDULLAEVA Munavvara –
Honored Youth Mentor of Uzbekistan, Professor

MAKHMUDOVA Khamida Akyulovna –
Honored Youth Mentor of Uzbekistan, Professor

RIZAEV Amanulla Zufarovich –
Candidate of Art Studies, Professor

KHALIKULOVA Guzal Erkinovna –
Candidate of Art Studies, Professor

RASHIDOV Temur Makhmudovich –
Candidate of Art Studies, Professor

SAFAROV Orolmirzo Abdumannonovich –
People's Singer of Uzbekistan, Professor

KOSHELEVA Antonina Fyodorovna –
Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

ISMOILOV Hamdam –
Candidate of Philological Sciences, Associate Professor

MAKHMUDOV Mirali Khaydarovich –
Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor

ISOKOV Ziyodulla Safaralievich –
Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

NASIMOV Hilol Tulkinovich –
Honored Cultural Worker of Uzbekistan, Associate Professor

KHUDOEV Ghani Muhammadovich –
Doctor of Philosophy (PhD) in Art Studies,
Associate Professor

PUBLIC COUNCIL

NAZARBEKOV Ozodbek Ahmadovich –
Minister of Culture of the Republic of Uzbekistan,
People's Artist of the Republic of Uzbekistan

KHASANOV Otabek Abdurashidovich –
Director of the Republican Center for Spirituality and
Enlightenment, Doctor of Political Sciences (DSc)

Sirojiddin SAYYID –
Chairman of the Writers' Union of Uzbekistan, People's
Poet of Uzbekistan

RIZAEV Shuhratilla Tursunovich –
Director of the Cinematography Agency under the
Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan,
Candidate of Philological Sciences, Professor, Honored
Youth Mentor of Uzbekistan

ABDULLAEV Rustam Abdullaevich –
Chairman of the Composers' Union of Uzbekistan,
Honored Art Worker of the Republic of Uzbekistan

SAGDIEV Yodgor Khabibovich –
Director of the Uzbek National Academic Drama Theater,
People's Artist of the Republic of Uzbekistan

MUSTAFAEVA Nodira Abdullaevna –
Head of the Department of Social and Humanitarian
Sciences of the Academy of Sciences of the Republic of
Uzbekistan

MAMATMUSAEV Tokhir Shaydulovich –
Chief Inspector for Social and Humanitarian Sciences
of the Higher Attestation Commission under the Ministry
of Higher Education, Science and Innovation of the
Republic of Uzbekistan, Doctor of Architectural Sciences
(DSc), Professor

KASIMOV Nodir Ulughovich –
Head of the Department of Youth Policy and Spiritual and
Educational Affairs of the Ministry of Higher Education,
Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

AKILOVA Kamola Boltaboevna –
Director of the Uzbekistan Fine Arts Gallery, Academician
of the Uzbekistan Academy of Arts, Doctor of Art Studies
(DSc), Professor, Honored Cultural Worker of Uzbekistan

ISMOILOVA Jannat Khamidovna –
Director of the State Museum of History of Uzbekistan,
Doctor of Historical Sciences, Professor

TESHABOEVA Umida Alimdjanovna –
Director of the Alisher Navoi National Library of
Uzbekistan under the Agency of Information and
Mass Communications under the Administration of the
President of the Republic of Uzbekistan,
Doktor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

The journal is included in the list of scientific publications
recommended for publishing the main scientific results of
dissertations in the field of Art Studies by Decision No. 245/6 of
November 29, 2017, of the Presidium of the Higher Attestation
Commission of the Republic of Uzbekistan

*The author is responsible for the accuracy of the
information provided in the article*

Registered by the Uzbekistan Press and Information Agency
on December 14, 2015, with registration number 0862

MUNDARIJA

1. N.Sayfullayev. O'zbekiston va Ozarbayjon: tarixiy-madaniy aloqalarning yangi uflari.....	6
---	---

I. TEATR VA KINO

1. F.Abduvohidov. Qoraqalpog' teatrda ijro va talqin masalalari.....	10
2. M.To'rayev. Olim Xo'jayev ijodi: sahna mahorati va obraz yaratish an'analari.....	14
3. Ш.Аманмурадов. Музыка как средство художественной выразительности в фильме “Минувшие дни”....	16
4. Д.Мирсаидова. Искусство дубляжа в узбекском кинематографе: сохранение национального колорита (1970–1980-е годы).....	19

II. MUSIQA SAN'ATI

1. G.Isakova. Qadimgi yunon musiqa san'ati.....	22
2. M.Mamirov. O'zbek an'anaviy qo'shiqchilik san'ati: shakllanish va rivojlanish jarayonlari.....	25
3. F.Zuparova. O'zbek an'anaviy musiqasi va uning tarbiyaviy ahamiyati.....	28
4. E.Tursunov. O'zbek romanslarida interpretatsiya va ijrochilik bilan bog'liq muammolar.....	31
5. A.Axmedov. Turkiy xalqlar cholg'usi.....	37

III. SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

1. I.Abdurahmonov. O'zbekiston haykaltaroshligida afsona va rivoyatlar talqini (1991–2021-yillar).....	40
2. N.Primbetova, D.Qudiyarova. Correspondence of philosophical meaning in means of artistic expression.....	45
3. S.Kaipbergenova, S.Turdimuratova. On the philosophical essence of mise-en-scène in theatrical art.....	48
4. U.Usanova. Xalq amaliy san'ati ijtimoiy-madaniy voqelik sifatida.....	51

IV. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. J.Mamatqosimov. Bo'lajak rejissyorlarni tayyorlashda individual ta'lim trayektoriyasi.....	56
2. R.Kadirov. Sahna nutqi fanida hemis platformasining amaliyoti.....	60
3. M. Abdujabbarova. Art-pedagogika – shaxs ma'naviyatini yuksaltirish omili.....	63
4. Sh.Ikramov. Bo'lajak rejissyorlarning badiiy ifodaviy bezaklarni yaratishdagi uslubiy aspektlari.....	67

V. KUTUBXONASHUNOSLIK

1. M.Maxmudov. Aholi, texnologiya va axborot kommunikatsiya tizimi kutubxona faoliyatining tashqi muhiti sifatida: istiqboli va konseptual asoslari.....	70
2. И.Цай. Рекомендации по модернизации библиотечного образования с учетом трансформации библиотечного дела Узбекистана в современных условиях.....	74
3. Y.Mannonov. Kitobning tuzilishi va uni tayyorlash jarayonlari.....	78
4. Л.Муминходжаева. Технологии штрихового кодирования и радиочастотной идентификации (rfid) как способ идентификации и защиты документов в современной библиотеке.....	81

VI. MADANIYATSHUNOSLIK

1. M.Umarov. Jadidlar maktabi: ma'rifat va madaniyat masalalari.....	85
2. S.Mahmudova. Kitobxonlik, mutolaa madaniyati va ma'naviy tarbiyaga doir ba'zi mulohazalar.....	89
3. D.Ikramova. O'zbekistonda badiiy madaniyat rivojining an'anaviy yo'nalishlari va zamonaviy tendensiyalar.....	92
4. J.To'ychiyev. Yangi ma'naviy makon ijtimoiy-madaniy tahlil obyekti sifatida.....	96

VII. YOSH TADQIQOTCHI

1. I.Xomidov. Aktyorlik ta'limi yo'nalishida sahna nutqining yangi pedagogik texnologiyalari.....	98
2. S.Valiyev. Farg'ona vodiysi qiziqarlari ijodidagi asosiy badiiy tamoyillar.....	101
3. Л.Кан. Поэтика фортепианной рапсодии “Ариранг” на корейские темы Акмаля Сафарова.....	104
4. Д.Иногамов. Дирижер Гайрат Аббаров – интерпретатор и пропагандист французской симфонической музыки.....	111

VIII. E'TIROF

1. S.Malikova. Ajdodlarga ehtirom.....	114
2. B.Magdiyev. Sahna nutqi fanini o'qitishda Ramz Qodirov metodining o'ziga xosligi.....	118
3. M.Ismoilova. Saodat Qobulova: milliy opera sahnasining betakror malikasi.....	120
4. Sh.Yusupov. Ustoz ibratlari (professor, rejissyor va aktyor Hamida Mahmudovaning ilmiy va ijodiy faoliyatiga bir nazar).....	123
5. M.Pirmatov. O'zbekiston Qahramoni Zikir Muhammadjonovning ijodiga chizgilar.....	126



O'ZBEKISTON VA OZARBAYJON: TARIXIY-MADANIY ALOQALARNING YANGI UFQLARI

Bugun jahonda sodir bo'layotgan voqea-hodisalardan xulosa qilish mumkinki, ayni paytda xalqlar o'rtasidagi muloqot hamda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hamkorlikka har qachongidan ham ko'proq ehtiyoj mavjud. Chunki dunyoda tobora avj olayotgan ziddiyatlarning asl sabablaridan biri ham ayni shu muloqotning yo'qligi yoki yetarli darajada olib borilmayotganligidir.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonning xalqaro maydonda tinchlikparvarlik siyosatini olib borishi, o'zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni qo'llab-quvvatlashi tahsinga sazovor. Davlatimiz dunyo hamjamiyatida ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish, madaniy va ma'naviy aloqalarni mustahkamlash orqali mintaqaviy barqarorlikka hissa qo'shmoqda.

So'nggi kunlarda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Mo'g'uliston, Belarus va Ozarbayjon davlatlariga amalga oshirgan davlat va rasmiy tashriflari mamlakatimiz tashqi siyosatining ochiq va pragmatikligini yana bir bor namoyon etdi.

Ushbu tashriflar doirasida madaniy aloqalarni rivojlantirish masalasi ham alohida o'rin egallayotgani yurtimizda madaniy diplomatiyaga katta ahamiyat qaratilayotganligidan dalolatdir.

Jumladan, davlatimiz rahbari Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 2-4-iyul kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.

Ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi uchrashuv chuqur tarixiy ildiz, umumiy qadriyatlar va o'zaro ishonch asosida qurilgan munosabatlarni yanada mustahkamladi.

Ozarbayjon hamda o'zbek xalqlarining aloqalari ming yilliklarga borib taqaladi. Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy shaxsiyati, Ozarbayjon – O'zbekiston do'stligi adabiy aloqalarning mustahkam poydevori bo'lib, xalqlarimiz o'rtasidagi do'stona aloqalar ham aynan Alisher Navoiy, Nizomiy Ganjaviy orasidagi adabiy va do'stlik aloqalaridan

boshlanadi. Shu o'rinda hazrat Navoiyning "Emas oson bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasiga panja urmoq" misrasi orqali Ganjaviyni yuksak e'tirof etganligini yodga olish joizdir.

Ikki xalqning tarixiy rivojlanish o'zani bir, shu sabab, madaniyati va san'ati ham birdir. Mug'om va maqom san'ati – Ozarbayjon va O'zbekiston xalqlarini birlashtiradigan yana bir azaliy madaniy o'zan. Mug'omlar va maqomlar xalqlarimiz musiqiy tafakkurining sarchashmasi bo'lib, go'zal namunalari azal-azaldan bezavol, bizgacha yetib kelgan. Bu an'analar bugungi kunda ham davom etib, Ozarbayjonlik musiqa ustalari yurtimizda o'tkazilayotgan "Sharq taronalari", Xalqaro maqom san'ati, Baxshichilik va "Lazgi" festivallarida muntazam ishtirok etib kelishmoqda.

Ayniqsa, o'zbek teatri san'atining rivojida Ozarbayjon teatrining katta ta'siri mavjud. 1925-27-yillarda Halima Nosirova, Sayfi Olimov, Nazira Aliyeva, Zuhur Qobulov, Sa'dulla To'raboyev, Hakima Xo'jayeva, Karim Yoqubov, Rahimberdi Bobojonov kabi o'zbek teatri namoyandalari Bokudagi Mirza Fatali Oxundov nomidagi teatr texnikumi qoshida tashkil etilgan o'zbek aktyorlarini tayyorlash studiyasida tahsil olishgan. Bundan tashqari, Ozarbayjon elining ardoqli farzandlari Maqsud Shayx-zodaning "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi, "Jalolidin Manguberdi" dramasi, Uzayr Hojibekovning "Arshin mol-olon", Emin Sobit o'g'lining "Hijron" musiqali komediyalari hali-hanuz o'zbek tomoshabinining sevimli asarlaridan, spektakllaridan hisoblanadi.

Bu aloqalar har qanday sharoitda ham davom etib keldi hamda bugun ikki Davlat rahbarlarining sa'y-harakatlari natijasida o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqib bormoqda.

2023-yilda Prezidentimiz tashabbusi bilan Ozarbayjonning Fuzuliy shahrida 960 nafar o'quvchiga mo'ljallangan zamonaviy maktab qurilib, foydalanishga topshirilgan edi.

Ushbu maktab xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish, o'sib kelayotgan ozarbayjonlik o'g'il-



qizlarni O'zbekistonning boy tarixi va madaniyatiga, buyuk ajdodlarimizning merosiga oshno qilishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi tashrif doirasida imzolangan hujjatlar va amalga oshirilishi nazarda tutilgan ulkan vazifalar ikki xalq aloqalarini yangi bosqichga olib chiqilishi uchun zamin yaratmoqda, desak yanglishmaymiz.

Jumladan, uning doirasida birinchi Parlamentlararo forum, Hukumatlararo komissiya yig'ilishi, hududlar va rektorlar forumlari, siyosiy maslahatlashuvlar, qator madaniy tadbirlar muvaffaqiyatli o'tkazildi.

Muzokaralarda ikki mamlakat o'rtasida ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomani keng ko'lamda amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, Boku shahrida "O'zbekiston" bog'i qurilishiga start berildi va mamlakatimizning Ozarbayjondagi elchixonasining yangi binosi ochildi.

Albatta, ushbu elchixona ham hamkorlikning bugungi ko'rinishiga monand tarzda ko'rkam hamda hashamatli ekanligi kishini quvontiradi. Uning zallari O'zbekiston hududlari nomi bilan atalgan. Prezidentimiz xalqlarimiz o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlik ramzi sifatida zallardan biriga "Qorabog'" nomini berishni taklif etdi. Bu ham ikki davlatning xalqaro maydonda ham o'zaro bir birni qo'llab-quvvatlayotganidan darak.

Shuningdek, davlat rahbarlari ishtirokida Boku shahrida "O'zbekiston" bog'iga tamal toshi qo'yishga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.

Bunday maskanning qurilishi O'zbekistonning boy madaniyati va tarixini Ozarbayjon aholisi va ushbu davlat mehmonlariga yaqindan tanishtirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan ikki xalqning abadiy do'stligining ramziy ifodasiga ham aylanadi.

Bog' hududida yurtimiz me'moriy obidalari nusxalari, sayilgohlar, yashil hududlar, mehmonxona, turli xil savdo va ko'ngilochar maskanlar tashkil etiladi. Binolar qurilishi va bezagida o'zbek milliy me'morchiligi an'analari hamda naqshlaridan foydalaniladi.

Kelgusida bu ezgu an'ana davom etgan holda O'zbekistonda bo'lajak "Ozarbayjon" bog'i va noyob "Sea Breeze" sayyohlik majmuasi loyihalari faol tayyorlanayotgani ta'kidlandi.

Joriy yilda ikki qardosh mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganining 30 yilligi



nishonlanishi munosabati bilan ushbu muhim sanaga bag'ishlangan yirik tadbirlar, konsertlar va yoshlar forumlarini birgalikda o'tkazishga kelishib olindi.

Tashrif davomida iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 17-sammiti doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev hamrohligida Ag'dam shahridagi "Imorat" tarixiy-me'moriy majmuasiga tashrif buyurdi.

Bu yerga Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo mamlakatlar delegatsiyalari rahbarlari ham keldi.

Davlatimiz Rahbari 4-iyul kuni Xonkendi shahrida Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining 17-sammitida ishtirok etib, nutq so'zladi.

Ushbu nutqda ham Prezidentimiz mojaro va nizolarni diplomatiya va konstruktiv muzokaralar yo'li bilan hal etish muhim ekanini yana bir bor ta'kidladi hamda har qanday tinchlik va taraqqiyotning asosi, eng avvalo, iqtisodiy hamkorlik bilan belgilanishini aytib o'tdilar.

Shuningdek, tashkilot va unga a'zo davlatlarning kelgusi taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan bir qancha takliflar bildirib o'tildi. Boshqa xorijiy safarlarda bo'lgani kabi ushbu tashrifda ham madaniy tadbirlarga hamda fan va ta'lim yo'nalishlariga alohida urg'u berildi. Zero, bu ikki xalqning madaniy aloqalari tarixan mustahkam poydevorga hamda o'zaro hurmat ruhiga ega.

Davlat rahbarlari o'rtasida imzolangan bitimlar ichida – fan, kasb-hunar va oliy ta'lim sohalarida hamkorlik to'g'risida hukumatlararo bitimning borligi ham so'zimiz isboti.

Ushbu hujjat asosida O'zbekiston va Ozarbayjon ta'lim va fan sohalaridagi hamkorlikni milliy qonunchilik doirasida rivojlantirish va



kengaytirish bo'yicha qator yo'nalishlarda faol hamkorlik qilishga kelishib olindi.

Ilmiy muassasalar va oliygohlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aloqalar o'rnatish, qo'shma loyihalarni amalga oshirish, talabalar, professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilar almashinuvini tashkil etish, qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish, o'quv-uslubiy materiallar va innovatsion tajriba bilan o'zaro almashish – bularning barchasi Bitim mazmunida alohida o'rin tutadi.

Xalqlar o'rtasidagi madaniyat va san'at, musiqa va adabiyot singari gumanitar hamkorlikning chuqurlashuvi boshqa sohalarning ham rivojlanishining muhim omilidir. Bugungi kunda insoniyat taraqqiyotining muhim sohasi bo'lmish turizm ham aslida madaniy hamkorlikdan kuch oladi, uning iqtisodiy farovonligiga sabab bo'ladi. Bu hodisani, xususan, O'zbekiston va Ozarbayjon misolida ham ko'rish mumkin.

Ma'lumki, 2022-yilda Gulyanaq Mammadova O'zbekiston xalq artisti, Nasiba Abdullayeva Ozarbayjon xalq artisti unvonini olgan.

2024-yilda Prezidentlar farmoni bilan, Farrux Zokirov va Po'lat Bulbul o'g'liga "Xalq artisti" faxriy unvonlari berilgan hamda Ozarbayjon prezidentining yurtimizga tashrifi doirasida ikki mamlakat san'at ustalarining konserti o'tkazilib, unda o'zbek va ozarbayjon xalqlarining ko'p asrlik do'stligi, uyg'un an'ana va qadriyatlari yana bir bor namoyon etilgan edi.

2025-yilning 29-30-aprel kunlari Ozarbayjon davlat akademik milliy drama teatrida ilk marotaba o'zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani asosida sahnalashtirilgan spektakl premyerasi Ozarbayjon xalqi tomonidan juda iliq kutib olingan edi. Bu ham madaniy hamkorlikning yana bir namunasi o'laroq muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, 2024-yil avgust oyida Samarqandda bo'lib o'tgan XIII "Sharq taronalari xalqaro musiqa festivali"da Ozarbayjonning "Semurg" guruhi festivalning Gran-pri mukofotini qo'lga kiritgan bo'lsa, joriy yilning aprel oyida azim Xiva shahrida bo'lib o'tgan "Xalqaro Baxshichilik san'ati" festivalida Ozarbayjonning "Oshiqlar" guruhi festivalning Gran-pri g'olibi bo'lgan edi.

Qolaversa, joriy yilning iyun oyida Boku shahrida o'tkazilgan "Mug'am olami" VII Xalqaro musiqa festivalida O'zbekiston vakillari 1 va 3-o'rinni egalladi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ham ushbu ikki davlat aloqlariga monand tarzda Ozarbayjon san'at va madaniyat sohasi vakillari bilan chuqur hamkorlik aloqlariga ega ekanligini ta'kidlash o'rinli.

Xususan, o'tgan yili yurtimizda o'tkazilgan Ozarbayjon madaniyat kunlari doirasida Sahib Pashazadega O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining faxriy professori unvoni topshirildi.



Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan bir qancha tadbirlarni ham misol keltirish mumkin.

Hamkorlik doirasida joriy yilda "Ashula va raqs" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun Ozarbayjon xalq artisti Zabit Nabizade, Ozarbayjonda xizmat ko'rsatgan artist Xayyam Mamedov hamda Ozarbayjonda xizmat ko'rsatgan artist, Mug'om markazi direktori Sahib Pashazadalar ishtirokida bir qancha tadbirlar va mahorat darslari tashkil etilgan edi.

Shuningdek, ushbu markazda talabalarning amaliyotlari ham bo'lib o'tdi. Joriy yilning sentabr oyida "Milliy qo'shiqchilik" kafedrasida professor-o'qituvchilarining Ozarbayjonga tashrifi nazarda tutilgan. Institutda Ozarbayjon bastakori va pedagogi Kara Karayev nomidagi Ozarbayjon madaniyat va san'at markazi ham tashkil etilgan.

Madaniyat va san'at sohasidagi hamkorlik xalqlar o'rtasidagi do'stona aloqalarning bugungi kunini ta'minlasa, madaniyat va san'at ta'limini rivojlantirish yoshlar, olimlar, ijodkorlar, san'at va madaniyat namoyandalari o'rtasida madaniyatni yuksaltiradi, bilimlarni oshiradi va keng tajriba almashinuvlarni rag'batlantiradi.

Shu nuqtayi nazardan, Ozarbayjon oliy ta'lim muassasalari bilan ham hamkorlik aloqalari o'rnatilgan bo'lib, buning doirasida bir qancha tadbirlarda o'zaro mutaxassislar ishtiroki ta'minlanib kelmoqda.

Joriy yilning may oyida Andijonda "O'zbekiston – Ozarbayjon: oliy ta'lim sohasida hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" mavzusida O'zbekiston va Ozarbayjon oliy ta'lim muassasalari rektorlari ishtirokidagi birinchi forum yuksak saviyada tashkil etildi. Forumda erishilgan kelishuvlar bugun O'zbekiston va Ozarbayjon o'rtasidagi ta'lim sohasidagi aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish, ilg'or tajribalarni joriy etish va strategik hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Unda ikki davlatning nufuzli oliy ta'lim muassasalari rektorlari ishtirok etib, ikki xalqning tarixiy hamkorlik aloqalarini ta'lim jarayonlariga chuqur tadbir etishga qaratilgan bir qancha kelishuvlarga erishildi.

Jumladan, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti hamda Ozarbayjon davlat

madaniyat va san'at universiteti o'rtasida hamkorlik kelishuvi imzolandi.

Unda talabalar, magistrlar, ilmiy tadqiqotchilar va professor-o'qituvchilar almashinuvini tashkil etish, oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan konferensiya va simpoziumlarda o'zaro professor-o'qituvchilar ishtirokini ta'minlash, ilmiy maqola va tadqiqotlarni nashr qilishda hamkorlik qilish, videokonferensiyalar tashkil qilish, kelgusida qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish kabi har ikki oliy ta'lim muassasasining rivoji uchun muhim jihatlarni qamrab olingan.

Shu o'rinda, madaniy ta'lim sohasida kelgusida ikki davlat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida yanada rivojlantirishimiz kerak bo'lgan yo'nalishlarni qayd etib o'tish o'rinli.

Birinchidan, ijodiy ta'lim muassasalari ijodkor pedagoglarining o'zaro hamkorligini samarali tashkil etish;

Ikkinchidan, ilmiy anjumanlar, seminarlar hamda mahorat darslarini doimiy o'tkazib borish;

Uchinchidan, professor-o'qituvchilarning stajirovkalarini amalga oshirish;

To'rtinchidan, milliy madaniyatimiz va san'atimizni targ'ib qiladigan qo'shma grantlar tayyorlash, Mug'om markazi bilan aloqalarni rivojlantirish;

Beshinchidan, ijodkorlarning ijodiy repertuarlar bilan o'zaro gastrollarini uyushtirish, festivallarda doimiy ishtirok etish muhim sanaladi.

Bir so'z bilan aytganda, bugun Yangi O'zbekiston dunyo hamjamiyati orasida o'zining tinchliksevar siyosati bilan e'tibor qozonib kelmoqda.

Shubhasiz, Davlatimiz Rahbarining Ozarbayjonga amalga oshirilgan davlat tashrifi hamda ushbu tashrif davomida erishilgan kelishuvlar, shuningdek, Prezidentimizning boshqa davlat yetakchilari bilan uchrashib hamkorlik aloqlarini kengaytirish va boshqa dolzarb masalalarni muvofiqlashtirish qilgani ham bunga misoldir.

Ushbu tashrif ikki xalqning birdamligi, tarixiy aloqalarning yangi bosqichda davom etishi uchun mustahkam asos yaratdi.

Shu bilan birga, bugungi kunda jahonda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga javoban O'zbekistonning tinchlik va konstruktiv muloqotga asoslangan pozitsiyasini ham yana bir bor namoyon qildi.





I BO'LIM

TEATR VA KINO

Faxriddin ABDUVOHIDOV,

O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası mudiri,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

QORAQALPOQ TEATRIDA IJRO VA TALQIN MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrining yillar davomida orttirgan tajribalari, aktyorlik, rejissyorlik va dramaturgiya sohasida erishgan yutuqlari, bugungi kundagi yangi ijro va talqin xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: teatr, dramaturgiya, aktyor, rejissyor, kompozitsiya, badiiy g'oya.

Аннотация. В статье говорится о накопленном за годы опыта Каракалпакского государственного академического музыкального театра имени Бердаха, о достижениях в области актерского мастерства, режиссуры и драматургии, а также о новых особенностях исполнения и интерпретации на сегодняшний момент.

Ключевые слова: театр, драматургия, актёр, режиссёр, композиция, художественная идея.

Annotation. The article discusses the experiences gained over the years by the Karakalpak State Academic Musical Theatre named after Berdaq, its achievements in acting, directing, and dramaturgy, and its new performances and interpretations in the present day.

Keywords: theater, dramaturgy, actor, director, composition, artistic idea.



Teatr har bir millatning ma'naviy kuzgusi sanaladi. Davr ruhiyati, undagi ulkan o'zgarishlar samarasi, yoki bo'lajak ishlarga ruhiy quvvat va ma'nan kuch beruvchi maskan ham aynan shu muqaddas dargohdir. Negaki, teatr barcha davrlarda xalqning orzu-umidlarini, quvonch-u tashvishlarini, kurash va intilishlarini o'zida ifoda etib, ularni bir mush-taraklikka undab kelganligi ayni haqiqatdir.

Berdag nomidagi Qoraqalpoq davlat musiqali teatri ham tashkil etilgan (1930-yil, 30-dekabr) davridan buyon xalqning ma'naviy-ma'rifiy ongini o'stirish yo'lida sidqidildan xizmat qilib kelmoqda. O'tgan yillar davomida teatr jamoasining yo'nalishi, tashkiliy tarkibi, aktyorlik, rejissyorlik va dramaturgiya sohasida jiddiy o'zgarishlar, yangi-yangi ijro va talqin amallari vujudga keldi. Shakllanish va rivojlanish jarayonida milliy madaniyat xazinasidan eng yaxshi jihatlarni ijodiy o'zlashtirdi. Taraqqiyot yillari davomida mustaqil adabiy janr sifatida qoraqalpoq dramaturgiyasi vujudga keldi, milliy teatr san'atining muvaffaqiyati dramaturgiyaning yuksalishi bilan bog'liq bo'ldi.

Yillar davomida ijodiy barkamollikka erishayotgan teatr ko'p mamlakatlarda ijodiy safarlarda bo'lib, xalqimizning boy madaniy merosini namoyish etib kelmoqda. Turkmaniston Respublikasi Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan "Qo'shiq, musiqa – insoniyatning ma'naviy xazinasini" nomli xalqaro festivalda Qoraqalpoq teatrining kamer orkestri bilan vokal aktyorlari ishtirok etdi. Misr Arab Respublikasining markazi Qohira shahrida o'tkazilgan XXI asr Xalqaro teatr festivalida S.Balg'abayevning "Eng suluv kelinchak" spektakli bilan ishtirok etib, qoraqalpoq teatr san'atini jahon xalqlariga tanishtirdi. O'zbekiston Respublikasi teatrlari orasida o'tkazilgan teatr festivalida bir necha bor "Yilning eng faol teatri" nominatsiyasiga sazovor bo'ldi. Toshkent shahrida o'tkazilgan "Seni kuylaymiz, zamondosh!" nomli Respublika festivalida P.Aytmuratov "Intilganga tole yor" spektakli bilan ishtirok etib, uchinchi o'ringa munosib deb topildi.

Teatr jamoasi jamiyatlardagi iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy o'zgarishlarni his etish, zamon bilan hamnafas bo'lish, tarixni anglash, badiiy jihatdan



sermazmun, puxta spektakllar yaratish yo'lida talay ishlarni amalga oshirdi. Teatr jamoasi yillar davomida to'plangan boy tajriba, shakllangan mahorat tufayli badiiy jihatdan puxta va barkamol, sermazmun sahna asarlari bilan keng jamoatchilik e'tiborini jalb etib kelmoqda.

Bugungi kunda ushbu teatr faoliyatini milliy qadriyatlarining o'zagi bo'lgan go'zal zaminning urf-odat va an'alaridan ayro tasavvur etib bo'lmaydi. Sababi, teatr sahnasida yaratilayotgan asarlarda o'ziga xos ulug'vorlik, inson va uning qismati, or-nomusi, qadr-qimmati, muhabbati, qadimiy an'analar va ota-bobolardan meros qolgan urf-odatlar puxta, badiiy talqin etilmoqda. Bu esa Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrining hech bir ijodiy jamoaga qiyos qilib bo'lmaydigan ijro yo'nalishi va talqin uslubi mavjudligidan dalolat beradi. Teatrning bugungi kundagi repertuaridan N.Davqarayevning "Alpomish", N.Qarqabilning "Nur soyada qolmaydi", P.Aytmuratovning "Intilganga tole yor", O.Abdu-rahmonovning "O'jarlar", K.Rahmonovning "Yor diydori", S.Balg'aboyevning "Eng suluv kelinchak", P.Uteniyazovning "Farzandim, jigarbandim", P.Tilegenovning "Vijdon", A.Uteniyazovning "Qizing, or-nomusing", K.Rahmonovning "O'g'rini qaroqchi urdi", Q.Shang'itbayev va Q.Bay-seytovlarning "Jon qizlar", K.Rahmonovning "Muhabbat sehri", H.Muhammadning "Hunar o'rgangan bola" kabi turli mavzu va janrdagi keng qamrovli asarlari o'rin olgan bo'lib, ularning barchasida insoniy qadr-qimmat, or-nomus masalalari o'rta tashlanadi.

Teatr jamoasi keyingi yillarda zamonaviy va milliy tariximizning o'rganilmagan sahifalarini jonlatirishga, vatanparvarlik, milliy g'urur, e'tiqod, millatlararo do'stlik, mehr-saxovat, odob-axloq masalalarini badiiy obrazlarda yoritish, zamonaviy qahramon qiyofasini turli xarakterlarda aks ettirishga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Bu jarayondagi ijodiy izlanishlar samarasini "Alpomish", "To'maris", "Nur soyada qolmaydi" spektakllarida kuzatish mumkin. Ming yillik tarixga ega bo'lgan, xalqimizning ma'naviy boyligi hisoblangan "Alpomish" dostonini teatr sahnasida qayta sahnalashtirib yirik muvaffaqiyatlarga erishgan teatr jamoasi yana bir buyuk tarixiy siymo – To'maris obrazini sahnada jonlantirdi. Q.Zaretdinov va I.Yusupovlarning "To'maris" operasi sahnalashtirildi. Ushbu asar teatr tarixida "Ajinyoz"dan keyingi millat faxri bo'lgan ikkinchi qoraqalpoq operasi hisoblanadi.

To'maris – Massagetlar malikasi, eri Turon o'lkasi hukmdoridan erta ajralib, uning ishini davom ettirgan sadoqatli ayol. Urushda yolg'iz o'g'li Sparganisdan ajralgan yuragi qon, jabrdiyda ona. Turon elining buyuk onasi. "Urg'ochi yo'lbars"



deya nom olgan, Turon dashtidagi barcha ellarning boshini biriktirgan, Massaget bitimini tuzdirgan, qo'lida qilich tutib, yurt uchun janglarga kirgan, yovni yengib afsonaga aylangan bahodir ayol. Bugun bu yurt insonlaridagi jasorat, sadoqat To'maris kabi buyuk ajdodlarimizdan merosdir. Teatr jamoasi bundan ikki yarim ming yil ilgari, ikki daryo Oks (Amu) va Yaksart (Sir) daryolari oralig'idagi Oksiana (Orol) dengiziga yaqin o'tlovlarda yashagan massagetlar qavmining ayol podshohi To'maris obrazini zamon qahramoni qiyofasida namoyon etdi.

Jalg'asbay Sultabayev sahnalashtirgan "To'maris" tarixiy operasida bundan ikki yarim ming yillar ilgari ko'chmanchi qavmlar orasidagi, vatan ozodligi yo'lidagi janglar ko'rsatiladi. Opera uvertyrasi asar voqealari rivojiga, badiiy ta'sirchanlikni oshirishga, tomoshabin uchun tushunarli bo'lishga xizmat qiladi. Voqealar davomida hiyla yo'li bilan To'marisning o'g'lini asir olgan podshoh Kirning zo'ravonliklari, or-nomus, g'urur, vatan sha'ni yo'lida o'zini o'zi o'ldirgan Sparganis (Abat Qalliyev)ning fojiali taqdiri namoyon bo'lib boradi. Yurt onasi, qahramon, dovyurak shoh To'maris siymosi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mirzagul Sapayeva ijrosida ishonarli va ta'sirchan talqin etildi. To'maris – M.Sapayevaning o'g'lidan ajralib yig'lagan sahnada qalbi vayron onaning achchiq faryodi jo'sh uradi. Aktrisa qahramonining qalbidagi alam va iztiroblarni ariyada ochib beradi. Ayni shu sahnada aktrisaning o'tli faryodi, ariya ohanglaridagi g'amgin holatlar tomoshabinlarda dushmanga nafrat, onaga g'amxo'rlik hislarini uyg'otadi.

Voqealar davomida g'azab otiga mingan To'maris dushmandan qasos olish uchun jangga hozirlik ko'radi. Jang oldidan massagetlar bilan maslahat, yigit-qizlarning zavqli o'yini, folbinlarning yulduzlarga qarab g'alabadan so'zlashishi To'marisda ishonch va yanada qat'iyat uyg'otadi. Bu jarayonni aktrisaning sahnadagi mardonavor, shijoat bilan turishida, ko'zlarida dushmanga nisbatan





chaqnagan nafrat alangasida kuzatish mumkin. Bu holatni M.Sapayeva tomonidan kuylangan ariyalar yanada to'ldirib, To'marisning jasoratini ko'rsatib beradi. Kurashda To'maris – M.Sapayeva boshliq massagetlar dushmanlar ustidan g'alaba qozonadi. Barcha ishtirokchilarning To'marisni ulug'lab aytgan ariyasi bilan opera yakunlanadi.

Opera davomida bastakor har bir sahna voqealarining ruhiga mos musiqalarni yarata oldi. Librettolar mazmuniga munosib musiqalar nafaqat asar, balki qahramonlar xarakterining ochilishi va voqealar rivojining munosib yechim topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ishtirokchilar tomonidan aytilgan ariyalar tinglovchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Operaning muvaffaqiyatini ta'minlashda, To'marisning dovyurak va jasurligini oshirishda yosh botir, haq ko'ngil Sparganis rolini ijro etgan Abat Qalliyev, shohning maslahatgo'yi, el og'asi rolini Qoraqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan artist Dariboy Xo'jaberganov, yovuz shoh Kirni ijro etgan O'zbekiston xalq artisti Bazarbay Uzaqbergenov, Sparganisning vafodor do'sti, ot boquvchisi Farid Uzaqbergenov, To'marisning askar boshchisi Marxabay Usenov hamda porxan va askarlar Abat Ashirov, Bag'dat Abillayevlarning xizmatlari katta bo'ldi. Shu bilan birga, xor jamoasining, xormeyster A.Tolepovaning hamda ikki yarim ming yil ilgargi voqealar ruhini spektaklga olib kirishda, qahramonlarning liboslari va dekoratsiyani yaratgan rassomlar Qoraqalpog'iston san'at arbobi, Berdaq nomidagi davlat mukofoti sovrindori Barliqboy Aytmuratov, yosh rassomlar Zao'qi Saypov, Raxat Asqarovning mehnatlari samarali bo'ldi.

"Intilganga tole yor" dramasida mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, tadbirkor va fermerlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar, qishloq aholisining turmush tarzini yanada farovonlashtirish maqsadida qilinayotgan ishlar xususida so'z boradi. Spektaklda aspiranturani tugatib, qishloqni rivojlantirish, turmush tarzini yaxshilash maqsadida tadbirkorlikka bel bog'lagan, bu yo'lda boshiga turli savdolar tushgan, nohaqliklarga uchragan va bu qiyinchiliklarni tinimsiz mehnatlar evaziga yengib, baxtli kunlarni qarshi olgan Turdiboy (K.Allanazarov)ning qahramonona qiyofasi namoyon bo'ladi.

"Kelin" spektakli ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, unda xalqimizning urf-odat, fazilatlar bilan birga kattalarni hurmat qilish, ularning holidan doimiy xabar olib turish singari insoniy tuyg'ular ifoda etiladi. Shu bilan birga, qishloqlarimizda sportni rivojlantirish, yoshlarimizni sportga qiziqirish, ularni ish bilan ta'minlash, fermer xo'jaligini

rivojlantirish kabi ijtimoiy dolzarb masalalarga urg'u beriladi. Spektaklda olg'a surilgan g'oya fizkultura institutini tamomlagan yosh kelinchak Ayshaxan (S.Annaqulova)ning xatti-harakatlarida amalga oshadi. S.Annaqulova qahramonining orzu-istaklarini, qishloqni obodonlashtirish yo'lidagi harakatlarini juda chiroyli ochib beradi. Ayshaxan obrazini zamon qahramoni darajasiga olib chiqadi.

Berdag nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrining keyingi yillardagi repertuarida Qoraqalpog'iston xalq shoiri, Berdaq nomidagi davlat mukofotining laureati Kenesbay Raxmanov dramaturgiyasi yetakchilik qildi. Uning turli mavzu va janrdagi "Yarador yuraklar", "Kechikkan bahor", komediya janridagi "Kelin", "To'qqiz to'nqildoq, bir chang'ildoq", "Injiqning muhabbati", "Laqqilar shifoxonada" kabi asarlari teatr repertuarini boyitish bilan birga ijodiy jarayondagi zamonaviy tendensiyalarni belgiladi.

Teatr jamoasi Kenesbay Raxmanov dramaturgiyasiga uzoq yillardan buyon murojaat etib keladi. Uning "Narigi dunyoga taklif" asari dastlab 1976-yil rejissyor Najmiddin Ansatbayev tomonidan sahnalashtirilgan bo'lsa, pyesa 2010-yil "O'g'rini qaroqchi bosdi" nomi bilan qayta sahnalashtiriladi. Tragik-komediya janrida yozilgan mazkur asarni yosh rejissyor Marqabay Usenov 2024-yil "Jar" nomi bilan yana qayta sahnalashtirdi. Asardagi voqealarni bugungi kun bilan bog'lash va ahamiyatini oshirishdek mas'uliyatni muallifning qizi Gavhar Rahmonova o'z zimmasiga oladi. Oradan ancha yillar o'tganligi sababli, asarga ba'zi voqealarni qo'shishga to'g'ri kelgan. Voqealar shu kunlarda bo'lib o'tadi.

Boylilik ortidan quvgan ota Dubayga dam olish uchun ketgan, uyda qolgan ona esa pul uchun eriga zo'rg'a chidab yurgan jabrdiyda ko'rinishda gavdalanadi. Yolg'iz o'g'il Norpo'lat (Muhammedali Kenjeyev) ota-onasining soyasida kayf-safo qilib yurgan merosxo'r, tanti o'smir. Ularning oilasida mehr-oqibat tuyg'ulari, insoniylik sifatleri ko'tarilgani yaqqol namoyon bo'ladi.

Onasining mashinasini haydab chiqib ketgan Norpo'lat bilan baxtsiz hodisa yuz beradi. Asarning tuguni mana shu yerdan boshlanadi. Oilaviy bir tanishi Sherniyazning (Ruslan Qayipnazarov) o'z muammosiga yechim izlab turganida, Norpo'lat velosipedli qizni mashinada urib yuborib, o'zi qochib ketganini eshitgan Ulperi (M.Mambetmuratova) sarosimaga tushib qoladi. Asardagi voqealar rivojlanib borishi bilan bu oilaning boshiga shiddatli mudhish voqealar yomg'ir kabi yog'a boshlaydi.

Dastlab, Sherniyaz do'konida tekshirish tomonidan topilgan kamomadni qoplashidan umid qilib, Toshpo'latni (Daniyar Qudaynazarov)



Dubaydan chaqirtiradi. O'g'lining tashvishi ustiga yana tashvish bo'lib qo'shilgan voqea – bu yig'ilgan bir chemodan dollarni o'g'irlab ketishgani bo'ldi. Bu voqeadan militsiyaning xabar topishini istamagan uchovlon, vaziyatdan chiqish uchun jinoyat izidan yana jinoyat sodir etishadi.

Qo'shnisidan gumonsiragan Toshpo'lat va Sherniyaz Ulperini zo'rg'a ko'ndirib, qo'shnisining hovlisiga tushiradi. Ularning xayolida: pulni o'g'irlagan qo'shnisi pullarni molxonaga yashirgan. Lekin ish silliq ketmaydi, Ulperini o'g'irlikka tushgan qo'shni hovlidagi it tishlab oladi. Chigal voqealar mana shu voqeadan keyin oydinlasha boshlaydi. Norpo'lat odam urib yubormagani, uning o'zi noqobil do'stlarinnig qurboniga aylangani, bir chemodan pul ham "do'stlar" tomonidan o'g'irlangani ko'rsatiladi. Bu voqealarga chiday olmay aqlidan ozgan Ulperi uyiga o't qo'yadi va o'zi ham qurbon bo'ladi.

Asardagi voqealar shiddat bilan rivojlanib borganini ko'rishimiz mumkin. Biroq voqealar avvalida bir-biriga bog'liqlik sust kechadi. Aniqlik maqsadga xizmat qilmaydigan voqealarning ko'pligi dastlab ularning ortiqchadek tuyulganini yashirmaymiz. Ichki ishlarni surishtiruvlari orqali mudhish jinoyatlar barchasi bir chiziqqa tiziladi. Shundan so'nggina tushunarsiz ko'p voqealarga oydinlik kiritiladi.

Spektakl so'nggida final ikki marotaba berildi. Toshpo'lat militsiya xodimi oldida hamma ishlarni bosti-bosti qilish uchun unga pora taklif etib, shu vaqtgacha qilgan jinoyatlari ustiga jinoyatni yamab turganida, militsiya Toshpo'latga hali xabar topmagan voqealar tafsilotini yetkazadi. Toshpo'lat shu yerda baridan ayrilganini anglab yetadi. Shu yerda birinchi final ko'rsatilgan bo'lsa, bundan keyin yana final beriladi, ya'ni Toshpo'latning chet eldagi qizi kelib, ona qabri boshida namoyon bo'ladi.

Arastu o'zining "Poetika" asarida asar yechimi haqida shunday deydi: *"Har qanday tragediyada tugun va yechim bo'lishi zarur. Dramadan tashqaridagi barcha voqealar, shuningdek, ba'zan drama-ning ichidagi ayrim voqealar – tugun, qolganlari esa – yechimdir. Men tragediyaning boshlanishidan to*

(qahramonning) baxtsizlikdan baxtiyorlikka yoki baxtiyorlikdan baxtsizlikka tomon o'tish harakati boshlangan chegaragacha bo'lgan qismni tugun deb atayman. Ana shu o'tish boshlangan joydan (asarning) oxirigacha bo'lgan qism – yechimdir".

Sahna bezagidagi ayrim dekoratsiyalarning g'oyaga erishishdagi xizmati yakun topmagan. Prologda katta oynaning oldida bir qiz o'tirib, o'z aksini ko'rganidan so'ng cho'chib tushadi. Keyingi sahna ko'rinishlarida oynadan deyarli foydalanilmaydi. Lekin prologda katta temir to'rning turishi personajlarning qilmishlariga yarasha boradigan joyni aks ettirgan. Toshpo'latning uy interyeri sahna ustiga qurilgan sahnaga o'xshab qolgan. Chunki baland zinapoyalar aktyorlarning ijro xatti-harakatlariga noqulaylik tug'dirdi.

Aktyorlar ijrosiga to'xtaladigan bo'lsak, Toshpo'lat rolidagi Daniyar Qudaynazarovning ijrosi o'z qahramoniga mos tushmagandek, nazarimizda. Daniyarning qahramoni gapga eruvchi, bo'shang erkakdek ko'rindi. Aslida Toshpo'lat qahri qattiq, oilasiga befarq, bola tarbiyasini ayoliga butkul tashlab qo'ygan, hayotda pulni hamma narsadan ustun qo'yuvchi inson.

Xulosa o'rinda shuni aytish kerakki, qoraqalpoq teatri tarixida bir asarning uzoq yillar teatr repertuarida yashashi aslida asarning mohirlik bilan yozilganligi va mavzusi, g'oyasi zamon va makon tanlamasligida. Yangi spektaklning janri o'zgartilib, asar o'zining kompozitsion tuzilishini biroz chalkashtirib qo'ygan bo'lsa-da, mavzu va g'oyasining aniqligini, tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qola olgan. Teatr ijodkorlarining bugungi tomoshabinga aytmoqchi bo'lgan muhim gapi ham mana shular, aslida.

Yillar davomida ijodiy barkamollikka erishayotgan Qoraqalpoq teatri jamoasi bugungi kunda zamonamiz qahramonlari qiyofasini har tomonlama ochib beradigan, eng muhimi, tomoshabinga manzur bo'ladigan, dramaturgiya va rejissura jihatidan badiiy mukammal asarlar yaratishga intilmoqda. Spektakllarda teatrning ustoz san'atkorlari bilan birgalikda yosh aktyorlarning ishtiroki quvonarli holat, albatta. Bu esa teatr kelajagining nurli bo'lishidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bayandiyev T. San'at masalalari – teatrshunos nigohida. – T.: O'zDSI, 2009-y. 204-b.
2. Bayandiyev T., Ikromov H., Ahmadjonova M. O'zbek teatrida milliy g'oya talqini. – T.: O'zDSI, 2009-y. 220-b.
3. Ikromov H. Davr va teatr. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2009-y. 240-b.
4. Istiqloil va milliy teatr. – T.: "Yangi asr avlodi", 2002-y. 216-b.
5. Rahmonov M. O'zbek teatri tarixi (XVIII asrdan XX asr avvaligacha o'zbek teatr madaniyatining taraqqiyot yo'llari). – T.: "Fan", 1968-y. 428-b.
6. Rahmonov M., To'laxo'jayeva M., Muxtorov I. O'zbek Milliy akademik drama teatri tarixi. – T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003-y. 268-b.
7. To'laxo'jayeva M. Teatr tanqidchiligi. – T.: "San'at", 2015-y. 410-b.
8. Tursunov T. XX asr o'zbek teatr tarixi (1900–2007). – T.: "Art Press", 2010.





Ma'mur TO'RAYEV,
O'zDSMI xalq ijodiyoti fakulteti dekani,
dotsent

OLIM XO'JAYEV IJODI: SAHNA MAHORATI VA OBRAZ YARATISH AN'ANALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek teatri darg'asi Olim Xo'jayevning ijodiy faoliyati haqida so'z boradi. Aktyor ijrosidagi rollarga tahliliy chizgilar beriladi.

Kalit so'zlar: obraz, spektakl, talqin, teatr, aktyor, rejissyor, dramaturgiya, pyesa.

Аннотация. В статье рассматривается творчество Олима Хаджаева, мастера узбекского театра. Анализируются роли, сыгранные актером.

Ключевые слова: образ, спектакль, интерпретация, театр, актер, режиссер, драматургия, пьеса.

Annotation. The article examines the work of Olim Khojaev, a master of the Uzbek theater. The article provides analytical sketches for the roles performed by actor.

Keywords: image, performance, interpretation, theater, actor, director, dramaturgy, play.



Jahon adabiyoti darg'alari – Sofokl, Gotssi, Shekspir, Shiller, Gogol, Ostrovskiy, Gorkiy, Chexov, Tagor asarlarida betakror obrazlar yaratgan aktyor Olim Xo'jayev 1910-yilning 24-sentyabrida Buxoro shahrida dunyoga kelgan. Nutqi ravon, ovozi shirali va jarangdor, nafasi o'tkir ijodkor 1929-yil Buxoro maorif institutini tugatgach, Toshkentdagi Hamza teatriga aktyorlik lavozimiga ishga qabul qilinadi. U talabalik davridayoq institutning havaskorlik to'garagida ishtirok etib, mashhur rejissyor

Mannon Uyg'ur e'tiboriga tushgan edi. Bu e'tibor keyinchalik Nizomiy, Navoiy, Hamza, Obidiy kabi shoirlar obrazini yaratishga va elga manzur bo'lishga zamin yaratadi.

Rus tilida 1967-yilda nashr qilingan besh jilddan iborat "Teatr san'ati ensiklopediyasi"da ham Olim Xo'jayevning ulkan san'atkorlik salohiyati e'tirof qilinadi: "... xalq artisti Olim Xo'jayev san'ati lirik ohangdorligi hamda teranligi bilan betakrordir. Uning ijrosi ziyolilarga xos nozik, ifoda vositalari nafis, nutqi musiqiy, qomati va harakatlari go'zal".

1935-yil Shillerning "Qaroqchilar" tragediyasida Ferdenand obrazini talqin qilgan Olim Xo'jayev 1955-yilda qayta sahnalashtirilgan spektaklda Karl Moor obrazini ham gavdalandiradi. Bir spektaklda ikki xil rol ni ijro etish aktyorning taqdiriga bitilgan ekan. Uch marta qayta sahnalashtirilgan "Hamza" nomli spektaklda bosh qahramon obrazini tobora takomillashtirib borish ham faqat Olim Xo'jayevning aktyorlik faoliyatida kuzatiladi. Bunday ijodiy jarayonni 1942, 1949, 1960-yillarda sahnalashtirilgan spektakllarda ham ko'ramiz.

"Alisher Navoiy" spektakli o'zbek teatr san'atida va Olim Xo'jayev ijodida alohida ahamiyatga ega. 1945-yilda sahnalashtirilib, to 1948-yilga qadar takror-takror muhokama qilingan spektaklda Abror Hidoyatovga dublyor qilib tayinlangan aktyor Mannon Uyg'ur va Nazira Aliyevalarning sahna nutqi borasida qo'ygan talablarini bajarib, adabiy til me'yorlarini yanada mukammal o'zlashtirdi. Navoiyning: "Tilga e'tibor



– elga e'tibor", degan hikmatli so'zi spektaklning va o'zbek teatr san'atining shioriga aylandi. Aktyor Navoiyning insoniy, ijtimoiy va ijodiy fazilatlarini shoirlik tabiati orqali ochib bera oldi. Olim Xo'jayev bu rolni yigirma besh yil davomida ijro etib keldi. Bunday davomiylik ham kamdan-kam aktyorlarga nasib qiladigan ijodiy yutuqdir.

Salbiy obrazlar yaratishda Olim Xo'jayev o'ziga xos uslubga ega edi. "Otello" spektaklidagi Yagoning mansabparastligi, "Sepsiz qiz"dagi Paratovning takabburligi, "Yuliy Sezar" tragediyasidagi Sezarning shuhratparastligi reallikka ega salbiy obrazlarning xususiyatlaridir. Aktyor bu personajlarning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqib, ularning tubanliklarini yorqin ifodalay oldi. Shuningdek, o'zbek dramaturglarining shu ruhdagi personajlariga tomoshabinlarda nafrat uyg'otuvchi qudratga ega ijodkorga aylandi.

Milliy ruhdagi qahramonlar orasida "Imon" spektaklidagi professor Komilov obrazi alohida tahsinga loyiq. Ziyolilar oilasidagi namunali turmush tarzi, ilmda halollik masalasi spektaklning asosiy g'oyasi edi. Bu g'oyani Olim Xo'jayev takrorlanmas darajada, yuqori badiiy saviyada ifodalay oldi. Mutaxassislar ta'kidlagan zukkolik, mutafakkirlik, aktyor yaratgan Komilov obrazida aniq namoyon bo'ladi.

Aktyor "Alisher Navoiy" spektakli ijrosi uchun 1949-yil ittifoq darajasidagi Davlat mukofotiga, "Qirol Lir"dagi Lir obrazi uchun 1967-yil O'zbekiston Davlat mukofotiga, Salvatore va Kreont obrazlari uchun 1977-yil ikkinchi bor ittifoq darajasidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Olim Xo'jayevning obraz yaratish va nutq

uslubini, so'z ustida ishlash jarayoni professorlar Nazira Aliyeva va Lola Xo'jayevalar tomonidan teatr san'ati institutining aktyorlik mahorati va sahna nutqi fanlarini o'qitishda amaliyotga tatbiq qilingan. Ular akademik teatrdagi yaratilgan adabiy til talaffuzi me'yorlarini, o'zbek tilining amaliyotdagi musiqiylik va go'zalligini Olim Xo'jayev ijrosi timsolida isbotlab, sahna nutqi fanining umumiy talabiga aylantirdilar.

Ijodkorning rejissyorlik faoliyati alohida tadqiqot mavzusidir. Teatr san'ati ensiklopediyasida Olim Xo'jayev haqida 1951-yilda Moskva GITISining rejissyorlik kursini tugatdi, deb yozilgan. Olim Xo'jayev rejissyor sifatida "May to'kildi", "Yurak sirlari", "Boy ila xizmatchi", "Tarix tilga kirdi" spektakllarini sahnalashtirgan. O'zbek mualliflarining mashhur asarlarini chet el sahnalarida sahnalashtirish kamdan kam rejissyorlarga nasib qiladigan jarayon. Olim Xo'jayev rejissurasida bunga ham misol bor: u "Boy ila xizmatchi" dramasi Bolgariyaning Xaskovo shahri teatrida sahnalashtirdi.

Ustoz san'atkor jamoat arbobi sifatida ham namunali ishlarni amalga oshirgan. 1955–1977-yillarda O'zbekiston teatr jamiyatining raisi sifatida faoliyat olib borgan. U Teatr san'ati instituti talabalari va pedagoglari amaliyotini Moskva va Peterburg shahrida o'tashni tashkil qildi. Poytaxt va viloyat teatrlari rejissyorlarini markazdagi mashhur dargohlarda malaka oshirishlarini yo'lga qo'ydi. Yosh ijodkorlarning Moskvada oliy rejissyorlik kursida o'qishlarini tizimga soldi. Buyuk aktyor 1977-yilning 14-fevralida oltmish yetti yoshida vafot etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Stanislavskiy K.S. San'atdagi hayotim – T.: "Badiiy adabiyot", 1965-y.
2. Umarov M. Mannon Uyg'ur estetikasi. – T.: "Musiqqa", 2007-y.
3. Товстоногов Г.А. Зеркало сцены. – Л.: «Искусство», 1980-y.
4. Rahmonov M. Hamza va o'zbek teatri. – T.: "Badiiy adabiyot", 1959-y.
5. Shokirov O., Abduqunduzov M. Milliy teatrimiz namoyandalari (Uslubiy qo'llanma). – T.: "Islom universiteti", 2002-y.





Шохрат АМАНМУРАДОВ,
доцент кафедры “Звукорежиссура и операторское мастерство” ГИИКУз

МУЗЫКА КАК СРЕДСТВО ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ВЫРАЗИТЕЛЬНОСТИ В ФИЛЬМЕ “МИНУВШИЕ ДНИ”

Аннотация. Данная статья посвящена особенностям музыкального решения фильма «Минувшие дни» (1969). В ней анализируется взаимодействие авторской и традиционной узбекской музыки, её роль в передаче эмоционального состояния героев, исторической достоверности и национального колорита фильма.

Ключевые слова: фильм, музыкальное оформление, авторская музыка, традиционная музыка, национальный стиль, звуковой монтаж.

Annotatsiya. Ushbu maqolada “O’tkan kunlar” (1969) filmining musiqiy yechimi haqida so’z ketadi. Unda mualliflik va an’anaviy o’zbek musiqasining o’zaro uyg’unligi, qahramonlarning hissiy holatini yetkazish, tarixiy haqqoniylik va filmning milliy ruhini aks ettirishdagi o’rni tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: film, musiqiy bezak, mualliflik musiqasi, an’anaviy musiqa, milliy uslub, ovozli montaj.

Annotation. This article is dedicated to the musical features of the film “Bygone days” (1969). It analyze the interaction between original and traditional Uzbek music, their role in conveying the emotional state of the characters, the historical authenticity, and the film’s national identity.

Keywords: film, musical arrangement, original music, traditional music, national style, sound editing.

Вторая половина 1960-х годов стала особым временем для узбекского кинематографа. В этот период на экраны выходили фильмы, которые не только затрагивали важные социальные и исторические темы, но и передавали дух национальной культуры. Несмотря на влияние мировых кинотрадиций, узбекское кино сохраняло свою самобытность, и это особенно ярко проявлялось в музыкальном оформлении. По мнению киноведа Н.Каримовой: «Этот период вошел в историю развития узбекского кино под названием «поэтической волны». Данная эпоха оказалась столь плодотворной, что в том или другом виде ее отголоски находят свое отражение в творческих поисках режиссеров всех последующих периодов» [4, с 139].

В 1969 году был создан художественный фильм «Минувшие дни» режиссера Юлдаша Аъзамова, который представляет жанр экранизации литературного произведения. В его основе исторический роман известного узбекского писателя Абдуллы Кадыри «Уткан кунлар» («Минувшие дни»).

Автор сценария С.Мухамедов, операторы М.Краснянский, А.Мукаррамов, художник В.Синиченко. Музыка к фильму написал компо-

зитор М.Левиев, звукорежиссер – Г.Сенчило. В ролях: У.Алиходжаев, Г.Джамилова, А.Бакиров, М.Якубова, Х.Умаров, Р.Хамраев, Д.Хамраев, Х.Нариманов, Я.Ахмедов.

«Минувшие дни» является первым реалистическим романом в узбекской литературе. Роман А.Кадыри, с его ярко очерченными образами героев и колоритными картинами национальной жизни, проблемами того времени, предоставлял создателям фильма большой и интересный материал для воссоздания исторической картины Туркестана середины XIX века. Действие фильма происходит в Ташкенте и Маргилане. В фильме раскрывается величественная любовь Атабека и девушки из Маргилана Кумуш, ставшей его женой и погибшей в результате коварной интриги. В раскрытии этой темы важное место отводится музыке.

Музыка к фильму стала не просто фоновым сопровождением, а важным художественным инструментом. В фильме «Минувшие дни» музыка представлена в двух основных «версиях» – авторская музыка, сочиненная композитором М.Левиевым, и традиционная узбекская музыка. Такое сочетание в музыке способствовало раскрытию характеров героев,



передаче атмосферы и усилению эмоционального воздействия. Композиторская музыка М.Левиева, выдержанная в национальном стиле, отличается ярким колоритом, что способствует созданию целостного стилистического единства.

В то же время традиционная музыка точно следует сюжету фильма, оставаясь верной условиям своего бытования и исторической реальности. Кроме этого, традиционная музыка соответствует и своим локальным особенностям – Фергано-ташкентскому ареалу, где разворачиваются все события, изложенные в романе А.Кадыри и отраженные в фильме.

Уже в самом начале фильма, на фоне появляющихся титров, звучит национальная музыка в исполнении оркестра. Затем следует сцена свадьбы главных героев – Атабека и Кумуш, где в кадре выступает традиционный фольклорный ансамбль «карнай-сурнай», включающий три карная, два сурная и нагору. Далее показано выступление певца в сопровождении ансамбля, состоящего из танбура, дутара и других инструментов, что характерно для ферганской манеры исполнения.

Продолжая музыкальную линию, фильм демонстрирует сцену веселья подружек невесты – девушек, исполняющих традиционную свадебную песню «Ёр-ёр». Эта мелодия широко распространена в Ферганской долине, включая Маргилан. Таким образом, музыкально-этнографический пласт играет значимую роль, органично вплетаясь в повествование и точно отражая локальные (ферганские) культурные традиции.

К таким же точным музыкальным и музыкально-историческим деталям можно отнести: ритм, выбиваемый на большом барабане

во время казни Атабека и его тестя (показанный в кадре); звуки дойры, создающие характерный ритмический рисунок (усул) в ночное время (закадровое звучание); а также выступление ансамбля «карнай-сурнай» во время представления акробатов в Ташкенте и другие эпизоды.

Особого внимания в фильме заслуживает эпизод, где Атабек посещает чайхану, пытаясь забыться от охватившего его горя, обращаясь к вину и музыке. Этот момент выделяется и в романе Кадыри, поскольку именно здесь раскрывается особое отношение героя к музыке, а также содержатся глубокие размышления о ее сущности. Классическая узбекская музыка, звучащая в кадре, точно передает внутреннее состояние Атабека, отражая его переживания и мечты о возлюбленной.

Чтобы передать устойчивую характеристику героя, его эмоциональное состояние и сопутствующие переживания, композитор создал выразительную мелодию – своеобразный вокализ, исполняемый женским голосом без слов. Эта мелодия, выдержанная в традициях национального классического пения, служит лейттемой. Она не только раскрывает внутренний мир героя, но и значительно усиливает драматургическое напряжение во всех эпизодах фильма.

Ее появление сопровождается ключевые моменты драматургии фильма: доставку пленных Атабека и его тестя на арбе, встречу Атабека и Кумуш, его отъезд из Маргилана в Ташкент. В финальной сцене, когда Атабек прощается с умершей Кумуш, этот одинокий женский голос приобретает особый символический смысл, выражая трагический исход чистой любви, разрушенной непреодолимыми обстоятельствами.



Еще одним важным лейтмотивом является инструментальная мелодия выразительно печального характера, исполняемая соло на гобое. Его тембр имитирует звучание национального инструмента сурнай, создавая глубокий эмоциональный эффект. В отдельных случаях мелодия дополняется другими инструментами, усиливая образ скорби и обреченности. Особенно ярко этот мотив звучит в сцене встречи Атабека и Кумуш после ее приезда в Ташкент, незадолго до трагических событий. Здесь солирующий гобой звучит на фоне мягкого аккомпанемента арфы, что придает эпизоду особую эмоциональную выразительность.

В фильме можно отметить несколько удачных музыкальных характеристик, усиливающих драматургию и атмосферу событий. Так, массовая сцена разбоя и ограбления простого населения Ташкента сопровождается траурным хоровым пением, создавая эффект глубокой трагичности. Выразительно звучит сольная партия национального инструмента гиджак в эпизоде изгнания Атабека из дома его невесты, а также во время его отъезда из Маргилана в Ташкент.

В фильме органично использованы звуки природы. Пение птиц сопровождает путешествие Атабека из Ташкента в Маргилан и

обратно, передавая атмосферу предгорных районов с их богатой зеленью. Особое значение имеют звуки горлинок во дворе родительского дома Атабека (ховли), создавая образ традиционного уклада жизни состоятельной семьи, наполненного умиротворением и иллюзорным благополучием.

Музыкальное оформление фильма «Минувшие дни» отражает лучшие традиции узбекского кинематографа, сложившиеся к тому времени. Одним из важнейших принципов является точное следование исторической реальности, а также глубокая эмоциональная связь музыки с переживаниями героев. Включенные музыкальные фрагменты органично соответствуют национальным представлениям о художественно-эстетическом и функциональном значении музыки. В фильме ощущается бережное и продуманное отношение композитора к созданной им авторской музыке, стремление достичь гармонию между национальными традициями и драматургическим замыслом режиссера. Музыкальное и шумовое оформление этой картины относится к лучшим достижениям узбекского кинематографа того времени и служит образцом целостного и глубокого подхода к звуковому оформлению в кино.

Использованная литература:

1. Абулкасымова Х., Тешабаев Д., Мирзамухамедова М. Кино Узбекистана. – Т.: Издательство литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1985 г. 286 с.
2. Абулкасымова Х. Основы киноискусства. – Т.: 2007 г. 120 с.
3. Аннотированный каталог художественного кино Узбекистана (1925–2008). [Коллектив авторов]. Ответственный редактор Хайтматова С.А. – Т.: Издательство журнала «San'at», 2009 г. 242 с.
4. Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. – Т.: Издательство журнала «Санъат», 2016 г. 216 с.
5. Янов–Яновская Н.С. Музыка узбекского кино. – Т.: Издательство «Фан» Узбекской ССР, 1969 г. 174 с.



ИСКУССТВО ДУБЛЯЖА В УЗБЕКСКОМ КИНЕМАТОГРАФЕ: СОХРАНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО КОЛОРИТА (1970–1980-е ГОДЫ)



Аннотация. В статье исследуется развитие искусства дубляжа в узбекском кинематографе 1970–1980-х годов. Рассматриваются ключевые аспекты сохранения культурного и языкового колорита в переводе фильмов, а также роль дубляжа в укреплении национальной идентичности и популяризации узбекской культуры. Особое внимание уделяется задачам передачи эмоциональной глубины, философского содержания и культурной атмосферы оригинальных произведений.

Ключевые слова: узбекский кинематограф, дубляж, национальный колорит, культура, искусство перевода, языковая идентичность, фольклор.

Annotatsiya. Maqolada 1970–1980-yillarda o'zbek kinematografiyasida dublyaj san'atining rivojlanish jarayoni o'rganiladi. Filmlarni tarjima qilishda adabiy til rang-barangligini saqlashning asosiy jihatlari, shuningdek, dublyajning milliy o'ziga xosligini mustahkamlash va o'zbek madaniyatini ommalashtirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Asarlarning hissiy teranligi, falsafiy mazmuni va madaniy muhitini yetkazish vazifalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek kinematografiyasi, dublyaj, milliy kolorit, madaniyat, tarjima san'ati, til o'ziga xosligi, folklor.

Annotation. This article explores the development of the art of dubbing in Uzbek cinema during the 1970s–1980s. It examines key aspects of preserving cultural and linguistic identity in film translation, as well as the role of dubbing in strengthening national identity and popularizing Uzbek culture. Particular attention is paid to the challenges of conveying emotional depth, philosophical content, and the cultural atmosphere of original works.

Keywords: uzbek cinema, dubbing, national identity, culture, translation art, linguistic identity, folklore.

1970–1980-е годы стали одним из ключевых периодов в истории узбекского кинематографа. Это время ознаменовалось бурным развитием киноиндустрии, которая переживала этап профессионального роста, творческих экспериментов и расширения аудитории. Фильмы, созданные в этот период, не только нашли отклик в сердцах узбекских зрителей, но и обрели широкую популярность на всесоюзной арене. Они стали важным инструментом культурной дипломатии, демонстрируя богатство узбекских традиций, языка и искусства.

Ключевую роль в этом успехе сыграло искусство дубляжа. Оно позволило преодолеть языковые барьеры, сделав фильмы доступными для зрителей разных уголков страны, говорящих на различных языках и за

её пределами. Качественный дубляж обеспечивал сохранение аутентичности диалогов, передачу эмоциональной глубины персонажей и точную интерпретацию национального колорита. Это особенно важно для узбекского кино, которое всегда отличалось поэтичностью, яркими персонажами и насыщенной культурной символикой. Среди ярких представителей этого направления можно отметить таких мастеров, как Наби Рахимов, Гани Агзамов, Хамза Умаров, Омон Абдураззаков, Мукамбар Рахимов, Валентина Гозиева, Арсен Исмаилов, Ойбарчин Бакирова, Суръат Пулатов и остальные.

Дубляж в этот период стал не просто техническим процессом, а настоящим искусством, требующим от актеров, режиссеров и звукорежиссеров тонкого подхода к каждому проекту.





Внедрение новых технологий звукозаписи, развитие школ актеров дубляжа и расширение сотрудничества с союзными киностудиями способствовали повышению качества работы. Кроме того, искусство дубляжа стало важным фактором в сохранении и популяризации узбекского языка. В условиях, когда русский язык доминировал в культурной и медийной среде, дубляж на узбекском языке позволял сохранить языковую идентичность, а перевод на русский – доносить уникальные аспекты узбекской культуры до широкой аудитории.

В данной статье акцентируется внимание на основных тенденциях развития дубляжа узбекских фильмов 1970–1980-х годов. Рассматривается его влияние на формирование положительного имиджа узбекского кинематографа, а также роль в укреплении культурных связей и сохранении национальной идентичности. Одной из главных задач, стоявших перед дубляжом узбекских фильмов в 1970–1980-е годы, было сохранение культурного и языкового колорита, который является неотъемлемой частью национальной идентичности. В этот период узбекский кинематограф активно стремился передать свою уникальность и самобытность, и дубляж играл важнейшую роль в достижении этой цели. Для успешного переноса эмоционального и культурного контекста, актерам дубляжа требовалось учитывать не только содержание диалогов, но и интонацию, манеру речи, а также особенности народной речи, которые присутствуют в оригинале. Узбекский язык богат на выразительные средства, такие как идиоматические выражения, народные фразы, которые несут глубокий смысл и отражают особенности местного колорита.

Профессиональные актеры дубляжа умели передавать эти особенности, подбирая точные и звучные эквиваленты на русском языке, при этом сохраняя уникальность персонажей и их характеры. Применение диалектов и особых речевых оборотов, характерных для узбекского языка, становилось важным моментом в создании правдоподобных и живых персонажей. Несмотря на необходимость перевода, дубляж стремился сохранить те элементы, которые позволяли зрителю почувствовать атмосферу узбекской реальности. Например, диалоги, в которых часто использовались народные выражения и пословицы, были переведены таким образом, чтобы сохранить их философскую глубину и эмоцио-

нальный окрас. Для того чтобы зритель, особенно не знакомый с узбекской культурой, мог понять весь спектр эмоций, стоящих за каждым диалогом, переводчики и актеры дубляжа должны были также учитывать контекст каждого высказывания. В узбекском кино зачастую присутствуют культурные и исторические аллюзии, местные обычаи, социальные нормы, которые могут быть не сразу понятны без должного объяснения. Поэтому дубляж часто включал дополнительные элементы — такие как пояснения через интонацию, акценты, а иногда и адаптацию фраз, что позволило сохранить культурное послание без потери смысла.

Дубляж также способствовал популяризации узбекских традиций через экран. Например, традиционные узбекские праздники, обычаи, фольклорные элементы, такие как свадьбы или другие важные события, становились частью сюжета, и важно было сохранить их атмосферу при переводе. Музыка и поэзия всегда играли особую роль в узбекском кинематографе, и их сохранение в дубляже также становилось важной задачей. Часто в фильмах использовались узбекские народные мелодии, песнопения, традиционные инструменты — такие элементы требовали особого подхода при адаптации. Например, при переводе песен на русский язык, важно было не только перевести слова, но и передать музыкальный ритм, который подчеркивал атмосферу сцены.

Многие фильмы 50–80-х годов, такие как **«Ташкент – город хлебный»** или **«Очарован тобой»**, **«Озорник»** использовали узбекские народные песни и стихи. Эти произведения были частью культурной идентичности, и задача дубляжа заключалась не только в переводе слов, но и в передаче духа узбекской поэзии, который невозможно было бы заменить простым текстом.

Примеры сохранения национального колорита в фильмах: Фильмы, такие как **«Белое солнце пустыни»** (1970), имели большой успех, благодаря продуманному дубляжу, который смог передать особенности узбекского колорита в контексте общения на русском языке. Несмотря на то, что этот фильм был снят с участием не только узбекских, но и российских кинематографистов, дубляж помог глубже раскрыть характеры героев и акценты, которые были важны для сюжета и взаимодействия персонажей. Еще одним примером является фильм **«Огнен-**





ные дороги» (1977), в котором были использованы узбекские фольклорные элементы и национальные обычаи. Для сохранения атмосферности и достоверности дубляж был выполнен таким образом, чтобы зрители могли почувствовать тот же дух времени и место действия, не теряя связи с культурными аспектами.

Сохранение национального колорита в дубляже узбекских фильмов 70–80-х годов было важным аспектом культурной политики того времени. Это не только помогло зрителям понять и полюбить фильмы, но и стало важным элементом культурной дипломатии, способствующим популяризации узбекской культуры в разных национальных и языковых группах, как внутри страны, так и за её пределами. Тщательная работа актеров дубляжа, их способность передать уникальность и богатство языка сделали узбекский кинематограф значимой частью советской кинематографии, а также важным элементом в культурном обмене между различными народами.

Кроме того, искусство дубляжа сыграло важную роль в сохранении узбекского языка и традиций в условиях доминирования русского языка в культурной и медийной среде. Перевод на узбекский язык позволял создавать условия для укрепления национальной идентичности, а качественный перевод на русский язык открывал доступ к уникальным аспектам узбекской культуры для широкой аудитории.

Современные технологии и подходы к дубляжу, разработанные в этот период, заложили основы для дальнейшего развития узбекского кинематографа. Они позволили усилить восприятие национального наследия через кино и способствовали формированию позитивного имиджа Узбекистана на международной арене. Таким образом, дубляж стал не только техническим процессом, но и важным культурным явлением, которое объединило в себе художественное мастерство, языковую точность и глубокое уважение к национальным ценностям. Его вклад в развитие кинематографа и культурных связей продолжает оставаться актуальным и сегодня.

Использованная литература:

1. Mirsaidova D. I. Features and originality of the development of the art of dubbing in uzbek cinema //Oriental Art and Culture. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 575-580.
2. Fayziyeva F. H. The Role of Television in the Uzbek Culture //JournalNX. – Т. 6. – №. 06. – С. 698-702.
3. Mirsaidova D. I. Ovoz rejissorligida dublyaj va ovozlashtirish san'atining rivojlanish istiqbollari //Oriental Art and Culture. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 613-618.
4. Akbarjon M. Zamonaviy ovoz rejissorligining rivojlanishida san'at turlarining o'rni va ahamiyati // Universal journal of academic and multidisciplinary research. – 2023. – Т. 1. – №. 2. – С. 41-50.





II BO'LIM

MUSIQA SAN'ATI

Guzalxon ISAKOVA,

O'zDSMI filologiya fanlari doktori, dotsent

QADIMGI YUNON MUSIQA SAN'ATI

Annotatsiya. Maqolada qadimgi yunon musiqasining paydo bo'lishi, rivojlanishi va ommalashuvi borasida so'z yuritiladi. Qadimgi yunon musiqa san'ati janrlari, cholg'u asboblari va mashhur musiqachilar ijodi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: antik davr, yunon musiqasi, musiqa janrlari, musiqa asboblari, afsonalar, epik poemalar, aedlar, Pifiya.

Аннотация. В статье речь идет о возникновении, развитии и популяризации древнегреческой музыки. Также анализируются жанры древнегреческой музыки, музыкальные инструменты и творчество известных музыкантов.

Ключевые слова: античность, греческая музыка, музыкальные жанры, музыкальные инструменты, легенды, эпические поэмы, аэды, Пифия.

Annotation. The article talks about the emergence, development and popularization of ancient Greek music. Genres of ancient Greek music, musical instruments, and the works of famous musicians are extensively analyzed.

Keywords: antiquity, Greek music, musical genres, musical instruments, legends, epic poems, Aedes, Pythia.

Musiqa – inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovushlar vositasida aks ettiruvchi san'at turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy-badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonga xos bo'lgan turli holatlarni: ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-xatar va boshqalarni o'zida mujassamlashtirgan. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatlari: qat'iyatlilik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va uning tabiatini ham yorqin aks ettiradi. Musiqaning ushbu ifodaviy-tasviriy imkoniyatlari yunon olimlari – Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari – Farobiy, Ibn Sino, Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur, Kavkabi, tasavvuf arboblari – Imom G'azzoliy, Kalobodiy Buxoriylar tomonidan yuqori baholangan, sharhlangan va ilmiy tadqiq qilingan. Musiqa asarlari mazmunida musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga

ko'ra, musiqa mazmuni ham turlicha – epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'ladi.

Musiqaning mazmuni – shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma'naviy-ma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko'pgina jabhalari bilan mushtarakdir. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir.

Ma'lumki, musiqa san'atining qadimgi antik davrlardagi gullash davri miloddan avvalgi V–IV asrlarga to'g'ri keladi. Buni qadimgi yunon musiqa madaniyati misolida ko'rish mumkin. Qadimgi yunon musiqa madaniyati haqidagi tasavvurlar arxeologik qazilmalardan topilgan buyumlar, qadimgi yozma manbalar, adabiyot



yodgorliklari va maxsus musiqiy parchalar tahlilida shakllandi.

Qadimgi yunon musiqasining xalq qo'shig'i janrlari haqida ma'lumotlar hozirda ham mavjud. Xususan, **“georgiki”** – dehqon qo'shiqlari, **“epitalama”** va **“gimeney”** – to'y qo'shiqlari, **“trena”** – yig'i qo'shiqlari, **“embateriy”** – safar qo'shiqlari, **“skolii”** – davra qo'shiqlari va yana bir qancha qo'shiq turlari yunonlarning amaliy hayotidan keng o'rin olgan. Bu esa, o'z o'rnida yunonlar davrida folklor musiqasi ma'lum darajada rivojlanganining belgisidir.

Georgiki – qishloq xo'jaligi haqidagi dehqon qo'shiqlaridir. Ushbu tushuncha dalada va bog'da ishlash, shuningdek, uzumzor va sabzavot bog'larida tinch mehnat va sokin uy hayotini o'z ichiga oladi. Dehqonlar uchun qorong'i va yorug' kunlarni bilish juda muhim sanalgan, shuning uchun, georgikilar taqvim belgilarini hamda omadli va omadsiz kunlar haqidagi ertaklarni ham o'z ichiga oladi. Antik davrdagi Gesiodning yunon tilida yozilgan “Mehnat va kunlar” asari ma'lum. Rim davrida, Gesiodga taqlidan, Vergiliy o'zining georgikasini yozgan edi. Qadimgi Xitoyda ham samoviy jazoga duch kelmaslik uchun bir narsani qila oladigan va boshqasini qila olmaydigan kunlarni belgilab ko'rsatgan kitoblar keng tarqalgan. Shuningdek, zamonaviy kalendarlarda ham xalqona belgilar va bashoratlar bo'limi mavjud.

Epitalama – yunonlarda va keyinroq rimliklar orasida kelinning oldida yoki yangi turmush qurgan o'g'il va qizning yotoqxonasida, ularni qutlash maqsadida kuylangan to'y qo'shig'i.

Gimeney – epitalamaning bir turi bo'lib, kelinni kuyovning uyiga kuzatib boradigan vaqtda aytiladigan qo'shiq, yunon mifologiyasi bo'yicha nikoh ma'budi Gimeneygacha qiruv sifatida kuylangan.

Trena – yig'i qo'shiqlari, asosan dafn marosimlarida kuylangan.

Embateriy – anapest ritmida yozilgan safar qo'shiqlari, shuningdek, spartaliklar uchun safar musiqasi hisoblangan va u naylarda baland ijro etilgan.

Skolii – davralarda kuylanadigan qo'shiqlarning alohida turi. Bu nom “qiyshiq, qiyshaygan, egilgan” sifatidan olingan. Qadimdagi ziyofatlarda odatdagi qo'shiqlar xorda va birin-ketin aylana holatda aytilgandan so'ng, hozir bo'lgan ba'zi mehmonlar kichik qo'shiqni improvizatsiya qilish uchun taklif qilinadi. Keyin ular qo'shiq kuylayotganda qo'llarida ushlab turgan lira yoki dafna novdasini stol bo'ylab bir-birlariga o'tkazishadi va ular stol atrofida noto'g'ri

tartibda namoyon bo'ladi, shuningdek, ohangda ana shunday improvizatsiya qilingan misralar bilan olingan erkinliklardan kelib chiqqan ekan. Skoliining mazmuni ko'pincha oddiy ta'limotlardan iborat bo'lgan, lekin ba'zan u jiddiy yoki quvnoq xarakterga ega bo'lib, hazilkash gaplar, ma'budlarga murojaatlar va boshqalarni o'z ichiga olgan. Skoliining badiiy shaklini birinchi bo'lib eol qo'shiqchilari taqdim etgan, chunki ularning she'riyati bu turga juda yaqin turadi. Ushbu janr bo'yicha Alkey, Sapfo, Anakreont va Praksillalar eng yaxshi yozuvchilar hisoblanadi. Pindar skoliini xor shaklida yaratgan.

Qadimgi yunon musiqasida ma'budlar sharafiga bag'ishlangan qo'shiqlar alohida o'rinni egallaydi. Masalan, **“peana”** va **“noma”** – yorug'lik, san'at, she'r va musiqa ma'budi, ulug' kohin, buyuk yoyondoz Apallon sharafiga, **“parfenii”** va **“yupingi”** – qamar ma'budasi, o'rmonlar va o'rmonlarda yashovchi jonivorlar malikasi, charchashni bilmaydigan ajoyib sayyoda Artemidaga, **“difiramb”**, **“iobaxs”** va **“fallik”** – uzumchilik va vinochilik ma'budi Dionis sharafiga, **“iula”** – hosilot ma'budasi Dimetrage, **“metroa”** – o'rmonlar va hayvonlar ma'budi Kibelaga va yana bir qator ma'bud va ma'budalar sharafiga ijro etilgan qo'shiqlar mavjud bo'lgan. Eng qadimgi qurbonlik marosimi **“spondey”** – sinkretik janr bo'lib, asosan musiqa va raqs harakatidan tarkib topgan.

Ilk bor musiqani yaratgan va ijro etgan san'atkorlar – “aed” deb nomlanib, u bir vaqtning o'zida shoir, bastakor, qo'shiqchi va jo'rnavoz (torli asbob jo'rligida) vazifasini ham bajargan. Mashhur musiqachilar ijodi qadimgi yunon afsonalarida (Olimp, Orfey, Famirid, Marsiy) va epik poemalarda, masalan, Gomerning “Odissey” poemasi, Demodok va Femi asarlarida tilga olinadi.

Qadimgi yunon musiqasining arxaik davri (mil. avv. VII–VI asrlar) Terpandr, Arxilox, Arion, Tirtey, Alkman, Stesixor, Sapfo, Alkey, Anakreont, Mimnerm, Ivika, Pindara, Vaxxilid kabi mashhur ismlar bilan bog'liq. Yangi shakl topayotgan davrda turli xil janrlar rivoj topdi: avlodik va kifarodik nomlar (kifara va avlos jo'rligidagi qo'shiqlar), avletik va kifaristik nomlar (avlos va kifara yakkasoz cholg'u uchun pyesalar), elegiya, giporxema (raqs harakati bilan bezatilgan qo'shiq), epinikiya va hokazolar.

Qadimgi yunon musiqasining klassik davri (mil. avv. V–IV asrlar) tragediya va komediya janrlari rivojining yetuk pallasi hisoblanadi. Bizgacha qadimgi Yunoniston musiqa san'ati haqida musiqiy namunalar kam yetib kelgan bo'lsa-da,





ular haqidagi ma'lumotlar Gomer poemalari, qadimgi haykallar, saroy anjom va idishlari, maqbara devorlarida bitilgan suratlarida saqlanib qolgan. Shuningdek, yunon xalqi juda mohir raqqoslar bo'lib, ko'pincha o'zlarini jozibali raqs harakatlarini puflama cholg'usi – avlos jo'rligida ijro etishgan. Ularning sehrli va maftunkor ovozlari tarannum etilgan qo'shiqlar, torli cholg'ular – lira va kifara tovush sadolari bilan bezalgan.

Tantanali aytim va rivoyatlarni kuylovchi professional va mohir xonandalar – aedlar xalq orasida katta hurmat va ehtiromga sazovor bo'lishgan. Agar jismoniy kuch va iroda Olimpiya yig'inlarida namoyish etilgan bo'lsa, xonanda va sozandalar, shoirlar uchun alohida musobaqa – Pifiya yig'inlarida tashkil qilingan. Ko'p san'at ahli Pifiya o'yinlarida ishtirok etib, Olimpiya sport ustalari kabi musobaqada g'oliblikni qo'lga kiritsagina, g'oliblik nishoni – lavr gulchambari bilan mukofotlangan.

Antik madaniyatning eng yuksak yutuqlaridan biri o'z ichida drama va she'riyat, musiqa va raqsni mujassam etgan qadimgi tragediyalar bo'ladi. Ayniqsa, Esxil, Sofokl, Yevripid qalamiga mansub tragediyalar nihoyatda mashhur bo'lgan. Bugungi kunda ularsiz jahon hamda Yevropa drama va musiqa teatrlari rivojini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ushbu davrda musiqa tilida burilish yasagan xor lirikasi yunon adabiyotining vakillari va dramaturglari – Timofey, Friniya, Kreks, Melanippida ijodiy izlanishlarida ro'y berdi. Qadimgi yunon musiqasi aynan Ellinizm davrida keng miqyosda O'rta Yer dengizi bo'ylariga tarqaldi.

Qadimgi yunon musiqasida harfiy notalashtirish uslubi qo'llanilgan. Yunon musiqasi bir ovozli turida rivojlangan bo'lsa-da, ashula yoki cholg'u jo'rligini ijro etish evaziga garmonik intervallar hosil bo'lgan.

Qadimgi yunon musiqasi amaliyotida turli xil cholg'u asboblari keng qo'llab kelinganligi ma'lum: torli guruh – lira, kifara, forminga, kinir, barbiton, lirofeniks, sambika, spadiks, psalteriy,

magadis, pektida, epigoni, nabl; damli guruh – avlos turli xillari (bombiks, borim, kalam, ginge, niglar, elim), siringlar (bir-ikki va ko'p trubali) va truba (salpinga, keras); urma guruh - timpan, sistr, kimval, krotal, psifir, roptr. Aleksandriyalik mexanik Ktesibiy (mil.av. III–II asrlar) birinchi suvli organ – gidravlos asbobini kashf etgan.

Qadimgi Yunonistonda, shuningdek, musiqiy nazariya va musiqiy estetika sohalari mukammal darajada rivoj topdi. Pifagor va pifagorchilar maktabi musiqaning bir qator akustik qonuniyatlarini ilmiy darajada izohlab berdilar. Aristoksen ilmiy izlanishlarida interval va tovush qatorni empirik-eshitish hissiyotini o'rganib chiqqan. Musiqa nazariyasi ilmidagi keyingi tadqiqotlarni – Nikomax, Klavdiy Ptolemey (mil.av. I–II asrlar), Aristid Kvintilian, Porfiriy, Allipiy (mil.av. III–IV asrlar) muvaffaqiyatli amalga oshirganlar. Musiqaning etik masalalari, shuningdek, ushbu yo'nalishdagi konsepsiyani bir qator antik olimlar o'rganib chiqqanlar. Ular orasida Platon va Aristotel izlanishlari e'tiborga loyiq.

Shuni ta'kidlash joizki, qadimgi Yunonistonning gullab-yashnagan davrida Yevropa badiiy madaniyati rivoji uchun tamal toshi qo'yilgan. Bugungi kunga qadar biz o'sha uzoq davrda iste'molda bo'lgan va qo'llanilgan ko'plab musiqiy tushunchalar hamda atamalardan foydalanib kelmoqdamiz. Qolaversa, "musiqa" so'zining ma'nosi ham uning so'z o'zagi bo'lmish "muza"dan olingan bo'lib, qadimgi yunonlarning bosh ma'budi – Zevsning qizlari nomi bilan qiyoslanishi bejiz emas.

Ko'rinadiki, musiqa san'ati o'zining uzoq tarixi va boy merosiga ega. Qadimgi yunon musiqa madaniyati asrlar davomida shakllanib, takomillashib bordi. Uning bosib o'tgan yo'li, mazkur sohada amalga oshirilgan ishlar, ijodkorlarning faoliyati dunyo xalqlari musiqa san'ati rivojida alohida ahamiyat kasb etadi. Qadimgi yunon musiqa madaniyatini o'rganish, tahlil qilish zamonaviy musiqaning yangi qirralarini kashf etish, yangicha yo'nalishlar yaratish imkonini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunova R., Tursunova G. Jahon musiqa tarixi (O'quv qo'llanma). – T.: "Voriz-nashriyoti", 2017-y.
2. Mirhaydarova Z. Jahon xalqlari musiqa san'atining rivojlanish jarayoni. – T.: 2008-y.
3. Trigulova A. Xorijiy musiqa adabiyoti (O'quv qo'llanma). – T.: 2009-y.
4. Лехина И.В., Локшиной С.М., Петрова Ф.Н. Словарь иностранных слов. 12-е. изд. – Москва: Русский язык, 1985 г.
5. Umarov A., Bekmurodov M. Madaniyat va san'at atamalarining izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015-y.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T.: "O'zbekiston ME" Davlat ilmiy nashriyoti, 1-5 jildlar, 2006–2008-y.

O'ZBEK AN'ANAVIY QO'SHIQCHILIK SAN'ATI: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek an'anaviy ijrochiligining yangi tarixi haqida so'z ketadi. Bunda an'anaviy ijrochilikning bir asrlik rivoji kuzatiladi. Bu davrdagi ko'tarilish va yo'qotishlar tahliliy izohlanadi, ularning sababarlari misollar asosida ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: madaniy, ijobiy, milliy, an'anaviy, taraqqiyot, mustabid, tuzum, ashula, raqs, ijrochilik, hofiz, maktab, mahorat.

Аннотация. В данной статье речь ведется о новой истории узбекского традиционного исполнительства. При этом рассматривается постоянное развитие подъем и спад традиционного исполнительства, анализируется причина этих процессов.

Ключевые слова: культурный, позитивный, национальный, традиционный, развитие, реакция, композиция, песня, танец, исполнение, школа, мастер.

Annotation. This article is about the new history of the Uzbek traditional performer. At the same time, the eternal development of traditional performance is considered, the rise and fall of traditional performance is indicated, and the cause of these processes is indicated on a specific basis.

Keywords: cultural, positive, national, traditional, development, reaction, composition, song, dance, performance, school, skill.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mam-lakatimizda madaniyat va san'atni rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat muassasalarini barpo etish, ularning madaniy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ustuvor ahamiyat qaratib kelinmoqda. Aholi, xususan, yoshlarning madaniy saviyasini yuksaltirish, ularni milliy va umumbashariy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahramand etish, shu asosda madaniy yetuk, barkamol shaxslarni tarbiyalash, yosh iste'dod egalarining qobiliyati va salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasida: "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini ishlab chiqdik. Mana shu strategiyaga muvofiq barcha soha va tarmoqlar qatori madaniyat va san'at, adabiyot, ommaviy axborot vositalari ravnaqini yangi bosqichga ko'tarishni biz o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz", – deya ta'kidladi [1,243-246 b].

Shu ma'noda barcha an'anaviy qo'shiqchilik san'atini yanada rivojlantirish dolzarb masa-

lalardan biri bo'lib qolmoqda. An'anaviy qo'shiqchilikni saqlab qolish, uni kelajakka yetkazish san'atkorlarning azaliy va abadiy vazifasi hisoblanadi. An'anaviy qo'shiqchilik qadimgi davrlardan rivojlanib keldi. Chunki qo'shiq insonlar hayajonini qo'zg'atuvchi, ularga zavq beruvchi, ezgu orzularga yetaklovchi kuch sifatidagina emas, ayni paytda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantiruvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak madaniyat xodimlarini, xususan, musiqa va qo'shiqchilik mutaxassislarini xalqimizning mumtoz asarlari bilan oliy o'quv yurtlarida tanishtirib borish va ularga bu noyob durdonalarni o'rgatish yo'llarini singdirish alohida ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy qo'shiqchilik san'atining rivojlanish yo'lini uzoq davrlardan boshlab kuzatish mumkin. Qo'shiqchilikning tarixiy taraqqiyotini tasavvur qilishda arxeologik ma'lumotlar, g'orlardagi toshlarga o'yilgan rasmlar, turli adabiy manbalarda berilgan miniatyuralar, antik va Uyg'onish davri allomalarining tarixiy risolalari o'ziga xos asosiy manba vazifasini o'taydi.

O'zbek qo'shiqchiligining tarixi O'rta Osiyoda yashab ijod qilgan qadimgi ajdodlarimiz so'g'diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar, saklar, massagetlar va boshqa qabila xalqlari madaniyati haqida yozilgan qadimiy manba "Avesto"da bayon qilinadi. An'anaviy qo'shiqchilikning



Yunus Rajabiy o'z o'quvchilari Orif Alimaxsumov va Shokirjon Ergashevlar bilan. 1960-yil.

turkiy xususiyatga ega bo'lgan namunalari ham aynan shu davrda yuzaga kela boshlagan. Yirik hajmdagi maqomchilikni yuzaga kelishida ham bu tarixiy davrning o'z o'rni bor. Xususan, mumtoz qo'shiqchilikka xos "Avjiturk" og'zakian'alaridagi professional musiqamizga qo'shilgan bebaho element hisoblanadi. Shuningdek, bu tarixiy davr o'zbek musiqasiga xos kuy, ritmik tuzilishining paydo bo'lishiga ham asos bo'lgan. Keyingi davrlarga kelib, mahalliy aholining, shu jumladan, o'zbek xalqining musiqasiga xos shakl va uslublari anchagina o'rganilib, og'zaki an'anadagi maqomlar va maqom yo'llari qo'shiqlarining paydo bo'lishiga asos soldi.

Temuriylar davrida yashab ijod qilgan musiqashunos olim Abduqodir Marog'iy mumtoz qo'shiqchilikka xos bo'lgan tarji, peshrav va boshqalar haqida fikr bildirgan. Amir Temurning vorislari Shohruxning Hirotda va Mirzo Ulug'bekning Samarqandda olib borgan siyosati fan va madaniyatning rivojida muhim o'rin egalladi. Alisher Navoiy davrida ham adabiyot, san'at arxitektura, miniatyurachi rassomlar hamda sozanda xonandalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishgan. Xususan, buyuk shoir Alisher Navoiyning o'zi ham musiqani e'zozlar, yangidan-yangi ashulalar ijod qilishga alohida e'tibor berar edi. Navoiyning zamondoshlari bo'lgan bastakor xoja Abdulloh Marvarid hamda Mirza Bayram shoir g'azallariga bastalagan ashulalarni hisoblash mumkin. Shu asnoda o'zbek

qo'shiqchiligi rivojlana bordi, yaqin davrlarda esa yangidan yangi cho'qqilarni zabt etdi.

O'tgan asr boshlaridan qo'shiqchilik san'ati an'anaviy rivojlanish yo'lini tanladi va bu yo'ldan og'ishmay davom etdi. Dastlabki milliy badiiy havaskorlik to'garaklari maktab, texnikum va boshqa o'quv yurtlarida tashkil etildi. Ular ashula va raqs jamoasi shaklida faoliyat ko'rsatdi. Xalq sozandalari va xonandalarining faoliyati asosan ijrochilik, pedagogik va folklorshunoslik yo'nalishlari asosiga qurildi. Xususan, mashhur hofiz Shorahim Shoumarov 1919-yilda Toshkentda "Namuna" maktabi huzurida musiq to'garagi tashkil etdi. Bu paytda mazkur havaskorlik jamoasi musiqali dramalardan parchalar namoyish etar edi. Bu davrlarda turli to'garaklar va badiiy jamoa rahbarlarining vakillari milliy qo'shiqchilik san'atini asl holaticha saqlab qolishga harakat qildi. Xususan, Samarqandda har xil to'garaklar tashkil qilinib, ularga Buxoro, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Qo'qon va boshqa joylardan kelgan mohir sozanda va xonandalar boshchilik qildilar. Keyinchalik qo'shiqchilik san'atini rivojlantirishda navbatdagi bir avlod musiqachi va xonandalar an'anaviy qo'shiqchilikni rivojlantirishda faol ishtirok etdilar. Bu san'atkorlar shahardagi gavjum joylarda, choyxonalarda o'z san'atini namoyish qilib, kishilarda o'zbek qo'shiqchilik san'atiga bo'lgan qiziqishni orttirdilar.

Havaskorlik ijodiyoti jamolalari son jihatdan ortib bordi. Ularda yangi ovozlari, mazmunli



asarlar yuzaga kela boshladi. Masalan, 1953-yil respublikada o'z safariga 26056 qatnashchini birlashtirgan 1179 badiiy havaskorlik jamoasi faoliyat ko'rsatdi. 1970-yilga kelib esa ularning soni yuqoridagiga mutanosib ravishda 34078 va 2115taga yetdi. Har bir badiiy havaskorlik jamoasiga o'rtacha 14 nafardan ishtirokchi to'g'ri kelgan bo'lsa, 1970-yilga kelib, ularning soni 16 nafarga yetdi. O'zbek an'anaviy qo'shiqchiligida milliy xususiyatlar saqlanib qoldi. Chunonchi, musiqa talqinida milliy xonandalik san'ati birinchi omil qilib olinganligi tufayli uning qamrovi kengayib, uslublarga boyib, turli yo'nalishlarda shakllanib, rivojlanib keldi. U so'z, musiqa, muloqot, ruhiyat kabi qator omillarni o'z ichiga olib, musiqa ijrochiligi namoyandalari bo'lmish sozanda va xonandalar xalq madaniyatining rivojida katta o'rin tutdilar. Bir so'z bilan aytganda, ular an'anaviy ijrochilik rivojiga katta hissa qo'shdilar. Shu sababli, tarixiy ma'lumotlarda zikr etilgan manbalarda o'tgan asr davomida ijod qilgan sozanda va xonandalarning nomlarini keltirilishi tarixiy fakt hisoblanadi. Chunki Abu Nasr Forobiyning "Katta musiqa kitobi", Zaynulobidin Husayniyning "Qonuni ilmi va amali musiqiy", Abdurahmon Jomiyning "Risoi musiqiy", Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", Darvesh Ali Changining "Musiqiy risola" kabi o'tmishda bitilgan tarixiy kitoblarda berilgan ma'lumotlar ham an'anaviy ijrochilikning yangi tarixidagi musiqa nazariyasini boyitishga xizmat qildi. Mana shu manbalar asosida yangi davrda ham yetakchi olimlar bir qator nazariy asarlar yaratdilar.

Bunday ustoz san'atkorlar qatorida Yunus Rajabiy, Jo'raxon Sultonov, Rasul qori Mamamadaliyev, Muxtor Ashrafiy, Mutavakkil Burhonov, Tolibjon Sodiqov, Mardon Nasimov, Doni Zokirov, Fazliddin Shahobov, Olimjon Halimov, Nabi Hasanov kabi ijodkorlar bor edi. An'anaviy qo'shiqchilik san'ati o'zbek musiqa ijrochiligining asosini tashkil etishi ilgaridan ma'lum. Bu haqda o'rganilayotgan davrda ijod qilgan qator musiqashunos olimlarning risolalarida ma'lumotlar berilgan. Buxorolik musiqashunoslar maqom sohasida ko'plab amaliy va nazariy ishlarni amalga oshirdilar.

Toshkentda ham o'tgan davrlar mobaynida xonandalik va sozandalik maktablari rivojlandi. Taniqli hofizlar o'z ijodiy maktablarini, alohida ijrochilik uslubini yaratdilar. Hofizlik an'analari Farg'ona vodiysida keng tarqaldi. Bunda katta ashula, maqom ijrochiligi muhim o'rin tutdi. Ayniqsa, "Shashmaqom" ijrochiligiga alohida e'tibor berildi. Farg'ona vodiysida bunyodga kelgan deyarli barcha ijrochilik maktablari maqom yo'llarini egalladilar. Vodiya faoliyat ko'rsatayotgan ijrochilik maktablari deyarli barcha viloyatlar va yirik shaharlar bilan bog'liqdir. Shaharlar esa namoyandalar ijodiga asoslanadi. Bundan tashqari, vodiya ijro uslublari ham nisbatan keng ommalashganligi bilan xarakterlanadi.

Hofizlarning ko'pchiligi tabiatan tug'ma qo'shiqchi bo'lishgan. Bu tug'ma qo'shiqchilik ustoz-shogirdlik an'anasi asosida rivojlandi va qaror topdi. Ayniqsa, bu holat Farg'ona vodiysi qo'shiqchiligida qadimgi davrlardan mavjud bo'ldi. Vodiya hofizlar qadimdan: "Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar", taomiliga amal qilib kelganlar. Ana shu an'ana tufayli vodiya tadqiq etilayotgan davrda an'anaviy qo'shiqchilik rivojlanib o'ziga xos maktabga aylanib qoldi. Bu an'ana hamon davom etib, an'anaviy qo'shiqchilikni rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda.

Umuman olganda, o'tgan asr o'zbek an'anaviy ijrochiligining rivoji san'at tarixidan o'rin oldi. Abatta, yangi tarix voqeligi bir xilda kechmadi. Asr boshida, ayniqsa, an'anaviy ijrochilikda murakkab davr bo'ldi. Negaki, o'sha davrlardagi siyosiy buhronlar san'at sohasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Shunga qaramay, yetakchi, fidokor san'atkorlarning mehnati tufayli an'anaviy ijrochilik san'ati rivojlandi va yuqori darajaga ko'tarildi. Bu sohada hali-hanuz fidoyi san'atkorlar mehnat qilmoqda. Ayniqsa, institutimizda ham an'anaviy ijrochilarni tayyorlash ishlari jadallik bilan davom etmoqda. Bunda milliylikni saqlab qolishga alohida e'tibor berilmoqda. Talabalarga o'tmishda yashab ijod qilgan va an'anaviy qo'shiqchilik san'atiga ulkan hissa qo'shgan har bir san'atkor va ularning uslublari haqida keng ma'lumotlar berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гапуров М.К. (2022). Развитие музыкального образования на основе опыта исторических деятелей искусства // Актуальные вопросы развития искусства балета хореографического образования (243–246 с).
2. Гапуров М.К. (2017). Использование научного наследия ученых-мудрецов в музыкальном образовании. ББК 71.0 Я41, 43.
3. Davlatov T. O'zbek xalq musiqa ijodi – Namangan: Namdu, 2023-y.
4. Джумаев А. Трактат о музыке Мухаммада Нишапури – ранний источник по системе 12 парда: история изучения, проблемы датировки и атрибуции. Иран-наме. №4, 2013 г.





O'ZBEK AN'ANAVIY MUSIQASI VA UNING TARBIVAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek an'anaviy musiqasi, uning tarbiyaviy ahamiyati, tarixiy jarayonlar haqida so'z boradi. Shuningdek, bugungi tezkor jarayonda xalqimizning durdona asarlariga berilayotgan e'tibor va ularning yoshlar tarbiyasidagi o'rni borasida ilmiy mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: musiqa, ijod, an'anaviy qo'shiqchilik, bilim, tashabbus, maqom, mumtoz ashula, ma'naviyat, ma'naviy axloq, musiqiy tarbiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются узбекская традиционная музыка, её воспитательное значение и исторические процессы её развития. Также приводятся научные рассуждения о внимании, уделяемом шедеврам народного творчества в современную эпоху, и об их роли в воспитании молодёжи.

Ключевые слова: музыка, творчество, традиционное песенное искусство, знания, инициатива, маком, классическая песня, духовность, нравственность, музыкальное воспитание.

Annotation. This article discusses Uzbek traditional music, its educational significance, and the historical processes of its development. It also presents scientific reflections on the attention given to the nation's masterpieces in today's fast-paced era and their role in youth education.

Keywords: music, creativity, traditional singing art, knowledge, initiative, maqom, classical song, spirituality, moral ethics, musical education.




Bilamizki, inson umri davomida san'atga murojaat qiladi, o'z savollariga undan javob izlaydi. San'at insonni har tomonlama ham intellektual, ham barkamollik jihatdan shakllanishini ta'minlaydi. Inson ajib va sirli dunyoni san'at tufayli idrok etadi. Albert Eynshteynning: *"Menga oliy baxt bilan bog'liq hissiyotni faqat san'at asarigina bera oladi. Biron-bir boshqa sohada topa olmagan ma'naviy huzur-halovatni aynan san'atdan topdim"*, – deb aytgan gaplari ayni haqiqatdir [1,162-b].

O'zbek milliy an'anaviy musiqasi va uning tarbiyaviy ahamiyati haqida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev shunday deydi: *"Musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir"* [2,44-b]. Yuqoridagi fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, musiqa san'ati aqlni tarbiyalash, bilim va ko'nikmalarni o'rgatishdan ko'ra tom ma'noda eng muhim pedagogik muammoni hal etadi. Ushbu bilim va ko'nikmalarni qanday singdirilishi, insonning atrofdagi odamlarga va uni qurshab turgan dunyoga bo'lgan hissiy munosabatiga bog'liqdir. San'at nafaqat insonning ongi, balki irodasini ham aks ettiradi.

Jahon san'ati tarixi va nazariyasida "klassik" yoki "mumtoz" san'at deb ataladigan tushuncha mavjuddir. Har bir milliy madaniyatdagi yillar davomida o'zgarmasdan, aksincha, yanada sayqallashib boradigan san'at yo'nalishini o'sha atamalar bilan nomlash to'g'ridir. Mumtoz san'at an'anaviylik mazmuniga ega bo'lganligi uchun ham uning umri boqiydir. O'zbek milliy musiqasi – milliy qadriyatlarimizning muhim tarkibiy qismi, ma'lum ma'noda uning tayanchi va adabiy merosidir. Shuningdek, milliy musiqiy tafakkur olamni bilish, his qilish, idrok etish va uning go'zalliklaridan huzurlanishning alohida shakli hamdir. U ham go'zallik va mukammallik qonunlari asosida yashaydi va rivojlanadi.

Ulug' san'atkorlar tomonidan yaratilgan mumtoz musiqa madaniyatimizning boy tarixi, ijrochilik uslubi va mahorat sirlarini har tomonlama ilmiy tadqiq etmay turib, musiqa madaniyatimizning bundan keyingi rivojlanish istiqbollarini belgilab bo'lmaydi. Xalqimizning boy milliy musiqa san'ati inson madaniyati va jamoaviy hayotda o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, dam olish va ko'ngil ochish paytlari turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport





mashqlari va mehnat jarayonlarida muayyan vazifani bajarib kelgan va kelmoqda. Shuning uchun milliy musiqamiz o'z mazmuniga muvofiq holda, bir necha uslub, tur va janr guruhlariga bo'linadi. Alla, zikr, marsiya, vals kabi janrlar hayotdagi maishiy va boshqa sharoitlar bilan bog'liq bo'lib, ashula, cholg'u, kuy, maqom yo'llari, konsert, miniatyura, romans va boshqalarda estetik ta'sir o'tkazish vazifalarini bajaradi. Janrlar o'z navbatida diniy qo'shiq, yoshlar qo'shig'i, maishiy, ommaviy, harbiy qo'shiq kabi turlariga bo'linadi.

Musiqas san'ati insonni tarbiyalaydi, uni ezgulikka, yaxshilik qilishga undaydi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi gaplari aynan bizning mumtoz musiqiy san'atimizning tarbiyaviy ahamiyatiga qaratilgan bo'lib: *"Agar biz asl haqiqiy san'atni bilmoqchi, o'rganmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini bilishimiz, o'rganishimiz kerak. Agar biz san'atni, madaniyatni ko'tarmoqchi bo'lsak, avvalo, mumtoz maqom san'atini ko'tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodlarimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur"* [2,344-b].

San'at juda muhim itimoiy fenomen hodisa bo'lganligi uchun ham tarixda ko'plab omillar rivojlanishiga salbiy ta'sir etganligini guvohi bo'lamiz. Jumladan, mamlakatimiz tarixida mustabid tuzum, shubhasiz, o'z tabiatiga mos madaniyat va san'atni yaratishga intildi. Bunda, eng avvalo, o'tmish milliy madaniy merosi inkor etilib, mavjud zamonga mos, siyosiy aqidalar bilan yo'g'rilgan san'at yaratildi, asosiy e'tibor yaratilayotgan asarlarning faqat g'oyaviy mafkuraviy tomonlariga berilib, o'zbek milliy musiqasidagi asosiy mohiyat va mazmun ham o'zgarib, milliy san'atimiz transformatsiya qilindi. Madaniyatda murakkab ijtimoiy muammolarni bezatib, yengil tusga kiritib ko'rsatish xato va kamchiliklar to'g'risida sukut saqlash tendensiyalari paydo bo'la boshladi. Oqibatda real hayotiy haqiqat buzilib, san'atning tarbiyaviy insonparvarlik salohiyati pasaytirilib yuborildi. Natijada jamiyat ma'naviy hayotida aholining ming yillar davomida shakllangan milliy axloqiy qadriyatlari eskilik unsuri sifatida inkor etildi.

Hukmron doiralar manfaatlariga mos keladigan soxta "axloq" qoidalari ishlab chiqildi. Biroq shuni alohida ta'kidlash lozimki, san'at boshqa ijtimoiy ma'naviy hodisalar kabi tinimsiz rivojlanishda va harakatda bo'lganligi bois,

san'atdagi o'ziga xoslik bugun ham o'zining ahamiyatini yo'qotmaganligini ko'rishimiz mumkin. Bu borada ochiq aytish mumkinki, bugungi kunda yoshlarning mumtoz musiqas madaniyatimizga qiziqishlari susaygani biroz muammolar keltirib chiqarmoqda. Ko'plab yoshlar chet el musiqalariga taqlid qilgan holda o'zlarining ichki va tashqi ko'rinishlariga ham g'arbona tus bermoqdalar.


Sharq faylasuf olimi Forobiy musiqaning tarbiyaviy ahamiyatini o'z asarlarida bayon qilib, arifmetika, geometriya, astronomiya fanlari qatorida ushbu ilmni tarbiyaviy fan, deb ataydi. Ushbu bilimning mohiyati alloma tomonidan shunday ta'riflanadi: *"Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan xalqni tarbiyaga keltiradi, mukammallikka yetmagan xulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan xulqining muvozanatini saqlab turadi"* [3,17-b].

Bu borada jahon tajribalariga e'tibor beradigan bo'lsak, yaponlarda homilador ayollarning ko'proq mumtoz musiqas tinglashlari bejiz emas. Bu holat homilaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va go'dakning ma'naviy dunyosini shakllantiradi. Albatta, homila bunday yoqimli mumtoz kuylarni tinglasa, uning qalbida ezgulik barq uradi, yaxshi fazilatlar kurtaklanadi.

Hofizlar xalq orasida mashhur bo'lib, odamlar ular siymosida xalqning dard-u g'ami, shodliklariyu quvonchlari mujassamligini ko'ra olganlar. Har bir katta hofiz va ustoz san'atkorlar Kaykovus "Qobusnoma"sidagi dono o'gitlarni o'zlariga dasturilamal deb bilganlar: *"Agar hofiz bo'lsang xushfe'l, quvnoq bo'l, hamma vaqt o'zingni toza tut, sendan yoqimli hid kelib tursin, shirin so'z bo'l, o'z ishingamashg'ul bo'l, qo'pol so'z, qovog'i soliq bo'lmag'il"* [4,34-b]. Yuqoridagi kabi purma'no hikmatlardan bahramand bo'lib qo'shiq, maqomlarni ijro etgan ustoz hofizlar tinglovchilarning ichki kechinmalarini his qilganlar. Hattoki, qaysi ashulani kunning qaysi paytida, haftaning qaysi kunida, hatto, yilning qaysi fasli va oylarida ijro qilinishini ham kashf qilganlar.

Shu o'rinda alohida aytish joizki, xalq qo'shiqlari bir tomondan insonlarni jamiyatdagi mavjud kamchilik va muammolarini hal etishga safarbar qilgan bo'lsa, xalq qo'shiqlari orqali milliy birlik, umummilliy inoqlik ham targ'ib qilingan. Bundan ko'rinib turibdiki, xalq qo'shiqlari, xalq musiqasi insonda sog'lom hayotiy ehtiyojni, yaratuvchanlik kayfiyatini uyg'otgan. Zero, hayotda fan ham, iqtisod ham, san'atning boshqa turlari ham, hatto, so'z san'atining o'zi





ham xalq qo'shiqlarining o'rnini bosa olmaydi. Shu bois, xalq qo'shiqlari ongi, bilim darajasi, kasb-koridan qat'iy nazar hammaga birdek ta'sir etish qudratiga egadir. Bugungi kunda yoshlarimizga ularning tarbiyasidagi salbiy oqibatlarni yo'q qilish hamda ma'naviy olamini poklashda xalqimizning durdona ne'matlarini ongiga singdirish vaqti keldi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, siyosiy mafkuraviy tazyiqlar iskanjasidan batamom ozod bo'lgan bugungi o'zbek musiqashunosligi yaqin o'tmishimizdagi qiyin va murakkab sinovlarda shakllandi va toblandi. Bizning asosiy vazifamiz esa ajdodlarimiz tomonidan berilgan bu musiqiy merosimiz qadriyatlarini yoshlar ongiga singdirish va kelgusi avlodlarga yetkazishdan iboratdir. Bu borada:

- avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy

musiqqa merosimizni asrab avaylash, yangi sharoitlarda rivojlantirish, ular orqali yoshlarni musiqqa ilmiga yo'naltirish;

- havaskor yoshlar orasidan iste'dodli ijrochilarni aniqlash, an'anaviy musiqqa janrlarini yangi shart-sharoitlarda rivojlantirish va ularni to'g'ri yo'naltirish;

- mumtoz musiqiy asarlarning badiiy va tarbiyaviy ahamiyatini yuksaltirish hamda yoshlar orasida keng targ'ib etish;

- avloddan avlodga noyob meros sifatida o'tib kelayotgan mumtoz musiqiy madaniyat namunalarini to'plash, boyitish, yosh avlod ongiga bu bebaho boyliklarga chuqur hurmat va havas tuyg'ularini singdirish;

- musiqiy madaniyatimizning nodir asarlarini o'rganish va tarixni chuqur anglab yetish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мешковский А. Беседы с Эйнштейном о теории относительности и общей картине мира. – М.: 1922 г. 162 с.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari (4 jild). – T.: "O'zbekiston", 2020-y. 44-b.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2004-y 17-b.
4. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: "Yangi asr avlodi", 2019-y. 34-b.





O'ZBEK ROMANSLARIDA INTERPRETATSIYA VA IJROCHILIK BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

Annotatsiya. Maqolada bugungi kunda akademik xonandalikda mavjud masalalardan biri bo'lmish romans ijrochiligi haqida so'z boradi. Milliy ohanglarda yozilgan romanslarni kuylaganda e'tibor berilishi kerak bo'lgan melizmatik belgilar va badihago'ylik borasida fikrlar keltiriladi. Misol tariqasida notalarning asl va talqin etilishidagi variantlari ko'rsatiladi. Shu bilan birga muammoli holatlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: romans, interpretatsiya, talqin, melizm, an'ana, improvizatsiya, badihago'ylik.

Аннотация. В статье рассматривается одна из актуальных проблем академического пения – исполнение романсов. Высказываются соображения о мелизматических признаках и лиризме, на которые следует обращать внимание при исполнении романсов, написанных на народные мелодии. В качестве примера показаны оригинальные и интерпретационные версии нот. В то же время обсуждаются проблемные ситуации.

Ключевые слова: романс, интерпретация, мелизм, традиция, импровизация, бадихагуйлик.

Annotation. The article examines one of the topical problems of academic singing – performance of romances. Considerations are expressed about melismatic features and lyricism, which should be paid attention to when performing romances written to folk melodies. As an example, original and interpretive versions of notes are shown. At the same time, problematic situations are discussed.

Keywords: romance, interpretation, melisma, tradition, improvisation, badikhaguylik.



Vatanimiz O'zbekiston har sohada ildam taraqqiy etayotgan bugungi kunda san'atga ham berilayotgan katta e'tibor ko'ngillarni, albatta, shod etadi. Musıqa ilmida esa ilgari o'rganilgan mavzular yanada chuqur tadqiq etilmoqda. Natijada kundan kunga ushbu sohada yangi masalalar paydo bo'lmoqdaki, bo'lajak izlanishlar uchun to'laqonli tadqiqot mavzulari bo'la oladi. Shu kabi o'z yechimini talab etayotgan mavzulardan biri – akademik xonandalikda interpretatsiya masalalaridir. Kichik tadqiqot ishining asosiy yo'nalishi sifatida esa bugungi kundagi o'zbek romans janri ijrochiligi va undagi ba'zi muammolar olindi.

Avvalo, romans va interpretatsiya terminlariga qisqacha to'xtalish lozim bo'ladi: "Romans (isp. romance, roman – ispancha) – bir ovoz uchun vokal asar. Romans turli mavzu, xarakter va tuzilishda bo'lishi mumkin: ko'proq lirik yoki lirik-dramatik bo'lib, cholg'u asboblari jo'rligida ijro etiladi" [1,132-b]. Maqola davomida ba'zi o'zbek romanslari misol tariqasida keltiriladi. "Interpretatsiya (lot. interpretatio – tushuntirish,

talqinlash) – musıqa asarining ijodiy ijro etilishidagi talqin. Musıqa asarining interpretatsiyasi ijrochi – sozanda yoki xonanda(lar)ning xarakter va mazmunni bayon qilishiga bog'liq" [1,132-b]. Interpretatsiyani talqin sifatida tushunish ham mumkin.

O'zbek kompozitorlarining romanslari ijrosi haqida so'z borganda ba'zi muhim masalalarga e'tibor berish kerak bo'ladi. Romanslar aynan notada yozilgan tartibda ijro etiladigan bo'lsa, milliylik ufurib turgan ijro yo'li kesilgandek bo'ladi. Bunaqa deyilishiga sabab shuki, notalar o'zbek nolalarini va ijrodagi o'zgachalikni yoritib berishga ojizdek ko'rinadi. O'zbek romanslari esa notada yozilganicha ijro etiladigan bo'lsa, u jonsiz bo'lib qoladigandek va melizmatik belgilar yetishmayotgandek taassurot qoldiradi. Shu o'rinda, quyidagi terminlar bo'yicha ma'lumot berib o'tish lozim topildi: "Melizm – kuyni turlicha qisqa tovushlar bilan bezatuvchi belgilar. XVII asrdan boshlab qo'llanila boshlangan melizmlarga forshlag, gruppetto, mordent, chizilgan mordent, trel va boshqalar kiradi" [1,197-b]. Aynan nolalar sifatida qabul





qilinadigan melizmatik belgilarni asar ijrosi mobaynida yanada ko'proq ko'rinishlarda aks ettirish mumkin. Insonga qosh, ko'z, kiprik, quloq, qo'l, oyoq kabi a'zolar qanchalik muhim bo'lsa, ayrim o'zbek kompozitorlarining asarlarini ijro qilishda ham unga bezak berish ularga muhim tana a'zolarini biriktirishga o'xshaydi. Ayrim o'zbek kompozitorlarining asarlarini notada yozilganidek ijro qilish natijasida asarlarning ma'lum bir qismlari yo'qolib qolganday eshitiladi. Lekin interpretatsiyada har bir ijrochi o'zi ijro qilayotgan asarini to'la-to'kis qilib yetkazib berishi uchun imkoniyat bor. Bunda ma'lum bir melizmatik belgilardan yoki "yozilmagan notalar" va dinamik belgilardan foydalanish asarga uning qo'l-oyoq, qosh-ko'zlarini taqdim qilish demakdir.

Buning uchun ijrochida, albatta, did, ta'b bo'lishi zarur. Agar quyidagilar unda mujassam bo'lmasa, asarni to'la namoyon eta olmaydi. Ularni bilish uchun esa eng birinchi o'rinda an'ana, o'zbek an'anaviy ijrochiligiga e'tibor berish, maqomlardan xabardor bo'lish kerak bo'ladi. Xonanda milliy ashulalardan, "Shashmaqom"dan ma'lum bir darajada xabardor bo'lib tursagina o'zbek romanslarini to'laligicha yetkazib bera oladi.

Ijroda milliycha bezak(melizm)lardan foydalanib asarni tinglovchiga yanada yaqin qilishi, ijrochi esa shu tinglovchining ko'nglidan joy olishi mumkin. Misol tariqasida Po'lat Rahimovning **"Ey, gul"** romansi keltiriladi. Asarning aynan quyidagi taktlari olindi:

Agar biz ijroda melizmlardan foydalansak, (ya'ni ixtiyoriy tarzda talqin qilsak) unda quyidagicha ijro kelib chiqadi:

p *> p* *port.* *3*

O - shuf - ta hol o'l - dim ko' ying - da,

pp

mf

ey, gul,

p cresc.

Natijada asar ijrosida uning ko'z-qoshlari paydo bo'lmoqda. Asar sayqallanmoqda. Kompozitor ayrim taktlarda fermatani notada keltirmagan bo'lsa ham yuqoridagi so'nggi taktda uni qo'llash va yanada asarning go'zalligini oshirish mumkin. Shu zaylda asarni kuylashda davom etamiz. Notada yozilishi:

Adagio

pp *mf* *pp*

Yet - mas sen - ga har dam far - yod(i)

3 *3*



Tempo I
p

bul - - - bul.

Bu notalarga ijro mobaynida sayqal berib quyidagicha kuylash mumkin:

Adagio
pp

Yet - mas sen - ga har dam far - yod(i)

rit. Tempo I
p

bul - - - bul.

Shu zaylda asar ijrosi davom ettiriladi.

Navbatdagi asar Doni Zokirovning **"Ko'rmadim"** nomli romansi. Romansning so'nggi taktlari misol qilib olindi:



Kim, bu ish - - da day - ru pi - -
Kim - ga qil - - dim bir va - fo - -

- ri - ning ri - zo - - sin ko'r - ma - dim.
kim yuz ja - fo - - sin ko'r - ma - dim.

Ushbu taktlarni quyidagicha kuylash mumkin:



Kim, bu ish - - da day - ru pi - -
Kim - ga qil - - dim bir va - fo - -

- ri - ning ri - zo - - sin ko'r - ma - dim.
kim yuz ja - fo - - sin ko'r - ma - dim.



Yana reprizada quyidagicha kuylash ham mumkin:

Lya bemol notasi qo'shib kuylab ketildi. Ma'lum bir joyda alteratsiya o'zgarishi bilan ham asarning go'zalligi ochilishini kuzatishimiz mumkin. Ana shundagina ijrochi asarning yanada to'liqligini ta'minlay oladi.

Improvizatsiya ham biz uchun muhim masala. Avvalo, ushbu terminning izohiga e'tibor berish kerak bo'ladi: "**Improvizatsiya** (lot. *improvises* – *kutilmagan, bexosdan*) – she'r, musiqa va boshqalarni oldindan tayyorgarliksiz, ijro davomida ijod etish..." [2,140-b]. Yuqoridagi ijro talqinlari improvizatsiya sifatida qabul qilinishi ham mumkin. Faqat shu kabi aynan badiha ("**Badihago'ylik**" birdaniga, to'satdan ijod qila olishlik") [3,135-b]. tarzida asarlarni ijro qilishda me'yorni ham hisobga olish kerak bo'ladi. Asarni buzib talqin qilish mumkin emas.

Albatta, shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, har bir kompozitor yaratgan asarining buzilmasdan ijro etilishini istaydi. Lekin ayrim joylarda yuqorida

ta'kidlab o'tilganidek, ijro etish talqinlarini kompozitorning roziligi bilan birgalikda amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bugungi kunda akademik xonandalikda asar ijro qilish jarayonida notalar milliycha yo'lda yozilgan romanslarimizni to'liq o'zida aks ettira olmayapti. Kompozitor asar yaratayotganda aynan o'sha asarning to'la-to'kisligini ta'minlab berish uchun ma'lum bir notalarni varaqqaga tushiradi. Lekin notalar biz o'ylagandek asarning to'la-to'kisligini ta'minlab bera olmasa, (aynan o'zbek romanslariga urg'u berilmoqda) asar o'z jozibadorligini yo'qotadi. Hozirda musiqa ilmida olimlar, professor-o'qituvchilar tomonidan melizmlarni notalashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Agar milliy ijrochilikda talab etilayotgan, murakkab nolalarni o'zida aks ettira oladigan va bugungi kunda analogik shakliga ega bo'lmagan ushbu musiqiy belgilar o'ylab topilganida, o'ylaymizki, asarlar yanada aniqroq notalarda aks ettirilgan bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbarov I. Muzika lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 4. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti, 2020.



TURKIY XALQLAR CHOLG'USI

Annotatsiya. Mazkur maqolada qo'biz cholg'usining paydo bo'lish tarixi, xalqlar orasida keng tarqalganligi va ijod yo'llari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: qo'biz, cholg'u, tovush, ovoz, jirov, xalq, rivoyat.

Аннотация. В данной статье описана история появления инструмента кобиз, его широкое распространение среди народов, способы создания.

Ключевые слова: кобиз, инструмент, звук, голос, джиров, повествование.

Annotation. In this state, the history of the appearance of the tool is described, and it is also widespread among peoples capable of creating.

Keywords: kobiz, instrument, sound, voice, jirov, narrative.



O'rta asr (Mahmud Qoshg'ariy, Navoiy, Bobur, Darvishali Changiy) manbalarida qo'biz turkiy xalqlarning eng sevimli torli tirnama musiqa cholg'usi sifatida ta'riflangan. Bu shakldagi qo'biz (hozirgi do'mbiraga yaqin) qirg'izlarda qo'muz, xakaslarda xomis nomi bilan saqlangan. O'zbek, qozoq, qoraqalpolarda qo'biz – torli-kamonchali cholg'u sifatida mashhur. Qoraqalpoq xalqi orasida kelib chiqishi jihatidan qadimiy, xalqimizning qanchadan-qancha tarixiy voqealarining guvohi, musiqa madaniyatimizning oltin xazinasi sifatida qadrlanadigan milliy cholg'ularimizdan biri bu qo'bizdir.

Manbalarga qaraganda, qo'biz cholg'usi VI asrda paydo bo'lgan. Qo'biz cholg'usi faqat qoraqalpolarga xos bo'lib qolmasdan, boshqa bir qator Sharq xalqlarida shu o'rinda: qozoq, o'zbek, uyg'ur, umuman turkiy xalqlarning deyarli barchasida ham uchraydi. Qo'biz bu xalqlar orasida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan va bir qancha nomlar bilan atalgan, ya'ni qozoq xalqida bu cholg'u "qo'lqo'biz", deb atalgan, shamanlarda bu cholg'uning bosh qismiga har xil qush patlari yoki rangli iplardan qilingan bezaklar taqib qo'yiladigan bo'lgan va cholg'uning qorinchasi ichida kichkina ko'zgu bo'lgan. Bu xalq orasida qo'biz cholg'usi "qoraqo'biz" va "narqo'biz" deb ham atalgan. Bunday deb atalishida o'ziga xos ma'no bor, ya'ni qora rang ulug'likni, nar so'zi esa katta degan ma'noni anglatgan. Qozoq xalqida qo'biz shamanlarning eng yaqin yordamchi cholg'usi bo'lgan. Ularning odatdagi turmush tarzida bu cholg'u katta ahamiyat kasb etgan. Qo'biz



cholg'usini eshitganimizda uning ovozi beixtiyor qadim tariximizni ko'zoldimizga keltiradi. Bu cholg'uning tembri boshqa cholg'ularda uchramaydigan tabiiy tovush hajmiga ega. Qadim davrlarda qo'biz cholg'usi juda yuqori darajada ulug'langan. Hattoki, oddiy xalq qo'biz cholg'usiga qo'l tekkizishga ham qo'rqqan. Sababi – bu cholg'uni shunday g'ayrioddiy, deb bilgan. Uni ijro etadiganlarni esa qudratli insonlar, deb tushungan. Qadim rivoyatlarga qaraganda, qo'biz cholg'usining ovozi, uning musiqasi har xil kasalliklarni, jinlarni, hattoki, o'limni ham quvadigan kuchga ega bo'lgan deyilgan [4].

Qo'biz cholg'usi o'zining tuzilishi, jirovlarning ijro qilish mahorati, bundan tashqari boshqa tarixiy manbalarga nazar soladigan bo'lsak, u juda qadimdan kelayotgan eski cholg'u ekanligidan darak beradi. Sababi, bu cholg'u haqida ko'plab olimlarimizning ilmiy manbalarida keltirib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin.





Sulton Uvays (asl ismi Suhayl ibn Omir ibn Rumon ibn Noxiya ibn Murod) Yamanning Qaran qishlog'i, Murodiy qabilasida (mil.av. 625-yilda) tug'ilgan. Hazrati Ali va Muoviya askarlari o'rtasidagi Siffin jangi (657-y.)da 32 yoshida shahid bo'lgan. Suriyaning Sofa qishlog'ida dafn etilgan [5]. Sulton Uvays hadislar yig'ish bilan shug'ullangan (VII asrning 1-yarmi). Uning izdosh muxlislari XVII asrda ramziy qabr (Shohabbos hozirgi Beruniyda) va ziyoratgoh bunyod etishgan. Manbalarga qaraganda, Sulton Uvays qo'biz cholg'usini o'ylab topishga erishgan, degan fikrlar ham bor [4].

XI asrning ulug' mutafakkiri Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" nomli asarida musiqa cholg'ularidan qo'biz (I tom, 450-b. Toshkent, 1960-y.), surnay (I tom, 390-b. Toshkent, 1960-y.), karnay (III tom, 259-b. Toshkent, 1963-y.) cholg'ularining nomlarini juda ko'p tilga olgan. Bundan boshqa fikrlarga qaraganda, har bir cholg'uning kelib chiqish tarixi bo'lganidek, qo'biz cholg'usi haqida ham juda qiziq va bir qancha rivoyatlarni ham atab o'tishgan. Qo'biz cholg'usi eng qadimiy turk cholg'usi sifatida xalqimizning azaldan kelayotgan yoqimli cholg'usi ekanligi haqida Sharq xalqlarining ma'naviyatida mangu saqlanib qolgan. Qo'rqit bobo haqidagi rivoyatlarda ham ko'plab ko'rsatilgan. Bunday afsonalardan birini Q.Ayimbetov taniqli jirovlar Esemurat bilan Qiyoslardan yozib olgan. "Qo'bizning piri IX–X asrlarda yashagan Qo'rqit bobo va Devono'i buruq, deb eshitganmiz.

Jirovlar bunday deb afsona qilgan edi: Qo'rqit bobo yog'ochdan qo'biz yasab musiqa ijro etishni orzu qilibdi. Juda ko'p yog'ochlardan foydalanib ko'rsa ham yasagan qo'bizidan hech kutilgan natija chiqara olmabdi. Qo'rqit boboning qo'biz yasab o'tirganini shaytonlar ko'rib, undan qo'bizini ko'rsatishni so'raganida, Qo'rqit bobo shaytonlardan qo'bizini yashiribdi. Shundan so'ng, Qo'rqit bobo o'zini o'rmondan chiqib ketayotgan kishiga o'xshatib, yashirin tazrda boshqa yo'ldan borib, shaytonlarning o'zaro suhbatini tinglabdi. Shaytonlar esa Qo'rqit bobo haqida bunday deyayotgan ekan: "Qo'rqit bobo juda ajoyib ish boshlayotgan ekan, biroq oxirigacha yetkaza olmayapti. Agar Qo'rqit bobo qo'bizini to'ng'iz so'ykalib qurigan jiydaning yog'ochidan yo'nsa, undan qorincha chiqarsa, uning qorinchasini baqiroq tuyaning bosh terisi bilan qoplasa, unga ko'p kishnaydigan otning dumidan qil olib taqsa, tog'da o'sadigan sassiq qurayning shirasidan surtsa, qilning tagidan ko'tarib turadigan eski qovoqdan tiyak solsa, juda jarangdor cholg'u bo'lgan bo'lar edi". Qo'rqit bobo shaytonlarning bu gapini eshitib, iziga darrov qaytib, shaytonlarning aytganidek qilib, qo'bizini yasagan ekan turli navo chalinadigan cholg'u juda yaxshi g'ijjak bo'libdi."

Shunday afsonalarning yana birida: Qo'rqit boboning Sirdaryo oqimi bo'ylab Karmanchadan pastroq tog'ning etagiga dafn etishadi. Uning mozori ustiga Qo'rqit boboning qo'bizini ham qo'yilgan edi. Allohning amri bilan ko'p vaqtgacha har haftaning juma kunlari Qo'rqit



boboning qo'bizidan o'zining xo'jayinini yodga olayotganday qayg'uli ovozlari chiqib turadigan edi. Qo'bizning ovozi diqqat bilan tinglansa, u o'zining karomatli egasini Qo'rqit, Qo'rqit deb chaqirib turganini aniq eshitish mumkin edi.

Qo'biz cholg'usi azaldan qoraqalpoq xalqi orasida qahramonlik dostonlarining ijrochilari bo'lgan, tarixni bizgacha yetkazishda katta hissa qo'shgan jirovlar tarafidan foydalanilgan. Jirov qo'liga qo'biz olib xalqning boy xazinasi bo'lgan dostonlarni, tarixiy qo'shiqlarni ijro etib, xalqqa tomosha ko'rsatib, ularning orzu-armonlarini aytuvchi, xushovoz ijrochi va sozanda bo'lib hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, qo'biz nafaqat qoraqalpolarga, balki barcha turkiy xalqlarga xos bo'lgan cholg'u. Shu qatori, bu cholg'uning tashqi ko'rinishi, tuzilish shakli, hattoki, undan taralgan takrorlanmas o'ziga xos ovozi ham bir-biriga o'xshash va juda yaqin bo'lib kelgan. Bu cholg'u barcha xalqlarda juft tor taqiladigan musiqiy cholg'u bo'lib, u skripka, g'ijjak cholg'ulari singari kamoncha yordamida ijro etilgan. Qoraqalpolarda bu cholg'u odatda tut, o'rik, jiyda yog'ochlaridan yasilib, uning dastasi bir tarafga qarab iyilib kelgan bo'ladi. U bosh va chanoq bo'lib, asosiy ikki bo'lakdan tuziladi. Qo'bizning gavdasi tuya

terisi bilan qoplanib, dastasiga yilqi dumidan olingan juft tor taqilib, u ko'pincha kvarta intervaliga sozlanib, bu cholg'uning diapazoni 1,5-2 oktava hajmida bo'ladi. Qo'biz hajmining uzunligi uning ijrochisi bo'lgan jirovga bog'liq. Bu cholg'u bizning milliy cholg'ularimizdan biri bo'lgan g'ijjak singari tizzaga qo'yilib, bosh qismi ijrochining chakkasiga borib turadi va kamoncha yordamida ijro etiladi. Biroq bu cholg'uni chalgan vaqtda barmoqlar g'ijjak singari dastaga tegmaydi. Qo'bizni chalganimizda tirnoq bilan barmoqning roli katta. Bu usul flajolet deb ataladi.

Qo'biz cholg'usidan yaratilib, ijro etilib kelayotgan kuylarga **"Ayg'a shap"**, **"Sholasqan"**, **"Jerbeyit"**, **"To'lqin"**, **"Aytuvar"**, **"Jan-jan"**, **"Ulli ziban"**, **"Kelte ziban"**, **"Jortuwli"**, **"Kun shig'ar"**, **"Ilq'al"**larni namuna qilsak bo'ladi. Qo'biz cholg'usi orqali ijro etilgan kuy xalqning ichki kechinmalari bilan jonli turli xil maqomga o'zgaruvchi ovozga ega. Qadim zamonlardan buyon xalqimizning ohangdoshi bo'lib, tushuntirib bo'lmas yoqimlilik in'om etish bilan birga, ko'ngil dunyosini tebrata olgan necha ming yillik tariximiz bilan chambarchas bo'lib kelayotgan ajralmas bir bo'lagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayimbetov A. Xalq donoligi. – Qoraqalpg'iston: 1988-y.
2. Toshmuxamedov M. G'ijjak. – T.: "O'qituvchi", 1995-y.
3. Toshmuxamedov M. G'ijjakda an'anaviy ijrochilikni o'zlashtirish. – T.: 1999-y.
4. Nadirova A. Qoraqalpoq musiqasi tarixi. –T.: 2018-y.
5. Идрис Шайх. Суфизм. Классические преподаватели. – М.: 1994 г.





III BO'LIM

SAN'AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

Ibrohim ABDURAHMONOV,

O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası dotsenti,
san'atshunoslik fanlari nomzodi

O'ZBEKISTON HAYKALTAROSHLIGIDA AFSONA VA RIVOYATLAR TALQINI (1991–2021-YILLAR)

Annotatsiya. Maqolada 1991–2021-yillar O'zbekiston haykaltaroshlik san'atida ijodkorlarning afsona va rivoyatlar mavzusi badiiy talqini borasidagi ilmiy mulohazalar xronologik tarzda tizimli umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: haykaltaroshlik, afsona, rivoyat, talqin, plastika, shakl, obraz, mubolag'a, uslub, majoz, realizm, dekorativizm.

Аннотация. В статье в хронологическом порядке систематически обобщены научные соображения по художественному осмыслению темы мифов и легенд творцами в скульптурном искусстве Узбекистана с 1991 по 2021 год.

Ключевые слова: скульптура, миф, легенда, интерпретация, пластика, форма, образ, преувеличение, стиль, метафора, реализм, декоративизм.

Annotation. The article systematically summarizes scientific considerations on the artistic understanding of the theme of myths and legends by creators in the sculptural art of Uzbekistan from 1991 to 2021 in chronological order.

Keywords: sculpture, legend, tale, interpretation, plasticity, shape, image, exaggeration, style, metaphor, realism, decorativism.



Mustaqillikning dastlabki yillari haykaltaroshlik san'atida jamiyatda kechayotgan ma'naviy o'zgarishlar ta'siri unchalik sezilmadi. Badiiy ifoda uslublarda 1970–80-yillardagi realistlik maktab an'analari saqlanib qolindi. Sobiq ittifoq davridagi mafkuraviy tazyiqlarning ta'siridan birdan chiqib ketish, yangi davr g'oyalarini o'zlashtirish masalalari anchayin murakkab bo'lib, ijodkorlardan ma'lum vaqt talab etardi. Ammo yillar o'tishi bilan haykaltaroshlar asta-sekinlik bilan yangi muhitda afsona va rivoyatlarga asoslangan milliy merosimizga murojaat qila boshladilar. XX asrning so'nggi o'n yilligida haykaltaroshlik san'ati [2,26-b] milliy rivojlanish bosqichni boshdan kechirdi. Bu davrda dastlabki poydevor shakllanishi uchun zamin hozirlandi. Pirovardida ilgarigi ijodiy yondashuvlar o'z o'rnini g'oyaviy va shakliy jihatdan yangilanish jarayoniga bo'shatib berdi. Badiiy talqin, plastik yechim va tasvir uslublarini takomillashtirish

borasidagi tinimsiz ijodiy izlanishlar soha rivojida asosiy omil vazifasini o'tadi. Asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, ramziy kompozitsiyali ijodiy tamoyillar shakllandi. Jamiyatda kechgan milliy uyg'onish, azaliy qadriyatlar va tarixiy xotiraning qayta tiklanilishi borasida olib borilgan keng qamrovli harakatlar haykaltaroshlik san'atiga ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi.

Dastlabki davrlarda (1990–1996) garchi tarixiy mavzu yetakchilik qilsa-da, ramziy va afsonaviy obrazlarga ham qisman murojaat qilindi. An'anaviy uslublar sayqallandi, yangicha plastik izlanishlar, mubolag'ali bo'rttirma obrazlar, "ohangdor" shakl-shamoyillar, nafis harakatli tasvirlar bu davrga xos xususiyatlardir. Shoirona lirik kechinmalar, qahramonlarning plastik jihatdan mukammalligiga intilishi, ma'lum darajada ularning ruhiy holatini yanada aniqroq, ta'sirchan ko'rinishdagi haykallar ishlanishiga zamin yaratdi. Bu davrda yaratilgan



U.Mardiyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi hovlisida o'rnatilgan *"Kokillarini yoyayotgan qiz"* (1990) kompozitsiyasi nozik plastikasi va qahramonning tashqi va ichki kechinmalari erkin talqin qilinganligi bilan ajralib turadi. Q.Norxo'rozovning *"Hayqiriq"* (1990) haykali majozga boy ohangi va teran mushohadaga chorlashi bilan ahamiyatlidir [3,16-b]. *"Qalb sadosi"* (1994)da inson ruhiyati sinoatlariga murojaat qilingan. U.O'roqovning shamot texnikasida ishlangan *"Yovuz"* (1991), *"Xayol"* (1992), *"Shoir"* (1993) kabi asarlarda folklorga xos ohangdorlik, qahramonlarni dinamik holatda ifodalash yetakchilik qiladi. Ayniqsa, *"Sevishganlar"* (1996) asari shunday ijodiy izlanishlar samarasidir. Mazkur asarlarda obrazlarning shaklan yaxlitligi, qiyofalarning poetik ruhiy holatlari tabiiy talqin qilingan [4,12-b].

Ijodkor mavzuga doir asarlarni yaratishda tosh, yog'och, sement va shamot ashyolaridan mohirlik bilan foydalandi. Birgina toshdan yasalgan asarlarida qahramonlarning ichki istak va harakatga to'la kechinmalari aniq va ta'sirchan ifodalandi. Afsonaviy *"Farhod"* (1991) haykali barelyef texnikasida bajarilgan. Obrazning hajmi uncha katta bo'lmagan o'lchamda yaratilgan. Ammo shunga qaramasdan, mahobatli obraz xossalari mos unsurlardan unumli foydalana olgan. Ijodkor tomonidan chiniqqan tananing ulkan kuchi dinamik impulsda namoyon qilib berilgan. Asar qahramoni xuddi quchog'ini ochib tutqunlikdan chiqishga urinayotgan epik qahramonni ko'z oldimizga keltiradi [5,8–19-b]. Bunday talqin o'z davrida milliy qadriyatlarimizni o'zida mujassam etgan tipik numunasi sifatida baholandi.


O'zbekiston haykaltaroshligi rivojidadagi ikkinchi bosqich sifatida 1996–2006-yillardagi ijodiy jarayonlar tilga olinadi. 1996-yillardan boshlab haykaltaroshlarda ma'lum darajada ijodiy tajriba to'plandi. Mahoratli san'atkorlar safi kengaydi. Badiiy tamoyillar barqarorlashdi. Haykaltaroshlar tomonidan ishlatilgan ashyolar, ishlanish texnikasi, badiiy tasvir uslubi va mavzular talqinidagi rang-baranglikka intilish kuchaydi. Turli afsona va rivoyatlarga oid mavzulardagi obrazlarning yangicha talqinlari yaratila boshlandi. Qoraqalpog'iston haykaltaroshligida J.Quttimurodov ijodi o'zining yetuklik pallasiga kirdi. Haykaltarosh nafaqat tosh yoki gips, hatto, yog'och ashyosida ham mazmunan teran asarlar ishlashga kirishdi. Ayniqsa, *"Amudaryo ilohasi"* (1996) asari kutilmagan kompozitsion yechim asosida bajarildi. Unda asosiy e'tibor ilohaning bosh ko'rinishini

tasvirlashga qaratildi. Daraxtning ildiz qismidan ilohaning yuz tuzilishidagi silliqlik, ko'zining biroz yumgan holda lablarida yengilgina iliq tabassum ulashayotgan holati yaxshi taassurot qoldiradi. To'zg'igan jingalak sochlari go'yo to'liqlanib oqayotgan jo'shqin daryo suvining ramzini anglatadi. Haykaltarosh o'zining tinimsiz izlanishlari natijasida afsonaviy qahramonlarning falsafiy qarashlarini plastik harakatlar orqali ishonarli talqin etilishiga erishgan. Asarda tabiiy ravishda suv va daraxt bir-biriga mazmunan uyg'unlashtirilib, badiiy-uslubiy yaxlitlikni ta'minlagan.


Mustaqilligimizning dastlabki o'n yilligida mavzuga oid dekorativ haykallar ham ishlandi. Dekorativ haykaltaroshlikning rivoji nafaqat poytaxtimizda, balki viloyatlarda ham samarali bo'ldi. Samarqandlik ustalarning afsonaviy ajdarho, kiyik va qo'zichoqlar shu yillarda barpo etilgan madaniy va ma'muriy binolarning maydonlariga o'rnilib, yaxlit ansambl hosil qilindi. Toshkent vokzali uchun ishlangan kiyiklar relyefi, Samarqand muzeyi oldiga o'rnatilgan ajdarlar, Buxorodagi "Inturist" mehmonxonasi uchun ishlangan relyef va haykallar, shuningdek, qator favvoralarga o'rnatilgan dekorativ yodgorliklar shu davr san'atning yorqin namunasidir. Dastgohli haykaltaroshlik san'atida A.Boymatov, A.Shoymurodov, T.Qosimov, D.Ro'zi-boyev, Y.Shapiro, keyinroq I.Jabborov, T.Toji-xo'jayev, A.Xatamovlar mavzuga mos samarali ijod qildilar.

Haykaltaroshligida xalq ertaklari mavzusi ham alohida o'rin tutadi. B.Ro'zmetovning *"Ertakchi momo"* (1997) asarida ko'pni ko'rgan, vijdonli, uzoq umr kechirgan momo yosh bolalarga o'z hayot daftarini birma-bir varaqlayotgan realistik qiyofasi biroz teranroq badiiy talqin etilgan. Haykaltarosh bu qahramonni ro'mol, gardonlar bilan tasvirlab, uning mahalliy Xorazm urf-odatlariga mos ko'rinishiga alohida urg'u bergan. Qahramonning tashqi ko'rinishidagi yuz ifodalaridan o'z umri mobaynida hayotning quvonch va tashvishlarini boshidan kechirganligi aniq aks ettirilgan. U go'yo mendek nuroniyni tinglang, har doim ezgulikka intilib yashang, yomonlikdan yiroq bo'ling, qabilida yosh avlodga murojaat qilayotgandek. Haykaltarosh bu obraz orqali o'zbek ayolining tipik obrazini yarata olgan.

Bu holat B.Ro'zmetovning *"Umri tugayotgan orol"* (2000) haykalida ham kuzatiladi. Yog'och imkoniyatlaridan to'liq foydalanish obrazning har tomonlama ishonarli chiqishiga xizmat qilgan. M.Borodinaning *"Masxarabozlar"* (1999) asarida



J.Quttimurodov. *"Amudaryo ilohasi"*. Yog'och. 1996-yil.



plastik xarakatlarning hissiy ifoda kuchi bo'rttirib ko'rsatilgan. Bu jihatlar istiqloq yillari dastgohli haykaltaroshligida afsona va rivoyatlarning yangi talqinlariga baho berish imkonini yaratadi. Yangi davr dastgohli haykaltaroshligida mifologik dunyoqarashning milliy o'ziga xos talqinlari borasidagi izlanishlar jarayoniga xos xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Bu davr haykaltaroshligida B.Muxtorov ijodi yangiliklarga boy bo'ldi. U yaratgan obrazlarda postmodernistik an'analarga moyillik kuzatiladi. Ko'rgazmali haykaltaroshlikda yangi ashyolar – rangli oyna, smalta, yog'och, metall va teridan foydalangan holda ajoyib kompozitsiyalar yaratdi. *“Amudaryo haqida doston”* (1999) (smalta, metall, rangli oyna) asarida serharakatlilik, kuchli kontrastlilik uyg'unlashtirilganligi o'z davrida katta voqeaga aylandi.

Bu borada yoshlar ijodi ham qiziqarli manba bo'lishi mumkin. J.Yormuhamedovning bronzadan ishlangan afsonaviy mavzudagi *“Ho'kiz”* (1998) kompozitsiyasida asosiy qahramon kuch va qat'iylilik ramzi sifatida gavdalanadi. Bunda inson qudrati majoziy ma'noda tasvirlangan. San'atkorning yana bir ishida yorug'lik va zulmat ramzi bo'lgan afsonaviy sher va qo'tosning dahshatli olishuvi asos qilib olingan [6,38-39-b]. Bu olamdagi barcha jonzoqlarning tun va kun kabi bir-birlarini doimiy ravishda mavh qilishiga ishora. A.Avakyanning shamot texnikasida ishlangan *“Ixtus”* (1999) (yunonchada “baliq” degan ma'noni anglatadi) asarida ifodalangan umumlashma obrazda yuzalar tanani shakllantirgan. Ular quyidan, yuqoridan nazar tashlashga imkon beradi. Ingichka qizil chiziqlar yorug'likni qorong'ilikdan qat'iy ajratib turuvchi va ayni paytda hajmni ifodalovchi ikki tomonlama xususiyatga ega.



Alpomish. Qurbon Norxo'rozov. 2019-yil.

XX asr so'ngida qahramonlik eposi *“Alpomish”* dostoniga e'tibor kuchaydi [8,36-b]. 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra doston yaratilganligining 1000 yilligi Xalqaro tashkilot – YUNESKO doirasida keng nishonlandi [9,12-b]. Yubiley munosabati bilan qisqa davr ichida Alpomish obrazining har xil

talqinlardagi bir-biriga o'xshamaydigan yangicha qiyofalari yaratildi.

1999-yilda Termiz shahrida epik qahramonga bag'ishlab ishlangan ramziy majmua A.Rahmatullayev, Q.Norxo'rozov, U.Mardiyeu, P.Podosinnikov kabi haykaltaroshlar hamkorligida bajarildi. Mahobatli majmuaning ikki yonidagi bo'rtma tasvirlarda Boysun elining afsonaviy manzarasi asosida Alpomishning yori Barchin va o'g'li Yodgor siymolari joy olgan. Mahobatli kompozitsiyada qahramon mahalliy an'analarga ko'ra, chap qo'lida yetti botmonli kamon, o'ng qo'lida qanotlarini yoyib uchishga shay holatda turgan qush timsoli ifodalandi. Agar kamon ozodlik va erk timsoli bo'lsa, qush xabar keltiruvchi, maktub eltuvchi – yaxshilik elchisiga qiyoslanadi.

A.Hatamov, o'zining *“Alpomish Boychiborda”* (1999) asarida epik qahramon o'zining suyuqli oti Boychibor jilovini ushlagancha jang maydoni tomon yelib borayotgan holati tasvirlangan. A.Rahmatullayev *“Alpomish”* byustida alp pahlavonni zamondoshlarimiz ichidagi oddiy qiyofalardan izlaydi. Yosh haykaltarosh J.Annazarovning misdan ishlangan *“Go'ro'g'li”* (2008) asarida klassik an'analari va yangi texnologiyalardan foydalanib, afsonaviy qahramonning ot ustida kamondan raqiblariga o'q otayotgan holati dinamik jihatdan bo'rttirib tasvirlangan [1,31-b].

Zamonaviy haykaltaroshlikda islom dinida ruhiy, axloqiy va jismoniy komillik, moddiy olamning saroblighi va Haqning mavjudligiga ishora qiluvchi tasavvuf ta'limoti aks etgan rivoyatlarga oid turkum obrazlar ishlandi. L.Nesterovning *“Darvish”* (2003) asarida oniksning texnik imkoniyatlaridan unumli foydalanib, tarki dunyochilikdagi darvishning hassa ushlagan tik holatdagi ruhiy kechinmalarini aniq ifodalay olgan. *“Nuh kemasi”*, *“So'nggi yo'l”* (2007) kompozitsiyalarida murakkab shakllar orqali asarning asl mohiyatini ochishga intilgan. Q.Norxo'rozovning *“Qanotsiz farishta”* (2011) asarida o'ta nozik va murakkab obrazlarni tonirovka qilingan gips ashyosidan unumli foydalangan holda badiylashtirilgan.

S.Tursunovning terrakotada ishlagan *“Ilhom parisi”* (1998) ham haykaltaroshning individual mahoratidan darak beradi. D.Ro'ziboyevning *“Semurg”* (1999) asarida afsonalarda o'zida qush, ilon va ayolning tana qismlarini birlashtirgan mavjudot bo'lib, tasviriy ramziy ma'noda yer, osmon, suv muhitlarini ifodalashi, suv va o'simliklarning posboni sifatida ikki xil xususiyat; ezgulik va yovuzlik xislatlari ifodalanilishiga urg'u berilgan. B.Muxtorovning mis va rangli shisha va smalta ashyolaridan ishlangan *“Semurg”* (2011) kompozitsiyasida shartli dekorativ elementlardan unumli foydalanilgan. Poytaxtimizning *“Turkiston”* saroyi oldidagi maydonga o'rnatilgan *“Xumo qushi”* (1994) yodgorligi go'yo yosh davlatimizning baxt,



omad, tinchlik va farovonlik ramzi sifatida qad rostlaganday.

A.Kotlovning *“Ona bo‘ri haqida afsona”* (2000) haykalida bezahlt ashyosidan bo‘rining o‘ziga xos obrazini yaratilgan.

D.Ro‘ziboyevning *“Ilhom parisi”* (2003) asari O‘zbekiston badiiy akademiyasi markaziy ko‘rgazmalar zali binosi oldidagi maydonga o‘rnatilgan. Abstrakt yo‘nalishdagi dekorativ elementlarga boy bo‘lishi bilan birga ritmik holatlar chuqur falsafiy ma’noga ega. Yangicha plastik yechimda ijodkor ramziylikka asoslangan. B.Muxtorovning *“Sayxun daryosi haqida doston”* (2001) kompozitsiyasida yog‘och, metall, smalta va rangli shishadan ramziy dekorativ shakl yaratganligi bilan katta qiziqishga sabab bo‘ldi.

2001-yil xalqaro tashkilot – YUNESKO doirasida *“Avesto”*ning 2700 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan Urganch shahrida maxsus bog‘ barpo etilib, uning markazida ushbu nodir qadimiy kitobga ramziy haykal o‘rnatildi. *“Avesto ramziy yodgorligi”*ga borish yo‘lagidagi zinalarning ikki yoni favvoralar bilan ziynatlandi. Yodgorlik yarim oy shaklidagi maxsus qo‘ng‘ir tusdagi marmar toshdan yasalgan bo‘lib, uning markazida sahifalari ochilgan oppoq rangdagi muqaddas kitob o‘rnatilgan [3,38–41-b].

Otashparastlik mavzusi J.Qutimurodov ijodining bir qismini tashkil etadi. Yog‘och ashyosida ishlangan *“Anaxita”* (1996) byustida obraz yosh, chiroyli, maftunkor chehrada tabiiy ishlangan. Haykaltarosh llohaning qiyofasini yaratishda ko‘proq uning soch turmagiga e’tibor qaratadi. Ma’buda timsolini qosh-ko‘zlari o‘ziga yarashgan, sohibjamol suratidagi zamonaviy qoraqalpoq qizlari qiyofasida ko‘radi. Yuzining nozik va silliqdagi, bo‘ynidagi taqinchoqlari egnidagi yo‘l-yo‘l halqali libosni eslatuvchi ko‘rinishi, egnidagi libosning halqasifat shaklda go‘yo to‘lqin hosil qilishini suvning to‘lib toshishiga qiyoslash mumkin. Bu esa hosildorlik, qut-baraka va to‘kin-sochinlik ramzidir. *“Orol ayoli”* (2000) kompozitsiyasida mahalliy ayollar go‘zalligining tipik obrazi yaratilgan.

2005-yilda poytaxtimizning mustaqillik maydoni kirish qismida uzunligi 150 metr, balandligi 12 metrni tashkil etadigan ramziy *“Ezgulik arkasi”* barpo etildi. Arka darvozasi tepasiga R.Yermetov tomonidan ishlangan dekorativ haykaltaroshlik kompozitsiyasida juft-juft turnalarning O‘zbekiston zaminiga qanot tekizib, quyoshga intilishi xalqimizning keng ma’nodagi yuksalishiga qiyoslanadi. Arkaning ikki yonida uzunasiga xalqimizning ezgu niyatlaridek oppoq laylaklar joy olgan. Turnalar bamisoli yosh mustaqil davlatimizning parvozga shaylanib turganini anglatrsa, laylaklar O‘zbekistonning tinchlik va osudalik maskani ekanini ifodalaydi. Bu beozor qush, avvalo, xotirjamlik bor joyga qo’nadi. Eng




I.Jabborov. *“Avesto” yodgorligi.*
Marmar. Urganch. 2001-yil.

nozik, aytish mumkinki, sezgir va donishmand qush faqat tinch, sokin va osoyishta joylarga keladi, degan ramziy mohiyatga urg‘u berilgan. P.Makarovning *“Haytek kabel”* Toshkent kabel zavodi hiyobonida metaldan afsonaviy hasharotlar olamiga xos *“Chayon”*, *“Ninachi”*, *“Chigirtka”*, *“Qurbaqa”*, *“Kapalak”* va *“Baliq”* (2009) ko‘rinishidagi ramziy dekorativ haykallari o‘zining yangicha talqinlari bilan alohida ajralib turadi [3,16-b].

L.Nesterovich ijodida haykaltaroshlikning mayda plastika turida afsona va rivoyatlar o‘ziga xos tarzda talqin qilindi. Qimmatbaho toshlar oniks (aqiqning yo‘l-yo‘l, taram-taram turi), lojuvard, chaqmoqtosh, xrizolit (yashil rangdagi qimmatbaho tosh), serdolik (yarim qimmatbaho tosh), yoqut, qora marjon, yashma (rangdor tosh), obsidian (shishasimon vulqon tog‘ jinsi) kabi turli tusdagi toshlarni sayqallash orqali ajoyib obrazlar yaratib keladi. Ijodkorning aksariyat asarlarida qadimiy afsonalar syujetiga murojaat qilingan. *“Dengiz afsonasi”* kompozitsiyasida (2005) baliq dumli ot tasvirini toshning o‘zidan izlagan. Tabiatning o‘zi uni shunday shaklda yaratgan. Haykaltarosh unga ozgina badiiy ishlov bergan xolos. *“Metamorfoza”* (2007) kompozitsiyasida hind ertagidagi qush odam ko‘rinishidagi g‘ayritabiiy jonot tasviriga murojaat qilingan. *“Orzu”* (2010) asarida zargarlik texnikasi qo‘llanilgan. *“Sirin”* (2018), *“Zag‘isxon”* (2017) asarlarida tumshug‘ida aqiq toshini tishlagancha uchib ketayotgan hakka tasvirlangan [10,28-b]. Uzoq yillik plastik izlanishlari natijasida afsonaviy jonotlar obrazini yaratishda o‘z uslubini yaratdi. Toshlar sirini imkon qadar o‘rganar ekan, jonotlar obrazining o‘ziga xos jihatlarini ifodalashga harakat qiladi. *“Lojuvard xayolot”* (2016) asari havorangli agat, marmardan ishlangan bo‘lib, abstrakt tafakkurga asoslangan. Usta o‘z ijodida turli materiallardan goh alohida, goh ularni aralashtirib uyg‘unlikda afsonaviy obrazlar turkumini yaratib kelmoqda.

N.Qo‘ziyeva shamot texnikasini yaxshi o‘zlashtirdi. *“Belgi afsuni”* (1992), *“Iuda”* (1993)



kabi asarlarida haykaltarosh dekorativlik asosida obrazning majoziy qiyofasini ochib bergan. Asarda go'yo bir tomonga o'tkir nigohini qaratib turgan ilohiy qush ko'z oldimizga keladi. Bunda afsonaviy qahramon obrazi biroz bo'rttirilib, ruhiy olamining murakkab kechinmalarini ifodalash yetakchi o'ringa olib chiqilgan. *"Dunyoning to'rt tomoni"*, *"Farishta"* (2008) asarlarida esa shamot va kulolchilik bo'yog'idan foydalanib, ganchli bezaklar orqali borliqning mohiyatini ochishga intilishi zamonaviy haykaltaroshlikda yangi qadam bo'ldi.

Afsona va rivoyatlar mavzusiga G.Sultonova ijodida ham murojaat qilingan. Mayda plastikada bajarilgan *"Yevropaning o'g'irlanilishi"* asarida qadimgi yunon miflaridagi yirtqich buqani emas, balki xotirjamlik bilan dengiz osha suzib borayotgan mehribon jonzo'tning tipik obrazini yarata olgan. Go'zal qiz qiyofasidagi Yevropa ham unga mos uslubda yaratilgan bo'lib, go'yo buqa ustida jimgina uxlab yotgandek tasavvur hosil qiladi. Kompozitsiya to'liq holda sharqona tasavvurlarga mos bajarilgan bo'lib, qadimgi ayol xudolarning terrakotalariga yaqinroq uslub tanlangan. Obraz to'liq holda romantik talqin qilingan [10,27-28-b].

Mustaqillik yillarida dekorativ-landshaft plastika-siga ham alohida e'tibor qaratildi. Toshkent shahrida bu borada muvaffaqiyatli ijod qilayotgan haykaltarosh va kulollar guruhi shakllandi. D.Ro'ziboyev poytaxtimizning turli maydonlari va istirohat bog'larida o'rnatilgan ertak-mifologik obrazlar mavzusida dekorativ kompozitsiyalar turkumini yaratadi. Ularda landschaft plastikasi rivojining ijobiy tamoyillari yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'tgan davr ichida haykaltaroshlik san'ati rivojida ikkita muhim jihat aniq ko'zga tashlanadi.

Birinchi jihati, bevosita professional haykal-taroshlar tomonidan ishlangan asarlar bilan bog'liq. Mavzuga oid asarlar J.Qutimurodov, I.Jabborov, R.Yermetov, A.Xotamov, U.O'roqov, T.Tojixojayev Q.Norxo'rozov va boshqa ijodkorlar tomonidan yaratilgan asarlarda haykaltaroshlarning individual ijodiy mahorati ko'zga tashlanadi. Ularning tajribasi tufayli yaratilgan obrazlar har tomonlama takomilga yetkazishga harakat seziladi. Biroq ayrim ishlarda ularga buyurtmachilar tomonidan nihoyatda kam vaqt berilishi ijodkorlarning asar g'oyasini har tomonlama to'liq ifodalashiga xalaqit beradi. Pirovardida ishning ba'zi jihatlari maromiga yetmay qolishiga olib kelmoqda. Haykallarning o'rnatilganligiga hech qancha vaqt o'tmay ta'mirtalab holatga kelib qolishi ham shundan.

Ikkinchi jihati, bevosita havaskorlik darajasidagi ijodiy ishlar bilan bog'liq. Aksar hollarda yurtimizda barpo etilayotgan xususiy maishiy binolar, inshootlar va boshqa xizmat ko'rsatuvchi korxonalar oldiga, kirish dorvozasi yoniga va boshqa ko'zga tashlanadigan joylarga turli afsonaviy jonzo'tlar va qushlar haykallari o'rnatilmoqda. Bu yaxshi an'ana. Lekin bu jarayonda biroz tajribasiz bo'lgan havaskorlik darajasidagi haykaltaroshlarning jalb qilinishini oqlamagan bo'lardik. Natijada ularning aksariyati badiiy jihatdan talab darajasiga yetmay turib o'rnatilmoqda. Bunday haykallar nafaqat shakl va mazmun, hatto, oddiy anatomik o'lchovlarga ham javob bermaydi. Buyurtmachilar talablariga ko'ra ularning rangi va hajmiga urg'u berilgan, xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova Z.A. O'zbekiston zamonaviy tasviriy san'atida ayollar obrazi. 17.00.08 – San'at nazariyasi va tarixi ixtisosligida san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: MRDI, 2021-y. 117-b.
2. O'zbekiston san'ati (1991–2001-yillar). – T.: "Sharq", 2001-y. 266-b.
3. O'zbekiston tasviriy san'ati antologiyasi. Haykaltaroshlik. – T.: "San'at" jurnali nashriyoti, 2011-y. 116-b.
4. Po'latov D.S. O'zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari. 17.00.04 – Tasviriy va amaliy bezak san'ati ixtisosligi bo'yicha san'atshunoslik nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: SITI, 2008.
5. Mambetkadirov G'A. Qoraqalpog'iston haykaltaroshligining shakllanishi va rivoji (XX asr 60-yillari XXI asr boshlari). 17.00.04 – Tasviriy va amaliy-bezak san'ati ixtisosligida san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2018.
6. Jamilova M. "Haykaltarosh Javlon Yormuhamedov". "San'at" jurnali, 2001-yil, 2-son. 38-39-bet.
7. Ijodimiz haqida gapirsak (Beshinchi jild). – T.: O'zBA 2009-y. 12-13-b.
8. Mustaqillik davri o'zbek monumental haykaltaroshlik san'ati. – T.: O'zBA "Media Art" Press, 2011-y. 36-b.
9. "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yilligini nishonlash to'g'risi"da O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. – T.: 1998-yil, 13-yanvar.
10. Levteyeva L. "Toshlar siri" // "San'at" jurnali, 2007-yil, 1-son. 27-28-bet.



CORRESPONDENCE OF PHILOSOPHICAL MEANING IN MEANS OF ARTISTIC EXPRESSION

Annotation. *The theatrical stage serves as a canvas for the convergence of various artistic elements, working synergistically to captivate the audience's attention. Understanding the dynamics of attention in the realm of theater is crucial for both performers and directors seeking to create memorable and impactful experiences. This scientific article delves into the intricate web of attention elements on stage, examining the interplay between actors, set design, lighting, sound, and other factors that contribute to the audience's focused engagement.*

Keywords: *theatrical attention, stagecraft, audience engagement, actor's craft, set design, lighting design, soundscapes, technology in theater, cognitive psychology.*

Annotatsiya. *Teatr sahnasi badiiy ifoda vositalari uyg'unlashuvida falsafiy ma'nodan so'z ochadi. Ijod mahsullarining uyg'unlashuvida asarda ilgari surilgan g'oya mazmunan va shaklan falsafiy mazmunni ifodalaydi. Ushbu maqolada tomoshabinning diqqat-e'tiborini jalb etishda sahnaviy ifoda vositalarining badiiy ta'sir kuchi falsafiy nigohda tahlil etiladi.*

Kalit so'zlar: *sahnaviy falsafa, jalb qilish, aktyor mahorati, dizayn, yoritish vositasi, ovoz turlanishi, teatrdagi texnologiya, kognitiv psixologiya.*

Аннотация. *Театральная сцена служит холстом для конвергенции различных художественных элементов, работающих синергетически, чтобы захватить внимание аудитории. Понимание динамики внимания в сфере театра имеет решающее значение как для исполнителей, так и для режиссеров, стремящихся создать запоминающиеся и впечатляющие произведения. Наше внимание направлено на сложную сеть элементов художественных образов на сцене, исследуя взаимодействие между актерами, сценографией, освещением, звуком и другими факторами, которые способствуют сосредоточенному вовлечению аудитории.*

Ключевые слова: *театральное внимание, вовлечение аудитории, актерское мастерство, сценография, световой дизайн, звуковые ландшафты, технологии в театре, когнитивная психология.*



The theatrical stage is a multifaceted space where visual, auditory, and emotional stimuli converge to form a unique and immersive experience. The ability to command and manipulate attention is a cornerstone of successful stagecraft. This article aims to dissect the key elements that influence the audience's attention and explore the scientific principles underlying their efficacy.

The Actor's Craft: At the heart of any theatrical production lies the performer, whose skill in capturing and maintaining attention is paramount. The use of body language, vocal modulation, and facial expressions plays a pivotal role in directing the audience's focus. Scientific studies on cognitive psychology and the neuroscience of attention shed light on how

these elements can be optimized to create a more compelling stage presence.

Set Design and Spatial Composition: The physical environment of the stage, encompassing set design and spatial composition, significantly shapes the audience's attention. Research into environmental psychology provides insights into how the arrangement of props, scenery, and stage dimensions can influence attention allocation. The manipulation of spatial elements can guide the audience's gaze and enhance the overall narrative impact [1, p.79].

Lighting and Visual cues: Lighting design is a powerful tool in directing attention on stage. By strategically illuminating certain areas and characters, lighting designers can guide the audience's focus and create a visual hierarchy.





This section explores the psychological effects of lighting on perception and attention, drawing from studies in vision science and perceptual psychology. Acoustics and Soundscapes: Auditory elements, including sound effects, music, and dialogue, contribute significantly to the overall attentional experience. Research in psychoacoustics provides valuable insights into how sound can be manipulated to enhance emotional engagement and focus. Understanding the interplay between auditory stimuli and attentional processes is crucial for sound designers and directors.

Interdisciplinary Approaches: The integration of various scientific disciplines, including psychology, neuroscience, and design, offers a holistic understanding of attention dynamics on stage. Collaborative efforts between artists and scientists can yield innovative approaches to stagecraft, fostering the development of new techniques and technologies to capture and sustain audience attention. In conclusion, the dynamics of attention on the theatrical stage are a multifaceted interplay of artistic and scientific elements. As our understanding of cognitive processes and sensory perception advances, so too can the tools available to creators in the realm of theater. By embracing an interdisciplinary approach, theater practitioners can unlock new dimensions of storytelling and audience engagement, ensuring the continued evolution of this timeless and captivating art form.

Technology and Interactive Experiences

In recent years, advancements in technology have opened up new frontiers in theatrical storytelling. Virtual reality, augmented reality, and interactive technologies offer exciting possibilities for engaging audiences in unprecedented ways. This section explores how incorporating these technologies into stage productions can influence attention and create immersive, participatory experiences. Additionally, research in human-computer interaction and user experience design informs the effective integration of technology into the theatrical landscape. [2, p.12].

Cognitive Load and Audience Engagement

Understanding the cognitive load imposed on the audience is crucial for maintaining engagement. Cognitive psychology research sheds light on how the complexity of a performance, including the number of simultaneous stimuli and the demands placed on cognitive resources, can impact attention and comprehension. Striking a balance between

complexity and clarity is essential for sustaining audience interest throughout a production.

Cultural and Societal Influences

The perception of attention and its elements on stage can vary across different cultures and societies. This section explores the role of cultural context in shaping audience expectations and preferences. Understanding the sociocultural factors that influence attention can guide directors and performers in tailoring their approach to resonate with diverse audiences.

Neuroaesthetics and Emotional Impact

Neuroaesthetics investigates the neural mechanisms underlying aesthetic experiences, offering insights into the emotional impact of theatrical elements. This section delves into studies on the brain's response to visual and auditory stimuli, shedding light on how certain artistic choices can evoke specific emotions. Understanding the neuroaesthetics of attention can inform the creation of performances that leave a lasting impression on the audience.

Future Directions and Challenges

As we explore the intricate web of attention elements on stage, it is essential to consider future directions and potential challenges. This section discusses avenues for further research, the ethical implications of emerging technologies in theater, and the ongoing evolution of audience preferences. The collaborative efforts of artists, scientists, and technologists will continue to shape the future of theatrical productions. [3, p.95]

In conclusion, the scientific exploration of attention elements on the theatrical stage is an ever-evolving journey. By synthesizing knowledge from psychology, neuroscience, design, technology, and cultural studies, theater practitioners can refine their craft and push the boundaries of what is possible. As we navigate the dynamic intersection of science and art, the stage remains a canvas for innovation, emotion, and the timeless quest to capture and sustain the audience's attention in new and compelling ways.

Recommendations for Practitioners

Building on the insights gained from scientific research, this section provides practical recommendations for theater practitioners seeking to enhance attention on stage. These recommendations include:

a. **Collaboration and Interdisciplinary Work:** Encourage collaboration between artists, scientists, and technicians to leverage diverse expertise in crafting compelling and attention-grabbing performances.



b. **Audience-Centric Design:** Prioritize the audience's experience by considering their perspectives, expectations, and cultural backgrounds in the design and execution of theatrical productions.

c. **Experimentation and Innovation:** Embrace a spirit of experimentation to explore new techniques, technologies, and narrative approaches. Innovation can spark fresh interest and engagement from audiences.

d. **Sensory Integration:** Consider the holistic integration of visual, auditory, and tactile elements to create a multi-sensory experience. This approach can deepen emotional connections and enrich the overall impact of a performance.

e. **Adaptability:** Recognize the dynamic nature of audience attention and be prepared to adapt performances based on real-time feedback. Flexibility in response to audience reactions contributes to a more dynamic and engaging theatrical experience. [4, p.78]

Educational Implications

The insights gained from scientific exploration into attention elements on stage have profound implications for theater education. Theater schools and programs can integrate findings from cognitive science, psychology, and technology into their curriculum to equip aspiring artists

with a deeper understanding of the mechanisms behind audience engagement. By fostering a knowledge-rich environment, theater education can prepare the next generation of performers, directors, and designers to push the boundaries of the art form.

The Ethical Dimension

As technology continues to play an increasing role in theatrical productions, ethical considerations become paramount. This section explores the ethical implications of using attention-enhancing technologies, ensuring that creators prioritize the well-being and consent of the audience. Striking a balance between technological innovation and ethical responsibility is essential for maintaining the integrity of the theatrical experience [5, p.19].

Closing Thoughts: The exploration of attention elements on the theatrical stage is a journey at the intersection of art and science. By weaving together insights from psychology, neuroscience, technology, and cultural studies, theater practitioners can unlock new dimensions of creativity and engagement. As we navigate the evolving landscape of theater, let us embrace the challenges and opportunities that lie ahead, ensuring that the stage continues to be a space where the magic of attention is both an art and a science.

References:

1. Gibson J.J. (1977). The theory of affordances. In R. Shaw & J. Bransford (Eds.), *Perceiving, Acting and Knowing: Toward an Ecological Psychology*. Lawrence Erlbaum Associates.
2. Gazzaniga M.S., Ivry, R., & Mangun, G.R. (2018). *Cognitive Neuroscience: The Biology of the Mind* (5th ed.). W.W. Norton & Company.
3. Hogan P. (2010). *The Mind and It's Stories: Narrative Universals and Human Emotion*. Cambridge University Press.
4. Lavie N. (2005). Distracted and confused? Selective attention under load. *Trends in cognitive Sciences*, 9 (2).
5. Pallasmaa J. (2014). *The Eyes of the Skin: Architecture and the Senses*. John Wiley & Sons.





Sarbinaz KAIPBERGENOVA,
teacher of Nukus branch of the Institute of Arts and Culture of Uzbekistan,
Sanavar TURDIMURATOVA,
a student of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture, Nukus branch

ON THE PHILOSOPHICAL ESSENCE OF MISE-EN-SCÈNE IN THEATRICAL ART

Annotation. *Mizanssena, derived from the French term "mise en scène," encompasses the intricate procedure of placing, moving, and changing actors on stage during a theatrical performance. This multifaceted aspect of theatre production serves as a pivotal tool in shaping the actions of participants, defining the relationships between characters, and contributing to the ideological resolution of the work. This scientific article explores the profound significance of mizanssena in the realm of theatre, delving into its historical roots, contemporary applications, and its role as a dynamic force in the creative process.*

Keywords: *mizanssena, actor placement, blocking, set design, emotional resonance, audience engagement, cultural perspectives.*

Annotatsiya. *Mizanssena, fransuzcha "mise en scène" atamasidan olingan bo'lib, teatr tomoshasi paytida aktyorlarni sahnaga joylashtirish, harakatlantirish va almashtirishning murakkab protseduralarini o'z ichiga oladi. Aktyorlarni sahnada joylashtirish, voqeaga monand harakat chiziqlarini belgilash ham bir san'at. Sahnaviy har bir xatti-harakat, jihozlar, sahnaviy bezaklarda falsafiy ma'no anglashmog'i kerak. Ushbu maqolada mizanssenaning teatr sohasidagi ahamiyati, tarixiy ildizlari, sahna va falsafiy ma'no uyg'unlashuvi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *mizanssena, aktyor joylashuvi, bloklash, set dizayni, hissiy rezonans, tomoshabinlar ishtiroki, madaniy istiqbollari.*

Аннотация. *Мизансцена, происходящая от французского термина «mise en scène», охватывает сложную процедуру размещения, перемещения и смены актеров на сцене во время театрального представления. Этот многогранный аспект театрального производства служит основным инструментом в формировании действий участников, определении отношений между персонажами и содействии идеологическому разрешению работы. В этой научной статье исследуется глубокое значение мизансцены в сфере театра, углубляясь в ее исторические корни, современные приложения и ее роль как динамической силы в творческом процессе.*

Ключевые слова: *мизансцена, блокинг, сценография, эмоциональный резонанс, вовлечение аудитории, культурные перспективы.*

Mizanssena, as a fundamental element of theatrical production, involves the careful orchestration of actors, props, lighting, and other scenic elements on the stage. This process is not merely about the physical arrangement of components; rather, it is an artful and intentional endeavor that influences the audience's perception, emotional engagement, and understanding of the performance.

Historical Roots


The origins of mizanssena can be traced back to ancient Greek theatre, where the positioning of actors and chorus members played a crucial role in the delivery of the narrative. Over the

centuries, various theatrical traditions have refined and expanded upon these principles, with the Renaissance and later movements contributing to the development of elaborate stage designs and intricate blocking techniques.

Components of Mizanssena

a. **Actor Placement:** The spatial arrangement of actors on stage is a critical aspect of mizanssena. The director's decisions regarding actor positions can convey power dynamics, relationships, and emotional nuances that enhance the overall impact of the performance.

b. **Movement and Blocking:** Mizanssena involves the choreography of actor movements,



commonly referred to as blocking. The director, in collaboration with the choreographer, determines the path and tempo of actors' movements, contributing to the seamless flow of the narrative.

c. **Set Design:** Mizanssena extends to the design and arrangement of the stage itself, encompassing set elements, furniture, and props. These visual elements not only provide context but also serve as symbols that reinforce the underlying themes of the production.

Mizanssena in Contemporary Theatre

In the modern era, advancements in technology have expanded the possibilities of mizanssena. Projection mapping, virtual sets, and innovative lighting techniques contribute to a heightened sensory experience for the audience. However, the essence of mizanssena remains rooted in the director's ability to manipulate the physical and visual elements of the stage to evoke a desired emotional response.

Ideological Significance

Beyond its technical aspects, mizanssena plays a pivotal role in conveying the ideological themes of a theatrical work. The intentional arrangement of actors and elements on stage serves as a powerful tool for directors to communicate deeper meanings, social commentary, and cultural context [1, p.317].

In conclusion, mizanssena stands as a dynamic and indispensable facet of theatrical production. From its historical origins to its contemporary applications, the art and science of placing, moving, and changing actors on stage contribute significantly to the overall impact and success of a theatrical performance. As theatre continues to evolve, mizanssena remains a powerful tool for directors to engage and captivate audiences while conveying rich and complex narratives.

Directorial Vision and Mizanssena

The director's vision is paramount in shaping the mizanssena of a production. Through a keen understanding of the script, characters, and overarching themes, the director employs mizanssena to translate ideas into visual and spatial arrangements. This collaboration of artistic vision and technical execution ensures a cohesive and impactful presentation on stage.

Emotional Resonance and Audience Engagement

Mizanssena serves as a conduit for emotional resonance, forging a connection between the performers and the audience. Thoughtful actor placement and movement can evoke empathy, tension, or catharsis, fostering a more profound and memorable theatrical experience. In this

way, mizanssena becomes a silent storyteller, influencing the audience's emotional journey throughout the performance.

Training and Skill Development: Proficiency in mizanssena requires a combination of theoretical knowledge and practical skills. Actors, directors, and stage designers undergo training to understand the principles of spatial dynamics, movement, and the psychological impact of staging choices. Aspiring theatre professionals study the nuances of mizanssena to enhance their ability to contribute meaningfully to the collaborative process of production.

Cultural and Global Perspectives

Mizanssena is not bound by cultural or geographical constraints; rather, it reflects a universal language of expression. Different theatrical traditions around the world incorporate unique mizanssena practices, showcasing the diversity of human storytelling. By studying and appreciating these varied approaches, theatre practitioners gain insights into the rich tapestry of global performance arts [2, p.431].

Challenges and Innovations

While mizanssena is a powerful tool, it comes with its set of challenges. Directors must navigate spatial constraints, technical limitations, and the need for innovation to keep pace with evolving audience expectations. The integration of technology, such as augmented reality and interactive sets, presents exciting possibilities for pushing the boundaries of mizanssena and redefining the theatrical experience.

Future Directions: As theatre continues to evolve, the future of mizanssena holds promising developments. Collaborations between traditional stagecraft and cutting-edge technologies are likely to redefine the boundaries of what is achievable on stage. Moreover, interdisciplinary collaborations with fields such as psychology and neuroscience may deepen our understanding of the psychological impact of mizanssena on both performers and audiences.

In essence, mizanssena emerges as a dynamic and evolving discipline within the theatrical arts. Its roots in history, contemporary applications, and potential future innovations underscore its pivotal role in shaping the language of theatre. As theatre practitioners continue to explore the intricate interplay of spatial arrangements, movement, and visual design, mizanssena remains at the forefront of theatrical expression, enriching the cultural tapestry of storytelling around the globe [3, p.61].

Interdisciplinary Insights: Mizanssena, while





firmly rooted in the realm of theatre, has also found resonance in interdisciplinary studies. Scholars from fields such as semiotics, psychology, and sociology have explored the symbolic and cultural dimensions embedded in mizanssena. Understanding how the visual and spatial elements of a performance influence audience perception provides valuable insights not only for theatre practitioners but also for those interested in the broader study of human communication and expression.

Education and Pedagogy: The teaching of mizanssena is integral to the education of theatre professionals. Drama schools and academic institutions emphasize the importance of mizanssena in their curricula, ensuring that emerging artists gain a comprehensive understanding of its principles. Practical exercises, workshops, and hands-on experiences contribute to the development of the skills necessary to execute mizanssena effectively [4, p.76].

Collaboration and Communication

Effective communication among members of a production team is crucial for successful mizanssena. Directors collaborate with set designers, lighting designers, and costume designers to create a cohesive visual language that aligns with the directorial vision. This collaborative approach fosters a shared understanding of how each element contributes to the overall mise en scène, enhancing the unity and impact of the performance [5, p.18].

Adaptability in Different Genres

Mizanssena is a versatile concept that adapts to the unique demands of various theatrical genres. From the highly stylized

and symbolic staging of avant-garde theatre to the naturalistic settings of classical drama, directors utilize mizanssena to cater to the specific requirements of each production. This adaptability highlights the malleability and universal applicability of mizanssena as a theatrical tool.

Critical Reception and Analysis: Critics often engage in detailed analyses of mizanssena, assessing how directorial choices contribute to the overall success or failure of a production. The placement of actors, the use of space, and the coherence of visual elements are scrutinized to evaluate the effectiveness of the director's approach. Mizanssena, in this context, becomes a lens through which the artistic merit of a performance is evaluated.

Ethical Considerations: Beyond its artistic and technical dimensions, mizanssena also raises ethical considerations. Directors must navigate the responsible portrayal of sensitive topics, ensuring that staging choices align with ethical standards and cultural sensitivity. The impact of mizanssena on audience perceptions and attitudes underscores its potential influence in shaping societal perspectives.

In conclusion, mizanssena stands as a dynamic and multifaceted discipline within the broader landscape of theatre. Its evolution over time, adaptability to diverse genres, and impact on interdisciplinary studies underscore its significance in the world of performing arts. As theatre continues to push the boundaries of creativity and expression, mizanssena remains a central force, continually shaping the visual, emotional, and intellectual dimensions of the theatrical experience.

References:

1. Brockett O. G., & Hildy, F. J. (2007). History of the theatre. Pearson.
2. Pavis P. (1998). Dictionary of the Theatre: Terms, Concepts, and Analysis. University of Toronto Press.
3. Innes C. (2008). Avant-Garde Theatre: 1892–1992. Routledge.
4. Meyerhold V. (1969). Meyerhold on Theatre. Bloomsbury Methuen Drama.
5. Artaud A. (1958). The Theatre and It's Double. Grove Press.



XALQ AMALIY SAN'ATI IJTIMOIY-MADANIY VOQELIK SIFATIDA



Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq amaliy san'atining ijtimoiy va madaniy hayotdagi o'rni, globallashuv sharoitida milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ'ib qilish vositasi sifatida madaniy diplomatiyadagi muhim o'rni, uni asrash chora-tadbirlari va kelajak avlodga yetkazishning muhim jihatlari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: estetika, islomiy, handasaviy, texnika, motiv, dinamika, global, standart, identifikatsiya, turizm, eksport, dizayn, moda, elektron, milliy identitet, diplomatiya.

Аннотация. В данной статье рассматриваются роль народного прикладного искусства в социально-культурной жизни, его значимость в культурной дипломатии как средства продвижения национальной культуры на международном уровне в условиях глобализации, а также меры по его сохранению и важные аспекты передачи будущим поколениям.

Ключевые слова: эстетика, исламский, геометрический, техника, мотив, динамика, глобальный, стандарт, идентификация, туризм, экспорт, дизайн, мода, электронный, национальная идентичность, дипломатия.

Annotation. This article discusses the role of folk applied art in socio-cultural life, its significant place in cultural diplomacy as a means of promoting national culture on an international scale in the context of globalization, as well as measures to preserve it and important aspects of passing it on to future generations.

Keywords: aesthetics, islamic, geometric, technique, motive, dynamics, global, standard, identification, tourism, export, design, fashion, electronic, national identity, diplomacy.



Xalq amaliy san'ati tarixiy-madaniy merosning tarkibiy qismi, u asrlar davomida shakllanib, sayqal topib kelgan badiiy estetik ijod turidir. Xalq o'z orzu-tilaklari, olam haqidagi tasavvurlari va badiiy-estetik ideallarini amaliy san'atda ifoda etgan. "Xalq ijodi, – deb yozgan edi akademik D.S Lixachev, – xalq hayoti va ruhning jonli guvohi, milliy tarixi uning amaliy san'atida in'ikos topadi. Xalqni, millatni anglash uchun uning amaliy san'atini o'rganish darkor [1,78-79-b].


O'zbek xalq amaliy san'atiga kashtachilik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, gilamdo'zlik singari ko'plab ijod yo'nalishlari kiradi. Qadimda har bir oila a'zolari bir necha hunar turlarini o'rganib, shu orqali oila tebratishgan. O'zbek oilalarida bolalar eslarini tanishi bilanoq biron hunarga yo'naltirilgan. Qizlar 6-7 yoshlaridan kashtachilik, do'ppido'zlik, naqqoshlik bilan o'g'il bolalar esa kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik kabi hunar turlarini o'zlashtira boshlashgan. Bolalar kattalarga ro'zg'or ishlariga ko'maklashish bilan bir qatorda, bo'sh vaqtlarida yuqorida sanab o'tilgan biror

hunarmandchilik turi bilan shug'ullanish orqali o'zlarining yashirin iste'dod va qobiliyatlarini kashf etib borishgan. Hunarmandchilik turlarining barchasi bolalarni ham aqliy, ham jismoniy rivojlanishlariga, o'zlariga bo'lgan ishonchning ortishiga, kelajakda jamiyatda o'z o'rniga ega shaxs sifatida shakllanishida muhim rol o'ynagan.

O'zbek milliy kashtachiligi (kashtado'zlik) amaliy san'atning eng qadimiy turlaridan biri bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashtachilik asosida tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Chunki kashtachilik namunalari asosan uyni bezash vazifasini bajargan. Zardevor – uy jihozi, u sidirg'a, shoyi, baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyum bo'lib, yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo'yiladi.

O'zbek kashtachiligi iqlim, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. XIV–XV asrlarga mansub miniatyuralarda kashtachilikning juda qadimdan





rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. 1467-yil Kamoliddin Behzod "Zafarnoma"ga ishlagan "Temur taxtda" miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Qadimiy an'analarga ko'ra o'zbek qizlari, bo'lajak kelinchaklar har xil kashtachilik buyumlarini o'zlari tayyorlashlari lozim edi. Kashtalar qanchalik nozik, chiroyli ishlangan bo'lsa, qayliq shunchalik yuqori baholanar edi [2,312–315-b].

Kashtachilikning muhim turlaridan biri zardo'zlikdir. Zardo'zlik – zar ip bilan kashta tikish kasbi bo'lib, O'zbekistonda, ayniqsa, Buxoroda keng tarqalgan. Zardo'zi usulida tayyorlangan kashtalarda oltin, kumush rangdagi ipak hamda sun'iy ipak va tolalardan foydalaniladi. Zardo'zlik san'ati uzoq tarixga ega. Zardo'zlikning vatani uzoq Vavilon bo'lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo'lgach, zar, ipak va jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachilik bilan mashhur bo'lgan. Vizantiyada zardo'zi kiyim-kechaklarni faqat imperator ayonlari, aslzodalar kiyishgan. Vizantiya bilan muntazam madaniyat hamda siyosiy hamkorlik qilishi tufayli zardo'zlik san'ati Eron podshohligi saroyida ham rivoj topgan. Eronda zardo'zlik san'atining rivojlanganligi XV–XVII asrlarga to'g'ri keladi. Vizantiyadan Qadimgi rusga ham zardo'zlik san'ati kirib keladi. Kichik Osiyo doirasida zardo'zlik XIII–XV asrlarda ham rivoj topdi. O'rta Osiyoda zardo'zlik juda qadimdan rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san'ati turlaridan biridir. Arxeologik topilmalar va tarixiy manbalardan ma'lum bo'lishicha O'rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan I–II asrlarda zarbof kiyimlar keng tarqalgan. Abdurazzoq Samarqandiyning "Hindiston safarnomasi" asarida 1442-yil Shohrux zamonida Shimoliy Hindiston bilan Hirot o'rtasida turgan elchilarning sovg'alari orasida zarbof kiyimlar bo'lganligini aytib o'tgan [2,320-b].

O'zbek hunarmandchiligi bo'lmish kulolchilikning O'zbekistonda bir qancha yirik maktablari mavjud bo'lib, jumladan, Rishton, G'ijduvon, Xiva, Samarqand, Shahrisabz va Toshkent buning yaqqol misolidir.

Rishton (Farg'ona vodiysi) kulollari havorang, ko'k va yashil naqshlar bilan bezatilgan sopol buyumlari bilan mashhur. Maxsus "ishkor sir" ("shaffof sir") ishlatiladi, bu buyumlarga tabiiy jilo va nafislik beradi. Rishtonlik ustalar gul, barg, islimiy va geometrik



O'zbekiston xalq ustasi Sharofiddin Yusupov
(1945-2025)

naqshlar bilan bezatilgan idishlar, kosa, lagan, guldona yasashadi.


G'ijduvon kulolchilik maktabi (Buxoro viloyati) juda mayda va murakkab naqshlar ishlatishadi. Qizg'ish, jigarrang va sariq tuslar ustuvor bo'lib, ular tabiiy bo'yoqlar yordamida olinadi. Kulolchilik buyumlari qalin devorli bo'lib, mustahkamligi bilan ajralib turadi.

Xiva kulolchilik maktabi (Xorazm viloyati) ko'k, oq va havorang ranglar ustuvorligi bilan ajralib turadi. Sopollar sirlangan bo'lib, ular katta patnislar, idishlar va devoriy bezaklar tayyorlashda qo'llanadi.

Samarqand kulolchilik maktabi sopol buyumlarining shakli yumaloq va nozik bo'ladi. Ko'k va oq ranglar, ba'zan tilla naqshlar bilan bezatiladi. Samarqand kulollari asosan oshxona idishlari, kosa va laganlar tayyorlaydi.

Shahrisabz kulolchilik maktabi (Qashqadaryo viloyati) kulollari qalin devorli, mustahkam sopol buyumlar yaratadi. Ularning ishlari jigarrang, sarg'ish va yashil ranglarda bo'lib, gul va islimiy naqshlar bilan bezatiladi. Bu maktab kulollari asosan sopol idishlar, ko'za, kosa va tandirlar tayyorlaydi.

Toshkent kulolchilik maktabi Toshkent kulollari an'anaviy va zamonaviy uslublarni uyg'unlashtirgan. Yashil va ko'kimtir naqshlar bilan bezatilgan sopollari bilan mashhur. Toshkent ustalari ko'proq ichimlik idishlari, choynak, kosa va ko'zalar ishlab chiqaradilar. Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston hududida o'zbek hunarmandchiligiga oid ko'plab maktablarning mavjudligi o'z-o'zidan hunarmandchilikning keng yoyilganligi hamda hunarmandlar mahallalarining yuzaga kelishiga zamin yaratgan, desak aslo xato bo'lmaydi.



Toshkent shahri boy tarixiy merosga ega bo'lib, unda hunarmandchilikning turli sohalari rivojlangan. Tarixiy manbalarga ko'ra, XVI–XIX asrlarda shaharda hunarmandlar kasbiga ixtisoslashgan mahallalar shakllangan. Masalan, Degrez (temirchilar), Kulolgaron (kulollar), Zargarlik (zargarlar), Pichoqchi (pichoqchilar), Taqachi (taqachilar), Charxchi (charxchilar), O'qchi (o'qchilar) va Misgarlik (misgarlar) kabi mahallalar mavjud bo'lgan. Shuningdek, Toshkentning eski shahar qismida hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi mahallalar bo'lgan. Masalan, Degrezlik mahallasi temirchilik bilan, Zargarlik mahallasi zargarlik bilan mashhur bo'lgan. Bu mahallalar hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish va savdo-sotiq markazlari sifatida faoliyat yuritgan. Bugungi kunda Toshkentda hunarmandchilik an'analari davom ettirilmoqda. Shahar bo'ylab hunarmandlar o'z mahsulotlarini namoyish etadigan ko'plab do'konlar va bozorlar mavjud. Masalan, Eski Juva bozori va Chorsu bozori hunarmandchilik buyumlari savdosi bilan mashhur. Shuningdek, shaharda hunarmandchilikka oid ko'rgazma va yarmarkalar ham o'tkazilib turadi [4].

Dastlabki davrda oiladagi o'g'il farzandlarning barchasi otasining hunarini davom ettirishgan va bunga ota meros hunar, deb qarashgan. Keyinchalik esa oiladagi o'g'il farzandlardan hech bo'lmaganda bittasi otasining hunarini davom ettirishi orqali an'ana davom etgan. Hunarmandning ustaxonasi, ish jarayonida foydalaniladigan barcha asbob-uskunalar, va ayniqsa, ushbu hunarning sir-sinoati otadan o'g'ilga meros sifatida qoldirilgan.

“Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarini nafis naqshlar bilan bezar ekanlar, zavq olish bilan bir qatorda ular orqali o'z orzu-umidlarini, muhabbatlarini, tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh ustalar inson ruhiyatini juda chuqur va har taraflama o'rganib, o'ylarini ajoyib naqsh-u nigorlar bilan bezaganlar. Naqshlardagi mazmunlarni anglash uchun naqshning har bir elementi va ranglarini ramziy alifbosini o'rganish kerak. Ramz nima? “Ramz” – arabcha “ishora qilmoq” so'zidan olingan bo'lib, ramziylik olam va odam ruhiyati, tabiat, voqelik, hayot falsafasini jonli chiziqlar, ranglar orqali tasvirlashdir” [5].

Xalq amaliy san'atida ishlatiladigan islmiy va handasaviy naqshlar bezak san'atining muhim tarkibiy qismidir. Ular turli millatlarning madaniyati, urf-odatlar va estetik qarashlarini aks ettiradi. Ushbu naqshlar o'zining ramziy va funksional ahamiyatiga ega bo'lib, ular

kashtachilik, kulolchilik va gilamdo'zlik kabi amaliy san'at turlarida keng qo'llaniladi.

Islmiy naqshlar – o'simliksimon, bir-biriga uzviy bog'langan shakllardan tashkil topgan murakkab bezaklar sanaladi. Ularning asosiy xususiyatlari o'simlik motivlari: barglar, novdalar, gullar (masalan, lola, atirgul, chinnigullar). Uzviylik va dinamika: naqshlar bir-biriga uzluksiz bog'langan va simmetrik bo'ladi. Ruhiy va ma'naviy ramzlar: tinchlik, hayotning davomiyligi va go'zallikni ifodalaydi.

Handasaviy naqshlar – geometrik shakllar va ularning turli xil kombinatsiyalaridan tashkil topgan naqshlardir. Bu naqshlar matematik aniqlik va ritm asosida quriladi. Asosiy shakllar:

- **aylana:** sohibqironlik va mukammallik ramzi;
- **to'g'ri burchaklar va kvadratlar:** barqarorlik va mustahkamlik ramzi;
- **yulduzcha shakllari:** mehr va yorug'likni ifodalaydi;
- **murakkab shakllar:** turli xil poligonlar va ularning birikmalari.

O'zbek xalq amaliy san'ati – asrlar davomida shakllangan milliy meros bo'lib, unda xalqning ma'naviyati, madaniyati, hayot tarzi va badiiy qarashlari mujassam. Bu san'at turli mintaqaviy xususiyatlar, bezaklar va texnikalar orqali boyib, har bir hududning o'ziga xosligini aks ettiradi. O'zbek xalq amaliy san'atida ranglarning uyg'unligi muhim o'rin tutadi. Ranglarning o'zaro mosligi milliy qadriyatlarni ifodalaydi. Moviy va yashil ranglar – osmon va tabiat bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha Rishton kulolchiligida uchraydi. Qizil rang – hayot va energiyani, to'q sariq esa boylik va farovonlikni ifodalaydi. Bu ranglar kashtachilik va gilamdo'zlikda keng qo'llaniladi. Oq rang – poklik va ma'naviyat ramzi sifatida ishlatiladi. So'zana va do'ppilarda oq ip bilan ishlangan naqshlar ham mavjud. O'zbek amaliy san'atidagi naqshlar faqat dekorativ emas, balki ramziy ma'noga ham ega. Gullar va o'simliksimon naqshlar hayotning davomiyligi va tabiat bilan uyg'unlik ramzidir. Handasaviy naqshlar barqarorlik va tartibni ifodalaydi. Hayvonot naqshlari ko'proq qadimgi gilamlar va kashtalarda uchrab, baxt va himoyani anglatadi. O'zbek xalq amaliy san'ati o'zining rang-barangligi, mazmuni va go'zalligi bilan milliy madaniyatning ajralmas qismi hisoblanadi. U milliy o'zlikni saqlashda, avlodlar o'rtasida madaniy merosni yetkazishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, zamonaviy davrda ham bu san'atning yangicha talqini xalqaro miqyosda katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

XIX–XX asrlarda O'zbekistonda hunarmand-





chilik jamiyat hayotida muhim o'rin tutgan. Bu davrda hunarmandlar nafaqat iqtisodiy va madaniy hayotda, balki ijtimoiy tuzilishda ham alohida mavqega ega bo'lishgan. Hunarmandlar iqtisodiy jihatdan jamiyatning eng muhim tabaqasini tashkil qilgan. Hunarmandchilik mahsulotlari ichki va tashqi bozorlarga yetkazilgan. Dehqonchilik va chorvachilikdan tashqari, hunarmandchilik mahsulotlari kundalik hayotning ajralmas qismi bo'lgan (sopol idishlar, gazlamalar, zargarlik buyumlari, qurol-aslaha, me'morchilik bezaklari va boshqalar). Hunarmandlar ustaxonalarida shogirdlar tarbiyalab, kasb-hunarni avloddan avlodga o'tkazishgan.

Ijtimoiy-madaniy voqelik sifatida xalq amaliy san'atining bugungi ahamiyatini globallashuv, milliy identitet, turizm hamda madaniy diplomatiyada ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda xalq amaliy san'ati globallashuv sharoitida milliy madaniyatni saqlash va rivojlantirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda turli millatlar o'rtasida madaniy chegaralar tobora torayib, global standartlar shakllanmoqda. Shu jarayonda xalq amaliy san'ati nafaqat tarixiy boylik sifatida, balki milliy o'zlikni aks ettiruvchi belgi sifatida ham alohida ahamiyatga ega. Har bir mintaqaning o'ziga xos naqshlari, bezaklari va uslublari milliy identifikatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi.

"Milliy identitet" tushunchasi millatning o'ziga xosligini belgilovchi asosiy xususiyatlar va qadriyatlarni ifodalaydi. Bu atama bir millatning o'zini boshqa millatlardan farqlashini va o'ziga xos madaniy, tarixiy, ijtimoiy hamda an'anaviy o'zligining aks etishini anglatadi. Xalqning urf-odatlarini, an'analarini, san'atini, xalq amaliy san'atini va musiqasi milliy identitetning markaziy qismidir. Ona tili esa milliy identitetning eng kuchli belgilaridan biri hisoblanib, u millat madaniyatini va tarixini saqlash vositasi hamdir. Millatning tarixi, undagi buyuk shaxslar siymosi, ulardan qolgan merosi milliy identitetning shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ko'p millatlarning diniy e'tiqodi ularning identitetida muhim o'rin egallaydi. Bundan tashqari hududiy chegaralar, milliy ramzlardan bo'lmish gerb, bayroq va madhiya milliy identitetni mustahkamlovchi elementlar hisoblanadi.

Milliy identitet bir millat ichidagi birlik va birdamlikni kuchaytiradi, milliy g'ururni oshiradi. Bu avlodlar o'z madaniy va tarixiy merosini anglab, uni asrab qolishlarida muhim o'rin egallaydi. Bugungi kunda turli madaniyatlarning

aralashishi jarayonida milliy identitet millatning o'zligini yo'qotmaslik uchun zarur omil hisoblanadi. Xalq amaliy san'ati milliy identitetni aks ettiruvchi muhim omil bo'lib, unda millatning madaniy va estetik qadriyatlari mujassamlanib, madaniy merosni avloddan avlodga yetkazuvchi asosiy ko'priq hisoblanadi.

Turizm va xalqaro miqyosda targ'ibot ishlarining olib borilishi davlat siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga, nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahon bozorida ham o'z o'rniga ega bo'lishiga yo'l ochadi. Xalq amaliy san'ati bugungi kunda madaniy turizmni rivojlantirishning muhim qismi hisoblanadi. O'zbekistonning Buxoro, Samarqand, Xiva, Qo'qon kabi shaharlari qadimiy amaliy san'at markazlari sifatida dunyoga tanilgani sir emas.

Hunarmandlar tomonidan tayyorlangan mahsulotlar, masalan, zargarlik buyumlari, atlas va adras matolar, yog'och o'ymakorligi asarlari nafaqat mahalliy bozor, balki xalqaro miqyosda ham yuqori baholanadi. Xalq amaliy san'ati ijtimoiy jihatdan aholi bandligini ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi oilalar, ayniqsa, qishloq aholisi iqtisodiy jihatdan tobora mustaqillikka erishayotganligi buning isbotidir. Ayollar va bolalar orasida ushbu soha tadbirkorlikning bir ko'rinishi sifatida rivojlanmoqda. Hunarmandlar uyushmalari orqali ko'plab ustalar o'z mahsulotlarini eksport qilish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu jarayon aholining iqtisodiy farovonligini oshirish bilan birga madaniy merosni saqlashga ham hissa qo'shadi.

Xalq amaliy san'ati milliy madaniyatni xalqaro miqyosda targ'ib qilish vositasi sifatida madaniy diplomatiyada muhim o'rin tutadi. Xalqaro ko'rgazmalar va festivallar orqali o'zbek xalq amaliy san'atini dunyo hamjamiyatiga tanitish eng optimal uslublardan biridir. Masalan, o'zbek milliy kulolchilik mahsulotlari va naqshinkor matolar xorijiy davlatlarda madaniy ko'rgazmalar orqali namoyish etilib, O'zbekistonni dunyoga tanitishga xizmat qilmoqda. Qo'qon shahrining 2019-yilda UNESCO tomonidan "Xalqaro hunarmandchilik shahri" sifatida tan olinishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning tashabbusi bilan hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Hunarmand" uyushmasi tashkil etilgan. Ushbu uyushma quyidagi yo'nalishlarda ish olib boradi:

• *hunarmandlarga soliq va bojxona imtiyozlarini berish;*



- *hunarmandchilik buyumlarini eksport qilish uchun sharoit yaratish;*
- *ustalarga yosh shogirdlar tayyorlashda yordam berish;*
- *hunarmandchilik yarmakalari va ko'rgazmalarini tashkil etish.*

Hunarmandlarning ishlarini keng targ'ib qilish maqsadida muntazam ravishda milliy va xalqaro miqyosda festival va yarmakalar o'tkazilmoqda. Eng mashhurlari:

• *Xalqaro Hunarmandchilik Festivali (Qo'qon) – bu tadbirda dunyoning turli mamlakatlaridan hunarmandlar ishtirok etadi.*

• *“Ipak yo'li” xalqaro festivali (Samarqand) – bu yerda hunarmandlarning mahsulotlari namoyish qilinadi.*

• *Har yili Toshkent va boshqa shaharlarda o'tkaziladigan hunarmandchilik yarmakalari va hokazo.*

O'zbekistonda hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida quyidagi imtiyozlar berilgan: hunarmandlar bir yil davomida daromad solig'idan ozod qilingan. Hunarmandlarga o'z faoliyatini kengaytirish uchun foizsiz yoki past

foizli kreditlar ajratilmoqda. Hunarmandlar o'z mahsulotlarini xorijga eksport qilish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda.

Hunarmandchilikni rivojlantirish va ustalarni bir joyga jamlash uchun zamonaviy hunarmandchilik markazlari barpo etilmoqda. Buxoro, Samarqand, Xiva va Qo'qon kabi tarixiy shaharlarda hunarmandchilik markazlari ochilgan. Toshkent shahrida “Hunarmandlar shaharchasi” loyihasi amalga oshirilmoqda. Ipak va ziravorlar festivali kabi tadbirlar doirasida hunarmandchilik mahsulotlari namoyish etilmoqda [5].

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, xalq amaliy san'ati nafaqat moddiy madaniyatning bir qismini, balki ijtimoiy-madaniy voqelik sifatida jamiyatning ma'naviy yuksalishi va milliy madaniyatni rivojlantirishda ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. U jamiyatni birlashtiruvchi, milliy o'zlikni targ'ib qiluvchi va madaniyatlararo aloqalarni mustahkamlovchi vosita sifatida o'z o'rnini saqlab qolmoqda. Shu sababli, xalq amaliy san'atini rivojlantirish va avlodlarga yetkazish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лихачев Д.С. Письма о прекрасном. – М.: «Детская литература», 1979 г.
2. Bulatov S.S. “O'zbek xalq amaliy bezak san'ati”. – T.: “Mehnat”, 1991-y.
3. Musinova A.S. Naqqoshlik (O'quv qo'llanma). – B.: “Kamolot”, 2022-y.
4. <https://whc.unesco.org/>
5. <https://handicraftman.uz/>





IV BO'LIM PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

Jahongir MAMATQOSIMOV,

O'zDSMI professori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BO'LAJAK REJISSYORLARNI TAYYORLASHDA INDIVIDUAL TA'LIM TRAYEKTORIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada san'at ta'limida, jumladan, bo'lajak rejissyorlarni tayyorlashda individual ta'lim trayektoriyasi kontekstida o'quv jarayonini tashkil etish usullari yoritilgan. Individual mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagogning konseptual-funksional faoliyati, individual yondashuv didaktikasi, individual mashg'ulotlar uchun tavsiya etilayotgan metodlar tasnifi berilgan.

Kalit so'zlar: san'at ta'limi, pedagogika, metodika, individual ta'lim, individual mashg'ulot, bo'lajak rejissyor, drabbl, hikoya, dramatik asar, kasbiy kompetentlik.

Аннотация. В статье рассматриваются методы организации образовательного процесса в контексте индивидуальной образовательной траектории в художественном образовании, в том числе при подготовке будущих режиссеров. Приведены содержательная и функциональная деятельность учителя по организации индивидуальных занятий, дидактика индивидуального подхода, классификация рекомендуемых методов проведения индивидуальных занятий.

Ключевые слова: художественное образование, педагогика, методика, индивидуальное образование, индивидуальное обучение, будущий режиссер, драма, рассказ, драматургическое произведение, профессиональная компетентность.

Annotation. This article discusses the methods of organizing the educational process in the context of individual educational trajectory in art education, including the training of future directors. The conceptual and functional activities of the teacher in organizing individual classes, the didactics of an individual approach, and the classification of recommended methods for individual classes are given.

Keywords: art education, pedagogy, methodology, individual education, individual class, individual educational trajectory, future director, drabble, story, dramatic work, professional competence.



Bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishda individual yondashuv metodikasi hamda individual ta'lim trayektoriyasini rivojlantirish, talabani individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish, ta'lim faoliyatini individuallashtirish, pedagog va talabani yakka tartibda mashg'ulot olib borishi natijasida talabani individual xususiyatlariga mos keladigan o'qitish metodlarini qo'llash, olingan natijalarni refleksli tarzda amalga oshirish, o'z faoliyatini baholash

natijasida talabani sohada mustaqil faoliyat yuritishini ta'minlash pedagogik zaruratdir.

Individual ta'lim – o'qituvchining o'quvchiga pedagogik ta'sirini amalga oshiruvchi o'quv mashg'ulotlari shakllaridan biri. O'qituvchining o'quvchi bilan sinf jamoasidan tashqarida olib boriladigan faoliyati tushuniladi. Individual ta'lim shakllarining eng qadimiysi bo'lib, u qadimgi davr va O'rta asrlarda keng qo'llanilgan. O'zbekiston ta'limi tarixida individual ta'lim shakli keng qo'llanib kelingan. Uning samarasi, ayniqsa, amaliy san'at, hunarmandchilikda ustoz-shogird ta'limi





tarzida namoyon bo'lgan. Individual ta'limda bola ruhiyatining individual xususiyatlarini, fan sohalari va kasb egallashga bo'lgan tabiiy moyilliklarini to'liq e'tiborga olish imkoniyati ta'minlanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, individual ta'limga e'tibor sezilarli tarzda ortdi. Ayniqsa, kollej va oliy o'quv yurtlariga kirishning test tizimi joriy etilishi individual ta'limning repetitorlik shakli rivojlanishiga turtki bo'ldi [5,152-b].

Ilm-fan bir joyda qotib turmay, doimiy yangilanishlarni taqozo etadi. Masalan, bir vaqtlar ta'limda umumiylik, barcha o'quvchilarni bir xil, o'zgarmas dasturlar asosida o'qitish shakli keng qo'llanilgan bo'lsa, bugunga kelib aksariyat davlatlarda individual ta'limga faol o'tilgan. Bu uzluksiz ta'limning har bir bosqichida tatbiq etilyapti, ya'ni ta'limning maktabgacha, maktab, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi bosqichlarida individuallikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu zamonaviy tilda ta'lim trayektoriyasi, deb ham yuritiladi [4].

Pedagoglarning individual ta'limni tatbiq etishda yuqori darajadagi bilimlari – ularning o'quvchilar rivojlanishining barcha turlarini kuzatishi va moslashuvchan yechimlarni berishi uchun eng muhim vosita. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, o'rtacha 30% o'quvchilar ta'lim olishi hayotlarining dastlabki to'qqiz yillikda maxsus dasturlar tomonidan qo'llab-quvvatlansa, individual ta'lim trayektoriyasi kutilgan natijani beradi [2,247-b].


Individual mashg'ulotlarni tashkil etish

metodikasi yuzasidan bir qancha tadqiqotchilar izlanish olib borgan bo'lib, bunda asosiy obyekt talabalarning layoqat va qobiliyatlari asosida ularning individual xususiyatlarga mos ta'lim va tarbiya metodlarini tanlash hamda individual imkoniyatini rivojlantirishga qaratilgan. Jumladan, T.V.Vergun, O.Y.Kolosova, V.N.Goncharovlar tomonidan oliy ta'lim talabalarining individual ta'lim trayektoriyasini rivojlantirish masalalari [6], B.B.Baymetov, M.Sharipjanov tomonidan oliy pedagogik ta'limda talabalar ijodiy qobiliyatlarni shakllantirishda individual ta'lim berish metodikasi[1], Sh.R.Samarova tomonidan ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida o'quvchilarni o'qishga qiziqtirish mashqlari [3] tadqiq etilgan va ta'lim tizimiga tatbiq etgan.

Bo'lajak rejissyorlarni individual ta'lim trayektoriyasida o'qitish – bu kurs badiiy rahbari nazoratida talabani individual imkoniyati, qobiliyati, istiqbollari, natijaga erishish uchun bajarmoqchi bo'lgan sa'y-harakatlari, ijodiy dinamikasidan iborat.

Natija va muhokama. Bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishda individual ta'lim trayektoriyasidan foydalanishning o'ziga xos qulayliklari mavjud. Jumladan, talabani nafaqat auditoriya mashg'ulotlaridagi faoliyati, balki auditoriyadan tashqari ilmiy-ijodiy faoliyatini ham qamrab oladi.

Individual ta'lim trayektoriyasi va individual yondashuvning asosiy obyektini bu talabani



1-rasm. Bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishda individual mashg'ulotlarni tashkil etish usullari





shaxsiy imkoniyati va iqtidorini rivojlantirishga qaratilgan individual mashg'ulotlar tashkil etadi. Hozirda o'quv amaliyotida individual mashg'ulotlar yakka dars deb yuritilib, auditoriya mashg'uloti hisoblanadi va bir akademik soat miqdorida haftasiga bir marotaba o'qitiladi. Individual mashg'ulotning asosiy maqsadi talabani individual ijodiy imkoniyatlarini auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar asosida rivojlantirishdir.

Bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishda individual ta'lim trayektoriyasi obyekti sifatida quyidagi usullardan foydalanish tavsiya etiladi **(1-rasmga qarang)**:

Bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishda individual mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan yuqorida qayd etilgan "Uch halqa" usuliga to'xtalib o'tamiz.

"Uch halqa" usuli bu bo'lajak rejissyorlarning yozuvchilik qobiliyatini shakllantirishda muhim bo'lib, uch bosqichdan iboratdir. Bunda talabani yozuvchilik qobiliyatini rivojlantirish oddiyligidan murakkablikka tamoyiliga asoslanib 1-kursda – drabblar, 2-kursda – hikoyalar, 3-kursda – dramatik asarlar ustida ishlanadi **(2-rasmga qarang)**:

Alohida qayd etish kerakki, talabalarda yozuvchilik qobiliyatini shakllantirishda, eng avvalo, ularning individual imkoniyatini hisobga olish lozim. Negaki, talabani tabiatida yozuvchilikning ilk unsurlari bo'lmasa, u talaba bilan sahnalashtirish ishlarini olib borish tavsiya etiladi. Agarda talabani tabiatida yozuvchilikka xos fazilatlar bo'lsa, jarayonni, eng avvalo, kichik hajmdagi adabiy asarlar o'qishdan, so'ng ular haqida suhbatlashish va ularga tegishli tavsiyalar berish lozim. Talabalar, albatta, adabiyot nazariyasi, drama nazariyasini qunt

Bosqich	Janr	Mazmun
1-kurs		Drabblar haqida tushuncha beriladi. Bir qancha drabblar bilan tanishiladi. Drabbl yozish uchun syujet topiladi. Syujet hikoya shaklida yoziladi. Yozilgan hikoya mazmun-mohiyati, shakl, so'zlar hajmi nuqtayi nazaridan optimallashtiriladi. Hikoyaning mag'zi saqlab qolinadi. Kurs badiiy rahbari bilan maslahatlashgan holda drabblning yakuniy varianti yoziladi. Bunda badiiylik, mazmunderlik birlamchidir.
2-kurs		Hikoya haqida tushuncha beriladi. Hikoya uchun syujet topiladi. Syujet asosida mavzu, g'oya, maqsad aniqlanadi. Personajlar tavsiflanadi. Xayolan hikoyaning kompozitsion tuzilishi va birlamchi varianti tayyorlanadi. Hikoyada makon va zamon, personajlar xarakteri, til va mazmun aniq bo'lishligi lozim. Hikoya kurs badiiy rahbari tomonidan o'qib chiqilgach, tegishli tavsiyalar beriladi va qayta tahrir qilinadi.
3-kurs		Drabbl va hikoya yozishdan orttirilgan tajriba asosida kichik hajmdagi, ya'ni bir pardali dramatik asar yozilish tavsiya etiladi. Dramatik asarda personajlar xarakteri aniq, syujet lo'nda va kuchli ziddiyat asosida yozilishi lozim. Personajlar so'zi ularning xarakteriga mos bo'lishi, mazmun va mantiq bir-birini to'ldirib borishi lozim. Talaba asarda zamon va makon aniqligiga, xarakter va xarakterlilikka, kompozitsion badiiylikka erishish lozim. Kurs badiiy rahbari tasdiqlagunga qadar har bir so'z va dramatik xatti-harakatga jiddiy e'tibor berish kerak.

2-rasm. "Uch halqa" usuli



bilan egallamog'i lozim. Shundan so'ng ularning iqtidorini yozuvchi yoki dramaturg sifatida sinab ko'rish lozim. Sinovdan ijobiy o'tgan talabalarga drabbl, hikoya, dramatik asarlar yozish uchun imkoniyat berish va bu borada kurs badiiy rahbari metodik tavsiyalar berib borishi lozim (3-rasmga qarang).

ligini ta'minlash, ular uchun maqbul bo'lgan o'qitish metodlaridan foydalanish, ularning ijtimoiy holati, turmush tarzi va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'zini namoyon qilishiga sharoit yaratish, ruhiy holati, emotsiyalari, o'z shaxsiy qadriyatlarini hurmat qilish, ta'lim olish strategiyasiga xos bo'lgan o'quv ko'nikmalarini



3-rasm. "Uch halqa" usulida yozilgan asarlar

Shuningdek, individual ta'limda talabalarning mavjud imkoniyatlari, iqtidori va salohiyatidan kelib chiqib o'qitish jarayoni tashkil qilinadi, ularga maksimal darajada ishonch bildiriladi.

Bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishda individual mashg'ulotlarni tashkil etish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, quyidagi xulosalarga kelindi:

- bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishda individual mashg'ulotlar muhim bo'lib, har bir talabani individual imkoniyatlari va iqtidori mazkur jarayonda rivojlantiriladi;
- talabalarning ta'lim jarayonidagi mustaqil-

maqsadli shakllantirish;

- bo'lajak rejissyorlarning kasbiy kompetentligini adabiy asarlar asosida rivojlantirishda individual mashg'ulotlarni tashkil etishda "Uch halqa" usuli va undan foydalanish tartibi pedagogik tajriba-sinov jarayonida tajribadan o'tkazilgan va o'z samarasini bergan;

- talabalarda yozuvchilik qobiliyatini shakllantirishda, eng avvalo, ularning individual imkoniyatini hisobga olish, adabiyot nazariyasi, drama nazariyasi bo'yicha bilimga ega bo'lishi, shundan so'ng drabbl, hikoya, dramatik asarlar yozish uchun imkoniyat berish va bu borada kurs badiiy rahbari metodik tavsiyalar berib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baymetov B.B., Sharipjanov M. Oliy pedagogik ta'limda talabalar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda individual ta'lim berish metodikasi (qalamtasvir misolida) // Academic Research in Educational Sciences. 2020. Volume 1, Issue 4. P.357–363.
2. Fattoyeva O.N. Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish tamoyillari // "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz. January 2024 / Volume 5, Issue 1. P.247.
3. Samarova Sh.R. (2020). Ta'lim jarayonida individual yondashuv asosida o'quvchilarni o'qishga qiziqtirish mashqlari // "Science and Education" Scientific Journal, 1(4), 258-259.
4. O'sarov J.E. "Individual ta'lim trayektoriyasi mustaqil fikrli yoshlar safini kengaytiradi". "Yangi O'zbekiston" gazetasi, 2023-yil, 23-dekabr. № 267 (1056)-son.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (4-jild). Zebunniso – Konigul. Tahrir hay'ati M.Aminov, T.Daminov, T.Dolimov va b. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002-y. 152-b.
6. Вергун Т.В., Колосова О.Ю., Гончаров В.Н. «Индивидуальные образовательные траектории студентов в высшей школе: к постановке проблемы». Научный журнал «Современные наукоемкие технологии». – Москва: 2016. № 12-2. С.313–317.







(timsol). Obraz yaratishda ruhiy va jismoniy faktorlar muhim hisoblanib, raqamli tizim orqali to'liq baholash qiyinchilik tug'diradi. Bu o'z-o'zidan ijodiy erkinlikka to'siq bo'ladi.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti asosan ijodiy oliy ta'lim muassasasi hisoblangani bois, ta'lim jarayonida akademik fanlarga xos an'anaviy baholash usullari o'rniga ijodiy ishlarga mos maxsus baholash mezonlari ishlab chiqilmoqda. Masalan, spektakl, sahna va tasviriy-amaliy san'at asarlari, musiqiy chiqishlar uchun alohida mezon joriy etilishi kerak. Bundan tashqari talabalar tomonidan tayyorlangan video va audio fayllarni yuklash hamda saqlash uchun maxsus joy ajratilishi kerak. An'anaviy dars jadvalidan tashqari ijodiy loyihalar, repetitsiyalar va sahna chiqishlari uchun alohida modul yaratilishi kerak. Ijodiy yo'nalishdagi talabalar uchun individual o'quv dasturi joriy etilishi zarur.

Sahna nutqi fanini o'qitish doirasida olib qaralsa, teatr jonli san'at. Uning mohiyati aynan sahnadagi "hozir va shu yerda" tamoyiliga asoslanadi. Aynan jonli ijro, aktyor va tomoshabin o'rtasidagi to'g'ridan to'g'ri aloqaning kuchi teatr san'atining o'ziga xosligidir. Shuningdek, repetitsiyalar ham jonli, interaktiv jarayon bo'lib, aktyorlar, rejissyor, butun ijodiy jamoa o'rtasidagi jonli muloqot va tajriba almashinuvi asosida kechadi. HEMIS texnologik platforma sifatida ijodiy jarayonning o'rnini bosolmaydi, ammo uni boshqarish va monitoring qilish uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Spektakl, sahna chiqishlari, repetitsiyalar to'liq jonli tarzda o'tkazilishi kerak, ammo ularning natijalari, tahlillari va hisobotlari HEMISda qayd etilishi vaqt nuqtayi nazaridan foydali hisoblanadi. Har bir repetitsiya – ijodiy tajriba, harakat, his-tuyg'u va o'zaro munosabatlar jarayonidir. Uni avtomatlashtirish yoki qog'ozga tushirish to'liq imkonsiz. Biroq repetitsiyalar jadvali, qatnashuvchilarning ishtiroki, topshiriqlar va umumiy hisobotlar HEMIS orqali boshqarilishi mumkin. HEMIS jonli ijroning muqobili emas, balki yordamchisi sifatida qabul qilinishi kerak. Misol uchun, spektaklning videoyozuvlari HEMIS tizimida saqlanib, tahlil qilish va kelajakda foydalanish uchun arxiv sifatida xizmat qilishi mumkin.

"Sahna nutqi" fanida bo'lajak teatr va kino aktyorlarining nutqiy imkoniyatlari o'rganiladi. Bunda bevosita talabalarining sahna nutqi texnikasini to'g'ri o'zlashtirishi nazorat qilinadi, nutqda mavjud bo'lgan kamchilik yoki nuqsonlar ustida ishlanib yoki bartaraf etiladi, yoki eng kam darajaga olib kelinadiki, aktyorlikda izlanayotgan

yoshlarda tanlagan kasblariga ishonch paydo qilinadi. Bu ishlarni shunchaki bir-ikki mashg'ulotda bartaraf etib bo'lmasligi sababli, uzoq muddat ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlarda va asosan, yakka mashg'ulotlarda bosqichma-bosqich to'g'rilanib boriladi. Bu maqsad yo'lida soha mutaxassislari ishlab chiqqan bir necha o'n yillik maxsus mashqlardan foydalaniladi.

Fanning asosiy jihati – ijodkor talabalar nafaqat nutq va ovoz apparatlarini sozlash ustida, balki sahnada, tomoshabin qarshisiga chiqqanda amalga oshirishi kerak bo'lgan badiiy asarlar ijrosini o'zlashtirishlari ustida ham surunkali, bosqichma-bosqich ijodiy ishlar olib boriladi. Oddiy so'z birikmalarini to'g'ri talaffuz qilishdan tortib, to sahnada yakka o'zi turib she'r, adabiy parcha, g'azal yoki monolog ijro eta olishigacha bo'lgan davrda sahna nutqi o'qituvchilari talaba bilan barobar izlanishda bo'ladi.

Talabalarining aksariyati o'z nutqida biron-bir kamchilik bor ekanligini bilmaydi ham. Bilganlari esa uni bartaraf qilish yo'l va usullarini bilmaydilar. "Sahna nutqi" pedagoglari huddi defektologlar singari talaba nutqidagi nuqsonlar kelib chiqishi, ularni bartaraf etish yo'llarini ilmiy tasdiqlangan usullari va yo'llari variatsiyalarini egallagan mutaxassislar hisoblanadi. Ushbu fanni muvaffaqiyatli tugatib, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

1. Talabalar to'g'ri nafas olishni o'rganadilar.
2. Nafasdan to'g'ri va samarali foydalanish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.
3. Ovozni yo'naltira olish imkoniyatlarini to'liq egallaydilar.
4. Tilimizdagi so'z birikmalari, iboralar va hikmatlarni o'rinli ishlatish mahoratiga erishadilar.
5. Mumtoz she'riyat namunalarini, turli janrdagi badiiy asarlardan parchalar tanlash, ularni tahlil qilish, matn bilan ishlash va ularni ijro qilishni o'zlashtirib oladilar.
6. So'z va nutqni harakat va ohang bilan uyg'unlashtirish sirlarini egallaydilar.
7. Turli darajadagi tadbirlarning tajribali ishtirokchisi, boshlovchisi sifatida o'zlarini namoyon qiladilar.

Sahna nutqi kafedrası professor-o'qituvchilari tomonidan HEMIS tizimining talablari asosida bakalavriat yo'nalishi uchun "Sahna nutqi" va magistratura mutaxassisliklari uchun "Sahna nutqi fanini o'qitish metodikasi" fanlarining mavzular ketma-ketligi qaytadan ko'rib chiqildi. Unda professor-o'qituvchilardan Isoqtoy Jumanov, Xatira Djuldikarayeva, Ramz Kadirov, Maxsuma Xodjimatoeva, Go'zal Xalikulova, Isfandiyor Xomidovlar; aktyorlik va rejissyorlik yo'nalishidagi mutaxassislik kafedralaridan Munavvara

¹ Sahna nutqi asoslari; Sahna nutqi fanining tarkibiy qismlari; Adabiy til me'yorlari.





Abdullayeva, Olimjon Dadamirzayev, Jahongir Mamatqosimov, Temur Rashidov, Rashid Usnatov, Sherzod Muhammadiyevlar ishtirok etishdi. Natijada avvalgi mavzular mazmun jihatidan optimallashtirildi va bugungi kun ijodiy jarayonlariga moslashtirildi. Fan dasturida bir semestr uchun belgilangan muddat 15 haftani tashkil etib, har bir semestr kesimida ushbu muddatga mo'ljallangan 15 ta dars mavzulari aniqlashtirildi. Semestr avvalida nazariy bilimlarga urg'u berilib, 3 ta ma'ruza darslari, so'ng amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratilib, 12 ta amaliy darslar² birlashtirildi. Bundan tashqari har bir semestrda bir talaba uchun 15 ta yakka dars

² Artikulyatsiya; Nafas; Ovoz; Rezonatorlar (qaytargichlar); Diksiya; Unli tovushlar; Undosh tovushlar; Texnik mashqlar uyg'unligi; Orfoepiya; Tasavvur, fikr va so'z ifodaviyligi; Tez aytishlar, maqollar, topishmoqlarning ifodaviy uyg'unligi; Mavzularni mustahkamlash uchun kompleks mashqlar.

³ Sahna nutqi asoslari; Sahna nutqi fanining tarkibiy qismlari; Adabiy til me'yorlari; Artikulyatsiya; Nafas; Ovoz; Rezonatorlar (qaytargichlar); Diksiya; Unli tovushlar; Undosh tovushlar; Texnik mashqlar uyg'unligi; Orfoepiya; Tasavvur, fikr va so'z ifodaviyligi; Tez aytishlar, maqollar, topishmoqlarning ifodaviy uyg'unligi; Mavzularni mustahkamlash uchun kompleks mashqlar.

Bekmirzayev N. Notiq, nutq, xulq. – T.: "Yangi kitob", 2019-y. 112-b; Bobonazarova B. Sahna nutqi (O'quv qo'llanma). – T.: M.Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at instituti. 2004-y. 177-b; G'oziyeva M. Prosidika. – T.: "O'qituvchi", 2019-y. 176-b; Djuldikarayeva X. Sahna tili bilimdoni. – T.: Kuro print. 2007-y. 78-b; Djuldikarayeva X. Lola Xo'jayeva (Monografiya). – T.: "Zamon poligraf", 2022-y. 278-b; Djumanov I. Sahna nutqi (Qo'llanma). – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007-y. 72-b; Inomxo'jayev S. Badiiy o'qish asoslari. – T.: "O'qituvchi", 1973-y. 180-b; Inomxo'jayev S. Notqlik san'ati asoslari. – T.: "O'qituvchi", 1982-y. 157-b; Inomxo'jayev S., Zunnunov A. Ifodali o'qish asoslari. – T.: "O'qituvchi", 1978-y. 104-b; Nosirova A. Jonli so'z san'ati asoslari. – T.: "Musika", 2009-y. 224-b; Nurmuhammedova O'. Sahna nutqi (Qo'g'irchoq teatr aktyorligi va rejissyorligi talabalar uchun o'quv qo'llanma). O'zbekiston davlat san'at instituti bosmaxonasi, 2008-y. 164-b; Rasulova A. Sahna nuqti (qo'llanma). – T.: "Musika", 2009-y. 208-b; To'laganov A. Sahna nutqi (darslik). – T.: "Musika", 2010-y. 326-b; Xodjimatoeva M. Sahna nutqi (darslik). – T.: "Fan va ta'lim polifraf", 2021-y. 441-b; Xoliqulova G. Sahna asarlaridagi qahramon xarakterini talqin qilishda zamonaviy kommunikativ texnologiyalardan foydalanish uslubiyati. – T.: "Fan va texnologiya", 2015-y. 150-b; Xoliqulova G. Sahna nutqi (Tarixiy dramalar misolida). – T.: "Karlo", 2008-y. 124-b; Xoliqulova G. O'zbek tarixiy dramasi talqinida sahna nutqi masalalari (1980–90-yillar). 17.00.01 – Teatr san'ati ixtisosligi bo'yicha san'atshunoslik fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati; Qodirov R. Sahna nutqi (darslik). – T.: "Donishmand ziyosi", 2023-y. 444-b; Qodirov R. Aktyorlik mahorati. – T.: "Navro'z", 2019-y. 115-b.

mashg'ulotlari ajratildi. Unga yuqoridagi ma'ruza va amaliy dars mavzulari asos qilib olindi. Qator adabiyotlar³ ishchi va o'quv reja mavzulariga zamin bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, HEMIS tizimi ta'lim jarayonini elektron boshqarish, talabalar reytingini tizimli yuritish va ta'lim sifatini monitoring qilish imkoniyatlarini yaratgan holda oliy ta'lim muassasalarida samarali foydalanilmoqda. Sahna nutqi fanining o'ziga xosligi shundaki, u jonli ijro va to'g'ridan to'g'ri muloqot asosida shakllanadi. Shuning uchun san'at va madaniyat institutida ta'lim jarayonida ijodiy jarayonlarni to'liq raqamlashtirish muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Ta'lim jarayonini samarali olib borish uchun HEMIS platformasidan yordamchi vosita sifatida foydalanib, repetitsiyalar va sahna chiqishlari natijalarini tizimga integratsiya qilish zarur. Umuman olganda, HEMIS platformasining joriy etilishi sahna nutqi fanida ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin, ammo bu jarayonda ijodiy erkinlikni saqlab qolish va an'anaviy amaliy mashg'ulotlarning samaradorligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Sahna nutqi kabi amaliy yo'nalishdagi fanlarni o'qitishda HEMIS tizimini yanada moslashuvchan qilish uchun multimediya materiallarini yuklash va jonli darslarni integratsiya qilish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

2. Talabalarining sahna nutqidagi rivojlanish bosqichlarini aniq baholash uchun ovoz va video yozuvlarini tahlil qilishga asoslangan reyting tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

3. O'qituvchi pedagoglar uchun HEMIS platformasidan samarali foydalanish bo'yicha maxsus o'quv kurslarini tashkil etish talab etiladi.

4. Repetitsiyalar va sahna chiqishlari jarayonini elektron tizimga kiritish, bu ma'lumotlarni tahlil qilish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

5. HEMIS platformasining sahna nutqi faniga ta'sirini baholash va takomillashtirish uchun talabalar o'rtasida so'rovnomalar o'tkazish, ularning fikrlarini tahlil qilish zarur.

6. Virtual reallik (VR) va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib, talabalar uchun sahna chiqishlarini interaktiv tarzda tahlil qilish imkoniyatlarini yaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimiz roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. Asarlar, 2-jild. – T.: "O'zbekiston", 2018-y. 229-b.
2. Po'latov I. Sahna nutqi. – T.: "O'qituvchi", 1994-y.
3. To'laganov A. Sahna nutqi. – T.: "Musika", 2010-y. 318-b.
4. Inomxo'jayev S. Notqlik san'ati asoslari. – T.: "O'qituvchi", 1982-y. 132-b.
5. Reshetov V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. – T.: O'rta va oliy maktab nashriyoti, 1961-y.



ART-PEDAGOGIKA – SHAXS MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISH OMILI SIFATIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada art-pedagogikaning ta’lim-tarbiya jarayonidagi o’rni va ahamiyati, va uning shaxs ma’naviyatini yuksaltirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Art-pedagogika – san’at vositasida ta’lim berish va shaxsni har tomonlama tarbiyalashni ko’zlovchi pedagogik yo’nalish sifatida qaraladi. Shuningdek, maqolada xalq an’analari, madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy davrlar haqida art-pedagogik ma’lumotlar keltirilgan. Art-pedagogik yondashuv shaxsning ichki dunyosini boyitish, uning fikrlash, anglash va his qilish qobiliyatini rivojlantirishda samarali uslub sifatida tavsiya etiladi.

Kalit so’zlar: art-pedagogika, san’at, madaniyat, yoshlar tarbiyasi, globallashuv.

Аннотация. В данной статье проанализированы роль и значение арт-педагогике в процессе образования и воспитания, а также возможности повышения духовности личности посредством данного направления. Арт- педагогика рассматривается как педагогическое направление, направленное на обучение и всестороннее воспитание личности с помощью искусства. Кроме того, в статье приведены арт-педагогические сведения о народных традициях, культуре, общечеловеческих ценностях и исторических эпохах. Арт-педагогический подход рекомендуется как эффективный метод обогащения внутреннего мира личности, развития её мышления, восприятия и способности чувствовать.

Ключевые слова: арт-педагогика, искусство, культура, воспитание молодёжи, глобализация.

Annotation. This article analyzes the role and importance of art pedagogy in the process of education and upbringing, as well as the possibilities of increasing the spirituality of the individual through this direction. Art-pedagogy is considered a pedagogical direction aimed at teaching and comprehensive education of the personality with the help of art. In addition, the article provides art-pedagogical information about folk traditions, culture, universal values and historical epochs. The art-pedagogical approach is recommended as an effective method of enriching the inner world of the personality, developing its thinking, perception and ability to feel.

Keywords: art-pedagogy, art, culture, youth education, globalization.



San’atning paydo bo’lish tarixi insoniyat tarixining eng sirli va qiziqarli sahifalaridan biri hisoblanadi. Uning aniq vaqti va joyini aytish qiyin bo’lsa-da, arxeologik topilmalar va antropologik tadqiqotlar ilk san’atning paydo bo’lishi va rivojlanishi haqida ma’lum tasavvur beradi. San’atning paydo bo’lishining dastlabki belgilari qadimgi tosh qurollar misolida bo’lib, dastlab insonlar toshlarni charxlab, ularga ma’lum bir shakllar berganlar. Bunda nafaqat utilitar maqsadga ega bo’lgan (ov qilish, kesish), balki ularda simmetriya va shaklning ahamiyati ham ko’zga tashlanadi. Bu ehtimol, estetik didning dastlabki ko’rinishlaridan biri bo’lgandir. Shuningdek, tabiiy ranglar va bo’yoqlarni paydo bo’lishida qadimgi odamlar minerallardan

(masalan, ohaktosh, oxra) va o’simliklardan olingan tabiiy bo’yoqlardan foydalangan. Bu bo’yoqlar toshlarda, g’or devorlardagi rasmlarda (Paleolit davri) bo’lib, eng mashhur ilk san’at namunalaridan biri g’or rasmlar hisoblanadi. Bu rasmlar asosan hayvonlar (buqalar, otlar, mamontlar va boshqalar), odamlar va ba’zan abstrakt shakllarni o’z ichiga oladi. Masalan, Fransiya davri Lasko g’ori va Ispaniya davri Altamir g’oridagi rasmlar bunga misol bo’la oladi. Bu rasmlar taxminan 40000 yil oldin yaratilganligi haqida tarixiy ma’lumotlarda berilgan. Shu ikki misol, san’atning ijtimoiy, badiiy, tarbiyaviy funksiyalari, xalq turmush tarzini insonparvarlashtirishga yo’naltirilganligining dalolati, desak xato bo’lmaydi.





San'at – hayot ma'nosini bilib olishga, uni yaxshi tarafga o'zgartirishga va inson badiiy estetik hissiyotlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Ajoyib musiqachi va muallim G.G.Neygauz: *"Talanlni yaratish mumkin emas-u, ammo madaniyatni yaratish mumkin, ya'ni uning ildizini parvarish qilish bilan voyaga yetkazsa bo'ladi"*, – degan edi [7,128-b]. San'at – insonni tarbiyalash va uni keyingi hayotda kutayotgan eng muhim vositalaridan biri bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Bu borada dunyo xalqlarining san'atini nazarda tutmoq kerak. Yevropa xalqlari san'ati, italyan xalqi, hind xalqi, grek san'ati, yapon xalqi san'ati, qozoq, qirg'iz, o'zbek xalqi san'ati va bularning barchasining mazmuniga qarasak, hammasi insonga qaratilgan, insonda yaxshilikni parvarish qilish, yaxshilik fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirish o'zini o'zi ham ma'nan, ham moddiy jihatdan baxtli qilishga qaratilgan.

Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimida ijodkor, innovatsion fikrlaydigan, vatanga sodiq, bir so'z bilan aytganda ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalash ko'zda tutiladi. Savol tug'iladi? Mana shunday go'zal fazilatlarini quruq gaplar, chizmalar, diagrammalar bilan tarbiyalab bo'ladimi? Albatta, yo'q. Bunda san'at ishtirok etishi kerak. San'at ishtirok etmasa, bugun yoshlarimizdan kutayotgan eng muhim fazilatlar, ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishimiz qiyin bo'ladi. Dunyoda mashhur iboralardan birini eslatmoqchiman: "Olamni go'zallik qutqaradi!" Bu ibora aytilganiga bir necha asrlar bo'ldi. Shunday savol tug'iladi: go'zallikning o'zi olamni qutqara oladimi? Afsuslar bo'lsinki, alamli misollarini ko'rayapmiz.

Masalan, 2001-yilda Afg'onistonda Budda haykallarini o'qqa tutishdi. Bu voqea jahon hamjamiyati tomonidan katta tanqidga uchragan va madaniy merosga yetkazilgan jiddiy zarar sifatida baholangan. Haykallar taxminan VI asrda barpo etilgan bo'lib, ular dunyodagi eng katta turg'un Budda haykallari hisoblangan. Budda haykali tarixiy go'zallik namunasi bebaho san'at asari o'zini o'zi himoya qila olmadi-ku? Afsuski, dunyoda ko'pdan-ko'p vandalizm holatlarini, ya'ni san'at asarlarining buzilish holatlarini ko'ryapmiz. Go'zallik o'z-o'zini himoya qila olmaydi. Unda olamni qanday himoya qiladi? Gap bu yerda go'zallik bilan qurollangan, go'zallik bilan sug'orilgan, o'zining hayotini go'zallik asosida tashkil qiladigan yoshlar haqida ketayapti. Demak, har bir yigit-qizning ijodiy potensialini, ijodiy imkoniyatlarini, o'zini namoyon qilish qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligi haqida

fikr ketayapti. XXI asrga kelib, mana shunday shaxsni qanday tarbiyalaymiz, degan savolga javob qidirgan pedagoglar va san'atkorlar birlashdilar. Natijada dunyoda "Art pedagogika" faniga bo'lgan zaruriyat yanada kuchaydi

Art-pedagogika – pedagogika bilan san'atning qo'shilishidan paydo bo'lib, bu yig'indidan o'zini o'zi baxtli va farovon qila oladigan, o'z hayotini go'zallik qonunlari asosida tashkil qilishga qodir bo'lgan yigit-qizlarni tarbiyalaydi. Buning formulasini oddiy qilib, "Pedagogika" + "San'at" = "Baxtli, omadli shaxs" deb ifodalash mumkin. Art-pedagogika, pedagogika fanidan farqli o'laroq, shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishning san'at vositalaridan foydalanishini nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, art-pedagogika – pedagogika fanining mustaqil yo'nalishi bo'lib, insonni san'at vositasida tarbiyalash va rivojlantirish qonuniyatlari to'g'risidagi fandır.

Art-pedagogikaning asosiy maqsadi – har bir shaxsning ichki dunyosini boyitish, uning o'zligini anglashiga ko'maklashish va jamiyatda munosib o'rin egallashiga zamin yaratishdir. U san'atning ta'sir kuchidan foydalanib, insonning ijodiy qobiliyatlarini, estetik didini, ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan.

O'zbeklarda bir maqol bo'lgan: *"Farzandim toshbag'ir bo'lmasin desang, uning qo'liga dutor tut"*. Demak, musiqa san'ati bilan yoki san'atning boshqa turlari bilan shug'ullangan kishining farzandi, o'zi toshbag'ir bo'lmaydi. Toshbag'ir odamlar bo'lmagan jamiyatda jinoyat bo'lmaydi. Jinoyat bo'lmaydigan jamiyat esa barcha zamon va makonlarda orzu qilingan. Bundan ko'rinadiki, art-pedagogika o'zbek art-pedagogikasi bizning milliy tariximizning go'zal an'analariga tayanadi.

O'zbekiston art-pedagogikasi Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "besh tashabbus" g'oyasining amaliy ifodasi bo'lib, shuningdek, davlatimiz rahbarining Sirg'ali tumanida bildirgan: *"Har bir O'zbekiston farzandi hech bo'lmaganda bir turdagi musiqa asbobini chala olish malakasiga ega bo'lsaydi, qanday yaxshi bo'lar edi"*, – degan fikrlaridan kelib chiqqan yo'nalishdir.

Demak, art-pedagogika nima degan savolga javobni quyidagicha ifodalash mumkin. Art-pedagogika shaxsni, bolani, maktab o'quvchisini, talabani tarbiyalash va rivojlantirishda san'atdan foydalanish, san'at va pedagogikaning uyg'unligida yaratilgan yo'nalishdir. Art-pedagogika shaxsning ma'naviyatini yuzaga chiqaradigan, namoyish qiladigan asosiy vosita. Odamning



qalbiga va ongiga kirib uni kuzatib bo'lmaydi. Ammo uning ongi va qalbidagi bor go'zallikni chiqarish mumkinmi? Bu savolga aynan art-pedagogika fani javob beradi, ya'ni bolaning qanday o'ylayotganini, tasavvurlarini, u ekstrovertmi, introvertmi, u depressiv holatdami, yoki aksincha, kayfiyati a'lomi, u nimani yaxshi ko'radi, yoki nimani yomon ko'radi, degan savollarga javobni uning o'zi aytmasligi yoki javob bera olmasligi mumkin. Lekin uning qo'liga qog'oz va qalam berib vazifa sifatida: "Chiz, kayfiyatingni", – desangiz u shunday chizadiki, uning chizmasi qalbining hikoyasi bo'ladi, qalbining rivojoti bo'ladi.

San'atning tarbiyalovchi vazifasini yaqqol misollar bilan tushuntiradigan bo'lsam, otobobolarimiz sevib tinglagan Maxtumlulning "Ayrilma" qo'shig'idir. She'rni yozgan Maxtumlul she'riyat san'ati, adabiyot san'ati, kuyini bastalagan ustoz Komiljon Otaniyozov. Ijro etgan Komiljon Otaniyozov. Bu yerda bir nechta san'at turlari kombinatsiyasini ko'ramiz, ya'ni;

- she'r san'ati (adabiyot san'ati);
- kuy san'ati;
- sozandalik san'ati;
- xonandalik san'ati;
- vokal san'atlari uyg'unlashgan holatda

bularning barchasi bitta maqsadga, ya'ni tinglovchini, shaxsni tarbiyalashga qaratilgan.

Mastona yurgancha g'ayri ellarda,

Unib-o'sgan o'z yurtiingdan ayrilma,

Bir ma'lum kaklikdek nafsing yo'linda,

Doma tushib qanotiniingdan ayrilma, – yoki:
"Ta'lim bergan ustozingdan ayrilma".

Qarang, bunda nasihat bor, ma'naviyat bor, kuy bor, ohang bor, yoshlar orasida vatanparvarlik haqida, vatanni sevish haqida ma'ruzalar qilish mumkin. Lekin mana shu bitta qo'shiq har bir yosh tinglovchi yigit-qizning qalbiga to'g'ridan-to'g'ri kirib boradi va uni yaxshiliklarga boshlaydi, xatolardan to'xtatadi. Yana shuni aytish lozimki, o'zbek klassik asarlarimiz, qo'shiqlarni tinglashda, albatta, uning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratish lozim. Chunki asarning mazmun-mohiyatini anglagan holatda tinglash, tinglovchi shaxsni beixtiyor tarbiyaga chaqiradi, ruhiyatini unsur fikrlardan tozalaydi, shaxsdagi **"mehrli"** bo'lish hissini oshiradi.

Davrlar osha tarixiy bosqichlarda mavzuyimiz g'oyasi haqida olimlar tomonidan o'z davr talabidan kelib chiqqan holda dono fikrlari bilan kelajak avlodga o'z tajribalarini meros

qilib qoldirgan. Shu bilan bir qatorda insoniyat tarixining qaysi bir davriga nazar tashlamaylik, madaniyat va uning tarbiyaviy funksiyasi kishilik jamiyatining har bir bosqichida u yoki bu hukmron tabaqa kishilar qiziqishlarini hisobga olgan holda ular manfaati yo'lida xizmat qilgan.

Tarix manbalariga ko'ra qadimgi afinaliklar ta'limni **"kallokagatiya"** (καλοκαγαθία) deb ataluvchi idealga asoslashgan. Bu so'z "go'zallik" (kalos) va "yaxshilik" (agathos) so'zlaridan iborat bo'lib, jismonan go'zal, ma'nadan pok, aqlan yetuk shaxsni tarbiyalashni anglatgan. Demak, tarbiyaning asosiy maqsadi yoshlarda jismoniy baquvvat, kuchli va yengilmas qudratga ega bo'lishlikni shakllantirishdan iborat bo'lishiga qaramay, **badiiy** tarbiyaga ham alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, *"Bolalarga jismoniy tarbiya berish bilan birga, musiqa, ashula aytish va diniy dars raqslar ham o'rgatilar edi"* [8,17-b].

Misol uchun, **Kifarist maktabi**.

• Bu maktabda musiqa, she'riyat va estetik ta'lim berilardi.

• Bolalar **lirik she'rlar**, Gomerining "Iliada" va "Odissey"idan parchalar yodlar, ularni musiqa bilan ijro etardi.

• Estetik did, his-tuyg'u, va ruhiy tarbiya markazda turardi¹ [8,19-b].

Yana shunday manbalardan biri H.Umarovning "Gumanizm haqida" asarida san'at va madaniyat haqida ijobiy fikrlar berilgan bo'lib, olim: *"San'at – insonning ichki dunyosini, orzu-umidlarini, haqiqat va adolatga intilishini aks ettiradi"*, *"Madaniyat – insonni yuksaltirish vositasi"* *"Madaniyat" – insonning ma'naviy rivoji uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, madaniyat faqat an'analar yoki o'tmish yodgorliklari emas, balki insoniy tafakkur va axloqning rivoji, jamiyatning ma'naviy salohiyatidir*, – deya ta'riflaydi. U adabiyot, teatr, musiqa va tasviriy san'atning insonni tarbiyalashdagi rolini yuqori baholaydi va ularni ijtimoiy ongini shakllantiradigan muhim vosita sifatida ko'radi.

Insonparvarlik g'oyalari nafaqat ta'lim-tarbiyada, balki xalq og'zaki ijodida, adabiy yodgorliklarda, tasviriy san'at asarlarida, maqol va matallarda ham o'z ifodasini topgan. Masalan, eramizdan IX–X asr ilgari Misrda tuzilgan odob-axloq to'g'risidagi bir to'plamda: *"Boy bo'lib, vahshiy bo'lgandan, to'g'ri, vijdonli inson bo'lgan yaxshiroq"*, – deyiladi [9,7-8-b].

Insoniyat san'atsiz, ma'naviyatsiz yashay olmaydi. Tug'ilibmizki, san'atga ilk bolalik davrimizdanoq intilamiz. Insonning hayotga qo'ya boshlagan ilk qadamlari san'at bilan uzviy bog'liqligi shundaki, u onaning ohista alla

¹ Eslatma: Kifarist grekcha – "Muzikachi" demakdir, bu yerda – "muzika o'qituvchisi" ma'nosida





qo'shig'i bilan quloqqa yoqimli, tanaga huzur baxsh etuvchi muloyim ovozi, ona chehrasidagi qalb mehri, insoniy muhabbatning kuchi, barchasi birgina allada mujassamligi namoyon bo'ladi. Darhaqiqat, alla xalq so'zi, termalari, she'riyati va musiqasi uyg'unlashgan san'at turidir. Bundan 10-15 yil oldin bolalarni sirk, multfilmlar, ertaklar, sarguzashtlar, qo'g'irchoq teatrlariga jalb qilinardi. O'smir yoshdagilar esa harbiy sarguzashtlar, detektiv, ya'ni maxfiy agentlar hayotiga oid, ilmiy fantastika, birinchi muhabbat haqidagi povestlarni qiziqib, ishtiyoq bilan o'qishlariga ishonish davri edi.

Bugungi XXI asr tezkor globallashuv davr yoshlari asosan texnologiyalar raqamli o'yinlar; **Mobil o'yinlar** (Clash Royale, Roblox, Minecraft, Brawl Stars va h.k.), kompyuter va PlayStation/Xbox o'yinlari (Fortnite, FIFA, Call of Duty), VR (virtual reallik) texnologiyalariga qiziqish, shuningdek, **ijtimoiy tarmoqlar va internet**: TikTok, YouTube Shorts, Instagram Reels orqali videolar tomosha qilish va yaratish, blog yuritish (vlog, geympley, DIY videolar), kontent yaratuvchi bo'lishga qiziqish, yana **musiq va pop madaniyat** mashhur qo'shiqchilar, guruhlar (BTS, Blackpink, Billie Eilish, va h.k.), tanilgan TikTok yoki YouTube trendlari, musiqa yaratishga, mashhur bo'lishga qiziqish kabi qarashlari allaqachon shakllanishi ortib bormoqda. Shu bilan birga yoshlarimiz orasida fan va texnologiya bunda Coding (Scratch, Python), robototexnika, STEM loyihalar ustida, o'z-o'zini rivojlantirishda, kosmos, tabiat, texnologiyalarga qiziqish, onlayn kurslar va dars platformalari (Khan Academy, Duolingo), xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqishlari tobora ortib bormoqda. Bu jarayonni to'g'ri tushunish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash pedagoglar,

ota-onalar va jamiyat zimmasiga o'ta muhim vazifalarni yuklaydi. Zamonaviy texnologiyalar va madaniy ta'sirlar imkoniyatlar bilan bir qatorda mas'uliyat ham talab qiladi. Shu bois, bola va o'smirlarning qiziqishlarini ilmiy asosda tahlil qilish va ularga sog'lom ravishda yo'nalish berishni kuchaytirish jamiyat rivoji uchun muhim hisoblanadi.

Olamni badiiy-estetik va madaniy-ma'rifiy nuqtayi nazardan anglashga intilish insonning shunchaki qiziqishi emas, balki uning hayotiy zaruratidir. Zero, odamlar madaniy hayotning asl mohiyatini anglamasdan bugungi murakkab jamiyatda to'laqonli yashay olmaydilar. Chunki ilmiy-badiiy mushohadasiz tevarakdagi kishilarning o'ylarini tushunmaymiz, shu sababli insoniyat doimo san'at va madaniyat xazinasidagi jamiki boyliklarni egallashga talpinishi tabiiydir. Bu jarayonda aynan art-pedagogika fani ma'naviy-ma'rifiy manba sifatida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, art-pedagogika nafaqat insonning shaxsiy rivojlanishiga, balki jamiyatning madaniy va ma'naviy taraqqiyotiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. U yangi san'at asarlarining paydo bo'lishiga turtki beradi, madaniy merosni saqlashga yordamlashadi, odamlarni go'zallikni qadrlashga o'rgatadi va jamiyatda bag'rikenglikni kuchaytiradi. Art-pedagogika san'at va madaniyatning uzviy qismi bo'lib, ularning doimiy rivojlanishi va gullab-yashnashi uchun muhim omil bo'lib hisoblanadi. Dono durdonalarga boy xalqimizda: **"San'at hayotdan tug'iladi va yana hayotga qaytishga harakat qiladi"**, – deya bejiz aytilmagan. Hayot va san'at o'rtasidagi bu bog'liqlik bevosita ko'zga tashlanmasa-da, mustahkam va abadiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatova G.I. Bolalarni estetik tarbiyalashda san'atning o'rni. – T.: TDPU nashriyoti, 2021-y.
2. Hoshimov M.H., Alimov Sh.X. Ta'limda innovatsion metodlar. – T.: "Fan va texnologiya", 2019-y.
3. Rahimova S.H. Maktabgacha ta'limda tasviriy san'at orqali estetik tarbiya. – T.: TDPU, 2020-y.
4. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Madaniyat va san'at darslari uchun metodik qo'llanma. – T.: 2022-y.
5. Eshonqulova Z. // "Artpedagogika – ta'limda shaxs rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi vosita". "Ta'lim va amaliyot jurnali", 2021-y.
6. Jo'rayeva S.A. Maktab yoshidagi bolalarda estetik his-tuyg'uni shakllantirishda tasviriy san'atning o'rni (ilmiy ish). – TDPU, 2022-y.
7. Артоболовская А.А. Дети и музыка // Малыши и музы. – М.: «Молодая гвардия», 1972 г. 128 с.
8. Konstantinov N.A., Medinskiy Y.N., Shabayeva F.M. "Pedagogika tarixi" – T.: "O'rta va oliy maktab", 1960-yil. 19-b.
9. Umarov H. Gumanizm haqida. T.: "O'zbekiston", 1975-y. 7-8-b.



BO'LAJAK REJISSYORLARNING BADIY IFODAVIY BEZAKLARNI YARATISHDAGI USLUBIY ASPEKTLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak rejissyorlarning badiiy ifodaviy bezak ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, badiiy ifodaviy bezakning sahna san'atida tutgan o'rni va turlari xususida so'z yuritiladi. Badiiy ifodaviy bezak nafaqat spektaklning ta'sirchanligini oshirishga, balki aktyorlarning to'laqonli ijrosi va tomoshabin tasavvurini ishga solishda asosiy omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: badiiy ifodaviy bezak, rejissyor, sahna, spektakl, dekoratsiya, musiqa, shovqin, nur, chiroq, rekvizit, tasviriy bezak, musiqiy bezak, ovozi bezak.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы формирования навыков работы будущих режиссёров с художественно-выразительными украшениями, их роль и виды в сценическом искусстве. Утверждается, что художественно выразительные украшения должны не только усиливать воздействие спектакля, но и стимулировать полную актёрскую игру, а также активировать воображение зрителей.

Ключевые слова: художественно выразительные украшения, режиссёр, сцена, спектакль, декорация, музыка, шум, свет, лампа, реквизит, визуальное оформление, музыкальное оформление, звуковое оформление.

Annotation. This article discusses the development of skills in working on artistic-expressive decorations among future directors, as well as the role and types of artistic expressive decorations in stage art. Such decorations should not only enhance the impact of the performance but also contribute to the actors' full-fledged performance and stimulate the audience's imagination.

Keywords: artistic expressive decoration, director, stage, performance, decoration, music, sound effects, lighting, props, decoration, musical decoration, sound decoration.

Har qanday sahna asari o'zining badiiy ifodaviy bezagiga ega bo'lib, ushbu bezak sahna asarining g'oyasini, ruhiyatini, asar voqealari ro'y berayotgan zamon va makonni ko'rsatib beruvchi ta'sirchan vosita hisoblanadi. Badiiy ifodaviy bezak o'z ichiga bir qancha komponentlarni jamlaydi. Spektaklda ishlatilgan dekoratsiya, musiqa, kostyumlar, rekvizit va butaforlar badiiy ifodaviy bezakning asosiy komponentlari hisoblanib, ularning jamlanmasi spektakl janri, obrazlar xarakteri va eng asosiysi g'oyani ochib berishga xizmat qiladi. Professional teatrlarda spektaklning badiiy ifodaviy bezagi ustida ishlaydigan maxsus xodimlar faoliyat olib boradi. Bular rassom, dekorator, liboslar bo'yicha rassom, butafor va rekvizit bo'yicha mutaxassislar hamda musiqiy bezakchilardir. Rejissyor ular bilan ijodiy hamkorlik natijasida spektaklning badiiy ifodaviy bezagi ustida ishlaydi. Spektakl bezaklari ustida ishlay boshlar ekan, rejissyor uni asosiy ko'rinish, namoyish etilishi mo'ljallangan g'oyasiga bevosita ta'sir etuvchi muhim omil, deb biladi. Ijrochilarning

asarni u yoki bu tarzda talqin etishiga qarab spektakl qanday xarakter kasb etishini yetarli darajada ravshan tasavvur qiladi. Spektaklning tashqi sahnaviy manzaralari: bezaklar, loyihalar, matolar yoki pardalar, liboslar, ijrochilarning yuz bo'yashlari-yu, yasama sochlari, mebellar, yasama jihozlar (butaforiyalar) tomoshabin zehninga kuchli ta'sir qilishini rejissyor chuqur his etadi [1].

Bo'lajak rejissyorlarda ham spektaklning badiiy ifodaviy bezagi ustida ishlash bo'yicha ko'nikmalar shakllanib borishi zarur. Talaba-rejissyor to'rt yillik o'qish davrida etyud, adabiy asar, dramatik asarlardan parcha, badiiy publitsistik kompozitsiya, bir pardali spektakl kabi bir qancha ijodiy ishlarini sahnalashtiradi. Xuddi spektaklda bo'lgani kabi ushbu ijodiy ishlarda ham badiiy ifodaviy bezak muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, badiiy ifodaviy bezak dekoratsiya, liboslar, grim, butaforlar, rekvizitlar, yoritish vositalari, musiqa yordamida amalga oshiriladi. Badiiy bezak ustida



ishlashda sahnalashtirilayotgan asarning zamon va makonini aniqlash juda muhim hisoblanadi, ya'ni tarixiy mavzudagi asarni sahnalashtirishda zamonaviy buyumlardan, liboslardan, musiqalardan foydalanib bo'lmaydi. Yoki aksincha, zamonaviy asarlar ustida ishlaganda tarixiy libos va musiqalardan foydalanilmaydi.

Rejissyorlik yo'nalishida o'qiyotgan talabalar tanlagan asarini sahnalashtirish jarayonida e'tiborni faqatgina rejissyorlik sahnalashtirish ishlariga qaratib qolmasligi kerak. Sahnalashtirish bilan bir qatorda asarning umumiy badiiy ifodaviy bezagi ustida ham ish olib borishi kerak. To'g'ri, professional teatrlarda badiiy ifodaviy bezak bilan rassomlar va maxsus xodimlar shug'ullanadi. Lekin o'qish jarayonida bunday imkoniyatlar mavjud emas. Qolaversa, bo'lajak rejissyorlar sahnalashtirish bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarni talabalik davrida o'z boshidan o'tkazgani ma'qul. Bu jarayonlar rejissyorlik qobiliyatini shakllanishida katta rol o'ynaydi. Ba'zida talabalar ishlash jarayonida sahnani dekoratsiyalar va rekvizitlar bilan to'ldirib tashlaydi. Bunga qo'shimcha ravishda yoritish vositalarini sahnalashtirilayotgan asarning boshidan oxirigacha davom etadigan musiqalar bilan bezashni, asarning mukammal badiiy bezagi, deb o'ylaydilar. Aslida bunday emas.

Asarning o'ziga xos xususiyati hamda rejissyor talqiniga qarab, badiiy ifodaviy bezash shakli har xil, sahnaviy shartlilik ham shunga yarasha turli bo'lishi mumkin. Lekin shunga qaramay, badiiy bezash har qanday sharoitda ham ikki asosiy qonunga bo'ysunishi lozim:

- birinchidan, rejissyor va aktyorlarning berilgan shart-sharoitda erkin ijod qilishlari uchun shunday tashqi sharoit (ashyoviy, dekorativ, musiqali, ovozli) yaratishlari kerakki, u o'z navbatida voqea g'oyasini va sahnada vujudga keladigan insoniy kechinmaning hayotiy chiqishini ta'minlashga yordam berishi;

- ikkinchidan, sahnadagi voqeaning tashqi badiiy bezagi, rejissyor tasavvurida yashayotgan barcha timsollarni har tomonlama to'liq va ravshan ko'rsatish bilan kifoyalanmay, balki tomoshabin tasavvurini ishga solishga ham turtki bo'lmog'i kerak [2].

Sahnalashtirilayotgan asarning tashqi bezagi tomoshabinlar diqqatini o'ziga tortadigan va ta'sirchan bo'lishini ta'minlashi hamda asarning timsolli yechimi orqali aytilmoqchi bo'lgan fikrni aktyorlar ijrosi bilangina talqin qilmay, dekoratsiya orqali ham ifodalash tomoshabinlar uchun ta'sirli bo'ladi. Bu o'rinda teatr effektlari va texnikasidan to'liq foydalanish rejissyor qobiliyatiga bog'liq. Sahnaviy effektlar shunday katta imkoniyatlarga egaki, hozirgi zamon tomoshabinini ham lol

qoldiradi va uning ongiga keskin ta'sir qila oladi. Sahnaviy effektlardan qadimgi zamonlardan boshlab har xil maqsadlarda foydalanilgan. To'g'ri, foydalanilgan effekt etyud badiiy talqinining ifodali va mazmunli bo'lishiga katta rol o'ynagan. Sahnadagi yer qimirlashlar, kuchli portlashlar, dengizdagi notinch to'lqinlar, poyezdning shiddatli xarakati (tomoshabin tomonga qarab) yong'in, bo'ron, jala, momaqaldiraq, qor-yomg'ir orqali tomoshabiniga kuchli psixik ta'sir o'tkazish mumkin [3].

Bo'lajak rejissyorlar sahnadagi badiiy bezaklar va ularning tomoshabinlarga ta'siri haqida chuqur bilimga ega bo'lishlari kerak. Bu, teatr san'ati, kinematografiya va boshqa vizual san'atlardan ilhom olishni o'z ichiga oladi. Rejissyor badiiy bezaklarni yaratishda ijtimoiy, madaniy va estetik omillarni inobatga olishi zarur. Yangi tendensiyalar, texnologiyalar va ijodiy yondashuvlar sahnadagi bezaklar orqali ifodalanadi. Badiiy ifodaviy bezaklar nafaqat estetik jihatdan chiroyli bo'lishi kerak, balki ular sahnadagi harakatlarni qo'llab-quvvatlashi, voqeani kuchaytirishi ham zarur.


Badiiy ifodaviy bezak asosan uch turga bo'linadi.

Tasviriy bezak. Tasviriy bezak dekoratsiya, libos, grim, rekvizit kabi asarning tashqi ifodaviy bezagini o'z ichiga oladi. Tasviriy bezak asosan asar voqealari sodir bo'layotgan zamon va makondan kelib chiqqan holda yaratiladi. Bunda rejissyor, eng avvalo, voqealar qaysi zamonda bo'layotganini aniqlashi kerak. Masalan, voqea o'tgan asrning 80–90-yillari oralig'ida bo'lyabdi. Zamon aniq bo'lgach makon aniqlanadi. Demak, voqea o'tgan asrning 80–90-yillarida Toshkent shahridagi kichik bir hovlida sodir bo'lyabdi.

Etyudning zamon va makonini aniqlab oldik. Endi shu zamon va makondan kelib chiqqan holda sahnada ishlatiladigan dekoratsiya, libos, grim hamda rekvizitlar tanlanadi. Sahnada pardasi ochilganda tomoshabin ko'z oldida o'tgan asrning 80–90-yillari gavdalansa, demak, tasviriy bezak to'g'ri amalga oshirilgan bo'ladi.

Ovozli bezak. Ovozli (shovqinli) bezak badiiy ifodaviy bezashda muhim vosita hisoblanadi. Ko'pchilik ovozli bezak bilan musiqiy bezakni bitta narsa, deb o'ylaydi. Aslida bu noto'g'ri fikr. Ovozli bezak bu kundalik hayotimizda atrofimizni o'rab turgan turli shovqinlar, ya'ni qushlarning sayrashi, sharsharaning shovullashi, mashinalardan chiqayotgan shovqin kabi tovushlarni o'z ichiga oladi.

Ovozli bezak atmosfera yaratishga va aktyorlar ijrosiga katta yordam beradi. Ovozli bezak uchun shovqinlarni tanlashda nihoyatda e'tiborli bo'lish kerak. Bir qarashda ovozli bezak unchalik katta ahamiyatga egadek ko'rinmasligi mumkin. Lekin tomoshabinni sahnada bo'layotgan voqealar



ichiga olib kirishda katta rol o'ynaydi. Shovqinli bezakka sahnaviy xatti-harakatga qo'shilgan teatr shovqinlari, qushlar sayrashi, hayvonlar hayqirig'i, qo'ng'iroq ovozi va boshqa hayotiy shovqinlar kiradi. Musiqaviy shovqinli va tovushli texnikaviy bezaklar oldindan o'ylangan bo'lib, planli ravishda amalga oshiriladi [3]. Shuning uchun ovozli bezak ustida ishlashda shovqinlardan to'g'ri foydalanishni bo'lajak rejissyorlar bilishi kerak.

Musiqiy bezak. Sahnalashtirilayotgan asarning badiiy ifodaviy bezagida musiqiy bezak muhim ahamiyat kasb etadi. Tasviriy hamda ovozli bezak asarning tashqi vizual ko'rinishini ifodalasa, musiqiy bezak aktyorlar ichki dunyosini, his-tuyg'ularini ochib berishga xizmat qiladi. Musiqiy bezakda nihoyatda ehtiyotkorlik va nozik did bilan yondashish zarur. Musiqani tanlashda ham voqealar sodir bo'layotgan zamon va makonni aniqlash zarur. Yuqorida aytganimizdek, voqealar o'tgan asrning 80–90-yillarida sodir bo'layotgan bo'lsa-yu, lekin hozirgi zamonaviy musiqa yangrab turishi maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Musiqadan foydalanganda me'yordan oshirib yubormaslik kerak. Ba'zida tinimsiz musiqa yangrab turadi. Bu holat sahnada rol ijro etayotgan aktyorga ham, tomoshabinga ham xalaqit beradi. Musiqiy bezakda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan jihatlardan yana biri shundaki, tanlangan musiqani yaratilish tarixini o'rganish, agar chet el musiqalari va qo'shiqlari bo'lsa, qo'shiqdagi so'zlar ma'nosini aniqlab olish zarur. Bundan tashqari hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda turli yoritish moslamalari hamda noan'anaviy, ramziy, metaforik usullardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lajak rejissyorlar to'rt yillik o'qish mobaynida ustozlardan biron-bir asarni nafaqat sahnalashtirish, balki uning badiiy ifodaviy bezagi ustida ishlash sirlarini o'rganib, ko'nikma-

lar shakllanib borishi kelajakda har tomonlama mukammal va yetuk sahna asarlarining yaratilishiga zamin hozirlaydi.

Bo'lajak rejissyorlarning badiiy ifodaviy bezaklar ustida ishlash jarayoni teatr va kino san'ati rivojining yangi bosqichini tashkil etadi. Badiiy bezaklar nafaqat sahnaning tashqi ko'rinishi, balki rejissyorning ichki dunyosini, uning estetik qarashlarini va tasavvurlarini aks ettiradi. Har bir rejissyor o'zining ijodiy dunyosiga xos uslubni yaratishda bezak elementlaridan unumli foydalanishi zarur. Rejissyorning badiiy ifodaviy bezaklarni yaratishdagi mahorati sahnadagi voqeani nafaqat tomoshabinlar uchun, balki sahnada harakatlanayotgan aktyorlar uchun ham ma'noli va kuchli qilib taqdim etishga yordam beradi.

Zamonaviy texnologiyalar va multimedia imkoniyatlari badiiy bezaklar orqali voqeani yangi, yanada dinamik va interaktiv shaklda yetkazish imkoniyatlarini yaratmoqda. Shu bilan birga, rejissyorlarning ijtimoiy va madaniy kontekstni hisobga olgan holda badiiy bezaklarni ishlatishlari nafaqat estetik, balki ma'naviy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Muxtasar qilib aytganda, bo'lajak rejissyorlar o'zlarining badiiy ifodaviy bezaklarni yaratishda innovatsion yondashuvlarni, zamonaviy texnologiyalarni va ijodiy qarorlarni qo'llash orqali san'atning yangi, ilg'or bosqichlarini kashf etishlari kutilmoqda. Badiiy bezaklar rejissyorning tomoshabinlar bilan bevosita muloqot qilishining kuchli vositasi bo'lib, ular orqali sahnalashtirilayotgan asar g'oyasi va oliy maqsadini yanada yorqinroq ochib berishiga xizmat qiladi. Shuning uchun badiiy bezaklarning kuchi nafaqat ularning tashqi ko'rinishida, balki rejissyorning ijodiy qarashlarida mujassam.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayev B.S., Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – T.: "Fan va texnologiya", 2012-y. 388-b.
2. Ahmedov F.E. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. – T.: "Aloqachi", 2008-y. 424-b.
3. Egamberdiyev F.T. Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2018-y. 356-b.
4. Mamatqosimov J.A. Aktyorlik mahorati. – T.: "Lesson press", 2019-y. 220-b.
5. Mamatqosimov J.A. Estrada va ommaviy tomoshalar rejissurasi. – T.: "Donishmand ziyosi", 2023-y. 176-b.
6. Юсупова М.Р. Режиссура эстрады и массовых представлений. – Т.: "Lesson press", 2021 г. 161 с.





V BO'LIM

KUTUBXONASHUNOSLIK

Mirali MAXMUDOV,

O'zDSMI "Kutubxonashunoslik" kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

AHOLI, TEXNOLOGIYA VA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TIZIMI KUTUBXONA FAOLIYATINING TASHQI MUHITI SIFATIDA: ISTIQBOLI VA KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kutubxona faoliyatining tashqi muhiti sifatida aholi, texnologiya va axborot kommunikatsiya tizimi, ijtimoiy-madaniy muassasalarni kutubxona faoliyatining tashqi muhiti sifatidagi o'rni, ta'siri bo'yicha fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: aholi, texnologiyalar, axborot kommunikatsiya tizimi, ijtimoiy-madaniy muassasalar.

Аннотация. В данной статье показаны роль населения, технологий и информационно-коммуникационной системы, а также социально-культурных учреждений как внешней среды деятельности библиотеки, а также обратная связь по их влиянию.

Ключевые слова: население, технологии, информационно-коммуникационная система, социально-культурные учреждения.

Annotation. This article describes the role of the population, technology and the information and communication system, as well as socio-cultural institutions as the external environment of the library, as well as feedback on their impact.

Keywords: population, technology, information and communication system, socio-cultural institutions.

Mamlakat, mintaqa yoki alohida joy aholisi kutubxona faoliyatiga eng faol ta'sir ko'rsatadigan tashqi muhitning asosiy qismidir. Aholi soni, ularning ijtimoiy va demografik xususiyatlari nafaqat foydalanuvchilarning bevosita tarkibini, balki kutubxonaga faol ta'sir ko'rsatuvchi boshqa tashqi parametrlarning rivojlanishini ham belgilaydi. Mamlakat aholisi, va xususan, aholi yashaydigan joylar jamiyatning siyosiy strukturasini belgilaydi, uning iqtisodiy bazasini yaratadi, ishlab chiqarish va turli tarmoqlar amaliyotida yangi texnologiyalarni amalga oshirish, jamoa yoki individual tartibdagi ta'sislar sifatida, shuningdek, foydalanuvchilar, raqobatchilar va kutubxonalar hamkorlari sifatida harakat qiladilar. Shuning uchun ham aholi tarkibi

va jamiyatdagi demografik vaziyat ko'pchilik mutaxassislar tomonidan kutubxonalar tashqi muhitining asosiy omili, deb ataladi.

Kutubxonalar tashqi muhitining eng muhim omili, aholining ta'lim darajasi hisoblanadi. Zero, u maktab o'quvchilari, talabalar, turli xil ta'lim muassasalari tinglovchilari, kutubxonalarning salohiyatli va dolzarb foydalanuvchilarining salmoqli qismini tashkil etadi. Bundan tashqari, aholini kutubxonalarga jalb etishda jamiyat a'zolarining ta'lim darajasi juda muhimdir. Agar jamiyat aholisining ko'pchilik qismi o'qish va yozishni bilmasa, kutubxonalar axborot oluvchilar potensialini o'zgartira olmaydi. Aksincha, 100% savodxonlikka erishgan mamlakat aholisini potensial foydalanuvchilar sifatida qarab, ularni



kutubxonalarga jalb qilish uchun yo'nalishlarini belgilovchi konsepsiyalarni ishlab chiqish mumkin.

Ta'lim darajasi va kutubxonachilik darajasi bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bir tomondan, savodxonlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, kutubxonalarga bo'lgan ehtiyoj shuncha katta bo'ladi. Boshqa tomondan, kutubxonalar qancha ko'p bo'lsa, savodsizlikni bartaraf etish uchun imkoniyat shuncha ko'p bo'ladi.

Kutubxona aholining bir qator ijtimoiy-demografik xususiyatlariga, birinchi navbatda, uning soniga bevosita ta'sir ko'rsata olmaydi. U faqat foydalanuvchilarning yoshi, daromadi, oilaviy ahvoli, kasbi, ta'lim, din va yashash joyiga ta'sir etishi mumkin. Lekin u aholini demografik tarkibini o'zgartirish, kamaytirish yoki sonining o'sishiga ta'sir ko'rsata olmaydi. Lekin hozir ko'pchilik mutaxassislar biznesning asosiy maqsadi iste'molchi yaratish, degan nazariya tarafdori. Bu yondashish zamonaviy kutubxonalar uchun juda mosdir. Bunday yondashuv zamonaviy kutubxonalar uchun to'liq qabul qilinadi. Kelgusida potensial foydalanuvchilar soniga qarab kutubxona, kutubxonaga qatnovchilar sonini ko'paytirish va ularga ko'rsatiladigan xizmat turlarini kengaytirish uchun turli shakl va usullardan foydalanishi lozim.

Rus kutubxonashunoslari S.D.Kolegayeva Y.B.Artemyeva, T.A.Jdanova, L.A.Kojevnikova, A.N.Maslovalar [2] kutubxona faoliyatiga bevosita ta'sir etish manbalariga: kitobxonlar, axborot tizimi va kutubxonachilik faoliyatini umumiy holati, qonunchilik, moliyalashtirish, hokimiyat organlari, jamoatchilik fikri, mehnat resurslari va boshqalarni ko'rsatadilar. Bunday fikrlar mashhur rus kutubxonashunos olimi M.Y.Dvorkinaning «Трансформация общества и библиотеки» maqolasida [3] hamda O.G.Bazilyevichning «Библиотека и общество» maqolalarida ham keng muhokama qilingan [1]. Har bir kutubxonaning faoliyati o'ziga xos texnologiyaga asoslangan bo'lib, u bir qator tashqi va ichki muhit omillari ta'sirida shakllanadi. Bu holatda muhim rol kutubxona atrofidagi texnologik muhitga tegishlidir.

Ochiq tizim sifatida kutubxona tashqi muhitdan har xil turdagi resurslarni, eng avvalo, axborot resurslaridan oladi. Ayrim turdagi hujjatlarni yaratish texnologiyasi va ularni jamoatchilik tomonidan tan olinishi kutubxona fondlarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan, bosma kitob asta-sekin kutubxona fondlarida qo'lyozma kitoblarning o'rnini egalladi. Hozirda esa audiovizual hujjatlar va kompakt-

disklar kitoblarni asta-sekin siqib chiqarmoqda.

Kompyuter texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasidagi texnologik yechimlar kutubxonashunoslik fanining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu sohadagi yutuqlar katta hajmdagi axborotlarni saqlash, qayta ishlash va darhol uzatishga imkon berdi. Ushbu texnologiyalardan foydalanish kutubxonalarga elektron hujjatlarni xarid qilish, hujjatlarni kichraytirish va ularning elektron nusxalarini yaratish ishlarini davom ettirish imkonini berdi, bu esa, kutubxona fondlarining xavfsizligini sezilarli darajada oshiradi va ularni saqlash joyiga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi.

Kompyuter texnologiyalari bilan bir qatorda boshqa sohalaridagi yutuqlar ham kutubxonalar rivojiga faol ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, mehmonxona biznesida keng tarqalgan mikroiqlim va markazlashgan chang yig'ish texnologiyalari hozirgi kunda kutubxonalarda hujjatlarni, birinchi navbatda, kamyob va eski bosma kitoblarni saqlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, tashrif buyuruvchilar va kutubxona xodimlari uchun qulay mehnat sharoitlarini yaratish maqsadida qo'llanilmoqda.

Axborot kommunikatsiya tizimi (axborot tizimi, axborot iste'molchisi) – og'zaki muloqot, aloqa vositalari (telefon, radio, televideniye) va turli xil hujjatlar orqali jamiyatda axborotning ishlashini ta'minlovchi tizim. Uning bir qismi sifatida kutubxona axborot tarqatish sohasidagi boshqa elementlari bilan faol hamkorlik qiladi. Bu aloqa, ayniqsa, kutubxonaning radio va televideniye bilan o'zaro aloqasida yaqqol namoyon bo'ladi. Bir tomondan, bu ommaviy axborot vositalarining faoliyati kutubxonalar orqali qandaydir ma'lumotlarga asoslanadi. Boshqa tomondan, kutubxonalar ushbu muassasalardan foydalanuvchilarni fondlar mazmuni haqida xabardor qilish va o'z xizmatlarini reklama qilish uchun foydalanadilar. Axborot bo'sh vaqt bozoridagi hamkorlar sifatida kutubxona, radio va televideniye davlat mablag'larini qo'lga kiritish uchun potensial mijozlarning bo'sh vaqti uchun raqobatlashadi.

Hujjat kommunikatsiya tizimi (hujjat tizimi, axborot iste'molchisi) axborot kommunikatsiya tizimining quyi tizimi bo'lib, jamiyatda hujjatlarning faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Hujjatlarni yaratish, analitik va sintetik qayta ishlash, saqlash, tarqatish va hujjatlarni ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan axborot yetkazuvchilik vazifasini bajaradi.

Shunday qilib, hujjat kommunikatsiya tizimi





jami hujjatlar, hujjatlarda qayd etilgan barcha axborot iste'molchilari va ular o'rtasidagi barcha munosabatlar majmuidir. Kutubxonalardan tashqari hujjat kommunikatsiyalari tizimi o'z ichiga uning rivojlanishi va faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, qator maxsus tashkil etilgan muassasalar, jumladan, **nashriyotlar, bosmaxonalar, kitob do'konlari, bibliografik va axborot markazlari, muzeylar, arxivlar, san'at galereyalari, kinoteatrlar va boshqalarni oladi.**

Hujjat kommunikatsiyalari tizimida har bir muassasa foydalanuvchini tegishli axborot bilan ta'minlashga qaratilgan vazifani bajaradi. Nashriyotlar, bosmaxonalar kabi muassasalarning vazifasi mualliflar bilan o'zaro aloqada bo'lib, mualliflarning qarashlarini eng to'liq ravishda foydalanuvchilarga yetkaza oladigan, jamiyatning iqtisodiy va texnologik imkoniyatlariga mos keladigan hujjatlarni ishlab chiqarishdir. Jamiyat tomonidan yaratilgan hujjatlar qanchalik ko'p bo'lsa, ularning mazmuni va shakli qanchalik mukammal bo'lsa, kutubxona o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun shunchalik ko'p imkoniyatlarga ega bo'ladi. Shu bilan birga, kutubxonalarda yirik hujjatlar fondlarining mavjudligi ta'lim, fan va madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi hujjatlar yaratish, axborot-hujjat kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish uchun qulay muhit yaratadi. Biroq hujjatlar oqimining ortib borishi kutubxonalardan ularni tanlash, sotib olish va saqlashga ko'proq mablag' sarflashni talab qiladi.

Savdo muassasalari, ayniqsa, kitob do'konlari jamiyatda hujjatlar taqsimotini targ'ib qiladi va

kutubxonalarning hamkorlari hisoblanadi, chunki ular kutubxonalar fondlarini to'ldirishga yordam beradi. Biroq kutubxonalar va do'konlar doimiy raqobatda. Bir tomondan, kitobxonlar qancha ko'p kitob sotib olsa, kutubxonalar xizmatidan shuncha kam foydalanadilar. Boshqa tomondan, kutubxonalar tarmog'i qanchalik rivojlangan bo'lsa, ularning kolleksiyalari shunchalik boy bo'ladi. Xizmatlar doirasi va yuqori sifati qanchalik xilma-xil bo'lsa, kitob do'konlaridagi mahsulotlarga talab shunchalik kam bo'ladi.

Arxivlar asosan rasmiy hujjatlarni to'plash, saqlab qolish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Unga kelib tushuvchi hujjatlar muassasalarning kundalik ishlarida qo'llanilmaydi. Muzeylarning faoliyati asosan madaniy qiymati, sifati yoki maxsus xususiyatlari jamiyat uchun ularni saqlab qolish va ommaga taqdim etish uchun zarur bo'lgan alohida xususiyatga ega hujjatlar bilan ishlashga qaratilgan. Axborot markazlari zamonaviy axborotni qayta ishlash texnologiyalariga tayanadi va foydalanuvchilarni nafaqat hujjatlar bilan, balki tahliliy ma'lumotlar bilan ham ta'minlashga intiladi. Shu sababli ular ko'pincha yangi hujjatlar yoki ma'lumotlar bazalarining jamoaviy mualliflari sifatida faoliyat yuritadilar [4].

Kutubxonalarning salmoqli qismi madaniy muassasalar tarkibida joylashganligi sababli ularning faoliyati bevosita **klublar, madaniyat saroylari, teatrlar, konsert zallari, istirohat bog'lari** va boshqa ijtimoiy-madaniy muassasalar faoliyati bilan bog'langan. Biror joy yoki viloyat doirasida keng ko'lamlı ijtimoiy-madaniy tadbirlar yoki kichik tadbirlar o'tkazish uchun yaqindan

hamkorlik qiladilar. Shu bilan birga, ular mahalliy hokimiyat organlari mablag'lari va aholining bo'sh vaqti uchun kurashda raqobatchilar sifatida doimiy harakatda.

Texnologik yangiliklar, birinchi navbatda, axborot resurslarini shakllantirish va foydalanuvchi xizmatlarini tashkil etish bilan bog'liq jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat taraqqiyotining texnologik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, kutubxonalar o'z maqsadlariga erishish uchun uning umumiy infratuzilmasi va texnik imkoniyatlaridan shunchalik ko'p foydalanishi kerak.

Texnologik rivojlanishning past darajasi kutubxonalarga o'z vazifalarini to'liq amalga oshirish imkonini bermaydi. O'z navbatida kutubxona, yangi texnologiyalar haqida ma'lumot tarqatish, qo'llash bu sohadagi korxona va tashkilotlar xabardorligini oshirishga ko'maklashadi. Jamiyatni rivojlantirish va texnologik modernizatsiya qilish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Kutubxona va jamiyat dialektik munosabatda

bo'ladi: jamiyat kutubxona mavjud bo'lgan muhit, uning xizmatlari mijozi va iste'molchisi, kutubxona esa axborot ehtiyojlarini qondirish va tabiat, jamiyat va o'zi haqidagi inson bilimlarining hajmi va mazmunini o'zgartirish orqali jamiyatni shakllantirish, takomillashtirish jarayonida ishtirok etadi. Jamiyat kutubxonaga qanchalik ko'p resurslar (axborot, moliyaviy, moddiy-texnika, mehnat) taqdim etsa, uning axborot etiyojlarini shunchalik samarali qondira oladi [5].

Kutubxonalar tomonidan to'plangan axborot resurslari jamiyatning eng muhim strategik resursi, iqtisodiyot, fan, texnika, ta'lim, madaniyat va ma'naviyatni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kutubxonalar har bir shaxsning g'oyasi, madaniyati, intellektual imkoniyatlarining erkin rivojlanishiga va tabiiy muhit bilan uyg'unlashuviga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Kutubxona sivilizatsiya poydevori misolida ma'naviy qadriyat, milliy madaniyat va tarixiy an'analarni jamlash markazi sifatida ma'naviy gumanitar makonni tashkil etishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Базылевич О.Г. Библиотека и общество // Библиотековедение. 1996 г. № 2. 106–108 с.
2. Библиотеки в системе общественных отношений региона // Е.Б.Артемяева, Т.А.Жданова, Л.А.Кожевникова, А.Н.Маслова; ГПНТБ СО РАН. – Новосибирск: Изд-во СО РАН, 1999 г. 204 с.
3. Дворкина М.Я. Трансформация общества и библиотеки // Время культуры и культурное пространство: Сб. тез. докл. междунар. науч. -практ. конф., – Москва: 11-13 дек. 2000 г. // Моск. гос. ун-т культуры и искусств. – М.: 1999 г. 41–244 с.
4. Майстрович Т.В. Направления интеграции архивов, библиотек // Библиотечное дело – 2001: российские библиотеки в мировом информационном и интеллектуальном пространстве: Тезисы докладов Шестой международной научной конференции (Москва 26-27 апреля 2001 г.). Ч. 1. – М.: 2001 г. 25–27 с.
5. Ястребова Е.М. Интеграция библиотек в рынок и демократию // Научные и технические библиотеки. 1995 г. № 5. 55–61 с.



Ирина ЦАЙ,

и.о. доцента кафедры «Библиотечно-информационная деятельность»
Государственного института искусств и культуры

РЕКОМЕНДАЦИИ ПО МОДЕРНИЗАЦИИ БИБЛИОТЕЧНОГО ОБРАЗОВАНИЯ С УЧЕТОМ ТРАНСФОРМАЦИИ БИБЛИОТЕЧНОГО ДЕЛА УЗБЕКИСТАНА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ

Аннотация. В статье рассматриваются основные направления модернизации библиотечного образования в Узбекистане в условиях трансформации библиотечного дела и цифровизации общества. Автор анализирует национальные особенности библиотечного дела Узбекистана, такие как интеграция культурного наследия в образовательный процесс, и рассматривает их влияние на подготовку специалистов.

Ключевые слова: библиотечное дело, цифровизация, информационная грамотность, образовательные стандарты, инновационные технологии, международное сотрудничество.

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonda kutubxonachilik sohasining transformatsiyasi va jamiyatning raqamlashtirilish sharoitida kutubxonachilik ta'limini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Muallif O'zbekistonda kutubxonachilik faoliyatining milliy xususiyatlarini, xususan, madaniy merosni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish masalasini tahlil qilib, uning mutaxassislar tayyorlashga ta'sirini ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar: kutubxonachilik ishi, raqamlashtirish, axborot savodxonligi, ta'lim standartlari, innovatsion texnologiyalar, xalqaro hamkorlik.

Annotation. The article considers the main directions of modernization of library education in Uzbekistan in the conditions of transformation of librarianship and digitalization of society. The author analyzes national peculiarities of librarianship in Uzbekistan, such as the integration of cultural heritage into the educational process, and considers their impact on the training of specialists.

Keywords: modernization of library education, librarianship, digitalization, information literacy, educational standards, innovative technologies, international cooperation.




С развитием информационных технологий и изменением характера доступа к знаниям и информации библиотечное дело переживает серьезные трансформации. В условиях глобализации и цифровизации образовательный процесс в области библиотековедения также требует адаптации и модернизации. Важнейшим аспектом становится необходимость пересмотра образовательных программ с учетом как национальных особенностей, так и международных стандартов, что позволяет готовить специалистов, которые будут успешно функционировать в изменяющихся условиях цифрового общества.

Одно из перспективных направлений - внедрение гибкого образования или так называемое смешанное обучение (Blended Learning), которое сочетает традиционное очное обучение с онлайн-компонентами. Этот подход позволит преодолеть географические и временные барьеры, обеспечивая доступ к обра-

зовательным программам для студентов, находящихся в удаленных районах или имеющих ограничения по времени [1, с. 95–105]. Данная модель обучения способствует улучшению взаимодействия студентов и преподавателей, а также позволяют индивидуализировать обучение, ориентируясь на потребности каждого студента. Смешанное обучение дает гибкий подход, который позволяет педагогу настраивать учебный процесс под конкретные образовательные задачи и аудиторию. Если включить в программу самостоятельного изучения темы с помощью онлайн-ресурсов. Позволит значительно оптимизировать образовательный процесс.

Использование цифровых технологий открывает доступ к учебным материалам, курсам и инструментам независимо от физического местонахождения студента. В свою очередь преподаватель может использовать цифровые инструменты для вовлечения студентов и раз-





вития у них soft skills, цифровой грамотности и других универсальных компетенций. Например, можно предложить студентам написать вместо привычного эссе сценарий для короткого ролика, снять и смонтировать его с помощью смартфона [7].

Необходимо отметить особую важность укрепления практико-ориентированного подхода в библиотечном образовании. Этот подход является основой эффективной подготовки библиотечных специалистов и позволит студентам овладеть необходимыми компетенциями для реальной работы в библиотеке. В постановлении Кабинета Министров от 10.01.2015 г. №3 внесены изменения и дополнения в постановление Кабинета Министров от 16.08.20 [10] определена доля традиционного для высшей школы практического обучения - учебной и производственной практики, в ходе которой будущие библиотекари должны получать возможность приложить в реальных условиях практической деятельности знания, умения и навыки, полученные в процессе теоретического обучения. 27.03.2024 г. вышло Постановление Кабинета Министров от № 157 «О мерах по совершенствованию порядка разработки и внедрения государственных образовательных стандартов и требований к образованию». Документом утверждено Положение о порядке разработки и внедрения государственных образовательных стандартов и требований к образованию. Оно определяет: цель, задачи и принципы государственных образовательных стандартов и государственных образовательных требований; требования к разработке стандартов и требований, а также стандартизованных видов образования; порядок разработки, утверждения и внедрения образовательных госстандартов, квалификационных требований, типовых (базовых) образовательных планов и программ.

Для обеспечения признания полученного образования в международном масштабе действующие в Узбекистане виды образования приводятся в соответствие с уровнями «Международной стандартной классификации образования» ЮНЕСКО. 1 августа 2024 года запущен единый открытый дискуссионный портал государственных образовательных стандартов и государственных требований к образованию «dts.uz» [11].

Включение практик, стажировок, работы над реальными проектами и совместных исследовательских инициатив с международными партнерами помогает студентам развить не только технические, но и социальные навыки, а также понять роль библиотек в современных образовательных и культурных процессах.

Стажировки и практики – это важнейший элемент, который может дать студентам возможность работать с реальными библиотечными системами, взаимодействовать с пользователями и участвовать в проектной деятельности. Например, участие в разработке и внедрении библиотечных систем, таких как интегрированные автоматизированные библиотеки, а также участие в проектировании цифровых архивов и платформ для обмена образовательными материалами помогает студентам глубже понять процессы, происходящие в библиотечном деле или участие в разработке мобильных приложений для библиотек и создание виртуальных библиотек как инновационных моделей библиотечных услуг в современных библиотеках. Мобильные библиотеки и виртуальные библиотеки инновационные модели библиотечных услуг, что особенно актуально для стран с развивающимися библиотечными системами, где доступ к традиционным библиотечным ресурсам ограничен [6].

С учетом роста объемов данных и информации, которые ежедневно обрабатываются современными библиотечными учреждениями необходимо разрабатывать курсы по развитию навыков работы с большими данными и анализом информации. Современные специалисты информационно-библиотечных учреждений должны быть готовы работать с большими объемами данных, используя методы анализов данных, машинного обучения и искусственного интеллекта для оптимизации процессов поиска и предоставления информации [3]. Такие курсы помогут студентам освоить аналитические инструменты, которые используются для обработки, хранения и анализа больших объемов данных в библиотеке.

Нельзя не отметить, что одной из главных задач модернизации библиотечного образования является включение в учебные курсы цифровых технологий и информационных систем, которые будут соответствовать требованиям текущего рынка труда и нуждам пользователей. Важно не только развивать навыки работы с конкретными инструментами, но и обучать студентов тому, как применять эти технологии в реальных ситуациях, например, в процессе организации доступа к информации в библиотеке, создания интерактивных платформ для пользователей, а также обеспечения сохранности данных [2].

Современные тенденции в области библиотечного дела и образования требуют не только модернизации образовательных программ, но и активного участия в международном сотрудничестве, обмене знаниями и опытом с зару-





бежными коллегами. В условиях глобализации информационного общества важным аспектом является расширение горизонтальных связей между библиотечными учреждениями и образовательными учреждениями по всему миру. Это позволяет создать более эффективные и актуальные образовательные практики, адаптированные к современным условиям.

Сегодня взаимодействие государств в области образования становится более динамичным, проявляют себя новые тенденции такого взаимодействия, появляются новые формы и направления сотрудничества. Эти изменения требуют соответствующего изучения, а также решения, возникающих в ходе сотрудничества проблем. Международное сотрудничество Республики Узбекистан в сфере образования развивается на многостороннем уровне с универсальными организациями таких как ООН, ЮНЕСКО, МОТ, а также с региональными организациями таких как СНГ, ШОС, ЕС. Сотрудничество с ООН в сфере образования осуществляется Узбекистаном в рамках обеспечения права на образование, зафиксированными в основных документах ООН в области прав человека, таких как Международный пакт об экономических, социальных и культурных правах, Конвенция о правах ребенка, а также в рамках выполнения обязательств, вытекающих из Целей устойчивого развития (2016–2030). В настоящее время успешно развивается сотрудничество Республики Узбекистан с ЮНЕСКО в сфере образования. Узбекистан стал членом ЮНЕСКО 26 октября 1993 года. В соответствии с Уставом Организации, в Узбекистане в декабре 1994 года создан институт для координации и реализации программ ЮНЕСКО – Национальная комиссия по делам ЮНЕСКО. В области образования сотрудниче-

ство с ЮНЕСКО было сфокусировано на содействие успешной реализации Национальной программы Узбекистана по подготовке кадров. В 1995 г. при содействии ЮНЕСКО в г. Самарканде был учрежден Международный институт центрально-азиатских исследований 38 (МИЦАИ). В различных регионах Узбекистана открыто и функционируют 8 кафедр и 10 центров, а также 34 ассоциированных школ ЮНЕСКО [12]. На многостороннем уровне в сфере образования Узбекистан сотрудничает также с Международной организацией труда. Республика Узбекистан является членом МОТ с июля 1992 г. В настоящее время Республикой ратифицировано 13 ее Конвенций, включая конвенции касательно искоренения наихудших форм детского труда, предусматривающих меры по совершенствованию системы образования¹.


Таким образом, в Узбекистане сложилась и развивается нормативно-правовая основа и потенциально эффективный организационно-правовой механизм сотрудничества в сфере образования на универсальном, региональном и двустороннем уровнях в целях обеспечения одного из важнейших прав человека - права на образование. В целях дальнейшего совершенствования механизмов сотрудничества в сфере образования необходимо усилить изучение международного и зарубежного опыта в данной сфере [13].

Международное сотрудничество в библиотечном образовании предполагает участие в различных международных проектах, программах обмена и исследованиях. Программы, такие как International Librarians Network (ILN), предлагают уникальные возможности для обмена опытом, улучшения навыков и практик среди библиотекарей и преподавателей библиотечных факультетов. Эти программы способствуют созданию глобальной сети профессионалов, что особенно важно в условиях быстро меняющихся технологий и образовательных методов [4].

Участие в международных проектах позволит библиотекам и образовательным учреждениям делиться инновационными подходами, изучать лучшие практики и адаптировать их к национальным и региональным условиям. Это сотрудничество должно способствовать улучшению стандартов образовательных программ и повышению качества подготовки специалистов. Примером такого сотрудничества является участие библиотек в международных научных исследованиях, таких как проекты, поддерживаемые Международной федерацией библиотечных ассоциаций и учреждений (IFLA), где разрабатываются методологические

¹ Узбекистаном ратифицированы Конвенция № 29 о принудительном или обязательном труде, Конвенция № 47 о сокращении рабочего времени до 40 часов в неделю, Конвенция № 52 о ежегодных оплачиваемых отпусках, Конвенция № 98 о применении принципов права на организацию и ведение коллективных переговоров, Конвенции № 100 о равном вознаграждении мужчин и женщин за труд равной ценности, Конвенции № 103 об охране материнства, Конвенция №105 об упразднении принудительного труда, Конвенции № 111 о дискриминации в области труда и занятости, Конвенция №122 о политике в области занятости, Конвенция № 135 о защите прав представителей трудящихся на предприятии и предоставляемых им возможностях, Конвенция № 154 о содействии коллективным переговорам, Конвенция МОТ о минимальном возрасте для приема на работу, 1973 г. № 138, Конвенция МОТ о запрещении и немедленных мерах по искоренению наихудших форм детского труда, 1999 г. № 182.





рекомендации и стандарты для библиотечного образования, учитывающие мировые тенденции и потребности разных стран [5].

Международное сотрудничество способствует не только обмену знаниями, но и внедрению лучших практик в образовательный процесс. Одним из наиболее ярких примеров такого обмена является сотрудничество в области создания цифровых библиотек и использования новых информационных технологий. Страны с развитыми библиотечными системами, такие как США и Великобритания, активно делятся своими достижениями в области цифровизации и создания онлайн-ресурсов с другими странами, что способствует улучшению качества библиотечных услуг и образования в других регионах [8].

В условиях информационной перезагрузки и цифровой трансформации библиотечное образование должно учитывать необходимость формирования у специалистов навыков информационной и цифровой грамотности. Это включает

не только работу с базами данных и системами управления контентом, но и развитие критического мышления, способного оценить достоверность и актуальность информации. Включение курсов по цифровой грамотности и новым информационным технологиям в образовательные программы является ключом к подготовке квалифицированных специалистов, готовых работать в быстро меняющемся цифровом мире.

Модернизация библиотечного образования, основанная на учете международных стандартов, инновационных технологий и национальных потребностей, позволит создать компетентных специалистов, способных эффективно работать в условиях цифровой трансформации и глобализации.

Таким образом, для успешной подготовки специалистов в области библиотековедения в условиях современных вызовов, связанных с цифровизацией и глобализацией, необходимо активно внедрять инновационные образовательные технологии и подходы.

Использованная литература:

1. Garrison D.R., & Kanuka H. (2004). Blended learning: Uncovering its transformative potential in higher education. *The Internet and Higher Education*, 7(2), 95–105.
2. Gordon C. (2016). *Digital Literacy in Libraries*. London: Library Association Publishing.
3. Hernandez S., & Stojanovic, J. (2020). Big Data in Libraries: Opportunities and Challenges. *Journal of Information Science*.
4. International Librarians Network (ILN). (2021). *International Librarians Network: Connecting Librarians Across the Globe*. Retrieved from <https://interlibnet.org>
5. International Federation of Library Associations and Institutions (IFLA). (2020). *IFLA Guidelines for Library Services to People with Special Needs*. Retrieved from <https://www.ifla.org>
6. Mavengere P. (2018). Libraries in Africa and the Digital Divide: Case Studies and Perspectives. *African Library Review*.
7. Смешанное обучение, или blended learning: что это такое// <https://skillbox.ru/media/education/smeshannoe-obuchenie-ili-blended-learning-cto-eto-takoe/>
8. Snyder H. (2017). Global Trends in Library and Information Science Education. *Journal of Library & Information Science*, 39(2), 75–82.
9. <https://erasmus.uz/en/page/14-erasmus>
10. https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/obrazovatelnye_standarty.
11. https://www.norma.uz/novoe_v_zakonodatelstve/sovershenstvuet_sya_poryadok_razrabotki_obrazovatelnyh_gosstandartov.
12. О сотрудничестве Республики Узбекистан с Организацией Объединенных Наций по вопросам образования, науки и культуры (ЮНЕСКО). [Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://www.mfa.uz/ru/cooperation/international/74/> (дата обращения: 10.12.2019).
13. Турсунова М. У. Вопросы совершенствования международного сотрудничества республики узбекистан в сфере образования // <file:///C:/Users/CYBERONE/Desktop/voprosy-sovershenstvovaniya-mezhdunarodnogo-sotrudnichestva-respubliki-uzbekistan-v-sfere-obrazovaniya.pdf>





KITOBNING TUZILISHI VA UNI TAYYORLASH JARAYONLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kitobning spetsifik xususiyatlari tahlil etiladi, shuningdek, kitobni tayyorlash jarayonlari to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: kapital, forzas, superoblojka, frontepis, peryeplyot, shmustitul, kolontitul, kolonsifra, signatura.

Аннотация. В данной статье даны понятие о книге, её основе, структуре и определение книги. Также есть комментарии к процессам подготовки книги.

Ключевые слова: капитал, форзац, суперобложка, фронтиспис, переплёт, шмуцтитул, колонтитул, колонцифра, сигнатура.

Annotation. This article presents ideas about the book, the rules of the book, and its structure, their definition are given. Also, considerations are made about the processes of preparing the book.

Keywords: kapital, forzas, superoblozhka, frontepis, peryeplyot, shmustitul, kolontitul, kolonsifra, signature.



Kitob va kutubxona hamisha Sharq xalqlari hayotida muqaddas xazina sifatida qadrlangan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida foydalanuvchilarga Axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatish, kitobxonlar savodxonligini oshirish, istiqloq sharoitida erkin fikrlash, ayniqsa, iqtidorli yoshlarni tarbiyalash, kasbga yo'naltirish, Yangi O'zbekistonning strategiyasini amalga oshirish kabi bir qator vazifalarni hal etishda kutubxonalarda samarali ishlar olib borilmoqda. Bu ishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan kutubxonachilik sohasiga tegishli qonunlar, qarorlar va farmoyishlarga bog'liq. Shunday qarorlardan biri, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 13-sentyabrdagi 3271-sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori hisoblanadi [1, 1-b].

Kitoblar turli murakkab tuzilishlarda bo'ladi. Ko'p tomli adabiyotlar bir va bir necha donadan maxsus charm qutilar ichiga joylanadi. Kitobning ichida joylashgan elementlar ham turlicha bo'ladi. Masalan, risola chekkalariga yelimlanadigan kapital kitobning ichiga changlar kirishidan xalos qiladi va ularning tashqi ko'rinishini go'zallashtiradi. Demak, kitob dizayni qanchalik puxta loyihalangan bo'lsa, undagi elementlarning soni ham ko'p bo'ladi. Ba'zi ko'p davrgacha saqlanmaydigan kitoblar esa elastik yelim bilan tikuv tomoni birlashtiriladi, ko'rinishi ixcham, yengil bo'ladi. Foydalanishiga ko'ra ipda tikilgan kitoblar zaifroq bo'ladi. Bunday kitoblarning narxi

arzon, ishlab chiqarish vaqti sezilarli qisqa bo'lib, kitobxonga tez yetkaziladi.

YUNESKOning tavsiyasiga ko'ra, qonun tarzida mustahkamlangan GOST 16447-78 standartida 48 betdan ortiq hajmga ega asarlar kitob deb ataladi. Hajmi 4 betdan 48 betgacha bo'lgan asarlar broshyura deb ataladi. Lekin ko'pincha biz qattiq muqovali hajmi 48 betdan ortiq asarlarni kitob va yumshoq muqovali asarlarni broshyura deb ataymiz. "Kitob" so'zi arab tilidagi "kataba" – "yozmoq" so'zidan olingan, "broshyura" so'zi esa fransuz tilidan "tikilgan asar" ma'nosini anglatadi. Kitob konstruktiv jihatdan broshyuraga nisbatan ancha murakkab buyum bo'lib, turli materiallarning assortimentini turli navlardagi qog'oz kartonli, gazlama, sintetik va tabiiy yelimlar, plastmassa, plyonkalar kabi materiallarni o'zining konstruktiv tarkibiga qamrab oladi.

Har qanday kitobning asosiy qismlariga kitobning bloki, ya'ni uning risolasi R va muqova tavaqalari Pk (tarkibiga kiradi) risolani mustahkam qoplab turadi. Kitob risolasi (blok) o'z navbatida tartibi bilan nusxalangan qog'oz varaqlari buklangandan keyin daftarlardan iborat. Risolaning o'zagi – koreshok ko'pincha klapanli doka bilan mustahkamlangan, uning ustidan esa qalin qog'oz bo'lakchasi yopishtiriladi. Tikuv o'zagi – koreshokning yuqori va pastki chetlariga kapital gazlamasi yelimlanadi. Kapital chang kiritmaydi, kitobning chekkalarini mustahkamlaydi va go'zallashtiradi. Kitob risolasining, ya'ni blokning birinchi va oxirgi betlariga Fr – forzaslar yelimlab yopishtiriladi. Ular odatda blokning qog'oziga qaraganda qalinroq maxsus tarkibli qog'ozlardan





iborat bo'lib, bir buklamli daftarlardir. Forzaslarning ikkinchi tomoni muqovaning ichki tomonlariga yelimlanadi, doka hamda kaptalning ayrimalari muqova gazlamalarining qayirma (zagibka)larini berkitadi. Forzaslarning ochiladigan tomoni turli tematik dekorativ tasvirlar bilan nusxalanishi mumkin [2,19-b].

Kitobning tuzilishi va elementlarining har biri ma'lum bir nomada atalib, umumiy kitob shakliga kelguncha bir necha bosqichlardan o'tadi.

TM – tashqi muqova – superoblojka;

FN – frontepis – old surat;

T – titul varaqasi;


Pk – kitob jildi – peryeplyot;

K – kitob;

R – kitob risolasi;

KT – ko'rsatkich tasmasi;

Fr – old tasvirli varaqa, forzas varaqasi.



1-rasm. Kitobning tuzilishi va elementlari


Kitobni mustahkamlashdan tashqari uni bezash maqsadida foydalanish mumkin. Kitoblarda ba'zan ko'rsatkich tasmasi – shoyi lenta bo'ladi va bu lenta risolaning o'zagiga ishlov berishdayoq unga yopishtirib qo'yiladi. Muqova tavaqachalari asosan maxsus karton bo'lakchalaridan otstav qoplama muqova materiali kabi elementlardan iborat bo'lib, ularning bichimi, avvalo, kitobning formati, risolaning hajmi va risola o'zagi (koreshok) mexanikaviy ishlovlar – yelimlash, koreshokni dumaloqlashtirish va kopirovkalash vazifalaridan keyingi holatini hisobga olgan holda aniqlanadi [3,4-b]. Buning uchun oldindan maket bo'limida kitobning signal, ya'ni xabarchi namuna nashri tayyorlanadi. Ekspertlar tomonidan kitobning namunasi tasdiqlangandan keyin avtomatik mashina va agregatlarda kitob muqovasini tayyorlash, kitob risolasini juzlash (ya'ni komplektovkalash), ip bilan tikish yoki yelim bilan

biriktirish, oqim tizmalarida mexanikaviy ishlovlar berish, oldindan tayyorlangan va tashqi qiyofasi bezatilgan muqovani o'rnatish vazifalariga ruxsat beriladi.

Ba'zi badiiy kitoblarda birinchi daftardagi titul varag'idan oldin tasvir yoki portret rasm qo'yiladi. Bu element – frontispis deb ataladi. Bu element birinchi forzasdan avval yelimlanadi. Badiiy kitoblarda ko'pincha 4dan to 8tagacha, katta hajmlilarda undan ortiq rangtasvir badiiy suratlari uchraydi. Masalan, ensiklopediyalar rangli variantlarda nusxalanadi. Shunga qaramasdan uning ichiga qalinroq qog'ozlarda nusxalangan yorqin rang koloritidagi tasvirlar varagi qo'shimcha ravishda yelimlanadi. Bu qog'oz varaqlari ikki tomondan nusxalanib, ensiklopediya beti varaqlariga nisbatan qalinroq va rang jilosi yorqinroq nusxalanadi, shu betdagi, mavzudagi fikrlarni to'laroq yoritishga o'z hissasini qo'shadi. Bu yopishtiriladigan rangtasvir qog'oz varaqlari amaliyotda birinchi va oxirgi betiga yopishtirilsa – **“prikleyka”**, ichidagi istalgan betiga yopishtirilsa – **“vkleyka”** deb ataladi.

Bundan tashqari rangtasvir ishlari 4 betli bir marta buklangan variantda **“vkladka”** va **“vnakidka”** variantida joylashtirilib, keyinchalik komplektovka qilingandan keyin ip bilan tikilishi mumkin. Kitoblarni bezash, reklama qilish va ifloslanishidan saqlash uchun kitoblarning ba'zilariga tashqi zarhal muqova kiydiriladi. Tashqi zarhal muqovaning bichimi, bo'yi muqovaning bo'yiga teng bo'lib, uzunligi taqriban risolaning enidan uch marotaba katta bo'ladi. Maket bo'limida tashqi muqovaning parametrlari aniqlanadi [3,6-b].

Ba'zi bir matnlar kitobdagi tasvirlar va ularning elementlari nomini, ahamiyatini ochib berish uchun xizmat qiladi. Bunday matnlar asosiy matndan kichik kelganda teriladi va asosiy matndan probellar bilan ajratiladi. Xususan, bunday matn mazmuni asosiy matnning mazmun va ma'nosidan kelib chiqqan holda bayon qilinadi va aniq yoritish uchun xizmat qiladi [3,5-b].



2-rasm. Sifatli ishlab chiqarilgan kitoblar





Hozirgi vaqtdagi universal fotonabor avtomatlar, qolip tayyorlash oqim liniyalari, elektron o'ymakorlik avtomatlari bu vazifalarni qisqa vaqt ichida bajarishi mumkin. Shuning uchun qolip tayyorlashdagi muammolarni hal qilish uchun kichik bosmaxonalar qolip tayyorlashni tumanlararo va viloyat bosmaxonalari bilan shartnoma asosida ish olib boradilar. Qisqa vaqt ichida jurnallar – vkladkali risola yig'ish, katta hajmdagilari esa podborkali variantda komplektovka qilinadi hamda yumshoq nitrotsellyuza qatlami yuritilgan muqova qalin maxsus qog'ozlar bilan muqovalanadi.

Kitoblar va broshyuralarda ichki nashr elementlari ham uchraydi. Bulardan biri, titul varaqlaridir. Odatda titul varag'i risola birinchi daftarinig boshlang'ich varag'idir. Biroq ko'p tomli nashrlar, asarlar to'plami, tanlangan asarlar, ensiklopediyalarda titul varag'i bir necha varaq bo'lishi mumkin. Aslida titul varag'ida kitobning nomi, muallifning ism-sharifi, nashriyotning nomi, qaysi yil, qaysi shaharda chiqarilgani va boshqa nashriy ma'lumotlar berilishi mumkin. Bu elementlar kitobning boshqa titul varaqlarida rus va ingliz tillaridagi shriftlar bilan qaytariladi. Titul varag'ini bezash maqsadida turli dekorativ shriftlar, mazmunli tasvirlar bilan boyitiladi [3,7-b].

Shmustitul – bu qo'shimcha titul varaqasi bo'lib, uning sirtida kitobning boblari, rangli tasvirlari naqshinkor, qofiyalovchi elementlar bilan bezalishi mumkin. Asarlar to'plamida esa ikkinchi va undan keyingi asar boshlanishida shmustitul varag'i yopishtiriladi.

Kitobning nashriy ma'lumotlari – muallif va mualliflar uyushmasi a'zolarining ism-sharifi; muharrir, badiiy muharrir, musavvirning ism-sharifi, kitobning nomi, tiraji, formati, annotatsiyasi, bosma uslubi, korxonaning nomi, kitobning bibliografik ma'lumotlari va statistik hisoblash birliklari joylashadi. Bu ma'lumotlar titul varag'ining orqasida yoki ba'zi nashrlarda kitobning oxirgi betida kelishi mumkin.

Kitobning sahifalari – o'ziga xos qofiyalanishi mumkin. Demak, sahifalar ham boshlang'ich, oddiy navbatdagi va bobning so'nggi sahifasiga bo'linadi. Boblarning birinchi sahifasi biroz spusk oraliq maydonini qoldirib boshlanadi. Bu oraliq sa-

hifaning yuqori qismida joylashib, odatda chorak maydonini egallaydi. Ba'zi kitoblarda naqshinkor elementlar, orgamentlar va zastavkalar qo'yiladi. Bobning so'nggi sahifasining ostida maydonchalar qoldirilib, ularga zastavka va chiroyli orgamentlar joylanadi.

Kolontitul – kitob sahifasining yuqorisiga joylashtiriladigan satr bo'lib, bobning nomi, kitobning mavzusi, nomlari chiziq bilan ajratilgan holda qofiyalanadi. Uning uzunligi satrning uzunligidan oshmasligi lozim.

Kolonsifra – kitob betlarining raqamidir. Ular sahifaning ostki, ustki, ba'zan maydonchani o'rtasiga, odatda esa chekkasiga o'rnatiladi.

Signatura – risoladagi daftarning tartibli joylashuv raqami bo'lib, daftarning ostki maydonchasida matndan biroz pastroqda qo'yiladi. Signatura yonida norma keladi. Norma esa kitobning nomi, muallifning familiyasi, tomli kitobda kitobning qaysi tomi qisqarma holda qo'yiladigan ma'lumot bo'lib, risolani daftarlarini aniq tartibda yig'ish uchun yordam beradi [3,8-b].

Kitoblarni tayyorlash bosqichlarida kitob matnini tayyorlash ham muhim hisoblanadi. Kitob matni taqdim etilgandan so'ng nashriyotda redaktor va badiiy muharrir ko'rib chiqadi va muallifning roziligi asosida nashr qilinadi. Matn tushunish, qabul qilishning tavsifi o'qish samaradorligini tashkil etadi. Mazkur samaradorlik matn omillari, o'qish shart-sharoitlari kabi tashqi obyektiv omillarga bog'liq bo'ladi, matn mazmuni va o'qish jarayoni, o'qish tajribasi, munosabatlari kabi ichki subyektiv omillarga o'z ta'sirini ko'rsatadi [4,98-b].

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda kitoblarni yaratish jarayonlari ma'lum belgilangan me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Chiqarilayotgan kitoblar aholini har qanday sohada bilim bilan ta'minlash, yangiliklardan xabardor qilish, axborotga bo'lgan talablarini qondirishdan iborat. Bu Axborot-kutubxona xodimlariga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Buning uchun mutaxassislar tinmay o'z ustida ishlashi, malakasini oshirishi, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalanishi, davr bilan hamnafas bo'lishi bugungi kunning dolzarb talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Qarori // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil, 13 sentyabr.
2. Shaxalimov Sh. Poligrafiya mahsulotlarini nusxalash jarayoni (O'quv qo'llanma). – T.: 2007-y. 300-b.
3. Mannonov Y. Axborot-kutubxonalarda muqobalash ishi (O'quv qollanma). – T.: "Ilm va fan", 2022-y. 160-b.
4. Umarov. A Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat taraqqiyoti (Monografiya). – T.: "Fan", 2004-y. 194-b.





ТЕХНОЛОГИИ ШТРИХОВОГО КОДИРОВАНИЯ И РАДИОЧАСТОТНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ (RFID) КАК СПОСОБ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ЗАЩИТЫ ДОКУМЕНТОВ В СОВРЕМЕННОЙ БИБЛИОТЕКЕ

Аннотация. В статье рассматриваются технологии штрихового кодирования и радиочастотной идентификации (RFID) как современные методы автоматизации процессов учета, досмотра и защиты документов в библиотечной сфере. Проанализированы принципы работы соответствующих технологий, их преимущества и недостатки, а также перспективы развития в библиотеках.

Ключевые слова: штриховое кодирование, радиочастотная идентификация (RFID), идентификация документов, защита документов, современная библиотека.

Annotatsiya. Maqolada shtrix kodlash va radiochastotani identifikatsiyalash (RFID) texnologiyalari kutubxona sohasidagi hujjatlarni hisobga olish, tekshirish va himoya qilish jarayonlarini avtomatlashtirishning zamonaviy usullari sifatida ko'rib chiqiladi. Tegishli texnologiyalarning ishlash tamoyillari, ularning afzalliklari va kamchiliklari, shuningdek, kutubxonalarda rivojlanish istiqbollari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: shtrixli kodlash, radiochastotani aniqlash (RFID), hujjatlarni aniqlash, hujjatlarni himoya qilish, zamonaviy kutubxona.

Annotation. The article discusses the technologies of bar coding and radio frequency identification (RFID) as modern methods of automating the processes of accounting, inspection and protection of documents in the library sector. The principles of operation of the relevant technologies, their advantages and disadvantages, and their development prospects in libraries are analyzed.

Keywords: barcode coding, radio frequency identification (RFID), document identification, document protection, modern library.



Одним из первых решений для быстрой идентификации и определения экземпляра книги в библиотеках было применение штрихового кодирования. Каждая из технологий – и штрих-кодирование, и радиочастотная идентификация – имеет свои особенности.

Технологии штрихового кодирования представляют собой мощный инструмент автоматизации учёта и управления информацией, особенно актуальный в библиотечном деле. Штрих-код – это не просто последовательность цифр и/или букв, а закодированная информация, представляющая собой уникальный идентификатор объекта. Процесс его создания происходит с помощью специализированного программного обеспечения, которое генерирует неповторимую комбинацию символов, являющуюся своеобразным

цифровым «паспортом» для маркируемого объекта – книги, документа и т.д. Визуально штрих-код представляет собой геометрический рисунок – светлый прямоугольник, содержащий внутри себя чередующиеся темные и светлые полосы различной ширины. Именно эта вариация ширины полос и определяет закодированную информацию [2].

Существуют различные стандарты штрихового кодирования, такие как EAN-13, UPC-A, Code 128, Code 39 и другие, каждый из которых имеет свои особенности в кодировании и длине кода. Выбор стандарта зависит от специфики применения и требуемого объёма информации. Считывание штрих-кодов осуществляется сканерами, оснащенными оптическими системами. Сканер, будь то ручной или стационарный, излучает луч





света, который отражается от полос штрих-кода. Фотодатчики внутри сканера измеряют интенсивность отраженного света: разница в отражательной способности темных и светлых полос позволяет сканеру определить последовательность кода и преобразовать её в цифровые данные. Современные сканеры обладают высокой скоростью считывания и точностью, минимально подвержены ошибкам, даже при неидеальном качестве печати штрих-кода или повреждении его части. Некоторые сканеры используют лазерные лучи, другие – светодиоды, при этом принципы работы остаются сходными. Технология штрихового кодирования революционизировала процессы инвентаризации и контроля. В библиотеках, например, использование штрих-кодов позволяет полностью автоматизировать процесс учёта книжного фонда. Благодаря компактным и автономным терминалам сбора данных, библиотекари могут проводить инвентаризацию непосредственно в хранилищах, не снимая книги с полок, если штрих-код нанесен на корешок. Система автоматически сравнивает сканированные данные с базой данных библиотеки, выявляя недостающие или лишние экземпляры, а также ошибки в каталоге. Это значительно ускоряет и упрощает процесс инвентаризации, минимизируя вероятность человеческого фактора [3].



Более того, штрих-кодирование интегрируется с другими системами управления. Данные, собранные со сканеров, могут автоматически заноситься в базу данных, формируя отчёты о наличии, движении книг и другой важной информации. Это позволяет библиотекарям сосредоточиться на более важных задачах, таких как работа с читателями и пополнение фонда. Внедрение штрих-кодирования позволяет существенно повысить производительность труда, снизить затраты на ручной труд и минимизировать потери от ошибок. Дальнейшее развитие технологий включает в себя использование более сложных двухмерных штрих-кодов, которые могут содержать значительно больше информации, а также интеграцию с RFID-системами для ещё более совершенного управления запасами.


Одним из актуальных нововведений, которое находит применение в различных сферах, является способ радиочастотной идентификации – RFID. Технология RFID (радиочастотная идентификация) переживает бурный расцвет, революционизируя множество отраслей, и библиотечное дело не является исключением. Ее внедрение обещает значительно повысить эффективность работы библиотек, автоматизируя многие рутинные процессы и освобождая библиотекарей для более творческих и интеллектуально насыщенных задач [5].

За годы эксплуатации RFID-оборудования накоплен большой опыт, отражённый в ряде национальных стандартов, принятых практически во всех развитых странах мира. Выработаны общепринятые подходы к подбору и внедрению оборудования, к методике его использования в библиотечных процессах. На рынке появилось достаточно много компаний, профессионально занимающихся RFID-автоматизацией библиотек и имеющих большой положительный опыт в этой области.

Так, из представленных на рынке RFID-ридеров зарубежных производителей наибольшее распространение получили ридеры компаний Feig Electronic (Германия), TagSys (Франция) и «Bibliotheca» (Швейцария). Эти компании поставляют на рынок широкий ассортимент устройств, ряд моделей предназначен для работы в библиотеках. В целом оборудование зарубежных производителей отличаются хорошим дизайном, высоким качеством, но и высокой ценой, что может явиться существенной проблемой для их использования в библиотеках нашей страны.

В основе технологии RFID лежит использование RFID-меток [6] – крошечных электронных чипов, встраиваемых или наклеиваемых на обложки книг. Эти метки содержат уникальный идентификационный номер, напрямую связанный с записью о книге в электронном каталоге библиотеки. Информация на чипе может включать в себя не только ISBN и другие библиографические данные, но и дополнительные сведения, например, информацию о текущем статусе книги (выдана читателю, находится на складе, проходит ремонт), дату последней инвентаризации, а также историю её обращения. Процесс внедрения RFID начинается с этапа маркировки всего библиотечного фонда. Специальное оборудование – принтеры RFID-меток – быстро и эффективно наносит этикетки на книги, обеспечивая точ-





ность и минимизируя риск ошибок. После нанесения меток, информация о них заносится в централизованную базу данных библиотеки, где каждая метка связывается с соответствующей библиографической записью. Эта база данных тесно интегрируется с библиотечной автоматизированной системой (БАС), обеспечивая быстрый и удобный доступ к инфор-



мации о каждой книге. Одно из главных преимуществ RFID – это значительное ускорение процесса инвентаризации. Традиционный ручной подсчет книг – задача, требующая значительных времени и трудовых затрат. RFID-технология позволяет проводить инвентаризацию в несколько раз быстрее. Специальное считывающее устройство сканирует книги по несколько штук за секунду, передавая информацию о каждой из них в систему. Это исключает человеческий фактор и снижает риск ошибок при подсчете. Более того, RFID-система может точно определять местоположение книги на полке, обнаруживая отсутствующие экземпляры и позволяя быстро их локализовать. Кроме инвентаризации, RFID значительно упрощает процесс выдачи и возврата книг. Электронные читательские билеты, оснащенные RFID-метками, позволяют автоматизировать регистрацию читателей и контроль за выданными книгами. Процесс выдачи сокращается до минимального времени – достаточно приложить билет и книгу к считывателю. Отпадает необходимость в ручном заполнении карточек и проверке библиографических данных [4].

Система автоматически отмечает выдачу и возврат, ведя электронный формуляр вместо бумажного. Это значительно снижает количество бумажной работы и повышает точность хранения данных. Однако, внедрение

RFID в библиотеках требует значительных инвестиций в оборудование и программное обеспечение. Необходимо провести полную маркировку библиотечного фонда, обучить персонал работе с новой системой и обеспечить бесперебойную работу всего комплекса. Кроме того, необходимо учитывать вопросы безопасности данных и защиты от несанкционированного доступа к информации. Несмотря на это, преимущества RFID в ускорении рабочих процессов и повышении эффективности библиотечной деятельности очевидны, что делает эту технологию неотъемлемой частью современного библиотечного обслуживания. В перспективе, RFID может быть интегрирована с другими технологиями, такими как системы распознавания лиц или анализ данных о чтении, что еще больше расширит ее функциональность и создаст новые возможности для развития библиотечного дела.

В отличие от RFID-меток, которые практически невозможно подделать, штрих-коды очень легко подделать. Данные особенности можно отнести к преимуществам технологии RFID. Все это говорит о том, что технология RFID весьма перспективна в области автоматической идентификации. Однако к недостаткам RFID-систем можно отнести относительно высокую стоимость меток, плохую работу в присутствии объектов, передающих или поглощающих радиоволны, ограниченное количество считываемых меток, сложные методы реализации, незрелость технологии, помехи от аппаратного обеспечения [5].

Основное преимущество штрих-кодов перед RFID заключается в их более низкой стоимости. Преимуществом технологии штрих-кодов и RFID является их совместимость с автоматизированной библиотечной информационной системой (АБИС): используя АБИС, современные библиотеки могут значительно оптимизировать свою работу и выйти на новый уровень качества.

Итак, у RFID-технологии больше достоинств, чем у технологии штрихового кодирования. Технология радиочастотной идентификации становится настолько популярной, что в скором времени она вытеснит традиционную технологию штрихового кодирования.

Однако при внедрении новых технологий необходимо учитывать множество факторов, включая программное обеспечение и технологическую инфраструктуру, имеющуюся в распоряжении библиотеки, финан-





совые возможности и затраты на персонал, связанный с внедрением и поддержкой технологии.

Полномасштабное внедрение RFID-технологии в библиотеках предполагает следующие этапы: во-первых, изучение параметров и характеристик здания библиотеки, организационной структуры библиотеки, количественных показателей фонда, его состав, размещение и характер движения, системы обслуживания пользователей библиотеки, используемые системы хранения и планы использования, автоматизированные библиотечные технологии использования, состав и


количество электронных каталогов, полное обследование библиотеки; во-вторых, это поставка, установка, тестирование оборудования; в-третьих установка и настройка программного обеспечения и в-четвёртых – обучение персонала, его методическая и техническая поддержка [1].

Внедрение технологии RFID не только упрощает все внутренние технические процессы, но и делает библиотеки более привлекательными для нового поколения читателей, которые уже привыкли к повсеместному проникновению информационных технологий во все сферы своей жизни.

Использованная литература:

1. Внедрение RFID-технологий [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.givc.ru/activity/complex_avt/rfid/
2. Шаньгинова Г.А. Обеспечение сохранности документных фондов библиотек [Электронный ресурс] / Г.А. Шаньгинова. – Режим доступа: // <https://cyberleninka.ru/article/n/obespechenie-sohrannosti-dokumentnyh-fondov-bibliotek-na-primere-irkutskoy-oblastnoy-gosudarstvennoy-universalnoy-nauchnoy/viewer>
3. Маркина О.Г. RFID-технологии в деятельности библиотеки [Электронный ресурс] / О.Г. Маркина. Москва, 2015. – Режим доступа: // https://tsutmb.ru/nayk/nauchnyie_meropriyatiya/int_konf/vseross/20_05_2015_obshchestvo_obshchnosti_chelovek_v_poiskakh_vechnogo_mira/rfid-tehnologii-v-deyatelnosti-biblioteki/
4. Умарова М.С. Проблема сохранения библиотечных фондов // Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия общественных наук. 2011 г. №3(47). С.147–152.
5. Чарупа Г. В книгах завелись... чипы! [Электронный ресурс] / Г. Чарупа. – Москва 2013. Режим доступа: // <http://nworker.ru/2013/08/08/1176.html>
6. RFID технологии для библиотек [Электронный ресурс]. – Режим доступа: // <https://stranakart.com/statij-kompanij/primenenie-rfid-metok-v-bibliotekah>





Ma'mur UMAROV,
O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası professori,
falsafa fanlari nomzodi

JADIDLAR MAKTABI: MA'RIFAT VA MADANIYAT MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiston zaminining yanada farovon bo'lishi uchun o'z hissalarini qo'shgan, yangi o'qitish usuli orqali ma'rifat va madaniyatni tag'rib qilgan, maorifni yo'lga qo'ygan jadidlar faoliyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: g'oya, usul, jadid, ma'rifat, madaniyat, uyg'onish, maktab, darslik, maorif.

Аннотация. В данной статье рассматривается деятельность джадидов, которые способствовали дальнейшему процветанию Туркестанского края, вносили просвещение и культуру посредством новых методов обучения, налаживали образование.

Ключевые слова: идея, метод, современность, просвещение, культура, возрождение, школа, учебник, образование.

Annotation. This article examines the activities of the Jadids, who contributed to the further prosperity of the Turkestan region, brought enlightenment and culture through new teaching methods, and established education.

Keywords: idea, method, modernity, enlightenment, culture, revival, school, textbook, education.

XX asr boshidagi jadidlar harakatiga ilmiy nazar tashlagan va tahlil qilgan professor Begali Qosimov ularning g'oyalari: "Obirahmat bo'lib ona Turkiston ko'ksidagi maorif, matbout, teatr nihollariga hayot baxsh etdi", – deydi. Avvalo, "jadid" atamasining lug'aviy ma'nosini anglaylik. Bu atama arabchada "yangi turmush" g'oyasini anglatishini bilamiz. Lekin bu atamani Begali Qosimov shunday izohlaydi: "...jadid shunchaki yangi yoki yangilik tarafdorlari degani emas, balki yangi tafakkur, yangi inson, yangi avlod kabi keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan tushunchadir" [1,13-b]. Bu izoh o'zining keng qamrovligi bilan jadid atamasi haqidagi tasavvurimizni boyitadi va bugungi kun bilan bog'laydi. Davr talabidan kelib chiqqan bugungi g'oyamiz – Yangi O'zbekistonda tafakkuri yangilangan avlodni shakllantirish. Yangi tafakkurga ega yoshlar esa jadid bobolari boshlab bergan Uchinchi Renessansni davom ettirish hamda rivojlantirish qudratiga ega bo'lsin.

Renessanstushunchasi fransuzchadan o'zbekchaga tarjima qilinganda "uyg'onish"ni anglatadi, deb qabul qilingan. Uning chegarasini ziyolilar Sharqda IX–X asrda hamda XIV–XV asrlarda [2,5-b], deb belgilaydilar. Uyg'onish falsafasini ilgari surganlarni tushunish uchun jadidlar g'oyasini anglash lozim. Jadidlar harakatiga asos solgan qrim-tatar yigit Ismoilbek Gasprinskiy 1895-yilda yozgan maqolalaridan birini "G'oya" deb atagan. "Xalqlar hayotidagi barcha buyuk voqealar zaminida u yoki bu g'oya yotadi. Eng buyuk kashfiyotlar, avvalo, ular haqidagi orzu-istaklardan boshlangan. Islom g'oyasi yarim dunyoni bir hovuch arablar atrofiga birlashtirdi. Moskva atrofida birlashuv g'oyasi esa qudratli Rossiyani maydonga keltirdi. Tenglik va ozodlik g'oyasi fransuzlar mavqeini Yevropa bo'ylab sarbaland qildi" [1,88-b].

G'oya tushunchasiga o'zining "Poetika" asarida Arastu shunday sharh beradi: "Fikr



(g'oya) deganda ishtirok etuvchularning nimanidir isbot qilishlari, o'ziga xos mulohaza (hukm)lari anglashiladi" [3,32-b]. Kezi kelganda "g'oya" tushunchasiga biz ham o'z sharhimizni beraylik. Uni anglash uchun, avvalo, "so'z" tushunchasini izohlaymiz. "So'z – harflar yoki tovushlar birikmasidan iborat bo'lib, biror ma'no anglatadigan tushunchadir. Fikr esa – so'zlar birikmasidan iborat bo'lib, biron ma'no anglatishi lozim. G'oya – insonga ta'sir qiladigan, ularni maqsadga muvofiq birlashtiradigan, harakatga da'vat qiladigan to'ijobiy natijaga erishmaguncha tinchlik bermaydigan ma'naviy-ruhiy kuch. Shu ta'rif asosida jadidlarni birlashtirgan g'oya – maktab va madrasalarni isloh qilish orqali millatni savodli qilish va savodli kadrlar yordamida rivojlangan xalqlar qatoriga ko'tarilish ekanligini anglash mumkin.

G'ayrat bilan o'z g'oyalarini amalga oshirayotgan jadidlarni: *"Asr boshidagi voqealar, rus-yapon urushidagi mag'lubiyat Rusiyani burhonga olib keldi. Ichki milliy nizolar, noroziliklar kuchaya boshladi. Lekin tobe xalqlar o'z haq-huquqlari uchun ilgarigiday kurashish to'g'ri emasligini nihoyat anglab yeta boshladi. Turkistonda ham asta-sekin uyg'onish boshlandi"* [1,101–102-b], – deydi olim B.Qosimov. Bunga Rusiya jadidlari harakatining asoschisi Ismoilbek Gasprinskiyning eskirgan o'qitish uslubini "usuli jadid" bilan yangilash g'oyasi turkistonlik ziyolilar uchun asos bo'ldi. Ismoilbekning bu g'oyasiga Usmoniy turklar o'ziga qarashli bo'lgan yerlardagi musulmonlarni birlashtirish orqali, eskilikka botib borayotgan saltanatga yangi hayot hamda yangi ruh baxsh etmoq niyatidagi harakati turtki berdi.

Turkiston jadidlarining harakatga kelishi ham Ismoilbekning "Tarjimon" gazetasidagi yangilanish g'oyasining targ'iboti bilan bog'liq edi. Gazetada bosilgan yangiliklar bilan tanishgan ziyolilar yurtning ahvolini anglab yetib, uni o'zgartirish borasidagi istak hamda intilishlarini "jadid" atamasining mazmun va mohiyati bilan bog'ladilar.


Jadidlar o'z g'oyalarini amalga oshirishni maktab hamda madrasadagi o'qitish tizimini isloh qilishdan boshladilar. Chunki "Tarjimon"da Rusiyadagi musulmon "usuli jadid" maktablarining ahvoli haqida tahliliy maqolalar chop qilina boshlandi. Ulardan ta'sirlangan Turkiston jadidlari rejasida jamiyat ahvolini tubdan o'zgartiradigan, uni yangilashga kirishadigan, turli sohalarida mutaxassis kadrlar yetishtiradigan "usuli jadid" maktablarini ochish, eski maktablarni isloh qilish, unda o'qitiladigan diniy bilimlarga dunyoviy bilimlarni ham qo'shib o'qitish g'oyasi ifodalangan edi. Bu rejaga Ismoilbekning "usuli jadid" maktabi

o'quvchilari erishgan yutuq asos bo'ldi. Natijada Turkistonda Behbudiy, Munavvarqori, Avloniy, Hamza kabi ziyolilar "usuli jadid" maktablari ochib, uni o'quv qurollari bilan ta'minlab, eskirgan o'quv tizimini isloh qilishga kirishdilar.

Turkistondagi ilk yangi maktab ochganlardan biri Mahmudxo'ja Behbudiy 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand shahri yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida dindorlar oilasida tug'ilgan. Behbudiy sayramlik Ahmad Yassaviy avlodidan bo'lib, onasi Urganchlik edi. Mahmudxo'ja 1900-yil sakkiz oylik haj safaridan qaytadi. Dunyodagi rivojlanish va o'zgarishlarni ko'rgan ziyoli yigit tug'ilib o'sgan o'lkasi rivojlanishdan ancha orqada ekanligini anglab yetib, 1903-yil Samarqand atrofidagi Xolvoyi hamda Ramojamiya qishloqlarida yangi uslubdagi maktablar ochdi [1,25-b]. Behbudiy jadid maktablari uchun diniy hamda dunyoviy kitoblar yozadi. 1904-yil Moskva, Peterburg, 1906-yil Qozon, Ufa, Nijniy Novgorod shaharlarida bo'ladi va ko'rgan yangiliklariga asoslanib, Samarqandda jadidlar g'oyasini xalqqa yetkazadigan maktab tashkil etishga kirishdi.

Professor Begali Qosimovning aniqlashicha, Samarqandda ilk jadid maktabi 1903-yilda emas, balki 1901-yilda ochilgan. Uni Samarqandda 1864-yilda tug'ilgan Saidahmadxo'ja Aziziy shaharga yaqin Xolvoyi qishlog'ida ochgan. O'z davrida Aziziy taxallusi bilan mashhur bo'lgan shoir XIX asr oxirida haj safariga o'tlanadi. Turli tillarni bilgan soatsoz Saidahmadxo'ja 1900-yilda Rusiyaning Jiddadagi elchixonasida tarjimonlik qiladi. U 1901-yilda ona yurtiga qaytadi va yangi uslubdagi maktab ochadi [1,264-b]. Jadid usulida o'qitadigan maktab Xolvoyi qishlog'ining ko'rkiga hamda g'ururiga aylanadi. Natijada "Turkistonning turli-tuman joylaridan bu maktabni ko'rgani yangilikka intilganlar kela boshladilar. Sinflar yorug', bahavo, keng ikki xonadan iborat. Bo'yra o'rnidagi partalar, darslarning muayyan tartib programmada olib borilishi hammani hayratga solgan. Darslar umumiy hamda milliy jug'rofiya, tarix, hisob, handasadan iborat. Tabiiyot o'qitilsa, xarita yoki kurrayi yer (globus) shakli kabi ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish ko'pchilik maktablar uchun namunaga aylangan. Eng qizig'i darslarning asosiy qismi rus tilini o'qitishga qaratilgan, mullavachchalar orasida ruslar ham bor bo'lib, ular o'zbeklar va tojiklar bilan yonma-yon o'tirib ta'lim olishgan [1,266-b].

Saidahmadxo'ja to'rt tilni bilgani, ya'ni o'zbek, tojik, arab va rus tillarini mukammal egallagani uchun N.V.Gogolning "Shanel"ini ilk bor o'zbek tiliga tarjima qilgan. Bu daraja mahalliy din arboblari yoqmad. 1914-yil Ulug'bek madrasasi ichidagi Jomeda besh-olti ming



musulmon huzurida muazzin tomonidan ruscha o'qitadurg'nlarni kofir agar har kim bolasini "usuli jadid"ga bersa, o'zi kofir, xotini taloq bo'lishi haqida forsiy til bilan, baland nutq bilan xaloyiqqa bildirildi [4].

Jadidlar g'oyasini anglab yetgan Saidahmadxo'ja yurtparvar shoir sifatida kelajak uchun yetuk kadrlar tayyorlaydigan maktabni namuna darajasiga ko'targan edi. Samarqandning biqinidagi Xolvoyi qishlog'idagi bu maktab faqat savod chiqargani uchun emas, balki talabalarga o'z haq-huquqlarini tanitgani uchun ham Samarqand-u Buxoroda, Qo'qon-u Andijonda, Toshkent-u Turkistonda, hatto, Tiflis-u Bokuda ham taniqli edi. Sababi, dunyo ko'rgan Saidahmadxo'ja barcha milliy uyg'onish davri ziyolilari kabi o'z shogirdlarini ma'rifatga boshlash, haq-huquqini anglash, o'z ahvolini bilish orqali rivojlangan xalqlar qatoriga ko'tarilib yashashga da'vat qilib, jadidlar safini ko'paytirar edi.

Maktablarni hamda madrasalarni isloh etish g'oyasini tan olgan, "usuli jadid" atamasining qudratini anglab yetgan toshkentlik jadid – Saidrasul Aziziy edi. U 1866-yil Toshkentda tug'ilgan va boshlang'ich ta'limni o'sha davrdagi eski maktabda olgan. Avlodi ilmlilar bo'lgani uchun o'qishni "Madrasai Mahmud"da davom ettiradi. Bu davrda muhit taqozosi bilan rus tilini bilish zaruratga aylanadi. Saidrasul rus tilini o'zi mustaqil o'rganganini shunday izohlaydi: *"Ittifoqo mening qo'limg'a rusiya alifbosi tushmak ila gohi ovqat mahalda ancha nazar solib biror muallim huzurida kasb qilmasam ham, rusiya xatini o'qimoq va chiroyli bo'lmasa ham yozmoqqa qodir edim"* [5].

Aziziy madrasada o'qib yurgan paytlarida Toshkentdagi rus-tuzem maktabini ham bitkazib oladi. Uning bu harakati rahbarlariga ma'qul bo'lib, o'zi o'qigan madrasaga muallimlikka qabul qilishadi. Saidrasul Aziziy 1900-yilda o'zi o'qigan rus-tuzem maktabida dars berishni boshlaydi. U o'zbeklar orasidan chiqqan birinchi rus maktabi o'qituvchisi edi. Uning bu yutug'i ziyolilarni quvontirsa, qadimiylar unga "kofir maxsum" deb tamg'a qo'ydi. U 1910-yilda Moskva va Peterburg shaharlarini kuzatib qaytgach, yana rus maktablarida dars berib orttirgan tajribasi asosida yangi maktablarda o'qitish metodikasini yaratdi va "usuli jadid" maktablariga tatbiq qildi. Uning mahalliy maktablar uchun yaratgan dastur va tafsialari "Ustozi avval" kitobidan o'rin oldi.

Gaspirali g'oyasidan ta'sirlangan Aziziy yangi shakldagi maktablarni "Usuli savtiya", ya'ni "tovush usulidagi ta'lim" deb nomladi. Uning "Ustozi avval" kitobidan foydalangan maktablar gumanistik, ya'ni

yangi tarbiya asosiga qurilgan, dunyoviy ilm-fanni o'rgatadigan, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga aralasha oladigan kadrlarni tarbiyalay oladigan qudratga ega edi. Bu kitob kelajakka ishongan ziyolilar orasida mashhur bo'ldi. Mashhur kitob muallifi Saidrasul yangi shakldagi milliy ta'lim metodikasiga hamda pedagogikasiga asos solgan refarmator sifatida shuhrat topdi. Mashhur "Ustozi avval" kitobi 1900-yilda yozilib, 1902-yilda bosmadan chiqdi va ayrim sabablar bilan qayta tuzatildi hamda 1903-yilda yana nashr qilindi [6]. Mashhur darslik alifbe xarakteriga ega bo'lib, yangi maktablarning birinchi sinfini o'qitishga mo'ljallangan edi.

Ilk qadamdan talabaning savodini to'liq chiqarib olish, pedagogika fanining oliy maqsadidir. Mashhur kitobning birinchi qismi dars o'tish metodikasidan hamda harflarga mos matnlardan, ikkinchi qismi esa uchta she'riyat va yigirmata hikoyadan iborat. Hikoyalarda nodonlik, beodoblik, chaqimchilik, kaltafahmlik, takabburlik kabi bolalarga xos yomon fazilatlar qoralanadi, xushfe'llik, donolik, aqllilik, farosat kabilar esa yaxshi fazilatlar sifatida ulug'lanadi. Darslikdagi hikoyalarning mazmuni hamda tarbiyaviy ahamiyati jihatidan uch guruhga ajratish mumkin. Ular:

- folklor hamda o'zbek mumtoz adabiyotidan;
- rus klassik adabiyotidan olingan tarjimalardan;
- muallimning o'zi yaratgan hikoyalardan iborat.

Aziziyning "Ustozi avval" kitobi 1917-yildagi inqilobiy to'ntarishga qadar 17 marta qayta nashr qilingan eng mashhur darslik edi. Bu darslik Turkistondagi yuzlab jadid maktablari ochilishiga, eskilarining esa islohihiga asos bo'ldi. Mashhur kitob asosida ta'lim bergan ustozlaridan ilm olgan yoshlar jadidlar boshlab bergan harakatni ongli ravishda davom ettirdilar. Shunday qilib, Aziziyning metodikasi va pedagogikasi Turkistonning madaniy yuksalishiga, yoshlar tarbiyasiga hamda jamiyat taraqqiyotiga turtki bo'ldi. *"Ustozi avval"ni o'qigan chimkentlik Umarjon Abdug'affor o'g'li: "Eski tartib bilan o'qiganlar oz vaqtda bul Turkiston muzofotida turuvchi fuqarolarining ko'pchiligi yozadurg'on va qora xatni o'qiydirg'on bo'lib qolsalar ajab emas, deb umid qilamiz"* [7], – deb yozadi.

"Usuli jadid" maktablarining ochilishiga rus ma'muriyati bir tomondan, ikkinchi tomondan jamiyatdagi "qadimlar" qarshi bo'lgan. Azaldan har qanday yangilik turli qarshiliklarga uchragan. Lekin jadidlar boshlagan harakat vatan kelajagi va ravnaqi uchun ekanligini anglagan ziyolilar: "kofir", "munofiq", "dahriy", "shayton uyasi" kabi haqorat yoki zulmlardan qo'rqmay bolalar ta'limi uchun o'zlari kitob yozib, o'z mablag'lari evaziga nashr





qildirib, yangi usulda o'qitadigan maktablarga tarqatdilar.

“Jadid”lar hamda “qadim”lar o'rtasidagi kurashning Turkiston bo'ylab tarqalishidan mahalliy boshqaruv tizimi manfaatdor edi. Shu masalaga oydinlik kiritib, jasoratli jadidlar harakatini qo'llash maqsadida Ismoilbek o'zining “Tarjimon” gazetasida “Qadimchilik – jadidchilik” maqolasini e'lon qildi. “Jadid” va “qadim” iboralari ziyolilar talaffuziga endigina kirib kelgan bo'lsa-da, u mohiyatan eskilik va yangilik, taraqqiyot va turg'unlik o'rtasidagi eski kurashdir. *“Masalan, Yunon qadimchilari ikki ming yil avval dono Suqrotni jadidchilik qabohati bilan ayblab qatl ettirdilar”*[8], – deb yoziladi maqolada.

Turkistonliklarning ahvolini anglagan Ismoilbek bu maqolasi bilan o'z e'tiqodiga sodiq jadidlarni ruhlantirdi. Sababi, u Usmonli turklar tarixini yaxshi bilardi. Turklar XVIII asrga kelib, zamon taraqqiyoti bilan hisoblashmay, Yevropadan ortda qolib, qator muammolarga uchray boshlaganini bilardi. 1839-yilga kelib, Usmonli turklar turg'unlikdan qutulish uchun Yevropada o'z elchixonalarini ocha boshladilar. Rivojlanganlarning sirini bilish uchun ularning tilini biladigan kadrlar kerak edi. Shuning uchun turk ziyolilari birinchi navbatda yoshlarni tarbiyalaydigan maktabga e'tibor qaratdilar. 150 nafar o'quvchini Yevropaga o'qishga yubordilar. Turkiya ko'p o'tmay bu harakatlarning ijobiy natijasini ko'rdi. Ular o'zligini saqlagan holda rivojlanishni boshladi. Bunday hodisadan xabardor Ismoilbek o'z harakatini Bog'chasaroydagi eski usuldagi maktablarni isloh qilishdan boshladi. Bu harakatning ijobiy natijasini 1881-yil “Rusiya musulmonlari” maqolasida yozdi va “Tarjimon” gazetasida e'lon qildi. Maqsad, Rusiya musulmonlari e'tiborini har sohaga taalluqli kadrlar tayyorlaydigan, o'z tilida o'qitadigan, azaliy an'analar asosida tarbiya beradigan, ma'rifat tarqatadigan, “usuli jadid” maktablariga jalb qilish edi.

Buning uchun, avvalo, o'qituvchilarni maxsus darslarga yig'ish va ularga istiqbolli maqsadni tushuntirish, ilg'orlarini rag'batlantirish lozim edi.

1892-yil 30-avgustda Toshkentdagi o'qituvchilar seminariyasida Ismoilbek qatnashdi. Sababi, Turkiston musulmonlari ham bu davrda Rusiya musulmonlari sanog'iga kirgan edi. Yig'ilishda o'lkaning oliy ma'muriyati, ruhoniylar, seminariya talabalari, ularning ota-onalari qatnashdi. Bu yig'ilishda Rusiya rasmiy vakillari mahalliy musulmonlarga erk berish xavfli ekanini alohida ta'kidladi. Bunday qarshilikka qaramay, Ismoilbek o'z g'oyasini amaliyotda sinovdan o'tkazish uchun 1885-yil Bog'chasaroyda “usuli jadid” maktabini ochdi. U bu asarda shu paytgacha mavjud bo'lgan 6 yillik maktablarni yangi uslubda o'qitish evaziga ikki yoki bir yarim yilga o'qish muddatini qisqartirish mumkinligini, bolalarning qolgan 4 yoki 5 yillik vaqtini rus tili hamda o'zga yurtlar madaniyatini o'rgatishga sarflash lozimligini, bu harakatni mahalliy ziyolilar yordamida amalga oshirish mumkinligini ta'kidladi va rejani amalga oshirishga yordam berishlarini so'radi.

O'lkani boshqarayotgan Rusiya ma'murlari jadidlar harakatidan bildiki, yerli aholining o'z bolalarini o'qitishga ishtiyoqi baland ekan. Bundan foydalangan rahbarlar, o'zbek bolalarini rus-tuzem maktablariga jalb qilishni boshladilar. Birinchi rus-tuzem maktabi Toshkentda 1884-yil 19-dekabrda, 1891-yil Xivada ochildi. 1892-yilda Turkiston o'lkasidagi rus-tuzem maktablarining soni 21taga yetdi. 1894-yil Buxoroda ham tashkil etildi. 1917-yilning boshlarida Turkistonda 170ta rus-tuzem maktabi bor edi [9,376-b].

Xulosa shuki, jadidlarning ma'rifat va madaniyat maktabi “usuli jadid”ga asoslanib, to'rt yuz yil mudroq holdagi Turkistonni uyg'otdi. O'z tillarida, eski uslubda savod chiqargan mahalliy aholining bolalari zamonasining ilg'or ziyolilari – jadidlar maktabida ta'lim oldilar. Natijada ular o'zbek, fors, arab va rus tillarini biladigan vatanparvarlarga aylandilar. Yangilikka intilganlarning iqtirodiridan foydalangan mustamlakachilar asta-sekin o'zlariga kerakli kadrlarni ham tayyorlab bordilar. Millatning uyg'onishidan quvongan jadidlar o'zlarining 1917-yildan keyingi fojiali taqdiridan bexabar edilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimov B. Milliy Uyg'onish davri adabiyoti. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022-y. 13-b.
2. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti (To'plam). – T.: “Ma'naviyat”, 2024-y. 5-b.
3. Arastu. Axloqi kabir. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2024-y. 32-b.
4. “Turkiston viloyatining gazetasi”, 1914-yil, 3-yanvar.
5. “Turkiston viloyatining gazetasi”, 1919-yil, 92-son.
6. Aziziy. Ustozi avval. – T.: “Ilin”, 1913-y.
7. Abdug'afurov U. “Ustozi avvalni o'qib”, “Turkiston viloyatining gazetasi”, 1903-yil, 48-son.
8. Gasprinskiy I. “Qadimchilik – jadidchilik”. “Tarjimon” gazetasi, 1909-yil, 19-son.
9. O'zbekiston milliy ensklopediyasi. – T.: Qomuslar, 1997-y. 376-b.

KITOBXONLIK, MUTOLAA MADANIYATI VA MA'NAVİY TARBIYAGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada muallif bugungi kundagi bolalar kitobxonligi muammolarini zamonaviy kutubxonalar, internet va gadjetlarning kitobxonlikka salbiy ta'siri, mutolaa madaniyatining pasayishi kabi masalalar bilan birlikda yoritadi. Unda bugungi kutubxonachilar, ota-onalar, o'qituvchilarga bolalar kitobxonligini rivojlantirishda yordam beruvchi metodlar haqida so'z ketadi.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, mutolaa madaniyati, biblioterapiya, psixologik muammolar, munozara.

Аннотация. В данной статье автор пытается изучить проблемы современного детского чтения вместе с такими проблемами, как негативное влияние интернета и гаджетов на чтение, упадок культуры чтения, недостаточно эффективная деятельность библиотек. В ней рассказывается о методах, используемых сегодня библиотекарями, родителями и учителями для развития навыков чтения у детей.

Ключевые слова: чтение, культура чтения, библиотерапия, психологические проблемы, дискуссия.

Annotation. In this article, the author tries to study the problems of modern children's reading along with such problems as the negative impact of the Internet and gadgets on reading, the decline of the reading culture, and the insufficiently effective activities of libraries. It highlights the methods librarians, parents, and teachers use today to develop children's reading skills.

Keywords: reading, reading culture, bibliotherapy, psychological problems, discussion.



Bugungi kunda bolalar kitobxonligi ko'plab muammolar mavjud bo'lgan sohadir. O'zbekistonda ham bolalar va o'smirlarning kitobni kam o'qishayotgani, ayrim hollarda, hatto, umuman o'qimay qo'yganliklari haqidagi fikrlarni eshitib qolamiz. Darhaqiqat, bolalarning bosma matn va ma'lumotni idrok etishi o'zgarmoqda, ular yuzaki yoki parchalangan shakldagi ma'lumotlarni qabul qilishga o'rganib qolishmoqda. Shu sabab, ma'lumotlarni yaxlit shaklda emas, balki "klip" shaklida idrok etish keng tarqalgan. Bularga so'zsiz internet va turli gadjetlarning ta'siri katta bo'lyapti. O'qish motivatsiyasi va kitobxonlarning kitobga qo'yayotgan talablari ham o'zgarib bormoqda. Bunga televideniye va internetning ta'siri katta bo'lib, detektiv hikoyalar, trillerlar, jangovar filmlar, fantastika, "dahshat", "kino romanlari" kabi janrlarga qiziqish borgan sari ortib bormoqda. Bundan tashqari, nutqning borgan sari soddalashib va qo'pollashib borayotganini kuzatyapmiz. Sababi, bolalar klassik adabiyot namunalarini o'qimaganliklari uchun uning tilini ham bilmaydilar, so'z boyliklari ham haminqadardir.

Qanday qilib bolalarni va yoshlarni kitobga, badiiy adabiyot o'qishga qiziqtirish mumkin? Bu juda ko'p mutaxassislarni o'ylantirayotgan muammo. Avvalo, bolalar psixologiyasiga

murojaat qilamiz va shaxs tushunchasini ko'rib chiqamiz. Psixologlarning ta'kidlashicha, shaxs uch yoshdan boshlab shakllana boshlaydi. Shaxs – insonning qobiliyati va axloqiy xarakterida ifodalangan insonning "o'zligi", eksklyuzivligi. Shaxs ehtiyojlar, qiziqishlar va yo'nalishlardan iborat. Qiziqish (bu holda badiiy adabiyotni o'qishga nisbatan) – intilish, obyektga nisbatan hissiy jihatdan kuchli munosabatni ko'rsatishdir. O'qishga qiziqishning mavjudligi yoki yo'qligi bolaning kitobga bo'lgan munosabatining asosiy omili va uni baholash mezonini hisoblanadi. Qiziqishsiz o'qishning bola uchun hech qanday foydasi yo'q va shuning uchun u samaradorlikdan mahrum bo'lgan rasmiy faoliyatga aylanadi. Aksariyat mahalliy va xorijiy olimlarning ta'kidlashicha, ijodkorlik, aql, e'tibor, xotira va idrokni rivojlantirish asosida qiziqish yotadi. Qoyil qolish, lazzatlanish, zavqlanish, hayratlanish, hayajonlanish bularning barchasi birgalikda qiziqish, deb ataladigan hodisani tashkil etadi.

Bola ijodkorligining zamirida ham kitobga qiziqish yotadi. Mutolaa qilishda ijodkorlik qanday namoyon bo'ladi? Bir qarashda, o'qiydigan odam hech narsa yaratmaydi, faqat yozuvchining ijodini idrok etadi, lekin bu bunday emas. Holbuki, bola o'qiyotganda uning ongida qanday ijodiy



jarayonlar sodir bo'lishini ko'pchilik tasavvur ham qilmaydi. Psixolog Lev Vygotskiy bu holatga oddiy va majoziy ta'rif beradi. U ijodiy o'qishni "*Birovning ijodini o'z qalbi bilan takrorlash*", – deb atagan [1].

Ijodiy yondashib o'qishni qanday rivojlantirish mumkin? O'quvchini so'z san'atining ikki tomonlama mohiyatini tushunishga yo'naltirish kerak. Bir tomondan, bu to'qima, boshqa tomondan esa, haqiqat. O'quvchining vazifasi yozuvchi tomonidan o'ylab topilgan hayotdagi haqiqiy hayotni tan olishdir. Ijod tasavvur qilishdan boshlanadi. Tasavvurni "rag'batlantirish" orqali bolaning o'qish qobiliyatini rivojlantirishni boshlash kerak. Bu yerda savollar va topshiriqlar yordam berishi mumkin. Masalan, siz o'qigan kitobingizdagi u yoki bu sahnani qanday tasavvur qilasiz? Sizning ko'zingiz oldida qanday tasvirlar paydo bo'ladi? Ijodiy o'qishning uslubiy tizimi mavjud bo'lib, uni rus tilshunosi, filologiya fanlari doktori Sergey Abakumov ishlab chiqqan. Ushbu tizim quyidagi usullardan iborat:

- dastlabki suhbat;
- ifodali o'qish.

S.Abakumovning fikricha: "*Ifodali o'qish badiiy asarni tushunishning kaliti va ayni paytda ijodiy o'qishning asosidir. Bolalarni ovoz chiqarib o'qishga o'rgatish, o'qiyotganidan zavqlanish ko'nikmasini ularda shakllantirish kerak*" [2].

Keyingi usul:

- ijodiy hikoya qilish; hikoya qilish usulining maqsadi – bolada mutolaaga qiziqishni shakllantirish;
- o'qilgan badiiy asar haqida erkin fikr almashishga asoslangan suhbat;
- o'quvchilarning tasavvurlari bilan bog'liq bo'lgan hikoyaning davomi; ular asar voqealarining davomini yoki qahramon taqdirining qanday bo'lishini tasavvur qilishadi;
- ijodiy qayta hikoya qilish; qisqartirilgan shaklda qayta hikoya qilish; o'quvchining "meni" nomidan takrorlash va hokazolarni o'z ichiga oladi;
- og'zaki tasvirlash; "siz bu yerda nimani chizgan bo'lardingiz?", "qaysi ranglardan foydalanasiz?", "rasmda matnning qaysi epizodini ifodalagan bo'lardingiz?", "unda nimani tasvirlagan bo'lardingiz?" kabi savollardan foydalaniladi;
- illyustratsiya usuli kichik yoshdagi maktab o'quvchilari uchun mos keladi, chunki fikr, o'quvchi tasvirlari va g'oyalarini yetkazish uchun ularning so'z boyligi hali ozlik qiladi;
- dramatisatsiya asarni harakatda, mimikada, holatda va mizanssenada takrorlash; u rolni yod olishni talab qilmasligi bilan insseniroykadan ajralib turadi va shu jihatdan bolalar erkin, istaganicha harakat qiladigan, adabiy personajlar sifatida namoyon bo'ladigan bolalar o'yini sanaladi;
- bolalarning adabiy ijodi; bunga bolalar

tomonidan yaratilgan she'rlar, hikoyalar, insholar va ular o'qigan asarlarga yozma javoblar kiradi; masalan, boladan kitobdagi sevimli qahramoniga xat yozishni so'rash mumkin, yoki xatni bola kattalar bilan birgalikda yozishi mumkin.


Kutubxonalarda o'qilgan kitobga taqriz yozish kabi faoliyatning bu shakli ham adabiy ijod sanaladi. Kitobxonlar ijodi sifatida badiiy asar haqida mulohaza bildirishning bir qancha turlari mavjud: fikr-mulohaza, mulohaza-savol, mulohaza-tavsiya, mulohaza-tasavvur va hokazo.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali biz "Alamazon va uning jamoasi" yoki "Meshpolvon va uning jamoasi" o'yinining elementlari bilan suhbatlashishimiz mumkin. Dars davomida bolalar yozuvchi tarjimai holi bilan tanishganlarida, ayniqsa, eslab qolgan voqea haqida so'zlashlari mumkin. Dars oxirida esa "Alamazon va uning piyodalari" kitobini o'qish bolalarga uy vazifasi qilib beriladi, ular asardagi o'zlariga yoqqan parchani yodlaydilar va nega bu parchani tanlaganliklarini tushuntiradilar. O'smir bolalardan o'qigan kitobiga "Men o'qigan ... kitob haqida yozmoqchiman", taqrizini yozishni yoki jurnalist sifatida jurnalga maqola yozishni taklif qilish mumkin. Maqolalarning namunaviy mavzulari: "Mening Andersen ertagi bilan birinchi tanishuvim" yoki "O'zbek xalq ertaklarining qaysi qahramoniga shahrimizda haykal o'rnatishni istardim?" va hokazo.

Kutubxonalarda eng keng tarqalgan faoliyat turlaridan biri bu, o'qilgan asarlarni muhokama qilishdir. Usul ancha eskirgan bo'lib, afsuski, so'nggi yillarda kutubxonachilar tomonidan biroz unutilgan. Munozaradan maqsad, o'quvchining fikrini uyg'otish, uni bahslashishga majburlash, farazlarni ilgari surish va bahslashish, bu odatda savol berish orqali sodir bo'ladi.

Bolaning fikrlash faoliyati muammoli savollar bilan faollashadi. Ular intellektual qiyin vaziyatni yaratadi va o'quvchining fikrlarini javoblar va tegishli dalillarni izlashga yo'naltiradi. Bu esa o'z navbatida o'quvchini asarni tahlil qilishga, yozilganlarning ma'nosini tushunishga undaydi. Pushkinning "Baliqchi va baliq haqida" ertagini o'qigan boladan: "*Chol va kampir qayerda va necha yil yashagan, nima bilan shug'ullangan, qanday uyi bo'lgan?*" deb so'rash mumkin. Ammo boladan: "*Nega kampir hech narsasiz, teshik tog'ora bilan qoldi?*" deb so'rash boshqa. Agar birinchi savolga javob faqat faktlarni takrorlashni o'z ichiga olsa, ikkinchisi kitobxonning Pushkin ertagining ma'nosiga chuqur kirib borishiga asoslangan. Bola matnda ikkinchi savolga tayyor javobni topa olmaydi va fikrlashiga to'g'ri keladi. Bola-kitobxon uchun badiiy adabiyotning kognitiv, ya'ni bilish rolini inkor etib bo'lmaydi,





lekin badiiy adabiyot faqat bilim berish bilan chegaralanmaydi.

Munozara qilishdan maqsad, bolaga badiiy asarni tushunishga yordam beradigan savollar tizimidan foydalanish, uning fikrlarini chuqurlashtirish va o'z tushunchasini so'z bilan ifodalashga undashdir. Bu holatda quyidagi savollarni berish o'rinli bo'ladi:

- *Bu badiiy asarni qanday tasavvur qilasiz?*
- *Bu badiiy asar sizda qanday tasavvur uyg'otdi?*
- *Asar mutolaasidan so'ng sizda qanday hissiyot, tuyg'ular yuzaga keldi?*
- *Qahramonlardan qay biri sizga yoqdi yoki yoqmadi?*
- *Nega asar qahramonlari boshqacha emas, balki aynan shunday harakat qilishadi?*
- *Asar qahramonlarining harakatlarini qanday baholaysiz?*
- *Siz bilgan adabiy qahramonlarni o'zingiz tanigan qaysi odamlar bilan solishtira olasiz?*
- *Balki ba'zi qahramonlarda o'zingizda bo'lgan jihatlarini ko'rgandirsiz?*

Ijodiy yondashib mutolaa qilish madaniyati kitobning o'quvchiga shifobaxsh ta'sirining muhim shartlaridan biridir. Shu yerda biblioterapiya tushunchasiga ham biroz to'xtalish kerak. Amerikalik psixolog Mayk Kordvellning ma'lumotnoma lug'atiga ko'ra, terapiya insonning psixologik muammolarini yengishga yordam beradigan har qanday jarayondir [3]. Hayot shuni ko'rsatadiki, kitobning shifobaxsh ta'sirini har kim ham his qila olmaydi. Badiiy adabiyotning terapevtik salohiyati qanchalik kuchli bo'lmasin, uni o'qilmasa, ta'siri bo'lmaydi.

Biblioterapiya esa bolaga kitob o'qish, to'g'rirog'i, badiiy adabiyot orqali uning psixologik muammolarini yengishda yordam beruvchi soha. Zamonaviy "biblioterapiya" atamasi 1916-yilda paydo bo'ldi. XX asrning o'rtalarida u hamma joyda qo'llanila boshlandi va lug'atlarga kiritildi. Shu bilan birga, bunday terapiya bo'yicha tibbiyot mutaxassislari ham o'qitila boshlandi. Bugungi kunda bu kasb G'arbda keng tarqalgan. Qizig'i shundaki, psixoterapevtlar ham, kutubxonachilar ham biblioterapevtga aylanishi mumkin. Ko'pincha biblioterapiya asab va psixologik kasalliklar, tashvish, ruhiy tushkunlik, yaqin odamni

yo'qotishdan yoki munosabatlardagi muammolarni kompleks davolashda yordam beradi. Muxtasar qilib aytganda, u hissiy va psixologik kasalliklar uchun yaxshi davo bo'la oladi [4].

Biblioterapevtik ta'sirning bola ongida qanday paydo bo'lishini A.Chexov "Uyda" hikoyasida aniq ko'rsatgan. Hikoya qahramoni yetti yoshli bola chekishga harakat qiladi. Bundan xabar topgan otasi unga chekishning zarari haqida nasihat qila boshlaydi. Ammo otaning so'zlari behuda ketadi. Shunda ota podshohning yolg'iz o'g'li bo'lmish kelishgan shahzoda ko'p chekkanligi sababli, vafot etgani haqida ertak yozadi. Ertakda podshoh bunga chiday olmaydi va o'ladi. Butun shohlik vayron bo'ldi. Bola fojidan ta'sirlanib, uning dahshatlarini tasavvur qilib: "Endi chekmayman", deydi. Bu hikoyada, ota o'zi to'qigan hikoya yordamida terapevtik ta'sirga erishadi. Xulq-atvorini o'zgartirish to'g'risidagi qaror bolaning o'zi tomonidan qabul qilinganligi xarakterlidir [5].

Bolalarning psixologik muammolarini hal qilish yo'llarini izlashda ertaklar muhim rol o'ynaydi. Biblioterapiyaning bu jihati ertak terapiyasi, deb ataladi. Qo'g'irchoq teatri agar u adabiy asarlarga asoslangan bo'lsa, uni biblioterapiya, deb ham tasniflash mumkin. Psixologlar bolalik nevrozlarini davolash uchun qo'g'irchoqlardan ham foydalanadilar. Bolalar kitobxonligi ko'p qirrali va o'zgaruvchan hodisadir. Bu o'qilgan adabiyotning sifati va o'quvchining idrok darajasiga bog'liq. Bir tomondan, o'qilayotgan asarning saviyasi; ikkinchi tomondan, idrok etish faolligi qanchalik yuqori bo'lsa, mutolaa kitobxon ongida shunchalik chuqur iz qoldiradi.

Biz bolani o'qishga majburlay olmaymiz. Bola mutolaa qilish huquqiga ham, o'qimaslik huquqiga ham ega. Bu esa uning oldiga muhim tanlovni qo'yadi: jamiyatning to'la huquqli a'zosi bo'lish yoki bo'lmaslik, iste'molchilik va axloqsizlikka berilib ketish yoki madaniyat cho'qqilariga ko'tarilib, uni olg'a siljitish. Bolaning o'zi, uning kichik hayotiy tajribasi bilan bu tanlovni qilishi qiyin. U buning oqibatlarini bilmaydi. Bunda unga yordam berish kattalarning, xoh ota-ona, xoh yozuvchi, xoh noshir, ustoz, kitobxonlik qudratiga ishongan, yurtimizda madaniyat va ziyolilikni tiklashga ishtiyoqi baland barchaning vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Психология искусства. – М.: «Искусство», 1986 г. 573 с.
2. Абакумов С. Творческое чтение: Опыт методики чтения художественных произведений в школах начального типа. – Ленинград: «Брокгауз и Ефрон», 1925 г. 136 с.
3. Кордуэлл Майкл. Психология. А-Я. Словарь справочник. – М.: «Фаир пресс», 2000 г. 336 с.
4. wikipedia.org/
5. Чехов А.П. "Uyda" hikoya. O.Rahimiy tarjimai. www.ziyouz. com kutubxonasi.





O'ZBEKISTONDA BADIY MADANIYAT RIVOJINING AN'ANAVIY YO'NALISHLARI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatdagi badiiy madaniyat tarixi, o'zbek xalqining san'at va madaniyatga bo'lgan munosabati, shuningdek, zamonaviy jamiyatda badiiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishidagi o'zgarishlar haqida so'z boradi. O'zbekistondagi badiiy madaniyatning turli yo'nalishlariga oid tadqiqotlar natijalari, shuningdek, san'at va madaniyat sohasidagi muammolar va istiqbolalar ham tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: badiiy madaniyat, zamonaviy tendensiya, globallashuv, innovatsiya, san'at evolyutsiyasi, madaniy meros.

Аннотация. В статье рассматриваются история художественной культуры страны, отношение узбекского народа к искусству и культуре, а также изменения в формировании и развитии художественной культуры в современном обществе. Приведены результаты исследований различных направлений художественной культуры Узбекистана, а также проблемы и перспективы в области искусства и культуры.

Ключевые слова: художественная культура, современные тенденции, глобализация, инновации, эволюция искусства, культурное наследие.

Annotation. This article discusses the history of artistic culture in the country, the Uzbek people's attitude towards art and culture, as well as the changes in the formation and development of artistic culture in contemporary society. The results of research on various directions of artistic culture in Uzbekistan, as well as the problems and prospects in the field of art and culture, are also presented.


Keywords: artistic culture, contemporary trends, globalization, innovation, evolution of art, cultural heritage.



San'at – bu nafaqat badiiy tarbiya, balki xalqning madaniy, ijtimoiy, va axloqiy qadriyatlarini aks ettiruvchi, uning tarixiy yo'lini ko'rsatuvchi ayni shu sohadir. O'zbekistonda madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan badiiy madaniyat hali yetarlicha o'rganilmagan masalalardan biri hisoblanadi. Badiiy madaniyat tushunchasiga ko'pgina ta'riflar berilgan bo'lib, nazariy jihatdan ularni alohida ta'kidlash mumkin.

Sobiq sovet tuzumi davrida badiiy madaniyat va uning amaliy jihatlarini asosan, milliy madaniyat bilan baynalmilal (internatsional) madaniyatlarning uyg'unlashuvi g'oyasi asosida yuzaga kelgan. "Internatsionallik milliylik bulog'idan suv ichadi. San'atda buni aks ettirishda chegara mavjud emas. Internatsionallik va milliylik, ular biri ketidan ikkinchisi kelmaydi, aksincha, ular birgalikda mavjud bo'la oladi" [1,13-b]. "Jamiyatning revolyusion tarzda qayta qurilishi sovet adabiyoti va san'ati arboblari oldiga yangi, murakkab g'oyaviy-siyosiy, badiiy

va ijodiy masalalarni ko'ndalang qilib qo'ydi, san'atga juda katta ijtimoiy mazmun baxsh etdi. Hayotdagi jamiki yangi hodisalar o'tkir va tinimsiz kurashlarda qarortopib bordi, bu kurash san'atning konkret turlari bo'yicha ham qizg'in bahslar tarzida namoyon bo'ldi. O'sha vaqtda badiiy ijod taraqqiyotining bundan buyongi yo'llarini va ijodiy intelligentsiyaning revolyusion jarayondagi o'rni va rolini belgilab beradigan masalalar hal etilmoqda edi" [2,196-b]. Biroq bu davrda o'zbek milliy madaniyati badiiy madaniyatning asosiy o'zagi sifatida shakllanib boraverdi. Garchi ba'zi badiiy madaniyat namunalari sinfiylik yoki kommunistik g'oyalarni majburan singdirish holatlari bo'lsa-da, milliy madaniyat xalqning mulki sifatida shakllanib borgan. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi davlat Mustaqilligini qo'lga kiritgach, aynan milliy madaniyat asos qilib olingan. Dastlab "ruhiy erkinlik ifodasi" [3,174-b] deb ta'riflangan hozirgi zamon badiiy madaniyatning tarixiy ildizlari, rivojlanish





tamoyillari, strukturasi va ijtimoiy funksiyalarini tadqiq qilish milliy g'oyaga asoslana boshlandi. Binobarin, san'at badiiy madaniyat sohasida *"milliy g'oyani tarannum etishga, istiqlof mafkurasiga zid g'oyalarining zararli mohiyatini ochib berishga, ayniqsa, e'tiborni kuchaytirish, hayot va ijoddagi mahdudlik hamda fikr qashshoqligiga qarshi kurashish, bahs-munozara va tahlillar orqali mafkuraviy muhitning sog'lom bo'lishiga erishish"*ni [4,65-b] dolzarb masala sifatida ko'rsatildi.

Badiiy madaniyatning mohiyati to'g'risidagi masala, avvalo, madaniyat haqidagi umumiy tasavvurlar doirasida qarab chiqilishi, so'ngra uning o'ziga xos xususiyatlari aniqlab olinishi lozim. Chunki, madaniyatning barcha qonuniyatlari badiiy madaniyatni ham taraqqiy qilishiga ko'mak beradi. Jamiyatning badiiy madaniyati o'tmish, shuningdek, yangi davrda yaratilgan adabiy va san'at qadriyatlarini, ularni o'zlashtirish tarzida qaralishi mumkin. Umumiy ma'noda buni badiiy qadriyatlar, deb atash lozim. Badiiy qadriyatlarni idrok qilish kuchli g'oyaviy-emotsional ta'sirchanlik xususiyatiga ega bo'lib, insonning olamni estetik o'zlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu badiiy madaniyatning tarbiyaviy funksiyasini hosil qilishiga olib keladi.

Demokratik jamiyat va huquqiy davlat qurish sharoitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari badiiy madaniyatni har tomonlama taraqqiy qilishiga qaratilgan bo'lishi shart. Shuning uchun jamiyat, yosh avlod yoki alohida qatlamlarning madaniy va ma'naviy hayotini o'rganishda badiiy madaniyatni har tomonlama tahlil etish metodologik vazifani amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasida adabiyot va san'atni rivojlantirish bilan bog'liq bir necha farmon va qarorlari chiqdi.

Adabiyot va san'atning mafkuraviy omillar, g'oyaviy maqsad-muddaolar bilan qo'shilib, uyg'unlashib ketishi unga o'ziga xos mafkuraviy qiymat bag'ishlaydi. Bunday qiymat adabiyotga ham, san'atga ham ta'sir o'tkazadigan mafkuraning mazmun-mohiyatiga bog'liq bo'ladi [5,44-b].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tashkil etilgan "Jahon adabiyoti" jurnalining milliy adabiyotimiz yangilanishi va rivojidagi o'rni va ahamiyatini alohida ta'kidlash lozim. Bugungi kunda bu jurnal qarorda belgilangan xalqni, ayniqsa, yoshlarni umumbashariy qadriyatlar, insoniyatning ma'naviy merosi durdonalaridan bahramand qilish, keng

jamoatchilikni jahon adabiyoti va san'atining nodir namunalari bilan muntazam tanishtirib borish, jahondagi adabiy-badiiy jarayonni tahlil qilish orqali o'zbek adabiyotining yangi ijodiy tajribalar orttirishi uchun sharoit yaratish bilan bog'liq vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilib kelayotganini qayd qilish lozim.

Taniqli adabiyotshunos olim B.Qosimovning fikricha: *"Ma'naviyatning asosini adabiyot tashkil etadi"* [6]. Bizningcha, ma'naviyatning asosini faqat badiiy adabiyot bilan bog'lab qo'yish, ya'ni madaniyat tizimida badiiy adabiyot determinizmini mutlaqlashtirish unchalik to'g'ri bo'lmasa kerak. Insonning adabiyot bilan birga boshqa madaniyat turlari va barcha fanlar bo'yicha olgan bilimlari hamda boshqa tarbiyaviy omillar ma'naviyat tarkibini tashkil etadi. O'zbek xalqining yuksak ijtimoiy ideal va ma'naviy ehtiyojlari to'g'risida umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi asosida obrazli fikr yuritish badiiy madaniyatning eng muhim xususiyatidir. Inson tabiatiga xos moddiy manfaat bilan ko'ngil tashvishlari o'rtasidagi murosasiz kurashlar tasviriy badiiy adabiyotda E.Vohidov, A.Oripov, M.Yusuf she'riyatida, O.Yoqubovning "Bir koshona sirlari" dramasi, O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar", T.Malikning "Shaytanat", Sh.Xolmirzayevning "Dinozavr", Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" kabi o'nlab asarlarida o'z aksini topgan.

Bir-biriga yaqin badiiy madaniyat turlari – teatr va kinoda o'zaro ta'sir bir-birini boyitish jarayonlari samarali kechadi. Kino endigina vujudga kelayotganda, teatr unga o'z ta'sirini ko'rsatgan, ilk badiiy filmlar esa aynan teatr tomoshalarini tasvirga tushirib ko'rsatishdan boshlangan. Mazkur badiiy filmlarni teatr asari ham, haqiqiy kino san'ati ham deb bo'lmas edi. Kino maxsus yo'nalish sifatida teatrdan ajralib chiqqan bo'lsa-da, ular o'rtasidagi aloqadorlik saqlanib qolinaveradi. Tabiiyki, ko'hna teatr san'ati bo'lmaganida, kino XX asr avlodi ko'z o'ngida badiiy tasvir o'tkazishning eng qudratli vositasi bo'la olmas edi.

Milliy g'oya ruhidagi badiiy tamoyillar badiiy kino sohasida ham murakkab yangilanishlar yuz berishiga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Mustaqillik davrida yaratilgan filmlarda folklor, tarixiy, zamonaviy mavzular qayta ishlandi, o'tmishni yangicha badiiy talqinda aks ettiruvchi asarlar, badiiy va hujjatli filmlar yaratildiki, bu san'atda g'oyaviy-uslubiy yangilanishlar badiiy madaniyat rivojlanishining zaruriy sharti ekanligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti





Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 24-iyulda "Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3880 raqamli Qarori [7] ham ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha katta amaliy ishlarni boshlab berdi. Unda quyidagi muammolar keltirilgan: mazkur sohadagi ishlarning haqiqiy holati milliy kino sanoatining jadal rivojlanishiga, jahon kino bozorida raqobatbardoshlikni amalga oshirishga, uni chet elda targ'ib qilishga to'sqinlik qiladigan bir qator hal etilmagan muammolar mavjudligidan dalolat bermoqda. Xususan:

- *birinchidan*, ishlab chiqilayotgan kino mahsulotlarining mafkuraviy-badiiy darajasining pastligi, ssenariyavislik, rejissyorlik va aktyorlik mahoratlarining yetarli darajada sifatli emasligi, yoshlar uchun ma'naviy namuna bo'lib xizmat qiladigan badiiy obrazlarning ko'pincha mavjud emasligi milliy kinematografiyaning asosiy maqsadlari bo'lgan – yosh avlodni jasorat va qat'iyatlilik ruhida tarbiyalash, yot ommaviy madaniyatga qarshi kurashish kabilarni amalga oshirishga imkon bermaydi;

- *ikkinchidan*, kino mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha davlat buyurtmasini berish yuzasidan shakllangan amaliyot tatbiq qilinadigan tartiblarning ochiqligi va shaffofligini, byudjet mablag'laridan oqilona va samarali foydalanishni, shuningdek, kinematografiya sohasida sog'lom raqobat muhitini rivojlanishiga to'sqinlik qiladi;

- *uchinchidan*, kino san'ati sohasiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasi, ishlab chiqilayotgan kino mahsulotlarining o'zini oqlashi va daromad keltirishiga qaratilgan zamonaviy marketing tadqiqotlari va aniq maqsadli kino ishlab chiqarish dasturlarining mavjud emasligi milliy kinematografiyaning yuqori zarar bilan ishlashiga olib kelmoqda;

- *to'rtinchidan*, kinoprokat va respublika bo'ylab kino mahsulotlarini yetkazib berish samarasiz tizimlarining mavjudligi, ishlab chiqarilgan kino mahsulotlarining yetarli darajada targ'ib qilinmasligi oqibatida aholining sust xabardorligi kinoprokatchilar daromadlariga, kinokompaniyalarning ijodiy va ishlab chiqarish xodimlarini moddiy rag'batlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatdi, shuningdek, kinoteatrlar tarmog'i faoliyatining tugatilishiga olib keldi;

- *beshinchidan*, davlat buyurtmasi bo'yicha ishlab chiqariladigan kino mahsulotlariga ajratiladigan mablag'larning yetarli emasligi, kino ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimining samarasizligi va yuqori soliq yuki

kino sanoati sohasining rentabelligini cheklaydi va kinematografiyaning umumjahon rivojlanish tendensiyalariga muvofiq ilg'or innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirmaydi;

- *oltinchidan*, kino sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimi zamonaviy talablarga javob bermaydi, ixtisoslashtirilgan, shu jumladan, chet davlatlarning oliy o'quv yurtlarida talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash, kino san'ati vakillarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlari tashkil etilmagan;

- *yettinchidan*, mualliflik huquqi obyektlarini, shu jumladan, kino mahsulotlarining noqonuniy tarqatilishini aniqlash va bartaraf etish, ular bilan ruxsatsiz foydalanishdan ishonchli himoya qilish, qaroqchilikka qarshi kurashishning aniq mexanizmlari mavjud emasligi kino mahsulotlarining asl nusxalarini yuqori darajada noqonuniy aylanmasiga va mamlakatdagi kinokompaniyalar va kinoteatrlarga sezilarli zarar yetkazilishiga olib keladi;

- *sakkizinchidan*, mahalliy kinolentalarni jahonga mashhur xalqaro kinofestivallarga taqdim etish, shu jumladan, ularda ishtirok etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmayapti, madaniy o'zaro almashinuv darajasining pastligi esa milliy kinematografiyani chet elda faol targ'ib qilinishiga va uning jahon kino maydoniga qo'shilishiga imkon bermayapti.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2018-yil 18-mayda "2018–2019-yillarda zamonaviy kinoteatrlar tarmog'ini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori e'lon qilindi [8]. Unda "O'zbekkino" Milliy agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi, "O'zshaharsozlikLITI" DUK bilan birgalikda xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini har tomonlama o'rganish asosida zamonaviy va retro filmlar uchun ikki zalli kinoteatrlarning hamda yozgi kinoteatrlarning namunaviy loyihalarini ishlab chiqiladigan bo'ldi. Shundan so'ng, "Qo'qon shamoli", "Ibrat", "Avloniy" va boshqa tarixiy filmlar ekran yuzini ko'rdi.

So'nggi o'n yillar mobaynida sovet davrida chop etilgan adabiyotlarning aksariyati talabga javob bermasligi, boshqa tomondan, mafkuraviy islohotlardan kelib chiqib, kutubxonalardan chiqarib tashlanishi anchayin murakkabliklarni tug'dirdi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mustaqillik yillarida 25.000.000ta kitob fondan olib tashlandi, birgina 1991-yil kutubxonalarga 3.000.000ta kitob olingan bo'lsa, 2004-yilda



bu ko'rsatkich 163.200 tani tashkil etdi, bu bir yilda bitta kutubxona atigi 28 dona kitob oldi degani edi. Agar 2004-yilda 25.000.000 dan ziyod kitob chop etilgan bo'lsa, uning bir foizi ham kutubxonaga yetib kelgan emas [9,29-b]. Mustaqillik yillarida kutubxonalar miqdorining kamayib borganligi ko'zga tashlanadi. Kutubxonashunos olim A.Umarovning tekshiruviga ko'ra, 1990-yilda madaniyat ishlari vazirligi tasarrufidagi kutubxonalar soni 6765 ta kitob fondi miqdori 82997,6 dona, bir kishi uchun kitoblar soni 4 tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2000-yilda tegishli tarzda 5710, 64026, 2,5 ga tushib qolgan. Sho'rolar davrida faoliyat ko'rsatgan kutubxonalar soni keyingi o'n yilda 15,4 foizga qisqardi [10,135-b]. Bundan tashqari, kutubxona binolardan boshqa maqsadlarda foydalanish hodisalari ham ko'zga tashlanadi. Birgina Farg'ona viloyatining o'zida shu maqsadda 17 ta kutubxona sotib yuborilgan. Shuningdek, kutubxona qurilishiga ko'ngilgadek e'tibor berilmayotganlik holatlari ham yo'q emas [9,30-b].

O'zbekistonda badiiy madaniyatni tadqiq qilish faylasuf, san'atshunos va adabiyotshunoslar diqqat markazida bo'lib, uning umumnazariy hamda metodologik masalalarini

yoritishda S.Shermuhamedov, V.Sundukova, Sh.Agzamxodjayeva, Z.Sobirova, M.Nurmato'va, F.Ibragimova, I.Arzimatova, U.Nazirov kabi faylasuflarning ilmiy-nazariy g'oyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy madaniyat turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari va yangilanish an'alarini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan O.Sharafiddinov, B.Sarimsoqov va boshqalar tomonidan ilmiy ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Badiiy madaniyatning san'atshunoslik qonuniyatlari bilan esa B.Abdurahmonov, S.Bulatov, U.Qoraboyev, K.Oqilova, O.Azizova va boshqalarning ishlarini qayd etish mumkin. Badiiy madaniyat mavzusi O'zbekistonda yosh tadqiqot subyekti bo'lishiga qaramay, hozirgi kunga qadar tadqiqotchilar e'tiboridan yetarlicha joy olgan emas.

O'zbekistonda san'at va madaniyat sohasining taraqqiyotiga zamonaviy g'oyalar, innovatsion yondashuvlar va ilmiy tadqiqotlar yordam beradi. Bu sohaning rivoji nafaqat milliy, balki global madaniyat maydonida ham O'zbekistonning o'rnini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, san'at va madaniyatning qudrati xalqning ma'naviy yoshini ko'tarib, unga yangi ijodiy imkoniyatlar va istiqbollar yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oyibov N. Sovet O'zbekistoni madaniyatining ravnaqi. – T.: "O'zbekiston", 1981-y. 13-b.
2. Rahmonov N., Umaraliyev A. Sovet O'zbekistoni madaniyati tarixi ocherklari. – T.: "O'qituvchi", 1984-y. 196-b.
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10 t. – T.: "O'zbekiston", 2002-y. 174-b.
4. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: "O'zbekiston", 2000-y. 65-b.
5. Ochildiyev A. Madaniyat falsafasi. – T.: "Muharrir", 2010-y. 44-b.
6. Qosimov B. "Mustaqillik adabiyotshunosligi". "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2003-yil, 22-avgust.
7. Mirziyoyev Sh. "Milliy kinoindustriyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori // "Xalq so'zi" gazetasi, 2018-yil, 25-iyul.
8. "2018-2019-yillarda zamonaviy kinoteatrlar tarmog'ini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qarori qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2018-yil 24-may.
9. Narzullayev G'. Kitob o'qiysizmi? Uni qayerdan olasiz? // "Qonun himoyasida" jurnali, 2005-yil, 7-son, 29-bet.
10. Ijtimoiy fikr // "Inson xuquqlari" jurnali, 2004-yil, 4-son. 135-b.





YANGI MA'NAVIY MAKON IJTIMOIY-MADANIY TAHLIL OBYEKTI SIFATIDA

Annotatsiya. Maqolada Yangi O'zbekistondagi islohotlar jarayonida ma'naviyatning o'rni va yangi ma'naviy makonni shakllantirish masalasiga ilmiy yondashilgan. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishda shaxs ma'naviyati va jamiyat qadriyatlari o'rtasidagi bog'liqlik ochib berilgan hamda makon va ma'naviy makon tushunchalari falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Uchinchi Renessans, Yangi O'zbekiston, ma'naviyat, ma'naviy makon, falsafa, jamiyat, milliy qadriyatlar, axloq.

Аннотация. В статье представлен научный подход к вопросу о роли духовности и формировании нового духовного пространства в процессе реформ в новом Узбекистане. При создании фундамента Третьего Возрождения была выявлена связь между духовностью личности и ценностями общества, а также философски проанализированы понятия пространство и духовное пространство.

Ключевые слова: Третий Ренессанс, Новый Узбекистан, духовность, духовное пространство, философия, общество, национальные ценности, мораль.

Annotation. The article takes a scientific approach to the issue of the role of spirituality and the formation of a new spiritual space in the process of reforms in the New Uzbekistan. The connection between individual spirituality and the values of society was revealed in the creation of the foundation of the third Renaissance, and the concepts of space and spiritual space were philosophically analyzed.

Keywords: Third Renaissance, New Uzbekistan, spirituality, spiritual space, philosophy, society, national values, ethics.



Ma'lumki, mamlakatimiz so'nggi yillarda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy hayotida asrlarga teng bo'lgan ulkan yutuqlarga erishmoqda. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida kuchli ilmiy asosda olib borilayotgan islohotlar vatanimizda yashayotgan har bir fuqaroning manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda, ayniqsa, ma'naviyat masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki ma'naviyat jamiyat a'zolarini, ayniqsa, yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantiruvchi, ma'lum maqsad yo'lida birlashtiruvchi buyuk kuchga aylanib borayotganligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi.

Jamiyatning ijtimoiy va ma'naviy qiyofasini shakllantirish unda yashayotgan har bir individning, shaxsning ma'naviy qiyofasini shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Insonning ma'naviy qiyofasi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun tabiat va jamiyatning oliy darajasidagi mahsuli bo'lishi insonni yaxlit darajada o'rganish, uning boshqa mavjudotlardan tub sifatiy farqini aks ettiruvchi xususiyatlarini, inson darajasiga ko'tarilish jarayoni, tabiiy va ijtimoiy mohiyati, ma'naviy va jismoniy qiyofasi, ruhiy holati

o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni chuqur tahlil etish talab qilinadi. Inson ma'naviyati jamiyatda mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy institutlar amalga oshirayotgan mafkuraviy tarbiya ta'sir natijasida shakllangan fazilatlar, xislatlar, qobiliyatlar, malakalarning yig'indisidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"[1] asarida buyuk ajdodlarimiz merosi, xalqimizning metin irodasi, milliy tarbiya asosida ulg'ayib kelayotgan yosh avlodga tayanib, jamiyatimiz hayotini tubdan yangilash yo'lini izchil davom ettirish orqali Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish eng dolzarb vazifa sifatida belgilab berildi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı yangilanish jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan dolzarb masalalar qatorida erkin fikrli, zamonaviy va innovatsion ma'naviy makonni yaratish masalasi alohida ahamiyatga egadir. Yangi ma'naviy makon tushunchasiga Prezidentimizning yuqorida ko'rsatib o'tilgan asarida quyidagicha ta'rif berilgan: "Yangi ma'naviy makon nima? Mening nazarimda u biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning





ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir" [1,266-b].

Darhaqiqat, yangi ma'naviy makonni yaratish strategik vazifa ekanligidan kelib chiqqan holda tahlillarimizni "makon", "ma'naviy makon" tushunchalaridan boshlash maqbuldir.

Buyuk alloma Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida keltirilishicha, Arastu makon rutbasini tahlil etadi, makon o'zi nima ekanligi haqida fikr yuritadi. Makon mohiyatiga xos bo'lgan narsalarning ta'rifini keltiradi va jismning makoni bo'laturib qandaydir arazga ega bo'lishiga zarurat bo'lgan holda jism uchun makon zarurmi, yo'qmi, shularni ko'rib chiqadi. Arastu harakatlantiruvchi sabab, harakatning bo'shliqqa bo'lgan ehtiyojining oqibatimi yoki yo'qmi degan masalani tahlil qiladi. Va u (harakatlantiruvchi sabab)ning na uyg'otuvchi sababga, na vakuumning yo'qligiga, na har qanday tabiiy vasilalar majmuasiga ehtiyoji, buning ustiga bo'shliqdagi – na javharga va na arazga ehtiyoji bor, deb ta'kidlaydi. U mutlaq bo'shliqning yo'qligini chuqur bo'lmasa-da, tushuntirib beradi [2,111-b].

Professor Q.Nazarov esa o'z asarlarida: *"Makon-materiya birligining ko'lamlilik, tarkibiylik kabi xossalari va uning o'zaro ta'sirlarini ifodalovchi shakllaridir"* [3,243-b], – degan fikrni ilgari suradi. Demak, makon harakatdagi borliq mavjudligining muhim shaklidir. Makon tushunchasi narsalarning ko'lamini, hajmini, o'zaro joylashish tartibini ifodalovchi tushunchadir. Moddiy jarayonlar faqat makonning turli nuqtalaridagina emas, biri ikkinchisidan oldin yoki keyinroq amalga oshaveradi. Moddiy jarayonlarning sodir bo'lishida muayyan izchillik mavjud bo'lib, ularning hammasida jarayonlarning zamonda amalga oshishi ketma-ketligi asosida o'z ifodasini topadi.

Qadimgi davrlardan boshlab makon tushunchasiga olam mavjudligining asosi sifatida qarab kelingan. Hozirgi paytda turli falsafiy qarashlarga ko'ra makon tushunchasi hududiy makon, ijtimoiy makon, diniy makon, axborot makoni, virtual makon, ma'naviy makon tushunchalarida ifodalanadi. Agar makon tushunchasiga uzluksizlik va uzluksizlik, dialektik xossasi nuqtayi nazaridan yondashiladigan bo'lsa, uzluksizlik (chegaralanganlik) faqat hududiy makonga, uzluksizlik (chegaralanmaganlik) madaniy, diniy, ma'naviy va hokazo makonlarga xosdir.

Makonning uzluksizligi, chegaralanmaganligi, benihoyaligi madaniyat, din va huquqdagi vorisilik o'rtasidagi bog'liqlikka ko'ra muayyan hududdagi davlatchilik, siyosiy tuzum hamda huquqiy tartibga solish o'zgarsa-da, madaniy va diniy makondagi uzluksizlikni qo'llab-quvvatlovchi an'analar saqlanib qoladi. Demak, "makon" kategoriyasi an'anaviy tarzda iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ta'limiy va boshqa tushunchalarning to'la ma'nosini anglatuvchi bir butunlik sifatida qo'llaniladi. Formal nuqtayi nazardan makon o'z funksional xususiyatlariga ko'ra taqqoslanadigan munosabatlar o'rnatiladigan hamda o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi subyektlar tomonidan shakllantiriladigan tizimdir. Makonning doimiyligi va muntazamliligi uning uzluksizligi va uzluksizligi, saqlanish va o'zgarish singari bir-birini inkor etuvchi xossalari tomonidan ta'minlanadi.

Shunday qilib, makon tushunchasi o'z ma'no-lariga ko'ra geografik, ijtimoiy, tarixiy, etnik, iqtisodiy, siyosiy, ekologik, fazoviy, madaniy, jismoniy, axboriy, ta'limiy, ma'naviy singari asosiy yo'nalishlarga nisbatan qo'llaniladi. Bu yo'nalishlarning har biri alohida murakkab tizimlardan tashkil topganligi uchun bir-biridan prinsipial tarzda farqlanadi. Makon yo'nalishi makonning asosiy va hal qiluvchi belgisi bo'lib, makonning yo'nalish xususiyati bir-biridan farq qiladigan bo'lsa, makonning ko'rinishi ham bir-biridan farq qiladi. Ma'naviy makon jamiyat hayotining barcha jabhalari uchun muhim va ahamiyatlidir.

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida yangi ma'naviy makonni shakllantirish muhim strategik vazifa sifatida ko'rilmogda. Yangi ma'naviy makon – ma'rifatli, erkin va farovon jamiyatni barpo etishga xizmat qilishda muhit bo'lib, u shaxs ma'naviyati, milliy qadriyatlar va ijtimoiy tarbiya asosida yuzaga keladi. Bu jamiyatning ma'naviy barqarorligi va rivoji uchun muhim jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. – T.: "O'zbekiston", 2022-y.
2. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Tarjimonlar: Abdusodiq Irisov, Mahkam Mahmudov, Urfon Otajon. Mas'ul muharrirlar: M.Xayrullaev, M.Akbarov. – T.: "Yangi asr avlodi", 2016-y. 111-b.
3. Nazarov Q. Falsafa asoslari. – T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2012-y. 243-b.





VII BO'LIM

YOSH TADQIQOTCHI

Isfandiyor XOMIDOV,
O'zDSMI 3-bosqich tayanch doktoranti,
"Sahna nutqi" kafedrası o'qituvchisi

AKTYORLIK TA'LIMI YO'NALISHIDA SAHNA NUTQINING YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy o'zbek sahna nutqi maktabi va uni o'qitishda ta'lim texnologiyalarining ahamiyati, ustoz-shogird an'anasi, ijodiy jarayonni singdirishdagi yangi pedagogik yondashuvlar haqida so'z boradi. Talaba-aktyorlarga sahna nutqi fani aktyorlik mahorati bilan chambarchas bog'liq holda o'qitilishiga urg'u beriladi.

Kalit so'zlar: pedagogika, aktyorlik san'ati, aktyorlik mahorati, sahna nutqi, talaba-aktyor, ijodiy jarayon, ta'lim texnologiyasi.

Аннотация. В статье говорится о современной узбекской школе сценической речи и значении образовательных технологий в ее преподавании, традиции педагог-ученик, новых педагогических подходах к построению творческого процесса. Особое внимание уделяется обучению студентов-актеров науке сценической речи в тесной связи с актерским мастерством.

Ключевые слова: педагогика, актерское искусство, актерское мастерство, сценическая речь, студент-актер, творческий процесс, образовательная технология.

Annotation. The article talks about the modern Uzbek school of stage speech and the importance of educational technologies in its teaching, the tradition of teacher-student, and new pedagogical approaches to inculcating the creative process. Emphasis is placed on teaching student actors the science of stage speech in close connection with acting skills.

Keywords: pedagogy, acting art, acting skills, stage speech, student-actor, creative process, educational technology.



Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ko'zda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda san'at va madaniyat ta'limining alohida o'rnini bor. Shu bois, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham qator ta'limiy islohotlarga dadil qadam tashlanyapti. Dars tashkil etishning yangi usullari, innovatsion metodlari qo'llanilyapti. Har bir ijodkor talaba bilan pedagog o'rtasida amaliy hamda nazariy mashg'ulotlarning o'rganilishi erkin, faol muloqot asosiga qurilyapti. An'anaviy o'qitish usullariga tayangan holda yangi yondashuvlar tatbiq etilyapti. Ayniqsa, aktyorlik ta'limi yo'nalishida. Boisi, sahna qonuniyatlarini anglash va qo'llash, obraz yaratish jarayonlarini boshdan o'tkazish, ijro qilish kabi jihatlar g'oyat murakkab, shuningdek, individuallik xususiyatga egaligi uchun yangi metodlarni talab etmoqda. Aktyorlik mahorati, sahna nutqi, sahna jangi, raqs, ritmika va plastika singari amaliy darslarni

o'qitishda pedagogdan yangicha tashabbuslar kutilmoqda. Bugunning talaba-aktyori kasbiy mahoratni qanday va qancha muddatda egallashi mana shu yangiliklarga bog'liq bo'lmoqda. Bunda sahna nutqi fanining o'ziga xos an'anaviy metodikasi va yangi taklif etilayotgan texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Sahna nutqi fani – san'at ta'limining yetakchi ijodiy fanlaridan biri bo'lib, bevosita aktyorlik mahorati bilan chambarchas bog'liq holda talaba-aktyorlarning so'z harakati mahoratini egallashiga xizmat qiladi. Uning texnika va so'z ustida ishlash bo'limlarida talaba-aktyorlarning nutq mahorati, nutqiy xarakter yaratish ko'nikmalari shakllanadi. Bu birinchi galda talaba-aktyorning nafas, ovoz, artikulyatsiya, diksiya, orfoepiya kabi texnik ko'nikmalarini va so'z ustida ishlash mahoratini bosqichma-bosqich, ketma-ketlikda, ammo uzviy holatda o'zlashtirishni o'z ichiga oladi. Nozik va



murakkab hisoblangan mazkur jarayon har bir pedagogdan talaba-aktyorning imkoniyatlarini oshirishga va eng muhimi, bo'lajak aktyorning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilishi bilan mas'uliyatlidir. Sahna nutqi fanining tarixiy rivojlanishida ustozlar tomonidan ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan:

- *aktyor va rejissyorlarning sahna nutqi bilimlarini oshirishda N.Aliyeva va L.Xo'jayevlar birinchi bo'lib "Ifodali o'qish san'ati"ni ilgari surishdi. Bunda ijodkorning matn bilan ishlash bosqichlari chuqur o'rganildi va samarali o'qitish usullari ishlab chiqildi;*

- *talabalarni "Badiiy o'qish asoslari"ga o'rgatish "Ifodali o'qish san'ati"dan biroz murakkabroq va ta'sirchanroq. Sahna nutqiga bu terminni S.Inomxo'jayev olib kirdi va adabiy asarlarning ijrosidagi nozik jarayonlarni tadqiq etdi. Natijada, talaba-aktyorlar sahnada bir o'zi to'liq bir asarni ijro qilish ko'nikmasiga erisha boshlashdi;*

- *adabiyot bilan, undagi matn bilan ishlashga jiddiy e'tibor qaratgan I.Po'latov sahna nutqiga "Paradigmalar"ni kiritdi. Paradigmalar talabalarga matn bilan ishlashda ancha yengillik beradi va bu ijodiy jarayon har bir gap, har bir so'z va har bir harfga qanday ohang berish, to'xtam yoki jonlantirish kabi muhim belgilar orqali amalga oshiriladi;*

- *sahna nutqida spektaklning bir bo'lagi sifatida o'qitiladigan "Monolog va dialoglar ustida ishlash"ni M.Isroilov chuqur tahlil etdi. Natijada, talaba-aktyorning obrazda monolog ijro etishi, partnyorlar bilan jonli muloqotni ta'minlash kabi jihatlari tadqiq etildi;*

- *sahna nutqida qahramonning nutqi ishonchli chiqishini "Jonli so'z" terminologiyasi orqali tadqiq etgan professor Adiba Nosirova fanga tabiiy, organik nutq ahamiyatini olib kirdi. Buning natijasida talabalar nafaqat sahnada, balki kundalik hayotda ham jonli so'zning muhimligini his etdi. Tadqiqotda har bir so'z shunchaki ishlatilmasligi, aksincha, u biron-bir maqsadni ifodalashi tushuntirildi;*

- *dostonlar ustida ishlash va bir aktyor ijrochiligi masalasini S.Nosirov nazariy-amaliy jihatdan o'rgandi. Xalq og'zaki ijodi namunalariining sahnaviy ijrosi borasida bosh qotirgan olim talabalarga ta'sirchan folklor ijro usullarini taklif etdi;*

- *so'zdan ariyaga va ariyadan so'zga o'tish muammolarini K.Umirzoqov o'rganib, musiqali teatr aktyorligi talabalarining sahna nutqi mahoratini egallashiga puxta ilmiy asos qoldirdi;*

- *sahna nutqida muhim bo'lgan "Tub ma'no" va "Temporitm", "Oliy maqsad" terminlarini tarixiy dramalar talqinida Go'zal Xoliqulova tadqiq etdi. Qahramonning yetakchi xatti-harakati, ijrosidagi temporitm, maqsad sari intilish va bu orqali obraz yaratishda sahna nutqining ahamiyati,*

qonuniyatlarini to'la tadqiq etdi. Bundan tashqari verbal va noverbal nutq haqida ham ilmiy asoslangan mashqlarni tavsiya etdi.

Yuqorida qayd etilgan ustozlar izlanishlari sahna nutqi fanining rivojlanishida muhim rol o'ynagan va bugungi kunda ham ular qoldirgan meros fanni o'qitishda asosiy manba bo'lib xizmat qilyapti. Fanning takomilini ko'zlagan pedagog Ramz Qodirov 2024-yil "Talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish texnologiyalari" [1] mavzusida (PhD) doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Dissertatsiya pedagogik jarayonda sahna nutqini o'qitishning samarali usullari va metodlarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, yangi yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari ko'rib chiqilgan. Sahna nutqida mavjud metodlar pedagogik texnologiyalar bilan takomillashtirilgan. Sahna nutqini o'qitishda ustozlar foydalangan qator mashqlar, o'ziga xos yondashuvlar yangicha nigoh bilan o'rganilgan. "Ortologiya art texnologiyasi" taklif etilgan. "Ortologiya art texnologiyasi" shu paytgacha mavjud o'quv jarayonlarining yaxlit holda birlashganini aks ettirgan. Unda talaba-aktyorning abituriyentlikdan tortib, to professional teatrdagi faoliyatigacha bosib o'tishi lozim bo'lgan o'quv jarayonlarining mazmun-mohiyati, maqsadi, shakllari aniqlangan, ya'ni 7 pog'ona – saralash, tanishuv, nazariy, amaliyot, yaxlitlik, baholash, hamkorlikdan iborat jarayonning o'ziga xos o'quv metodlari takomillashtirilgan.

Saralash pog'onasida abituriyentlarni o'qishga saralash, kasbiy (ijodiy) imtihonlarda individual suhbatlashish, ijrochilik mahoratini tekshirish; **tanishuv** pog'onasida talaba-aktyorning ijtimoiy-ma'naviy va badiiy qiyofasi hamda ijodiy imkoniyatlari bilan tanishish jarayonini individual, guruhli, suhbatlarda fikrlar hujumi, o'z-o'zini baholash usullarini qo'llash, badiiy va ma'rifiy asarlar, multimedia vositalaridan foydalanish; **nazariy** pog'onada o'quv mashg'ulotlari, individual shug'ullanish, repetitsiyalar, mustaqil ta'lim jarayonida guruhli, individual, o'z-o'zini tahlil etish, o'z-o'zini baholash va nazorat qilish usullarini qo'llash, ijrochilik mahoratini o'rganish, multimedia vositalaridan foydalanish; **amaliyot** pog'onasida malakaviy amaliyot jarayonida individual, guruhli, suhbat, kuzatish usullarini qo'llash, ijrochilik mahoratini o'rganish, amaliy harakatlar, maqsadli vazifalarni bajarish, yetarlicha tajribaga ega bo'lish; **yaxlitlik** pog'onasida progon, bosh progon, yakuniy progon, diplom spektakli jarayonlarida ommaviy, guruhli, individual, mashqlardan foydalanish, ijrochilik mahoratini tekshirish, namoyish etish, mushohadali, amaliy tajribaga ega bo'lishini kuzatish, zarur masalalar bo'yicha





suhbatlar tashkil etish; **baholash** pog'onasida ijodiy ko'rik va muhokamalarda ommaviy, guruhli, individual, bahs-munozara, fikrlar hujumi, kuzatish usullarini qo'llash, badiiy vositalardan foydalanish; **hamkorlik** pog'onasida professional teatrdagi ijodiy hamkorlik, malaka oshirish jarayonida guruhli, individual, ijodiy jarayonlar, ijrochilik, kuzatish, tajriba, klaster usullarini qo'llash, badiiy vositalardan foydalanish, suhbat, bahs-munozaralar tashkil etish nazarda tutiladi.

Tadqiqot jarayonida R.Qodirov unli tovushlar ketma-ketligi talaffuzini odatdagidek **I-E-A-O-O'-U-I** tarzida emas, balki **A-O-O'-U-I-E-A** tarzida ketma-ketlikda talaffuz qilish va barcha diksion mashqlar shu ketma-ketlikda bajarilishi samarali ekanligini isbotladi. O'zining ko'p yillik pedagogik tajribasiga tayanib, unli tovushlar ustida ishlash mashqlari "**I**" tovushi bilan emas, "**A**" tovushi bilan boshlashni tavsiya etdi. Boisi, unli tovushlar ustida ishlashda mashq "**I**" tovushi bilan boshlansa, talabalarning bo'g'zida siqqlik kuzatildi, aksincha, "**A**" tovushi bilan boshlansa, yengillik kuzatildi. Natijada nafaqat unli tovush, balki butun nafas faoliyati, ovoz tug'ilish jarayoni, ovoz jarangi kabi kompleks jihatlar yaxshilandi. Bu holatning bir qancha sabablari mavjud. Birinchidan, go'dakning ilk talaffuzi A tovushi bilan shakllanadi. Ikkinchidan, aksariyat alifbolar **A** harfidan boshlanadi. Qolaversa, kasb nuqtayi nazaridan Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand hududlariga xos shevalarda **I** tovushi o'rniga **E**, **E** tovushi o'rniga esa **I** tovushini ishlatish holatlari uchraydi. Lekin barcha shevalarda A tovushi birdek to'g'ri talaffuz etiladi. Uchinchidan, amaldagi unlilar ketma-ketligi artukulyatsiya nuqtayi nazaridan tuzilgan bo'lsa, tavsiya etilayotgan unlilar ketma-ketligida nafas oqimi birlamchi omildir. **O** va **O'** tovushlarining noto'g'ri, buzib talaffuz etish holatlari asosan nutq texnikasining diksiya va orfoepiya qismlari zimmasiga tushadigan ishlar turkumidandir.

Tadqiqotda R.Qodirov talaba-aktyorlarda sahna

nutqiga oid bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish modelini ishlab chiqdi. Unga ko'ra, sahna nutqi mahoratini egallash "oddiylikdan murakkablikka" tamoyiliga asoslangan holda nazariya bilan amaliyot o'zaro integratsiyalashadi. Natijada mashg'ulotlar orqali talaba-aktyorning kasbiy kompetentligi oshadi, ijroda aniq va sof talaffuzga erishadi, adabiy til me'yorlariga amal qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Sahna uchun yozilgan asarlarni talqin qilish, adabiy asarlarni esa mazmun-mohiyati va g'oyasini saqlagan holda inssenirovka asosida ijro etish malakasi shakllanishiga xizmat qiladi. Nazariyaning asos ekanligi, amaliyot esa ijro uchun zamin yaratishi "Ortologiya art texnologiyasi"da tushuntiriladi. Uning modeli asosida ijro qonuniyatlari bosqichma-bosqich singdiriladi.

Ramz Qodirov sahna nutqining milliy xususiyatlarini saqlagan holda zamonaviy teatr talablariga mos keladigan yangi metodlarni ishlab chiqmoqda. Uning sa'y-harakatlari natijasida o'zbek teatrida aktyorlarning sahnaviy nutqi yanada jonli va ta'sirchan chiqmoqda. Bugun 60 yoshni qarshilayotgan Ramz Qodirovga ilmiy va ijodiy sohada yana ko'plab shogirdlar yetishtirishni, oilada shirin-shakar nabiralarning ma'naviy quyoshi – bobojoni bo'lib, uzoq yillar saodatli umr kechirishini tilaymiz.

Aktyorlik ta'limi yo'nalishida sahna nutqini o'qitishning yangi pedagogik texnologilari yuqoridagi ustozlarning tadqiqotlarida mujassam. Shuningdek, ular tomonidan yangi avlod darslik va o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari, dars ishlanmalari "ustoz-shogird" an'alariga tayanagan holda yoritilishi bo'lajak ijodkor kadrlar uchun qimmatlidir. Bu tadqiqotlar auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning o'quv jarayoniga xorijiy tajribalarni tatbiq etish va audio, video materiallar, veb sayt, mobil ilovalar yaratish kabi navbatdagi tadqiqodlarga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliyeva N. Sahna – mening hayotim (Monografiya). – T.: "Navro'z", 2019-y. 278-b.
2. Djuldikarayeva X. Lola Xo'jayeva (Monografiya). – T.: "Zamon poligraf", 2022-y. 278-b.
3. Inomxo'jayev S. Badiiy o'qish asoslari. – T.: "O'qituvchi", 1973-y. 180-b.
4. Isroilov M. Monolog ustida ishlash (San'at va madaniyat institutlari uchun o'quv qo'llanma). – T.: Mannon Uyg'ur nomidagi Toshkent davlat san'at instituti, 2003-y. 132-b.
5. Nosirova A. San'at mening taqdirimda. – T.: "Akademnashr", 2019-y. 272-b.
6. Nosirova A. Sahna nutqi (Darslik). – T.: "Tafakkur bo'stoni", 2013-y. 224-b.
7. Po'latov I. Sahna nutqi (Qo'llanma). – T.: "O'qituvchi", 1994-y. 136-b.
8. Qodirov R. Talaba-aktyorlarda sahna nutqiga oid bilim va ko'nikmalarni takomillashtirish texnologiyalari // Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: UzDSMI, 2024.
9. Qodirov R. Sahna nutqi (Darslik). – T.: "Zamon poligraf", 2023.
10. Xoliqulova G. Sahna asarlaridagi qahramon karakterini talqin qilishda zamonaviy kommunikativ texnologiyalardan foydalanish uslubi. – T.: "Fan va texnologiya", 2015-y. 150-b.



FARG'ONA VODIYSI QIZIQLARI IJODIDAGI ASOSIY BADIY TAMOYILLAR



Annotatsiya. Maqolada Farg'ona vodiysida faoliyat ko'rsatgan qiziqclar ijodiy faoliyatida bir qator badiiy tamoyillar va ularning vujudga kelish omillari atroflicha ilmiy tahlil qilingan. Kulgi san'atining yangi qirralari, o'ziga xos xususiyatlari qalamga olingan.

Kalit so'zlar: qiziqclar, tamoyil, badiiylik, mahorat, ijro, imitatsiya, sahna, telekulgi, askiya, sozandalik.

Аннотация. В статье глубоко научно проанализирован ряд художественных тенденции и факторы, обусловившие их возникновение в творческой деятельности комиков Ферганской долины. Запечатлены новые типы и уникальные особенности искусства смеха.

Ключевые слова: комики, тенденция, артистизм, мастерство, исполнение, подражание, сцена, комедия, аския, музыкальность.

Annotation. The article provides a deep scientific analysis of a number of artistic trends and the factors that determined their emergence in the creative work of comedians of the Fergana Valley. New types of comedy and their unique features are discussed.

Keywords: comedians, trend, artistry, skill, performance, imitation, stage, comedy, askia, musicality.



Farg'ona vodiysida faoliyat ko'rsatayotgan qiziqclar ijodiy faoliyatida bir qator badiiy tamoyillar kuzatiladi. Jamiyat hayotida vujudga kelgan shart-sharoit va muhitning o'zgarib turishi, an'anaviy mavzularning turlichaligi, tomoshabinlar toifasi va ular ehtiyojining xilma-xilligi kulgi san'atining yangi qirralari yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bunda tomoshabinlarning go'zallikni, lutfni his qilish qobiliyati muhim o'rin tutadi. Har bir badiiy tamoyilning yuzaga kelishida kulgi muxlislarida u yoki bu yo'nalish va sohalarga ma'lum moyillikning mavjudligi asosiy omil vazifasini o'tamoqda. Qiziqclar o'z chiqishlarida ijtimoiy yoki maishiy hayotimizga oid jiddiy fikrlarni kulgi, yumor yoki hazil aralash biroz mubolag'ali tarzda tomoshabinga yetkazishda turli badiiy va texnik vositalardan foydalanadilar.

Ayrim ijrochilar faqat qiziqchilik yo'nalishida ijod qilsalar, ba'zilar askiya sohasida ham birday o'z mahoratlarini namoyish etishadi. Xalqimizning yaxshi kunlarida tashkil etiladigan yig'inlari, turli bayramlar munosabati bilan o'tkaziladigan ommaviy sayillarda, mahalliy to'y marosimlarida ma'lum mavzu bo'yicha ikki va undan ziyod san'atkorlar tomonidan ijro etiladigan askiya musobaqalari ijrochidan katta bilim va ko'nikma talab etadi. Ular ba'zida badiiy so'z tortishuvida ikki tarafga yoki ustoz-shogird sifatida birlari bilan musobaqalashadilar. M.Darveshov, R.Hamroqulov, J.Po'latov, A.Akbarov, G'.Axmedov kabi qiziqchilar askiya san'atida ham bellasha

oladigan badiiy mahoratga ega san'atkorlar toifasiga kiradilar.

XX asrning ikkinchi yarmida fan va texnika taraqqiyoti natijasida badiiy madaniyatning ko'rinadigan, harakatlanuvchi sohalarini tasvirga olish imkoniyati yuzaga keldi. Natijada qiziqclar ijrosidagi ayrim namunalar tanlangan holda telekamaralarga muhrlana boshlandi. So'nggi yillarda ularning soni ortib, salmog'i kengaydi. Bu davrda ilgari mavjud bo'lgan televizion kulgi badiiy saviya jihatdan yangi bosqichga chiqdi. Yillar o'tishi bilan telekulgiga bag'ishlangan alohida dasturlar efirga uzatila boshlandi. Ular shaklan ham, mazmunan ham takomillashdi. Yangi izlanishlar, tajribalar qilindi. Kulgiga bag'ishlangan ko'rsatuvlar o'zining xalqchilligi bilan tomoshabinlar e'tiboriga tushdi. Dastlab Farg'ona vodiysi qiziqclari Yusufjon qiziq Shakarjonov, M.Darveshov [4,45–72-b] R.Hamroqulovlarning turli mavzulardagi ijod namunalari kulgining o'ziga xos yangi nafasidan darak berardi. Keyinchalik bu an'ana qiziqchining shogirdlari tomonidan davom ettirilgan, jumladan, G'.Axmedov, A.Akbarov, A.Siddiqov, I.Hamroqulovlar ijodida bu an'ana ko'zga tashlanadi.

Telekulgi sohasidagi eng katta muammo bu – qiziqchilar tomonidan ijro etilayotgan komediyalarning dramaturgiyasidagi tarqoqlik, talqin qilinayotgan voqealar syujetining mazmunan sayozligida ko'rinadi. Ssenariyni ijrochilar yoki rejissyorlar tomonidan yozilishi, yoki ssenariyning





umuman bo'lmisligi, aniq bir g'oyaviy-badiiy estetik tizimga solinmaganligi ham shunday ahvolga olib kelgan.

Turli telekanallarda namoyish etilayotgan kulgi dasturlari orasida yigirma daqiqaga mo'ljallangan **“Ajabxanda”, “Qalpoq”, “Sho'rdanak”, “Hamma kulishi shart”** kabi o'nlab ko'rsatuvlar jiddiy tahrirga muhtoj. Bunday ko'rsatuvlarda badiiy yaxlitlik yetishmasligi, aniq, jiddiy maqsadga qaratilmaganligi, voqealar tugal mazmunga qurilmaganligi, tasvirga olish jarayonida xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilayotganligi bu sohada hali qilinadigan ishlar ko'pligidan dalolat beradi. Ayrim ijodkorlar ekran mas'uliyatini his qilmayotganligi, ularda kerakli malaka, bilim va ko'nikma yetishmasligi bilan bog'liq. Endilikda bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish, telekulgining haqiqiy xalqchil tomosha darajasiga aylantirish zarur.

Qiziqqlarning noyob iste'dodi ommalashuvi va shuhratining oshishida kino san'atining o'rni beqiyos. Bir qator kinorejissyorlar o'z filmlariga taniqli qiziqqlarni jalb etgan. H.Tojiboyev, M.Xolmedov, O.Asomov, V.Shamsiyev kabi kulgi ustalari bu borada yetakchilik qiladi. O'shlik komik aktyor va qiziqchi Karimjon O'rinov ham turli tillarda yaratgan betakror obrazlari bilan tomoshabinlar xotirasida qolgan. 1985-yil kinorejissyor Ali Hamroyev tomonidan “O'zbekfilm” kinostudiyasida suratga olingan **“Vodillik kelin”** filmida choyxonadagi so'ri ustida turli ovozlarni imitatsiya qilishi mazkur kartinaning badiiy qiymatini oshirgan. Murod Muhammad do'st qalamiga mansub, rejissyor Temurmaliq Yunusovning **“Galatepalik avliyo”** (1983) badiiy

filmi, shuningdek, “Qirg'izfilm” kinostudiyasida suratga olingan **“Pistirma”** badiiy filmlaridagi hayajonli, dillarni larzaga soluvchi va yayratuvchi obrazlarni yaratgan.

Farg'ona vodiysida faoliyat ko'rsatayotgan kulgi ustalari ijodidagi yana bir badiiy tamoyil bevosita internet tarmog'ini keng qamrab olishi bilan bog'liq. So'nggi yigirma yil ichida xalqaro internet tarmoqlaridagi turli saytlar sahifalarida aksariyat qiziqchilar haqida ma'lumotlar, ularning ijodidan namunalar joylandi. Yozma matnlardan tashqari video va audio materiallar orqali qiziqchilar haqida tomoshabinlarda kengroq ma'lumotlar olish imkoniyati yuzaga keldi. Taniqli san'atkorlar ijro an'analariiga oid tahliliy materiallar kam bo'lsa-da, joylashtirilmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, qiziqchilik san'ati bilan shug'ullanadigan tadqiqotchilar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi.

Internet tarmog'idagi ochiq ensiklopediya Vikipediya, Instagram, Telegram, Facebook, Youtube kabi internet tarmoqlarida M.Darveshov (**“Quruvchi”, “Temiryo'lchi”, “Nasriddin Afandi”**), R.Hamroqulov (**“Retro arxiv”, “Yetimman”, “Ichkilik”**), G.Axmedov (**“Tush”, “G'ayrat shou”, “Gitler xoji”, “Sumalak”**), A.Akbarov (**“Bodring”, “Abdurayim va Mama-rayim”, “Futbol”, “Hasan-Husan”, “Lug'at”, “Gai”**), I.Hamroqulov (**“Ajabxanda”, “Kulmagan qolmasin”, “Men Namangan farzandiman”, “Odamlarga nima bo'lyapti”, “Ulfatchasiga kulishamiz”**) va boshqa san'atkorlarning ijodiy namunalari targ'ib qilinmoqda. Qiziqchilarning internet tarmog'iga joylashtirilgan materiallarning



yutug'i shundaki, ularni xohlagan paytda eshitish, ko'rish va elektron nusxa ko'chirib olish imkoniyati bor.

Qiziqqlar ijodi qamrovi jihatdan nihoyatda keng bo'lib, yakka ijro, guruhli jamoaviy faoliyat, telekulgi va mahalliy sirk tomoshalaridan tashqari ayrimlari zamonaviy teatrlarda ham barakali faoliyat olib borishadi. Ustoz san'atkor Y.Shakarjonov milliy etnografik ansamblda, Yangiyo'l teatrida va milliy sirk jamoalarida va davlat filarmoniyasida barakali faoliyat yuritgani tarixdan ma'lum [5,29–93-b].

Qiziqchining farzandlari ham ota izidan ketib, turli hangomalar yaratganlar. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Zaynobiddin Yusupov 1960-yillarda Farg'ona viloyat musiqali drama teatrida aktyor, cholg'u ansambli rahbari bo'lib ishlagan. Professional aktyor sifatida turlicha sahna asarlarida betakror obrazlar yaratgan. *“Tohir va Zuhra”* spektaklida sandiqchi, *“Nurxon”*da Huzurxo'ja, *“Maysaraning ishi”*da Mullado'st, *“Arshin mol olon”*da Vali kabi rollarni ijro etgan. 1970-yillarda Marg'ilon xalq teatrida, 1978-yildan Farg'ona filarmoniyasida qiziqchi va cholg'uchi bo'lib ishlagan. 1986-yilda askiyachi va qiziqchilarning Qo'qonda o'tkazilgan respublika ko'rik tanlovida o'zi tashkil etgan “Marg'ilon xandasi” uyushmasi bilan qatnashgan. 1988-yilda ular Toshkentda “Kulgi markazi”ning ochilishida *“Erka o'g'il”* komediyasini namoyish etishgan [7,11–26-b].

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist R.Hamroqulov teatr san'ati oliygohini tugatganidan keyin A.Navoiy nomidagi Namangan viloyati musiqali drama teatrida professional aktyor sifatida 13 yil faoliyat yuritgan. O'zining tirishqoqligi va san'atga bo'lgan muhabbati tufayli teatrning yetakchi san'atkoriga aylanib, qirqqa yaqin sahna asarlarida turfa xil obrazlari bilan tomoshabinlarda iliq taassurot qoldirgan. N.Boboxo'jayevning *“O'zing ko'zim nuri”* pyesasida Muzaffarning yoshligi, J.Teshaboyevning *“Bo'ri arslonni izlaydi”* asarida Botir siymosini gavdalantiradi, A.Tursunning “Mashrab” dramasida Mamatoxun obrazi mutaxassislar tomonidan alohida e'tirof etiladi. Aktyorning repertuarida Molyerning “Skapenning nayranglari”da Skapen, O'Umarbekovning *“O'z arizasiga ko'ra”* asarida Shuhrat,

ozarbayjon dramaturgi Sh.Aliyevning *“Nasriddin afandi va Azroil”* pyesasidagi Nasriddin afandi va yana boshqa bir qator rollari teatr tarixiga muhrlangan.

R.Hamroqulov tabiatan an'anaviy va zamonaviy teatr aktyorlik an'analarini yaxshi o'zlashtirgan edi. R.Yoriyevning *“Sirli boshqoq”* ertagidagi Yumronqoziq roli ijrosida bu xislatlari yorqin ko'zga tashlanadi [1,6–72-b].

Qiziqqlarning faoliyatidagi yana bir ijodiy tamoyil o'z ijrolaridagi kulgili nomerlarni turli musiqa sozlarini chalishdagi mahoratlari bilan uyg'unlashtirishda namoyon bo'ladi. Tarixdan ma'lumki, ustoz san'atkor Yusufjon qiziq Shakarjonov o'z davrida ajoyib rahbar, iqtidorli tashkilotchi, sirk san'atining mahoratli artisti, malakali raqqos, tomosha san'atining yetakchi rejissyori, barcha milliy musiqa asboblarini maromiga yetkazib chala oladigan sozanda, doira bilan lapar va yallalar ijro etadigan, qolaversa, patnisda katta ashulalarni ayta oladigan yaxshigina hofiz sifatida ham o'z mahoratini namoyish etgan [3,19–62-b]. Uning zamondoshi Erka qori Karimov o'z davrida dong taratgan hofiz, so'z ustasi, xalq qo'shiqlarining tengsiz bilimdoni, katta ashulalarning betakror ijrochisi sifatida ma'lum va mashhur bo'lgan. Ko'zi ojiz bo'lsa-da, Muqimiy va boshqa shoirlar ijodidan ilhomlanib, g'azallar bitgan. Qur'on suralarini baland, jarangdor ovozda tilovat qilgan. Shoirlar uning ovoziga mos ohangda g'azallar yozib berishganligi bois, uning qo'shiqlari ko'p bo'lgan. Shoir Haziniy qalamiga mansub “Rabbano, dodimga yet”, “Poshsho pirim, madad qiling”, “Ey chehrasi tobonim”, “Chorgoh” kabi qo'shiqlarni goh o'zi yolg'iz, goh shogirdlari jo'navozligida kuylab kelgan. O'z davrida yaratgan “Ashula payrovi” hozirgacha turli talqinlarda ijro etilib kelinadi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, Farg'ona vodiysi azaldan badiiy madaniyatimiz, xususan, an'anaviy o'zbek qiziqchilik san'atining vujudga kelishi va rivojlanishi jarayonlarida muhim o'rin tutgan. Hozirgi kunda ham vodiya ko'plab mahoratli kulgi ustalari faoliyat olib bormoqda. Ular ijodidagi asosiy badiiy tamoyillar bundan keyin ham yangi shakllarda o'zini namoyon etishda davom etaveradi. Shu bois, mazkur masalalarni o'rganish, ilmiy asoslash muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lutfullo Mahmud. Qaddingdan o'rgilay qadrdonlar (esse). – Namangan: 1996-y. 120-b.
2. Dadajonov O. Karim qiziq. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot instituti sayti. 2024-yil, 24-dekabr.
3. Sultonov M., Sherayev M. O'zbek xalqining askiya va qiziqchilik san'ati. – Farg'ona: 2020-y. 188-b.
4. Qodirov M.H. Yusufjon qiziq. – Toshkent: “Fan”. 1991-y. 97-b.
5. Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilar san'ati (Farg'ona an'anaviy teatri). – T.: “Fan”. 1971-y. 205-b.
6. Qodirov M. O'zbek xalq tomosha san'ati. – T.: “O'qituvchi”, 1981-y. 76-b.
7. Qo'chqorbekov O. Kulgi darg'alari (Askisyachi va qiziqchilar haqida). – T.: “Sharq”, 2005-y. 125-b.





ПОЭТИКА ФОРТЕПИАННОЙ РАПСОДИИ «АРИРАНГ» НА КОРЕЙСКИЕ ТЕМЫ АКМАЛЯ САФАРОВА

Аннотация. В данной статье рассматривается известная корейская народная песня «Ариранг» и её мелодические разветвления в произведении для фортепиано Акмаля Сафарова «Рhapsодия Ариранг на корейские темы». Сочинение анализируется с точки зрения формы, мелодии, гармонии, ритма и фактуры, а также соприкосновения корейского фольклора с жанром рhapsодии.

Ключевые слова: ариранг, рhapsодия, корейская монодия, жанр, фактура, самобытность, интерпретация, поэтика.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mashhur koreys xalq qo'shig'i "Arirang" va Akmal Safarovning "Koreys mavzularida Arirang rapsodiyasi" pianino asaridagi ohangdor tarmoqlari haqida so'z ketadi. Mavzu kompozitsiya, ohang, garmoni, ritm va faktura, shuningdek, koreys folklorining rapsodiya janri bilan aloqasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: arirang, rapsodiya, koreys monodiyasi, janr, tekstura, o'ziga xoslik, talqin, poetika.

Annotation. This article examines the famous Korean folk song "Arirang" and its melodic ramifications in Akmal Safarov's piano composition "Arirang Rhapsody on Korean Themes". The composition is analyzed in terms of form, melody, harmony, rhythm and texture, as well as the contact of Korean folklore with the genre of rhapsody.

Keywords: arirang, rhapsody, Korean monody, genre, texture, originality, interpretation, poetics.



«Ариранг» – народная корейская песня, имеющая большое количество вариаций и разных вариантов. «Ариранг» считается народным гимном корейского народа в Узбекистане. Неспроста феномен этой песни во все времена привлекал внимание многих композиторов; создавались переложения и обработки для различных исполнительских составов, вследствие чего можно наблюдать интеграцию этой песни в различных жанрах и стилях. В Узбекистане же одним из немногих композиторов молодого поколения композитор Акмаль Сафаров использовал песню «Ариранг» в фортепианном жанре. В самой мелодии «Ариранг», композитор почувствовал определённую «рhapsодичность» – способ мышления композитора, в котором передаётся связь древнего эпического образа в современном переосмыслении связи веков, времён. И в этом смысле мелодия «Ариранг» оказалась интересной для создания рhapsодии «Ариранг».

Интерес к музыке, истории и культуре других народов появился у композитора еще в детстве. Изучая всемирную историю, географию будучи школьником, композитор «...воображал некоторые интересные моменты истории, проводил в голове последовательность исто-

рических фактов, желая увидеть их своими глазами, была бы такая возможность!» [1].

Знание специфики фортепиано раскрыло Сафарова как яркого, талантливого композитора-пианиста, отлично владеющего всеми ресурсами этого инструмента. Удачное соединение в одном лице замечательного композитора и музыканта-исполнителя способствовало рождению особого качества игры на фортепиано: напевности и образности. Именно эти черты определили характер и фактуру его фортепианных сочинений. Так, в Колыбельной, Прелюдии, Вариациях, Сонате, Этюд-картине, Фантазии, Токкате Сафаров создал разнообразные звуковые реалии современного мировосприятия с ярко выраженной национальной почвенностью музыки.

Замысел сочинения рhapsодии на корейские темы появился еще давно. Общие черты узбекской и корейской культур, схожие традиции и менталитет двух народов, крепкие международные отношения Республики Узбекистан и Республики Корея, можно сказать, также побуждали композитора на изучение корейской музыкальной культуры, песен, кулинарии и, впоследствии, на создание музыкальных произведений на основе корейских народных мелодий.



В Узбекистане к жанру рапсодии обращались такие композиторы, как Т. Курбанов, М. Бафоев, одни из первых композиторов воплотивший жанр рапсодии именно для фортепиано – В. Успенский написал рапсодию на узбекскую классическую мелодию «Насрулло», после него, знаменитый композитор, Заслуженный деятель искусств Республики Узбекистан Рустам Абдуллаев в своём фортепианном творчестве создал две рапсодии – первая «Фрески Навруза» и вторая, посвященная композитором своему сыну – Бекзоду Абдуллаеву [2].

Рапсодии Р.Абдуллаева, наставника Акмаля Сафарова, способствовали проявлению интереса его приемника к созданию собственного произведения в жанре рапсодии. А за тематической основой рапсодии А.Сафаров обратился к корейскому фольклору, а именно – к знаменитым песням «Ариранг», «Качи соллаль», «Торади тарёнг». Учитывая тот факт, что песня «Ариранг» имеет бесконечное множество вариантов трактовки, композитор выбрал для своего произведения самую популярную и известную версию песни «Ариранг», которая объединяет всех этнических корейцев по всему миру, в том числе и корейскую диаспору в Узбекистане [3]. Следовательно, названием для своего нового произведения композитор выбрал самую репрезентативную из вы-

шеизложенных корейских песен – рапсодия «Ариранг» на корейские темы.

Так как рапсодия по своей эпической специфике не может быть скована определённым формообразующим критерием, по мере того как развивается музыкальная мысль, обобщённо можно сказать что произведение написано в одночастной «крещендирующей» форме в рамках трёх разделов, с динамической репризой в конце, каждый из которых отведен на отдельный первоисточник соответственно [4, с. 291]. Внутреннее тематическое развитие каждой песни и связная их последовательность диктует следующее формообразование – А-В-С-А1. Сама рапсодия с точки зрения изложения тем напоминает вариационный склад. В целом, в рапсодии преобладают принципы классического письма. Присутствие размера, метра, тонального плана, определенной тональности, опоры на диатонику, пентатонику и ангеметонику доказывает вышесказанное.

Переходя на подробный анализ данного произведения можно отметить, что произведение начинается с гармонизированным изложением основной темы Ариранг в размеренно-медленном темпе и служит принципом сквозного интонационного развития на протяжении всего произведения [5, с. 14], аккордовая гармонизированная фактура передаёт величественно-поэтическое начало рассказа.



Начиная с восьмого такта следует связующее звено между первоначальным изложением темы и ее последовательным развитием, представляющее собой нисходящие по звукам мажорной пентатоники разложенные октавы. Такое фактурное изменение является началом повествования темы в мелкой фортепианной технике, имитирующее звук корейского традиционного струнно-щипкового инструмента – каягым (девятый такт):




Как видно из нотного примера дальнейшее развитие мелодии «Ариранг» представляет собой дробление самой мелодии на мелкие длительности, появление пунктирного ритма, ломаных арпеджированных трезвучий в левой руке придает поток движения и ощущение томления. Гармонические вертикали основаны на звуках кварт-квинтаккордов. В целом, все это создаёт разложение самой мелодии на две руки, соблюдая принципы фортепианной техники.

Восемнадцатый такт как второе связующее звено между изложениями тем приводит к следующему изменению фактуры продолжения темы «Ариранг»:



Следует отметить, что сама мелодия в этой части не столь меняется в гармоническом плане, столь в фактурном. Преобладание аккордовой фактуры с добавлением нижних басов, имитирующий корейский традиционный ударный инструмент — «бук», сохранение арпеджио еще более глубоко раскрывает сакральный образ «Ариранг».

Далее снова следует небольшая связка из восходящих колористических пассажей с еще более дроблением длительностей. Яркие имитации звуков природы в верхнем регистре с добавлением трелей впоследствии достигают точку местной кульминации. Это непрерывное динамичное движение останавливается опеванием самой верхнем ноты, после чего происходит смена размера, отождествляющее появление новой темы, но прежде происходит смена размера на 4/4 и возвращение к среднему регистру шестнадцатыми нотами:



O'zDSMI xabarlari 2025/2 (33) 107



Автор сохраняет ритмический рисунок и размер (3/4) оригинала мелодии «Торади таренг», а характер самой темы диктует изменение темпа на $q=112$ и напоминает звучание корейского традиционного струнно-смычкового инструмента «хэгым». Первые восемь тактов темы вводят слушателя в «ложный» мажорный лад, но впоследствии тема постепенно закрепляет за собой минорную пентатонику и приобретает некую целеустремлённость и стойкость, что отличает ее от предыдущих тем. Резкие звуки в пунктирном ритме, аккордовые вертикали на высоких динамических оттенках, появление полиритмии на фоне слияния триолей в партии левой руки и пунктирного ритма в правой, подчеркивание сильных долей октавами в басу, имитирующие корейские традиционные ударные инструменты, такие как «бук» и «чанггу», усиление звучания мелодии подголосками подчеркивает героико-патетический характер темы:

Торади тарёнг
 $\text{♩}=112$
a tempo

Завершается тема скоротечными пассажами в правой руке на звуках главных трезвучий домажора, которые подводят к основной кульминации всего произведения, а именно – к динамической репризе.

Последний раздел рапсодии, как уже было сказано выше, предстает в виде динамической репризы с обогащением фактуры, метра и ритма и еще более ярко раскрывает темы «Ариранг». Расширяется регистр, достигается максимальное «крещендо» не только с динамической точки зрения, но и тембровой; четкая последовательность кварт-квинтаккордов, преобладание октав и септаккордов, повторное внедрение полиритмии, подчеркивание басами первой доли – всё это образует красочную смесь лирики, эмоционального проявления содержания и патетики финала.





Следом за эмоциональной кульминацией автор постепенно переводит внимание слушателя к первичной умиротворенности и спокойствия темы «Ариранг», напоминая этим, что чем бы ни было велико мастерство композитора, тем важнее сохранить «невинность» оригинала народного творчества. Примером этому можно отнести повторение музыкального материала из начального развития темы:



После точного повторения части начального раздела произведения завершается нисходящим движением шестнадцатых, направленных к арпеджированному тоническому трезвучию с добавлением пары неаккордовых звуков.

Резюмируя весь анализ данного произведения, выделяется новизна одночастности «крещендирующей формы», исконно-песенная

рапсодия без традиционной танцевальной части, в которой динамика темпа, единство фактуры, придают духовно-волевое движение вперёд корейского духа, гармонический комплекс лейттаккорда определяет устойчивость гармонической функции, в то время как мелодическая функция раскрывает мелодическое богатство в условиях диатоники и постепенного



обогащения мелодического рисунка «Ариранг» интересными дополнениями раскрывающие её богатство. Следующие две темы хотя и новые в произведении, но интонационно связаны с темой Ариранг, они ещё раз подтверждают национальную ментальность, национальное своеобразие, в последующем развитии они присоединяются к теме Ариранг и раскрывают её богатство разнообразия красок, такое динамичное развитие, постепенное фактурное обогащение приводит к эпическому возвышению горе «Ариранг», ассоциирующая гимн достижения свободы, процветания и счастья корейского народа. С точки зрения интерпрета-


ции, Рапсодия «Ариранг» на корейские темы А.Сафарова требуют от исполнителя не только хорошей техники исполнения, но и точного понимания смысла произведения и содержания составляющих его жемчужин народного творчества. От ясности интерпретации исполнителя зависит четкость представления образов, заложенных в данной рапсодии. Контрастность и самобытность первоисточников духовно обогащает внутренний мир слушателя и повышает уровень нравственности. Безусловно, произведение А.Сафарова вносит значительный вклад в развитие фольклорной музыки и укрепления межнациональной дружбы в Узбекистане.

Использованная литература:

1. Жонибеков Ж. Фортепианный стиль молодого композитора Акмаля Сафарова на примере фортепианной сонаты // Innovative achievement in Science (Россия), 2022 г. 25–30 с.
2. Мартиросова Ж. Рапсодия как музыкальный феномен // Дипломная работа. – Т.: 2005 г. 5 с.
3. Dr. Bohi Gim Ban. A Musical Analysis on Korean Diaspora Arirang Songs // Uzbekistan-Korean international Mutual Understanding Music Festival «Arirang». Institute of North-East Asian Music – Seoul, Korea: 2012 г. 25 p.
4. Холопова В.Н. Формы музыкальных произведений (Учебное пособие). 2-е изд., испр. – СПб: «Лань», 2001 г. 496 с.
5. Фришман Д. Испанская рапсодия Равеля. – М.: 1973 г. 80 с.
6. Джарылгасинова Р.Ш., Крюков М.В. Календарные обычаи и обряды Восточной Азии. Годовой цикл. – М.: «Наука», 1989 г. 360 с.
7. Хам Хва Дин. Очерк корейской музыки. Пхеньян, 1956 г. 242 с.



ДИРИЖЕР ГАЙРАТ АБРАРОВ – ИНТЕРПРЕТАТОР И ПРОПАГАНДИСТ ФРАНЦУЗСКОЙ СИМФОНИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ



Аннотация. В статье раскрываются исполнительское интерпретаторское искусство узбекского дирижера Гайрата Абрарова, доцента кафедры оркестрового дирижирования Государственной консерватории Узбекистана, активного пропагандиста французской симфонической музыки. Автор статьи раскрывает творческие процессы талантливого дирижера и педагога, выявляет черты его художественной индивидуальности и приходит к выводу о значимости многогранной деятельности Гайрата Абрарова в прогрессивном развитии современной симфонической оркестровой культуры.

Ключевые слова: симфонический оркестр, дирижер, исполнительская интерпретация, культура, ритм, энергетика, динамика, тембр, мануальная техника, стиль.

Аннотация. Maqolada o'zbek dirijyori, O'zbekiston davlat konservatoriyasi orkestr dirijyorligi kafedrasida dotsenti, fransuz simfonik musiqasining faol targ'ibotchisi G'ayrat Abrarovning ijodi xususida so'z ketadi. Ustozning badiiy va ijodiy individuallik xususiyatlari, zamonaviy simfonik orkestr madaniyatini izchil rivojlanishida hissasi va xizmati e'tirof etiladi. Ustoz san'atkorning dirijyorlik faoliyati muallif tomonidan o'rganiladi, tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar: simfonik orkestr, dirijyor, ijrochi talqin, madaniyat, ritm, energiya, dinamika, tembr, qo'l texnikasi, uslub.

Annotation. The article reveals the performing interpretative art of the Uzbek conductor Gayrat Abrarov, associate professor of the orchestral conducting department of the State Conservatory of Uzbekistan and an active promoter of French symphonic music. The author of the article reveals the creative processes of the talented conductor and teacher, identifies the features of his artistic individuality, and comes to the conclusion about the significance of the multifaceted activity of Gayrat Abrarov in the progressive development of modern symphonic orchestral culture.

Keywords: symphony orchestra, conductor, performing interpretation, culture, rhythm, energy, dynamics, timbre, manual technique, style.

Дирижерское искусство доцента кафедры оркестрового исполнительства Государственной консерватории Узбекистана характеризуется широтой разнообразного репертуара, важное место в котором занимает французская симфоническая музыка. Любовь к французской музыке проявилась у Г.Абрарова еще в студенческие годы учебы в бакалавриате в классе оркестрового дирижирования заслуженного деятеля искусств, организатора и бесценного художественного руководителя и дирижера Камерного оркестра узбекских народных инструментов «Согдиана» профессора Фирузы Абдурахимовой. Завершая учебу в бакалавриате, Г.Абраров осуществил инструментальную подготовку для оркестра узбекских народных инструментов «Вакханалии» из оперы «Самсон

и Далила» Камиля Сен-Санса и блистательно продирижировал этой эффектно праздничной, искрящейся весельем и радостью, музыкой, покорила слушателей красочным звучанием оркестра узбекских народных инструментов, тембровыми и динамическими контрастами. Яркий темперамент, отличная мануальная техника позволили молодому дирижеру создать колоритную картину буйного торжества vitality, оптимизма и радости человека и апофеоза любви.

Совершенство дирижерское мастерство в магистратуре и ассистентуре-стажировке у таких корифеев дирижерского искусства, как Народный артист Узбекистана Захид Хакназаров и заслуженный наставник молодежи Узбекистана Владимир Неймер, Г.Абраров постиг





секреты управления оркестровым коллективом и неустанно продолжил открывать для себя новые аспекты симфонической музыки Узбекистана и зарубежных стран.

В своей педагогической работе Г.Абраров огромное внимание уделяет наряду с другими национальными симфоническими школами французской симфонической музыке. Он знакомит студентов с произведениями различных жанров, такими, как «Ноктюрны», «Море», «Послеполуденный отдых фавна» Клода Дебюсси, «Пеллеас и Мелизанда» Габриэля Форе, «Джинны» и «Психея» Сезара Франка, «Прялка Омфалы», инструментальные концерты Камиля Сен-Санса и другими шедеврами симфонического творчества.


Особое место в ряду этих сложнейших симфонических партитур занимают «Испанская рапсодия», «Вальс» и «Болеро» Мориса Равеля, на котором необходимо остановиться подробнее. «Болеро» М.Равеля является одним из самых популярных произведений мировой симфонической литературы XX века. О нем немало литературных строк не только в прозе, но и в стихах. Но при этом самые ценные строки о «Болеро» принадлежат самому М.Равелю в его «Краткой автобиографии». «В 1928 году, по просьбе г-жи Рубинштейн, я сочинил «Болеро» для оркестра. Это танцевальная музыка, которая должна исполняться в ровном, умеренном темпе; она построена на упорном повторении одной и той же мелодии и гармонии, однообразный ритм которых все время отбивается барабаном. Единственный элемент разнообразия в нем – это нарастающее оркестровое *crescendo*» [1;197 с.]. Эта предельно концентрированная автохарактеристика, данная сочинению М.Равелем, является методическим указанием и ключевой целевой установкой исполнительских интерпретаций дири-

жерами. Естественно, что все это относится и к дирижерам Узбекистана. В этом отношении поистине неумолимым пропагандистом музыки М.Равеля и французской симфонической музыки является ведущий дирижер Узбекистана, доцент кафедры оркестрового дирижирования Государственной консерватории Узбекистана Гайрат Абраров. Его любовь к французской симфонической музыке безмерна, проявляется в глубоком изучении симфонических партитур французских композиторов, стремлении раскрыть ее своеобразие, необыкновенную красоту и изысканность оркестровки.

«Изучением французской симфонической оркестровой культуры, – сказал Гайрат Абраров в одной из бесед автору данной статьи, – я занимаюсь на протяжении ряда лет и постоянно открываю в ней для себя что-то новое, красочное, темброво оригинальное. Симфонические произведения французских композиторов Жоржа Бизе, Шарля Гуно, Камиля Сен-Санса, Клода Дебюсси, Дариуса Мийо, Франсиса Пуленка, Артюра Онеггера, Оливье Мессiana, Андре Жоливе, Жермена Тайффера, Нади Буланже привлекают меня оригинальной темброфактурой, изяществом оркестрового стиля, динамической экспрессии. Я горжусь тем, что в апреле 2024 года был удостоен Первой премии на международном конкурсе дирижеров в Париже за высокое профессиональное качество исполнения французской симфонической музыки а также был награжден медалью от имени Европейской специальной комиссии за вклад в науку и искусство».



Подтверждением высочайшей оценки исполнительских дирижерских концепций французской симфонической музыки Абраровым являются замечательные дирижерские интерпретации «Болеро» М.Равеля. Следует отметить, что Г.Абраров осуществил исполнительские интерпретации «Болеро» с национальным симфоническим оркестром Узбекистана и с симфони-



ческим оркестром Музыкального театр-студии Государственной консерватории Узбекистана. Сравнивая записи данных интерпретаций, необходимо отметить аспекты индивидуализации творческих подходов дирижера к звуковому воплощению «Болеро». Они обусловлены различием функциональных специализаций данных коллективов филармонического профиля и учебно-образовательного, реализацией художественно-воспитательных задач.

В работе над «Болеро» с Национальным симфоническим оркестром Узбекистана Г.Аббаров особое внимание уделял темброматической экспрессии симфонического развития тематизма, его звукоокрасочной трансформации и динамике. В работе над «Болеро» с симфоническим оркестром консерватории дирижер особое внимание уделял танцевальному началу, звуковой театрализации испанского жанра. В исполнении темы «Болеро» Г.Аббаров рельефно подчеркивал ее двухфазовую структуру. *«Первый раздел целиком выдержан в диатоническом C-dur, во втором появляются звуки as, b и des, вводящие в сферу гармонического мажора, мелодия приобретает страстно-патетический оттенок, заставляющий вспомнить об андалусской музыке»* [2, с. 229]. Дирижеру удалось очень тонко в интонационном плане оттенить выразительность мелодии, ее восточный колорит, а также танцевальную природу с помощью подчеркивания ритмической пульсации.

Естественно, что творческая работа Г.Аббарова над исполнительской дирижерской интерпретацией «Болеро», равно как и над партитурой «Испанской рапсодии», хореографической поэмой «Вальс» и Второй сюитой из балета «Дафнис и Хлоя» продолжена, совершенствуется и обогащается новыми деталями, поскольку вершинам мастерства не имеется пределов.

Каждый раз исполняя «Болеро» М.Равеля. Г.Аббаров умеет найти новые краски оркестровой палитры богатейших тембров и покорить слушательскую аудиторию глубоко содержательной, художественной мастерской дирижерской интерпретацией, глубоко раскрыть композиторский замысел этого уникального шедевра мировой симфонической культуры. «Цель Равеля – создать обобщенный

образ Испании, а не воспроизвести конкретные фольклорные приметы какой-либо ее области» [3, с.171]. Именно такой идейно-творческий подход трактовки художественного содержания «Болеро» позволил Г.Аббарову создать обобщенный образ Испании как целостной субстанции, получившей концентрированную квинтэссенцию в мистическом танце.

Известно, что «Болеро» имеет самые различные аспекты исполнительской интерпретации, поскольку художественный смысл и содержание его до сих пор не разгадано и вряд ли когда-либо будет раскрыто в ракурсе идейного замысла Равеля. В этом смысле художественное раскрытие музыкального содержания «Болеро» пробуждает фантазию дирижеров и вызывает к жизни новые исполнительские интерпретации. В ряду этих творческих поисков находятся и рассмотренные нами исполнительские дирижерские интерпретации «Болеро» М.Равеля, Г.Аббаровым, показывающие, что музыкальная интерпретация – процесс творческий, а потому и бесконечный ... Следует отметить, что неутомимый поиск новых подходов к интерпретациям симфонических произведений не только М.Равеля, но и других французских композиторов характеризует дирижерское творчество Г.Аббарова. В этом творческом процессе маэстро стремится выявить особенности французской музыкальной школы, ее самобытность, красочность и изысканность, изящество художественного вкуса, утонченность выразительных средств, мельчайших деталей оркестрового письма. *«В дирижерской профессии, – подчеркивал профессор Владимир Неймер, – нет мелочей, начиная с партитуры и кончая подбором запонки, ибо дирижер, подобно сапёру, не имеет права на ошибку»* [4, с. 81]. В исполнении французской симфонической музыки детализация всех компонентов музыкальной выразительности особенно важна, и следуя завету своего учителя В.Неймера, Г.Аббаров вдумчиво и кропотливо изучает каждую строчку многочисленных партитур, в которых находит оригинальные звуковые решения. Путь дирижерского творчества Г.Аббарова – это путь поисков и открытий новых звуковых миров неисчерпаемого богатства симфонической музыки.

Использованная литература:

1. Равель в зеркале своих писем. Перевод с французского. Составители М.Жерар, Р.Шалю. – 2-е изд. – Ленинград: «Музыка», 1988 г. 248 с.
2. Мартынов И. Морис Равель (Монография). – Москва: «Музыка», 1979 г. 335 с.
3. Смирнов В. Морис Равель и его творчество (Монография). – Ленинград: «Музыка», 1981 г. 224 с.
4. Неймер В. Психология дирижирования. Учебно-методическое пособие для высших музыкальных образовательных учреждений. – Ташкент: «Музыка», 2010 г. 87 с.





VIII BO'LIM E'TIROF

Sevar MALIKOVA,
O'zDSMI "Vokal" kafedrasi professori,
pedagogika fanlari nomzodi

AJDODLARGA EHTIROM

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'rifatparvar Yoqubxo'ja Bahriddinxo'ja o'g'li haqida so'z boradi. Uning ma'naviy, madaniy va ijtimoiy hayotdagi o'rni, faoliyati yoritiladi. Ajdodlarni yod etmoq xayrli a'moldir. Maqola yodnoma ruhida yoziladi.

Kalit so'zlar: jadid, ma'rifatparvar, qatag'on, xayriya, muallim, ajdod, shajara, ta'lim-tarbiya.

Аннотация. Эта статья о просветителе Ягубходже Бахриддинходже оглу. Подчеркиваются его роль и деятельность в духовной, культурной и общественной жизни. Поминать своих предков – благородное дело. Статья написана в духе меморандума.

Ключевые слова: новый, просвещенный, репрессии, благотворительность, учитель, предок, генеалогия, образование.

Annotation. This article is about the educator Yagubhoja Bahriddinhoja oglu. His role and activities in spiritual, cultural and social life are emphasized. Remembering your ancestors is a noble cause. The article is written in the spirit of a memorandum.

Keywords: new, enlightened, repression, charity, teacher, ancestor, genealogy, education.



"Moziyga qaytib ish ko'rmak xayrlik..."

Abdulla QODIRIY

...Nigohlardan to'silgan ildiz –
O'sha... bir burchakda ungan navnihol,
Misli uning – poyasi mag'rur,
Himoyaga shaydek, so'rgay hol...
Chunki kichik ungan niholning
Ildizlari mustahkam chuqur...
Barisiga kuch berar asli –
Chuqur otgan ildizning nasli!..

Yozga o'tib quloqch yozgan on –
Ildiz otgan unib nihollar,
Kattalarin izidan borib,
Yer yuzida qoldirishar nom
Suloladan qoldirib nishon.

"Корни" Bekzod Shamsiyev (parcha)
"Sulola" Aziza Aripova tarjimasini.

Xotira. O'tgan ajdodlarni xotirlash. Kelajak avlodimizga kimlarni, qanday yetuk, halol, solih insonlarni farzandi, nabira, evara va chevarasi

ekanliklarini, o'tib ketgan yetti ajdodlarining kelib chiqish shajarasi, tarixini o'rganib, nafaqat aytib berish, uni ishonchli faktlar, tasdiqlangan xujjatlar bilan qog'ozga tushirib, risola qilib topshirish uchun bir necha oylar va yillar tinim bilmasdan, qat'iyat va mehr bilan izlanishda bo'lgan tilshunos olim, filologiya fanlari nomzodi, dotsent, ajdodlarining munosib namoyondasi Baxtiyaxon Oripovna Shamsiyeva (Baxritdinovna)ning "Xoji Orifxo'ja Bahritdinov sulolasi" (Yodnoma) risolasini har gal qo'limga olganimda to'lqinlanib ketaman. Oddiy ziyoli, o'qimishli, umri halol mehnat bilan o'tgan oilaparvar Orifxo'ja farzandlarini ona yurtiga, xalq koriga yaraydigan kasb egalari qilib tarbiyalab yetishtirgan chuqur ildizli, baquvvat, sershox oila daraxtining mevalari bugungi kunda nafaqat oilaga, yurtimizning kelajagi uchun turli sohalarida o'z mehnatlarini chin dildan, xolisona bajarib kelayotganiga havas qilsa arziydi, desam, mubolag'a bo'lmaydi.

Men Orifxo'ja va Oyshaxon Baxritdinovlar oilasiga kelin bo'lib tushganimda, bu xonadonning tartib va qoidalariga tez ko'nikib ketdim, chunki bu





oiladagi tartib-intizom, farzandlar tarbiyasi, katta-kichiklarning o'zaro munosabatlari, ota-onaning mehr-muhabbati xuddi ota uyimdagi muhitga o'xshar edi.

Orifxo'ja Baxritdinov 1913-yilda Toshkent shahrida Qoryog'di (ba'zi ma'lumotlarda Qori yog'di deyilgan, keyinchalik Panorama kinoteatri joylashgan) mahallasida savdogar Baxriddinxo'ja Sayfiddinxo'jayev oilasida tavallud topganlar. Bu oilada ikki o'g'il – Yoqubxo'ja va Orifxo'ja, ikki qiz – To'xtaxon va Munavvarxon katta bo'lishgan. Orifxo'ja umr yo'ldoshi Oyshaxon bilan 1936-yilda turmush qurib, 53 yil birga yashab, besh farzand ko'rishgan. Hayotning past-balandliklari, fojiaiy qatag'on yillari, ikkinchi jahon urushining qiyinchiliklariga sabr qilib, halol mehnat bilan farzandlarini o'qitish, ta'lim-tarbiyasiga, xulq-odobiga, kasb-hunar tanlab komil inson bo'lib yetishishlariga katta e'tibor berishgan. Orifxo'ja qaynotam 1934-yil Rossiya oliy o'quv yurtida iqtisod bo'yicha tahsil olganlar, qaynonam Oyshaxon esa 1935-yil hamshiralik yo'nalishida o'qiganlar. Qaynotam san'at va she'riyatning ixlosmandi bo'lib, garchi musiqa yo'nalishida o'qimagan bo'lsalar-da, fortepiano chalib, mumtoz qo'shiqlar kuylardilar. Shu sababdan bo'lsa kerak, oilada ta'lim-tarbiyaga, oliy ma'lumotli bo'lishga, san'at, musiqa, she'riyat, kitob mutolaasi va tillarni o'rganishga ixlos qo'yilganligi natijasida, beshta farzandning hammasi turli sohalarida yetuk mutahassis bo'lib yetishdilar. Bir o'g'il va to'rt qiz iqtisodiyot, geografiya, ekologiya, tibbiyot, musiqa san'ati va xorijiy tillar filologiyasi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borib, fan doktori, professor ilmiy darajasiga erishdilar va hozirgi kunga qadar xalq xizmatidalar.

Qatog'on yillari ota, aka-uka, farzandlaridan ayrilgan ko'p ziyoli, o'qimishli, tadbirkor oilalar qatori savdogar Baxriddinxo'ja otaning oilasi ham katta o'g'illari Yoqubxo'ja Baxriddinxo'jayevni jadidlarga homiylik qilgan, ularning vatanparvarlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlaganlikda ayblab, nohaq qamalishidan, ayriliqdan qattiq azob chekkanlar. *“Orifxo'ja otamlarning shajaralarni tuzayotganda, Yoqubxo'ja amakimlar haqida hech qanday ma'lumot yo'qligiga hayron bo'lgandim. Bir hecha bor ajdodlar shajarasi yozilishiga qaramay, Yoqubxo'ja Baxriddinxo'jayevning taqdiri haqida to'liq ma'lumot topilmagandi. Otamlar bu mavzuda gapirishni lozim topmaganlar”,* – deb yozadi Baxtiyaxon qizlari [1].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan jadidlar tarixini, ularning passionarlik¹

ahamiyatini o'rganish uchun yillar davomida maxfiy bo'lgan arxiv materiallar ochib berildi va ularni o'rganish natijasida ko'p mavhum bo'lgan savollarga javoblar topilayapti. Bu xayrli ishlarga jonkuyarlik bilan yondashayotgan “Shahidlar xotirasi” jamoat fondining raisi Baxtiyor Hasanov, izlanishlari va tadqiqotlarini chop etib xalqimizga yetkazish ishida o'z hissasini qo'shayotgan olimlar qatori tarix fanlari doktori Bahrom Iruzayevning sa'y-harakatlari natijasida shahidlarning oilasi va yaqinlariga noma'lum bo'lgan qimmatli tarixiy ma'lumotlar topilyapti. Avlodlar uchun, farzandlarimiz, nabiralarimiz kelajakda o'zligini anglashi, tarixiy o'tmish bilan bog'lab turgan ajdodlarimiz xotirasini qadrlashni o'rganishlari, minnatdorlik, shukronalik bildirib, xalqimizning an'anaviy tarbiya va qadriyatlariga amal qilib, ma'rifat yo'lida kurashib, nohaq qurbon bo'lganlarni unutmazliklariga ma'sulmiz.

O'tgan ajdodlarni xotirlab, ularning yaxshi amallari, qilgan mehnatlari, ko'rsatgan sahovatlarini, quvonchli va qiyinchilikda o'tgan hayotlarini, azobda qolgan oxirlarini eslab, ko'zlarga yosh keladi. Nimaga, nima uchun, degan savollar tinchlik bermaydi. Ammo, bu savollar, tahminlar, asossiz, soxta hujjatlardagi ayblar va jazolar, yurtning taqdiriga, xalqning kelajagiga qayg'urib qurbon bo'lgan, nom-nishonsiz yo'qolgan, qabrlari noma'lum, yillar davomida nomlari tilga olinmay, xalq dushmani deb atalib kelgan insonlarning taqdirlari nega bunday fojiaiy yakun topdi, degan savollar javobsiz qolaveradi.

Baxriddinxo'ja otaning maydon deb atalgan xonadonining sathi katta va keng, bog' va atrofi gir aylana qator uylar bilan o'ralgan bo'lib, ota chor hukumati yer, mol-mulkleri, uy-joylarini musodara qilib tortib olgan hamma yaqin qarindosh, jigarlar, amakilar, opa-singil, jiyanlarning oilasini bir jam qilib, yerlari va uy-joylarini bo'lib berganlar. Har bir oilaning ro'zg'orini tebratishi uchun kichkina bo'lsa ham o'z yeri bor edi. Maydonda bir necha oila hamjihatlikda, totuvlikda yashar edilar. Ko'pincha, kechalari Yoqubxo'janing do'stlari uyning bolaxonasida yig'ilishib, gurunglashardilar. O'sha davrlarda katta ammaning yetti-sakkiz yasharli qizlari Mahsuda opa shu kunlarni eslab gapirib berar edilar: *“Maydonning darvozasi doimo ochiq turar, bir kimsa kirsas, tepasida osilgan xalqa taqillab, belgi berardi. Biz otam, amakimlar yoki mehmon kelganini darrov bilardik. Choshgohda Abdullajon aka kelib, yo'lak tepasida joylashgan ikki xonali bolaxonaga yog'och zinalardan chiqib ketar edilar. Zinalarning g'irjillashidan Abdulla akani kelganlarini bilib, uydagi ayollar darrov choy damlab berishar, men esa sekingina zinalardan chiqib, kiraverishdagi eshikni qiya ochib, choynakni qo'yib kelar edim. Bolaxonadagi*

¹ Passionar – ehtirosli; Passionarlik – ehtiroslilik, maqadga etishish yolidan shaxsiy hyotdan ham kechib kurashish (mallif tarjimas).



**Yoqubxo'ja BAXRIDDINXO'JAYEV**

oynavand tokchalarda kitoblar ko'p bo'lib, qog'oz-qalamlar, choynak piyolalar qo'yilgan, yozda kursi, qishda esa tancha atrofida o'tirilar edi. Kechroq Yoqubxo'ja tog'amni bir necha do'stlari yig'ilishib gurung, bahs boshlanar, adib Abdulla Qodiriy yozgan asarlarini o'qib berardilar va uni qizg'in muhokamasi, ba'zan, she'rxonlik tonggacha davom eratdi. Endi, kichik Orifxo'ja tog'am, o'z navbatlarida, ularga non, qand-qurs va choy tashib charchardilar".

Yoqubxo'ja Baxriddinxo'ja o'g'li 1893-yil Toshkentning Qoryog'di mahallasida taniqli savdogar Bahriddinxo'ja oilasida dunyoga kelgan bo'lib, avval jadid maktabida, keyinchalik rus-tuzem maktabida ta'lim oldilar. Maktabda Abdulla Qodiriy bilan tanishib, qattiq do'stlashib qoldilar. Ikki do'st kelajakdagi rejalari va orzu-tilaklari bilan o'rtoqlashardilar, xalqning og'ir hayoti, nohaqliklar haqida o'ylab, fikrlashar edilar.

Yoqubxo'ja 1914–1917-yillar otasi bilan Moskva va Peterburg shaharlarida ipak mahsulotlari hamda qimmatbaho toshlar savdosidan kelgan daromadi orqali xayrli ishlar qilib yo'qsillarga yordam berar, bir qismini Toshkentdagi jadid maktablarining o'quv jihozlari va kitoblarini hashr qilish bilan qo'llab-quvvatlashga yo'naltiradi. U "Sho'roi islom" firqasi a'zosi bo'lib, jadid taraqqiyparvarlarning xayriya tadbirlarida faol ishtirok etadi. Yigirma besh yoshli Yoqubxo'ja 1918-yilning avgustida Munavvar qori Abdurashidovning olti oylik muallimlar kursini tashkillashtirish uchun, G'ozii Yunusning "Toshkent musulmonlar sho'rosi jamiyati"ni rivoji uchun, Akmal Ikromov rahbarligidagi "Muallimlar jamiyati" va bir qator boshqa ma'rifiy jamiyatlarga xayriya qilgan, yosh bo'lishiga qaramay uning nomi saxiy boylar ro'yxatidan joy olgandi.

**Abdulla QODIRIY**

1921-yil Yoqubxo'ja Baxriddinxo'jayev Eski shahardagi kutubxonada, 1922–1928-yillarda Buxoro viloyati savdo konsulligida, so'ng "Usmon" savdo o'rtoqlik jamiyatida, keyinchalik "Saidov" o'rtoqlik savdo jamiyatida mudir lavozimida ish olib borganlar. 1929-yilda Moskvadan uskunalar keltirib, mutaxassislarni jalb etib, Toshkentda "Beshbarmak" nomli makaron korxonasini ishga tushiradilar. Albatta, jadidchilarga xayrihox bo'lganlarning har qadami, harakatlari qattiq nazoratda bo'ib, 1929-yilda Yoqubxo'ja hibsga olingan, GPU tomonidan qattiq tahdid ostida Munavvar qori Abdurashidxonovni kuzatish uchun "Sakkizinchii" shartli nom berib uni yollashga harakat qildilar. Qo'rqitishlar, tazyiqlar ostida bo'lishlariga qaramay Yoqubxo'ja hech qanday axborot yetkazmaydi.

Yoqubxo'ja amaki nafaqat o'zbek taraqqiyparvarlarning, balki tatar qardoshlarimizning ham qadrdoni, do'sti bo'lib, ularga ma'naviy va moddiy yordam berganlar. "Islom alifbosi" asarining muallifi – yozuvchi, shoir va olim Muso Jorulloh Begiyev Toshkentda bir muddat hibsdan saqlanganida Yoqubxo'janing ukasi, ya'ni Orifxo'ja ularga har kuni ovqat olib borar, Moskva va Leningradda uy qamog'i sharoitida o'ta og'ir ahvolda yashagan yillarida muntazam ravishda pul yuborib turganlar.

Yoqubxo'ja xayriya ishlarini hech susaytirmay 1928-yilda "Hazrati Muhammad", "Qur'oni nodir", "Hazrati Umar" nomli kitoblarning har birini 200 nusxadan pochta orqali sotib olganlar va ularni Turkiston musulmonlariga bepul tarqatganlar. Shu yillarda Moskvada davlat nashriyoti rahbari bo'lgan mashhur adib va olim Fotih Karimiy bilan tanishib, Karimiy orqali o'sha yerda ta'lim olayotgan o'zbek



talabalariga doimiy ravishda pul, quruq meva, issiq kiyimlar jo'natib turar ekanlar.

Yoqubxo'ja amakimiz Zuleyha Akchurinaga uylangan edilar. Zuleyhaning tug'ishgan opasi Zuhra taniqli olim, ma'rifatchi, zakiy inson Ismail Gasprinskiyning ayoli bo'lganlar. Xalq orasida madaniyat va ma'rifat tarqatish yo'lida "El onasi" deb tanilgan Zuhra Gasprinskaya boshlagan ishlarini qizlari Zaynab davom ettirgan. Zaynab ham ota-onasi kabi ayollar uchun gazeta va jurnallar nashr etgan. 1928-yil Yoqubxo'ja Qrimga borib, Ismoil Gasprinskiy muzeyida bo'ladi. Uning qizi Zaynab (Jesika) Gasprinskayani topib, unga ham otasining ishini davom ettirayotgan faoliyatida moddiy yordam ko'rsatadilar.

1929-yil Yoqubxo'ja Baxriddinxo'jayev qamoqqa olindi va unga "Milliy ittihad" a'zosi Munnavar qori Abdurashidxonov, Salimxon Tillaxonov, Eshonxo'ja xoniylar bilan: "Aksilinqilobiy maqsadda aloqada bo'lgan", – deb "O'zSSR JKning 58-10, 66-moddalari bilan ayblov qarori"ni tutqazishgan. Yoqubxo'jaga: "Tasdilayman, deb imzo qo'y", – deb so'ralganda, u qarorning o'ziga: "Men tomon tuhmat, mutlaq rozi emasman", – deb qo'l qo'dim. "Tuhmatga chidolmayman, hozir so'ralmay otilishimni aytib, Baxriddinov", – deb yozib imzolab qaytaradi.

So'roqda aybiga birorta dalil topolmagan tergovchi ikkinchi masala, Yoqubxo'janing himmati va homiyligi masalasiga o'tadi. Shunda Yoqubxo'ja: "Men dindor odamman, shunga zakotimni hamisha qashshoqlarga, olimlarning kitoblarini chop etishga ulashib kelganman. Buning uchun hech og'rinmay pul sarfladim", – deydi.

Muso Begiyevga "Hazrat" deb juda katta hurmat ko'rsatib yozgan xati haqida so'rashganida: "Muso Begiyev ulug' olim. U kishini ustozim deb bilaman va doimo moddiy qo'llab-quvvatlaganman. U kishi: "Sovetlar endi savdo-sotiqqa yo'l qo'ymaydi, endi bor davlatingni millat koriga sarf et", – deb nasihat qilgan edilar. Shunga xayriya ishlarimni ko'paytirganman" [1], – deb javob berganlar.

Yoqubxo'ja Bahriddinxo'jayev dastlabki so'roqdan so'ng barcha qo'yilgan ayblarni rad etganiga, tasdiq topilmaganligiga qaramasdan "Milliy ittihad" a'zosi va "aksilinqilobiy maqsadda harakat qilgan", – deb O'zSSR JKning 58-10, 66-moddalari bilan ayblanib qamalgan.

"Yoqubxo'ja Bahriddinxo'jayev ko'rsatilgan ayblovlariga qaramay, 1937-yil 5-noyabr kuni O'zSSR IIXK huzuridagi "uchlik" qarori bilan oliy jazoga hukm etilgan.

Yoqubxo'ja Bahriddinxo'jayev 1989-yil 22-avgustda O'zSSR oliy sudi tomonidan oqlangan va bu haqidagi xabarnoma uning oila a'zolariga yollangan".

Hurmat bilan,

"Shahidlar xotirasi" jamoat fondi raisi (imzo)

B.V.Xasanov [2].

Yoqubxo'ja amakining qilgan xayriya va savob ishlaridan, hibsda gapirgan shu so'zlaridan tashqari oilalariga, farzandlariga yana bitta yodgorlik, Jamolxon volidalarining vafoti haqida eshitib, qamoqdan o'z qo'llari bilan yozgan marsiya xatlari qolgan:

"..Madhing uchun yona-yona qancha yozsam, oz o'lur,

Qish tamom bo'lguncha yozsam, bitmaydir-u, yoz o'lur.

Seni qayg'u hasrating chun bul jahon ham tor o'lur,

Padar-u modarni qadrin bilmaganlar xor o'lur,

Xayr endi, Ya'qubingdan rozi bo'lg'in, jon onam."

(parcha)

Tarix vafot 1937-yil 20-fevral.

"Tug'ilmoq – o'lmoqning xabaridir"


Ma'rifatparvar va saxovatpesha inson, Yoqubxo'ja Bahriddinxo'jayev 44 yillik hayotining sakkiz yili hibsda o'tgan qisqa umri davomida qilgan savobli ishlarini inobatga olgan holda, uni millatimiz fidoyi qahramonlarining yorqin vakili sifatida va shahid maqomida xotirlashga, qadrlashga hamda barcha uchun namuna bo'lishga loyiq inson bo'lganlar.

Ularning ruhlarini avlodlari shod etib, Qur'on tilovat qilganlarida ozgina bo'lsa ham qalblari yorishadi, yuraklari taskin topadi. Chunki bu kunda ularning nomlarini tilga olib eslashimiz, yurtimiz, o'zbek xalqimiz va nomimizning kelajagi uchun qurbon bo'lgan ma'rifatparvar, saxovatpesha insonlarning nomlarini eslashimizga, ular haqida yozib avlodlarga qoldirishimizga imkon yaratilganiga shukronalar aytamiz. Lekin shunday xotiralar borki, o'tgan ajdodlarini tez-tez eslab turish kelajakda farzandlar, nabira va evaralar uchun katta saboq va oila, ajdodlar maktabi bo'ladi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shamsiyeva B. "Xoji Orifxo'ja Bahritdinov sulolasi" (Yodnoma). – T.: 2023-y.
2. "Shahidlar xotirasi" jamoat fondi. 10011 Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 69-uy. №28. 1922-yil, 14-fevral.





So'zdagi xatti-harakat, temporitmni aniq tushuntira olishi uchun har bir talabani o'zidan kelib chiqib topshiriq beradi, natija chiqmagunga qadar erinmasdan bir necha voqealarni misol qilib asar olamiga olib kira oladi. Xotirani ishga solish, tasavvur va fantaziya, fikr izchilligi bilan bir-biriga bog'lab, ijroni san'at darajasiga yetkazib qo'yadi.

2008-yilda institutga o'qituvchi bo'lib qabul qilinishiga ham ustoz Ramz Qodirov sababchi. Birgalikda turli kurslarda mashg'ulot o'tkazdik, hammasi har xil mashqlar, bir-birini takrorlamaydigan. Lekin natijasi aynan kutilgandek jarangdor, ishchi ovozni sof, ravon yangrab turishi.

Talabalar o'qishga qabul qilinganidan so'ng, ularning tilidagi nuqsonlarini aniqlash va uni yo'qotish sahna nutqi o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Ayniqsa, S-Z tovushi, ba'zilarida R titroq tovushi, Sh-Ch tovushlarida talaffuz buzilishlarini sezib, individual mashqlar o'tishga to'g'ri keladi. Bugungi kunda yoshlarimizning tepa va pastki jag'i me'yorda ishlamasligini ustoz ko'p aytadi. Yakka darslardagi mashg'ulotning ancha vaqti shu ishlarga sarf bo'ladi.

Men 2-bosqich musiqali teatr aktyorligi yo'nalishi guruhida reyting nazorati uchun aynan Ramz Qodirov metodini qo'llayman. Ovoz jarangini topish uchun SPTR-ZBTR, KPTR-GBDR, CHIRICH-JIRICH va hokazo. Oddiylikdan murakkablikka qarab yo'naltiriladigan turli so'zlardan foydalanaman. Masalan, "Yallala bobo yallida" ikki qatordan takror keladigan so'zlar matn so'nggiga qadar ancha murakkablashib boradi, bunda talaba talaffuzini ishlashga keng imkoniyat bor. Musiqali teatr yo'nalishi bo'lganligi uchun DO-MI-SOL notalarida fortepianodan foydalangan holda guruh bo'lib ishlash, musiqiy ohangdorlikni ushlab tura olish, qo'shiq qilib kuylay olish, bolalar yanada erkin bo'lishlari uchun xalq qo'shig'i "Chipra dalli-dalli" bilan keyingi katta mavzudagi she'riyat rukniga o'ta olish mumkinligini, bu ham ustozning alohida bir metodi, deb bildim.

3-bosqich talabalari uchun aruz vaznida ruboiylar, g'azallar ishlash jarayonida ham Ramz Qodirov yana bir qancha yangiliklar bilan ish boshlaydi. Ovoz jarangini topib olish uchun, avvalo, ovozni qizdirib olish kerak. Hamma talabalar aylana hosil qilib, darveshona aytimni takrorlaydilar. Masalan, Mashrabona, darveshona yo'ldan ketayotgan ishq oshiqlari, yo'lovchilar "Yo Allohu, yo Alloh, Haq do'st yo Alloh..." kabi rechitativ va kuyga monand turli diapozonda, registrlarda ishlash, xatti-harakat qilish bu ham tana mushaklarni bo'shatish bilan bir qatorda ovozni maromiga yetkazish uchun xizmat qiladi. Men

ham ustoz yo'lidan borib, X.Salohning:

***Ey o'g'il, haddingda tur,
Otang seni sotganda ham,
Inchunun mushfiq onangni,
So'zlari botganda ham,*** – hamda Uyg'unning:
***Ey muqaddas gul diyorum,
Shavkatim shonim mening,
Men sening bag'ringda o'sdim,
yo'qdir armonim mening,*** – kabi she'rlardan

foydalandim. Unli va undosh tovushlar aniq yangrashiga oid olingan matnlardan foydalandim va yaxshi natija olindi. Professor-o'qituvchilarning o'zaro darslarga qatnashish jarayonini kuzatish, reyting nazoratlari va ochiq darslarda olingan fikr-mulohazalarga tayanib, kamchiliklarni to'g'rilay olish mumkinligini his qildim.

Ustoz Ramz Qodirov kitob mutolaa qilishni sevadi. Mehnatdan qochmaydi. Ustoz-shogird an'anasiga eng munosib tarzda ish ko'radigan ijodkor. Professor Nasrullo Qobil bilan bizning kursimizda Molyerning "Zo'raki tabib" diplom spektaklida, N.Qobil asari "Olis va yaqin afsona" ("Ibrohim Alayhissalom tavalludlari") asarini sahnaga olib chiqish jarayonlarida ham sahna nutqi va aktyorlik mahorati o'qituvchisi bo'lib ish olib bordi.

Ustoz 2023-yil "Sahna nutqi" darsligini nashr ettirdi. Ana shu darslikdan ham ko'plab yangi ma'lumotlarni olish mumkin. Bu fan teatr san'atining asosiy ifoda vositasi bo'lib, aktyorning obraz yaratishi, yoqimli ovozi, to'g'ri talaffuziga xizmat qilishi, qolaversa, bugungi kunda ko'plab jabhalarda o'qitilishi, o'rganilishi kerakligi haqida ham so'z boradi. Ya'ni bog'cha, maktab, umumiy o'rta ta'lim, oliy bilim yurtlari, kadrlar malakasini oshirish tarmoqlarida; Yakka so'z ijrochiligi teatr, kino, radio, dublyajda; Madaniyat tarmoqlarida notiqlik, yuridik yo'nalishlarda sudya, advokatura tizimida; Armiya, qo'mondonlik va hokazo. Ushbu darslikda ustoz Ramz Qodirov sahna nutqining rivojlanish omillarini ham ko'rsatgan holda ularni alohida davrlarga bo'lib, tarixi bilan yoritib bergan. Notiqlik, voizlik, go'yandalik, baxshichilik, imomlik, qiroatxonlik, qasidaxonlik, qissago'ylik, badihago'ylik, qiziqchilik va badiiy so'z ustasi kabi yo'nalishlarga keltirgan. Shularning barchasida sahna nutqi fanida avvalgi ustozlar yaratgan adabiyotlardan foydalanib, ilg'or tajribalarga yangicha yondashuv bilan kerakli ma'lumotlarni bayon etgan. Men shularni yon daftarimga qayd etib qo'ydim. Aslida ustoz ko'plab mavzularni menga ilingan holatlari juda ko'p. "Sen izlan, sen yoz shuni, bu seniki, boshlovchilikka mos keladigan ishlaringni misol qilib ko'rsatasan", – deb undaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov R. Ko'ngildan o'tkazganlarim. – T.: "Fan va texnologiya", 2009.
2. Qodirov R. Rejissura asoslari (O'zbekiston xalq artisti Bahodir Yo'ldoshev ijodi misolida). – T.: "Navro'z", 2015.
3. Qodirov R. Aktyorlik mahorati. – T.: "Navro'z", 2018.
4. Qodirov R. Sahna nutqi (Darslik). – T.: "Zamon poligraf", 2023.
5. Magdiyev B. Taqdirim – radioboshlovchilik. – T.: "Tafakkur", 2021.
6. Magdiyev B. Sahna nutqi. – T.: "Zamon poligraf", 2023.





Mahbuba ISMOILOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti professori v.b.,
pedagogika fanlari nomzodi

SAODAT QOBULOVA: MILLIY OPERA SAHNASINING BETAKROR MALIKASI

Annotatsiya. Saodat Qobulova o'zining noyob lirik-koloraturali soprano ovozi bilan xalq va professional musiqa an'alarini muvaffaqiyatli uyg'unlashtirib, o'ziga xos ijrochilik maktabini yaratgan san'atkor. Mazkur maqolada o'zbek vokal san'ati namoyandasi Saodat Qobulovaning ijodiy yo'li, musiqiy mahorati va san'atga qo'shgan hissasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: musiqa, vokal, qo'shiq, opera, ijod, ovoz, asar, san'at, san'atkor.

Аннотация. Саодат Кобулова — артистка, которая с помощью своего уникального лирико-колоратурного сопрано успешно соединила народные и профессиональные музыкальные традиции и создала свою уникальную исполнительскую школу. В статье рассматриваются творческий путь, музыкальное мастерство и вклад в искусство представительницы узбекского вокального искусства Саодат Кобуловой.

Ключевые слова: музыка, вокал, песня, опера, творчество, голос, произведение, искусство, артист.

Annotation. Saodat Qabulova has successfully combined the traditions of folk and professional music with her unique lyrical-coloratura soprano voice and created her own school of performance. This article provides detailed information about the creative path, musical skills and contribution to art of Saodat Qabulova, a representative of Uzbek vocal art.

Keywords: music, vocals, song, opera, creativity, voice, work, art, artist.



O'zbekiston san'ati tarixida yorqin iz qoldirgan ko'plab san'atkorlar orasida Saodat Qobulovaning nomi alohida o'rin tutadi. U o'zining betakror ovozi, yuksak mahorati va sahnaviy obrazlari bilan nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham katta shuhrat qozongan. Uning ijodiy merosi milliy operaning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, keyingi avlod san'atkorlari uchun ilhom manbayi bo'lib xizmat qilmoqda. Ustozning ijodi milliy musiqa madaniyatida katta ahamiyatga ega bo'lib, o'zbek xalqining musiqa an'alarini zamonaviy uslublar bilan birlashtirib, o'zining alohida maktabini yaratdi.


Saodat Qobulova 1925-yil Marg'ilonda tug'ilgan. U ilk musiqa saboqlarini musiqani sevuvchi ota-onasidan olgan. Bolalik chog'idayoq u dutor chalishni va xalq professional san'ati ustalaridan eshitgan qo'shiqlarni kuylashni o'rgangan [3,16-b]. Shu asnda Saodatda kelajakdagi professional faoliyati uchun asos bo'ladigan omillar rivojlana boshlagan, jumladan, musiqiy eshitish qobiliyati, ritm hissi, xotira va ijro etayotgan asarga emotsional ta'sirchanlik kabilar. Uning ijrochilik mahorati Marg'ilondagi qishloq teatrining konsert brigadasida, mashhur o'zbek milliy musiqasi xonandalari Jo'raxon Sultonov va Ma'murjon Uzoqov rahbarligida muntazam ravishda rivojlanib borgan.

"Saodat Qobulova 16 yoshidan boshlab Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida faoliyat yuritib boshladi. Uning ijodiy faoliyatining shakllanishiga

o'zbek milliy musiqasining yorqin namoyandalaridan biri Toxtasin Jalilovning mehnatlari katta bo'ldi" [2,71-72-b]. U 1959-yilda O'zbekiston xalq artisti unvoniga sazovor bo'lgan. Saodat Qobulovaning ijodi o'zbek xalq musiqa an'alarini zamonaviy tomonga burishda muhim rol o'ynadi. U o'z repertuarini an'anaviy xalq qo'shiqlari, klassik asarlar va zamonaviy kompozitsiyalar bilan boyitgan lirik-koloraturali soprano ovozi sohibasidir.

Saodat Qobulova o'zbek xalq va chet el vokal ijodining eng nozik tomonlarini o'rganadi va akademik xonandalik maktabi bilimlarini o'zida uyg'unlashtiradi. Bu unga o'zbek xalq qo'shiqlarini, Yevropa, rus va o'zbek kompozitorlarining romanstarini, shuningdek, o'zbek klassik musiqasi durdonalari bo'lmish "Iroq", "Bayot", "Dugoh", "Iroqi Buxoro" kabi asarlarni ijro etish imkonini beradi. Natijada Saodat Qobulova eng murakkab asarlarni ham muvaffaqiyatli ijro etib ko'pchilikni hayratga soladi.

U.D.Puchchinining "Chio-Chio-San" operasidan Batterflyay, J.Bizening "Marvarid izlovchilar" operasidan Leyla, J.Rossininig "Sevilya sarta-roshi" operasidan Rozina, J.Verdining "Traviata" va "Rigoletto" operalaridan Violetta va Jilda kabi jahon opera dasturidagi eng murakkab obrazlarni ham a'lo darajada ijro etgan. Bundan tashqari u o'zbek kompozitorlari operalarida ham asosiy rollarni muvaffaqiyatli ijro etgan, shu jumladan, T.Jalilov va B.Brovsinning "Tohir va Zuhra" operasida Zuhra, R.Glier va T.Sodiqovning "Gulsara" operasida Asal,





T.Sodiqov, B.Zeydman, Y.Rajabiy va D.Zokirovning “Zaynab va Omon” operasida Huri, S.Yudakovning “Maysaraning ishi” operasida Oyxon, M.Ashrafiyning “Dilorom” operasida Dilorom va boshqa rollarni ijro etgan.

Saodat Qobulovaga T.Jalilov va K.Yashinning “Nurxon” nomli musiqali dramasida Nurxon obrazini ijro etishi katta muvaffaqiyat olib keladi. O’sha yillarda yosh xonandani eshitgan va ko’rgan har bir kishi uning musiqa va sahna jozibasini yaxshi his qilishini ta’kidlagan. Xonandaning ajoyib musiqiy xotirasi va ovozining noyob go’zalligini har bir tinglovchi his eta olardi. Ustoz san’atkor repertuarini milliy mumtoz musiqa durdonalari bilan bir qatorda turli janrdagi folklor qo’shiqlari bilan boyitgan. Konsert repertuari ham, teatr repertuari ham xonandadan xalq-professional xonandalarning ko’p asrlilik amaliyoti asosida shakllangan o’ziga xos vokal texnik mahoratga ega bo’lishni talab qilardi. 1948–1954-yillar mobaynida u Moskva konservatoriyasi qoshidagi o’zbek opera studiyasida K.I.Vaskova va D.B.Belyavskayalardan tahsil olgan.

O’qituvchilari uning ovozi xususiyatini tezlik bilan aniqlashga oshiqmadilar. Avvaliga, Saodat Qobulova ovoziga xos bo’lgan ortiqcha kamchiliklarni bartaraf etishga e’tibor qaratib, ular shogirdning butun diapazonda ovoz kuchini ortiqcha ishlatishni to’xtatishga erishdilar. Keyinchalik xonandaning koloraturali soprano sifatida shakllangan ovoz diapazoni uch yillik ta’limdan so’ng ma’lum bo’ladi. Saodat Qobulovaning eslashicha: “O’qituvchimning barcha ko’rsatmalarini yodlab, ariya yoki romansni ma’lum bir qismini bir necha marta kuylar edim, unga to’g’ri ifoda, ovozga e’tibor berib va mazmun

berishga harakat qilar edim” [4,33-b]. Koloraturali soprano yuqori registrni erkin boshqarishni talab qiladi va Saodat Qobulovaga har kuni turli xil mashqlarni takrorlashga to’g’ri kelardi. Saodat lirik-koloraturali soprano ovozi uchun yozilgan asarlar ijro eta boshlaydi.

To’g’ri, tanlangan repertuar xonandaning badiiy shakllanishiga katta ta’sir ko’rsatardi, bu esa vokal-texnikasining takomillashuvi uchun juda muhim edi. Turli asarlarni ijro etganda, vokal texnikasi o’zgarmasdan qolar, faqat asarning uslubi, uning emotsional mazmuni va kompozitor yozish texnikasiga qarab o’zgarishlar kiritilardi. Shu tariqa Saodat Qobulova o’zining orzu qilgan maqsadi sari qadam-baqadam borardi. Bir necha yil o’tgach, studiyadagi ta’lim davomida uning yakka kuylash qobiliyati shakllanadi. Uning ovozi (lirik-koloraturali soprano) chiroyli va yoqimli tembrga ega bo’ldi. Ovozi diapazon bo’ylab yumshoqlik, noziklikka ega bo’lib, sahnada o’zini erkin tutadi va ajoyib rezonans texnikasidan mohirona foydalana boshlaydi.

Xonandaning musiqiy mahorati sahnaviy obraz yaratish jarayonida namoyon bo’ldi. U sahnada o’zini erkin tutishni o’rgandi. Uning tashqi ko’rinishi sahna talablariga juda mos kelardi. 1954-yil Saodat ona vataniga qaytib, Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatrida o’z faoliyatini davom ettiradi. Bu teatrdan T.Sodiqov va R.Glierning “Layli va Majnun” operasida debyut qildi. Unga topshirilgan Jamila obrazi yosh xonandaning debyuti uchun opera mualliflari tomonidan maxsus kiritilgan edi. Hajmi kichik bo’lgan ushbu rolda u vokal-musiqiy obrazni yaratishga muvaffaq bo’ldi.

Tinimsiz ovoz mashqlari, repertuarga jiddiy va e’tiborli yondashuv, tug’ma iste’dod Saodat Qobulovani asosiy qahramonlar partiyasini ijro etuvchi eng yaxshi ijrochilardan biri sifatida tanitdi. Ushbu obrazlardan biri “Tohir va Zuhra” operasida yosh Zuhra obrazidir. Zuhra partiyasini turli avlodlarning san’atkorlari ijro etib kelishgan. Ushbu operaning ilk sahnaga qo’yilishida Zuhraning unutilmas obrazini Halima Nosirova yaratgan edi. U ushbu obrazni Halima Nosirovaning ijro talqiniga o’xshatmaslik uchun ko’p mehnat qildi. Zuhra partiyasi xalq qo’shiqlari ohanglari bilan boyitilgan edi. Ikkinchi akt finalidagi Zuhraning ariyasi “Suv kelar axta, axta” kabi milliy kuylarga asoslangan.



“Xonanda oldida “qanday kuylash kerak?” degan ko’plab muammolar paydo bo’ldi. Ushbu operada xalq professional xonandalari qo’shiqlarini kuylashda qo’llagan uslubni saqlab qolish mumkinmi? Aniqlik, yo’q. Zuhra



partiyasida qo'llangan kuylar boshqa janrga – operaga kirganini hisobga olish lozim edi, bu esa murakkabroq musiqiy-dramatik vositalarni va simfonik rivojlanishni talab qilar edi” [1,161-b].

Xonanda ovozning tembr ranglarini topishga muvaffaq bo'ldi, bu ranglar ovozni chuqurlashtirmaydi, aksincha uni yengillashtiradi. Kuyning tayanch ovozlari sarmazmun tarzda katta mahorat bilan qo'shilgan ko'krak registrida yangraydi. Saodat Qobulovanning vokal ijrosida barcha notalar ovozning pozitsiyasi, kuchi, temбри jihatidan mutlaqo bir xildir, barcha ovozlari bir-biri bilan bir tekis bog'langan. Ovoz tembrlarini mayin boshqarish xonandaga asarning intonatsion mohiyatini ochish imkonini beradi – tembr-semantik ranglar bilan ovozning xarakteri, obrazi, kayfiyatini yetkazadi. Qo'shiqchi o'zini markaziy va past notalarda ovozni zo'riqtirish xataridan saqlay oldi. Bularning barchasi qorin va ko'krak nafasining birlashishi, ya'ni diafragmadan nafas olish bilan amalga oshirildi.

1957–1959-yillarda teatr repertuari o'zbek kompozitorlarining beshta yangi opera asarlari bilan boyidi. “Zaynab va Omon”, “Maysaraning ishi”, “Ulug'bek”, “Dilorom” operalarining paydo bo'lishi zamonaviy vokal ijrochilik san'ati an'alarining rivojlanishiga sezilarli turtki bo'ldi. Bu asarlar Saodat Qobulovanning repertuarini yangi partiyalar bilan boyitdi. Har bir yangi opera partiyasi uning repertuarida muhim o'rin tutadi. Ular orasida eng yorqin va murakkabi Dilorom obrazi bo'lib, u Saodat Qobulovanning mashhur rollaridan biriga aylandi. Ushbu partiyani ijro etish uning 1959-yilda Xalq artisti unvoni bilan taqdirlanishiga sabab bo'ldi. “Dilorom” operasida Diloromning “Qalb yonar” (birinchi ko'rinish) ariyasi taqdim etilgan. Dilorom obrazida uning ovozi yuqori registrlarda tenglikni saqlab, notalarning aniq eshutilishini ta'minlagan. Bu uslub “Ayriliq azobi” (to'rtinchi ko'rinish) ariyasida namoyon bo'lgan.

Tahlil jarayonida shular ma'lum bo'ldiki, “Qalb yonar” (birinchi ko'rinish) ariyasi, “Jonim mening” (ikkinchi ko'rinish) romansi, “Ayriliq azobi” (to'rtinchi ko'rinish) kabi ariyalarda Saodat Qobulova o'zining yuksak vokal mahoratini namoyish etgan. Uning ijrosidagi har bir aspekt nafaqat texnik jihatdan mukammal, balki emotsional jihatdan ham chuqur hissiylikni aks ettirgan.

Keyingi yillarda xonandaning repertuari klassik operalardagi yangi obrazlar bilan boyidi. Bular:

“Rigoletto” operasidagi Jilda, “Traviata” operasidagi Violetta, “Sevilya sartaroshi” operasidagi Rozina obrazlaridir. Bu obrazlardagi o'z qahramonlarining hissiyotlarini tabiiy va haqqoniy tarzda tomoshabinlarga yetkazib beradi. Xonanda bu yerda ham har doimgidek yengil harakatchanlik, beg'ubor intonatsiya, ovoz tembrining go'zalligi va yumshoqligini namoyish qiladi. Vokal imkoniyatlari nuqtayi nazaridan Saodat Qobulovanning ovozi kamdan kam uchraydigan, noyob ovoz hisoblanadi. U o'z yurtdoshlari orasida kam uchraydigan koloraturali soprano ovoziga ega edi. Uning ovoz temбри o'zgacha va go'zal, muloyim va yoqimlidir. Diapazoni qariyb 2,5 oktavani qamrab oladi. Uning ovozi o'z xalqining qo'shiqchilik an'analari va Yevropa vokal maktabining ulkan imkoniyatlari bir butunlikda mujassamlashgan. Milliy qo'shiqchilik an'alaridan u hissiy kuchli ta'sirchanlikni olgan bo'lsa, Yevropa maktabidan (koloraturali soprano) esa vertuoz yengillik, harakatchanlik va nozik nyuanslarni olgan. Texnik erkinlik va vertuozlik ustoz ijrosining ajralmas va muhim jihatlaridan biri bo'lib, bu sifatlarni har bir tinglovchi osonlik bilan payqashi mumkin. Uning ijrosida hech qanday tashqi ta'sirlar, ortiqcha yorqinlik yoki hayajonlanish yo'q.

O'zbekiston musiqa madaniyati asrlar davomida boyib kelayotgan, milliy va zamonaviy unsurlar uyg'unlashgan betakror merosdir. Milliy musiqaning rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo'lgan ijrochilik san'ati, xususan, vokal ijrochiligi bu merosning eng yorqin jihatlarini aks ettiradi. O'zbek vokal san'ati mumtoz maqomlar, xalq qo'shiqlari va zamonaviy janrlarni qamrab olib, o'zining estetik mazmuni va texnik uslublari bilan nafaqat mahalliy, balki xalqaro maydonda ham o'ziga xos o'rin egallaydi. Bugungi kunda o'zbek vokal san'ati oldida turli yuksak vazifalar turibdi: milliy an'analarni saqlab qolgan holda zamonaviy tendensiyalarni muvaffaqiyatli uyg'unlashtirish, ijodiy izlanishlar orqali yangi iste'dodlarni kashf etish va ularni yetuk mahorat darajasiga yetkazishdir. Ushbu maqsadlarga erishish yo'lida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ta'lim tizimini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbek vokal san'atini yanada rivojlantirish, uning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish va yangi avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasida yangi istiqbollar ochilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy ishlar davom ettirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пеккер Я. Узбекская опера. – М.: 1963 г. – 161 с.
2. Рыжина А. Жизнь – песня. – Т.: Издательско-полиграфический творческий дом им. Гафура Гуляма, 1977 г. – 71-72 с.
3. Сраджева О. Педагогические принципы Кабуловой. – Т.: 1996 г. – 16 с.
4. Юлдашбаева Т. Мастера узбекской оперной сцены. – Т.: Издательско-полиграфический творческий дом им. Гафура Гуляма, 1985 г. – 33 с.



USTOZ IBRATI

Annotatsiya. *San'atga, ayniqsa, teatr san'atiga kirib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash rejissyor pedagogning ijodiy faoliyati, mahorati va insoniy fazilatlariga bog'liq. Ushbu maqolada shunday fazilatga ega bo'lgan pedagog, rejissyor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Hamida Mahmudovaning ilmiy-ijodiy faoliyati haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *ma'rifat, monografiya, sintez, rejissyor, psixologiya, individual.*

Аннотация. *Воспитание молодого поколения артистов, постигающих искусство, особенно театральное, зависит от творческой активности, умений и человеческих качеств режиссера-педагога.*

Ключевые слова: *просвещение, монография, синтез, режиссер, психология, личность.*

Annotation. *The upbringing of the younger generation of artists entering the arts, especially theater, depends on the creative activity, skills and human qualities of the director-teacher.*

Keywords: *enlightenment, monograph, synthesis, director, psychology, personality.*



Filologiya fanlari nomzodi Rahimboy Jumaniyozov "Bilim bilan ma'rifatning tutqichi, ilm ila ikki dunyo ochqichi" deb nomlangan maqolasida shunday yozadi: "Teatr san'ati haqida gap ketga, tomoshabinning nigohi tushadigan, jamoaning bahosi beriladigan asosan ikkita tushuncha muhim ahamiyat kasb etadi. Biri joyni anglatga, ikkinchisi chiroyni anglatadi. Boshqacha aytganda, buning birinchisi sahna bo'lsa, ikkinchisi, nutqdir. Ko'rinish va kiyinish, nutq va xulq, bir so'z bilan aytganda o'zlik va so'zligingiz go'zallik qonuniyatlariga qurilishi chinakam nafasatni, inja san'at mohiyatini bildiradi" [1].

Ana shu fikrlar aynan bugungi kunda tinmay ijod qilayotgan, pedagog-rejissyor sifatida yosh iqtidor egalariga bilim berib kelayotgan Hamida Mahmudovaga tegishlidek nazarimda. Chunki sahna madaniyati, nutq mahorati, avvalambor, axloqiy mezonlarga, yuksak ma'naviyatga tayanadi. Ta'limning tayanchi nutq bilan, tarbiyaning tayanchi esa xulq bilan o'lchanadi. Nutqiy va xulqiy madaniyatga ega bo'lmagan insonni komil, avlodni esa barkamol, deb bo'lmasligi ayon.

Teatr va kino san'atiga oshufta yoshlar qatorida men ham bor edim. Shu orzu-havas bilan 1982-yil N.Ostrovskiy nomidagi teatr va rassomlik san'ati institutiga kirib, soha sirlarini o'rgana boshladim. H.Mahmudovani o'sha yildan e'tiboran taniy boshlagan bo'lsam, hozirda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida pedagog sifatida bir safda mehnat qilmoqdamiz. Ustoz 2022-yilda chop etgan «Воспитание творческой личности» deb nomlangan monografiyasida o'sha davrni shunday eslaydi: "1982-yilda avvalari qo'g'irchoq yo'nalishida dars berib kelgan Nikiforova Nadejda Pavlovna Drama va kino aktyorligi kursini qabul

qilgan. Ustoz meni ana shu kursda birga ishlash uchun taklif qilganlarida xursand bo'lgan edim. Esimda, o'sha yili bu yo'nalishga 400dan ortiq abituriyent hujjat topshirgan bo'lib, uch bosqichli sinov imtihonlaridan faqat iqtidorli 28 nafar talaba qabul qilingan edi. Ushbu kurs nimasi bilan esda qolgan, degan savolga shunday javob berish mumkin. Birinchidan, iqtidorli talabalarning jamlanuvi; ikkinchidan, to'rtta diplom spektaklni sahnaga olib chiqishdir. Bular: A.Valodinning "Oq ilon", M.Gorkiyning "Vassa Jeleznova", B.Nushichning "Ministr xonim", M.Karimovning "Insoniylikka nomzod" pyesalaridir. To'rt yillik tahsil jarayonida kurs talabalari mahorat darsini to'liq o'zlashtirganliklari sababli, deyarli ko'p bitiruvchilar hozirgi kunda san'at va madaniyat sohasida ishlamoqdalar".

Aktyorlik fanidan saboq berish murakkab jarayon. Bunda pedagog barcha maxsus fanlarni, xususan, rejissyorlik, sahna nutqi, psixologiya, plastika san'ati kabi turlarni chuqur bilmog'i, hodisalarning mohiyatini atroflicha tahlil qilmog'i, ijodiy fikr yuritish salohiyatiga ega bo'lmog'i kerak. Bunday tajribaga yillar davomida erishiladi. Va har bir pedagogning o'ziga xos uslubi, yondashuvi bor. H.Mahmudova monografiyada o'qituvchi, aktyor va rejissyorlik kasbini o'rganish bo'yicha amaliy tajribani ham keltirganki, bu yo'l mashaqqatli, shu bilan birga doimiy izlanishlar natijasi ekanligini ta'kidlaydi. Ustoz pedagogik faoliyati davomida 20 ga yaqin kurslarda, 200 dan ortiq talabalar bilan ijodiy ish olib borib, amaliy tajribalarini tahlil qildi.

Professor Hamida Mahmudova 1947-yil 3-iyunda Farg'ona viloyati, Marg'ilon shahrida ishchilar oilasida tug'ilgan. 1965-yilda Toshkent davlat teatr



va rassomlik institutining Drama va kino aktyorligi bo'limiga o'qishga kirgan. Mazkur institutni 1969-yilda bitirgan. 1969-yildan 1973-yilga qadar O'zbekiston radiokanalida ishlagan. 1974-yildan 1979-yilga qadar O'sh viloyat teatrida, Samarqand shahri Hamid Olimjon nomidagi drama teatrida aktrisa bo'lib ishlagan. 1979-yildan sobiq teatr va rassomchilik institutida "Drama va kino san'ati" kafedrasida aktyorlik mahorati, rejissyorlik san'ati, sahna nutqi fanlaridan dars berib kelgan. 2005-yildan 2011-yilgacha "Drama va kino san'ati" kafedrasida mudirlik qilgan. Ayni shu yillarda ta'limning sifat bosqichiga o'tish davrida aktyorlik mahorati, rejissura fanlarining barcha yo'nalishlari bo'yicha davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari, fan dasturlari va o'quv-metodik majmualari ustida faol ish olib borgan. 2011-yildan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Musiqali, dramatik teatr va kino san'ati" kafedrasida dotsent, 2016-yildan esa professor v.b. lavozimida ishlab, kurs ishlari, malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyalarga rahbarlik qilib kelgan. H.Mahmudova teatr, kino sohasida ko'plab mahoratli kadrlarni tayyorlagan. Uning shogirdlari rus akademik drama teatrida, "Ilhom" teatr studiyasida, Milliy akademik drama teatrida, Yosh tomoshabinlar teatrida, "O'zbekkino", televideniye va radio sohasida hamda ko'plab xorijiy mamlakatlar teatr jamoalarida faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar. O'rindosh sifatida ko'p yillar davomida Yosh tomoshabinlar teatrida, O'zbekiston davlat drama teatrida rejissyor sifatida ishlab kelgan. Rus Akademik drama teatrida ham sahna nutqi va aktyorlik mahorati bo'yicha dars olib borgan.

Instituto'quvteatrida20danortiqo'zbek,rushamda G'arb dramaturglarining asarlarini sahnalashtirgan

bo'lsa, Milliy teatr sahnasida E.Xushvaqto'vning "Qalliq o'yin", Farg'ona rus teatrida L.Ustinovning "Sevgisiz shahar", Rus akademik drama teatrida A.Galinning "Tonggi yulduzlar", D.Steynbekning "Odamlar va sichqonlar", O'zbek davlat drama teatri sahnasida J.Mahmudovning "Sadoqat", Yosh tomoshabinlar teatrida T.Murodning "Ot yig'lagan tomonda", L.Ustinovning "O'rmon qo'shig'i", shuningdek, teatrlashgan yubiley kechalari va Yangi yil bayram tomoshalarini sahnalashtirgan. Qo'qon, Farg'ona, rus teatrida ham spektakllar sahnalashtirilganki, ushbu asarlar uzoq yillardan beri teatr repertuaridan tushmay tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lib kelmoqda. Hamida Mahmudova institut o'quv teatrida sahnalashtirgan O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf hayoti va ijodiga bag'ishlangan "Mangu osmon" spektakli professor-o'qituvchilar e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Aktyorlar guruhini tanlashda Hamida Mahmudova sahnaviy ovoz, nutqiy ravonlik, mantiqiy fikrga egalik kabi jihatlarga alohida e'tibor qaratadi. Asarni o'qish davomida talabalarga har bir so'z va she'rning tub mohiyatini tushuntirishga erinmaydi. So'z va she'rdan ma'no qidiradi. She'r va matnlar ustida ishlaganda urg'u va asosiy ma'noni ochib beruvchi so'zlarga tayanish hamda ularni boshqa so'zlarga nisbatan alohida intonatsiya bilan talaffuz qilishni ko'p bora takrorlaydi. Shuningdek, ustoz professor L.Xo'jayevaning so'z ustida ishlash borasidagi o'gitlarini shogirdlariga bot-bot misollar bilan tushuntirib berishdan charchamaydi. Negaki, Lola Xo'jayeva o'zbek teatr san'ati asoschilarining badiiy so'zga bo'lgan hurmati va talabini amaliy jarayonlarda kuzatgan olim edi.

H.Mahmudova so'z ustida ishlaganda quyidagilarga ahamiyat berish lozimligini jiddiy talab qiladi:

✓ She'ni o'qish emas, fikr va ma'noni ochib berish birlamchi omildir;

✓ Lirikada she'riyatni ko'rsatish emas, ko'proq oddiy va samimiy gapirish lozim;

✓ Aytilmoqchi bo'lgan so'zni har doim maqsadga bo'ysundirish darkor, qanchalik intonatsiya bilan o'qimang fikr va ma'no ochib berilmasa, bunday ijroning ta'siri yetib bormaydi;

✓ So'z qalbdan qalbgga yetib borishi uchun undagi xatti-harakatni topish va ta'sir kuchini yo'naltirish kerak;

✓ So'zning ta'sirchanligini oshirish uchun aktyor yig'lashi va yig'i ovozlardan foydalanmasligi, aksincha, tomoshabinning qalbini yig'lata oladigan nutqiy xatti-harakatlarni o'zlashtirmog'i darkor;

✓ She'riyatda ritm va vazn bor, shunday ekan, ijroda ham she'riy ohang, samimiy muloqot topilishi shart;

✓ Chiroyli she'r o'qish ma'noni yo'qotadi, aktyor bunga o'rganmasin. Avval qalban anglab, so'ngra dildan gapirsa, asarning ijrosi nafaqat partnyor, balki tomoshabinning qalbiga yetib boradi;

✓ Sahnada kimnidir o'ynash yoxud salbiy qahramonlarni ko'rsatish emas, balki ularning haqiqatini topish lozim. Eng muhimi, sahnada yashash va yana bir karra yashash kerak;

✓ Spektakl va ijro etayotgan roli bilan sahnaga nima uchun chiqqanligi sabablarini, avvalo, ijrochilar anglab yetsin, shundagina tomoshabin sizni va spektaklni tushunib yetadi, o'ziga kerakli xulosa chiqaradi [2].

H.Mahmudova bo'lg'usi rejissyorlar va aktyorlar tayyorlashning o'ziga xos metodlarini ishlagan ustoz. Jumladan, "Aktyorlik mahorati" o'quv qo'llanmasi, "Sahna asarining xatti-harakat tahlili" darsligi, Jo'ra Mahmudov bilan hammualliflikda yozilgan "Rejissura asoslari" darsligi, «Воспитание творческой личности» monografiyasi, dotsent Z.Axmedova bilan hammualliflikda chop etilgan «Инновационные методики подготовки кадров и сферы искусства» metodik qo'llanmasi va boshqa respublika, xorij davlatlarida chop etilgan ilmiy ma'ruzalar yosh pedagoglar uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

O'quv mashg'ulotlarini yuksak saviyada tashkil etishda sohaga oid internet ma'lumotlari, ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, taqdimot va media materiallardan o'ziga xos uslubda foydalanadi, amaliy mashg'ulotlarni madaniyat va san'at muassasalari: teatrlar,

madaniyat markazlari, bayram va tomoshalardagi ijodiy jarayonlarning nazariyasini amaliyot bilan uyg'unligini ta'minlab kelmoqda.

H.Mahmudova hozirgi kunda "Dramatik teatr va kino san'ati" kafedrasining yetakchi, shogirdlar mehr va muhabbatiga sazovor ustozlardan biridir. Uning rahbarligida tayyorlangan bitiruv malakaviy (ijodiy) ishlari talabalarning o'ziga xos layoqatini ochishga, individual mahoratini oshirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ustoz rahbarligida tayyorlangan magistrlik dissertatsiyalari nazariy va amaliy ahamiyatga molik bo'lib, estrada va ommaviy tomoshalar, teatr rejissurasiga metodik manba sifatida amaliyotga joriy etilgan. Uning namunaviy izlanishlari institut jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilgan.

Ustoz san'atkor respublika va viloyatlar miqyosida o'tkaziladigan tadbirlar, teatr yubiley kechalari, festivallarning ochilish va yopilish marosimlari, Navro'z, Mustaqillik bayramlarida rejissyor va ssenariy muallifi sifatida faol qatnashib kelgan. U sahnalashtirgan Hamzaning "Boy ila xizmatchi", A.P.Chexovning «Дядя Ваня», Gogolning "Revizor", A.N.Ostrovskiyning «Банкрот или Свои люди сочтёмся» asarlari bo'yicha qo'yilgan diplom spektakllar an'anaviy Yoshlar ijodiyoti festivallarida 1-o'rinlarni olgan. 2012-yilda J.Mahmudovning "Sadoqat" pyesasi bo'yicha qo'yilgan spektakli "Theatre.Uz" xalqaro festivalida "Eng yaxshi diplom spektakli" deb e'tirof etilgan. Ustoz 2004-yil 23-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi" faxriy unvoni bilan taqdirlangan.

Professor Hamida Mahmudova "Sahna nutqi" fani nazariyasining falsafiy olamini "Aktyorlik mahorati" fanining falsafiy olamida birlashtira olgan olim, rejissyor va pedagogdir. Yaxshilik qalblarda yashaydi, zulmatni yorituvchi nur, ziyo kabi hayot yo'llarimizni yoritib, bizni hamisha saodatli yashashga undaydi. Ustoz nafaqat mening, balki o'zi saboq bergan barcha talabalarning qalbida odamiylik, ezgulik, go'zallik sari intilib yashashdek oliyjanob xislatlarni naqsh qilib kelmoqda. Ana shu fazilatlar meni va menga o'xshagan sobiq talabalarni madaniyat va san'at rivojiga, ona vatanimizning gullab-yashnashiga, sadoqat bilan xizmat qilishga va uni yanada yuksaltirishga chorlayveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaniyozov R. "Bilim bilan ma'rifatning tutqichi, ilm ila ikki dunyo ochqichi". – T.: "Akademnashr", 2019-y. 17-b.
2. Махмудова Х. «Воспитание творческой личности». – T.: "Fan ziyosi", 2021-y. – 32-b.



O'ZBEKISTON QAHRAMONI ZIKIR MUHAMMADJONOVNING IJODIGA CHIZGILAR

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Qahramoni Zikir Muhammadjonovning teatr va kino san'atidagi ijodiy faoliyati xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: teatr, spektakl, aktyor, ijod, ijro, rejissura.

Аннотация. В статье рассматривается творческая деятельность Героя Узбекистана Зикира Мухаммаджонова в театре и кино.

Ключевые слова: театр, спектакль, актер, творчество, исполнение, режиссура.

Annotation. The article examines the creative work of the Hero of Uzbekistan Zikir Mukhammadjonov in theater and cinema.

Keywords: theater, performance, actor, creativity, performance, direction.



O'zbekiston Qahramoni Zikir Muhammadjonov 1921-yil 1-yanvarda Toshkent shahrining Chorsu mavzesi Bedabozor (Ko'nchilik) mahallasida Muhammadjonqori Ibrohimxoji o'g'li xonadonida tavallud topdi. Muhammadjonqori o'g'li Zikrillani kelajakda o'qimishlilo'lishini istab, arab alifbosidagi "Haftiyak" olib, endi olti yoshga to'lgan o'g'liga hafsala va qunt bilan Qur'on suralarini yodlatar, qiroat qilish qoidalarini o'rgatib, eski maktabga berishni niyat qilardi. Ammo 1927-28-yillarda eski maktablar yopilib, yangi maktablar ochila boshlaydi. Amaldagi arab alifbosi o'rniga lotin alifbosi joriy etiladi. Shu bois, yosh Zikir boshqa tengqurlari qatori yetti yoshga to'lganda yangi maktabga borishga majbur bo'ladi. Yangi ochilgan maktabda havaskorlik to'garagi tashkil qilingan bo'lib, u yerga Zikirjon ham o'zgacha ishtiyoq bilan qatnay boshlaydi.

Bo'lajak aktyorda san'atga bo'lgan qiziqishning paydo bo'lishida onasi Turdiniso hamda tog'asi Rahimjonning hissasi katta. Tabiatan xushmuomala, zehni bo'lgan Turdiniso ona patnis chertib laparlar aytar, farzandlarini raqsga tushishga undar edi. Tog'asi Rahimjon nog'ora chalishda mohir edi. Ayniqsa, jiyani Zikrni teatrqa yashirincha (u paytlari teatrqa yosh bolalar qo'yilmasdi) olib borishi, unda san'atga bo'lgan muhabbatni uyg'otadi.

Ustoz san'atkor bolaligini shunday eslaydi: "Tasavvurimda qolgan xotiralarim yorug' va qorong'u kunlari bilan ko'z o'ngimda gavdalanib, shodlik va qayg'ularni, yuragimda ajib tuyg'ular uyg'otadi. Bolalik dunyosiga qaytar ekanman, olis tush bag'riga singib ketgandek bo'laman. Bu dunyo ulkanlashadi. Men uchun bu yorug' va rangin olamda hamma narsa bor. Dastlab,

mehribon Ibrohimhoji bobomning nuroniy chehralari tasavvurimga qalqib chiqadi. So'ng, Chorsu ko'chalari bag'rida bolalar qiyqirig'iga ko'milib ketgan, betashvish va shodon to'polonchi bolaligim keladi" [4,5-b].

Zikir Muhammadjonovdagi teatr san'atiga bo'lgan ishtiyoq 1938-yil uni Hamza nomidagi o'zbek davlat akademik drama teatriga (hozirgi O'zbek Milliy akademik drama teatri) yetaklaydi. U teatrdagi faoliyatini yordamchi rejissyor lavozimidan boshlaydi. Ustozlari Mannon Uyg'ur va Abror Xidoyatovdan san'at sirlarini o'rganadi. 1945-yilda Abror Xidoyatovning maslahati bilan Ostrovskiy nomidagi teatr va rassomchilik institutiga hujjat topshiradi. Shu yil institutning aktyorlar tayyorlash bo'limiga 14 nafar talaba qabul qilinib, ular orasida Vohid Qodirov, Yayra Abdullayeva, Erkli Malikboyevlar ham bor edi. Institutda tahsil jarayonida talabalarga Yetim Bobojonov, Aleksandr Ginzburg, Yuriy Ioffe, Nazira Aliyeva, Sharif Qayumov kabi teatr san'atining bilimdonlari saboq beradilar.

Zikir Muhammadjonovning qariyb 70 yillik ijodiy faoliyati barakali, sermazmun va ko'p qirralidir. U ijodi davomida yuzdan ortiq turli janr va xarakterdagi obrazlarni gavdalandirdi. Temur Malik ("Jalodiddin Manguberdi"), Dehqonboy ("Shohi so'zana"), Ferdinand ("Qaroqchilar"), Goratsio ("Gamlet"), Samandar ("Samandar"), Abu Rayxon Beruniy ("Abu Rayxon Beruniy"), Alisher Navoiy ("Alisher Navoiy"), Sintaro ("O'g'irlangan umr"), Yedigey ("Asrga tatigulik kun"), Shokir ("Kuzning birinchi kuni") kabi obrazlar teatr tarixiga muhrlandi.

Unga hamkasblari "jahongashta aktyor" deb ta'rif beradilar. Aktyor o'zbek xalqining





bir ziyoli vakili sifatida dunyoning juda ko'p mamlakatlarida, jumladan, AQSh, Ispaniya, Angliya, Turkiya, Kipr, Vengriya, Polsha, Chexiya, Hindiston, Saudiya Arabistoni, Polsha, Hindiston, Malayziya, Chexiya, Boltiqbo'yi davlatlarida, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo yurtlarning barchasida bo'lgan, taassurotlarga to'lib-toshib qaytgan. Biroq, 1991-yilning dekabrda, mustaqil davlatning bir vakili sifatida, Birinchi Prezident Islom Karimovning Turkiyaga qilgan birinchi rasmiy tashrifida O'zbekiston delegatsiyasi tarkibida bo'lganini alohida iftixor bilan eslagan: *"Mustaqil davlatning vakili sifatida o'zga yurtda bo'lganingda mezbonlar tomonidan senga alohida hurmat va iltifot ko'rsatilar ekan. Bunday faxr tuyg'usini yoshim 70 dan oshganida ilk bor tuydim. Dunyoga yangidan kelganday bo'ldim. Mustaqillik oliy ne'mat ekan"* [4,13-b].

O'z ijod yo'li, "dastxat"i, o'zbek san'atida o'z o'rniga ega bo'lgan aktyor kino san'atida ham o'zidan salmoqli rollar qoldirgan. Taniqli yozuvchilarning asarlari asosida suratga olingan o'nlab videofilmlarda ham bosh rollarni ijro etgan: "Navoiy"dagi Husayn Boyqaro, "Ulug'bek xazinasida" Mirzo Ulug'bek, "Imon"dagi professor Komilov, "Bobur"dagi Xondamir kabi ko'plab rollari aktyorlik san'atining bebaho namunalari bo'lib qoldi.

Zikr Muhammadjonov haqiqatdan ham mahoratli aktyor, obrazga kira biladi, sahnada qahramon hayoti bilan yashaydi. Klassik adibimiz Oybekning "Qutlug' qon" romani asosida

yaratilgan inssenirovka Milliy teatr sahnasida turli yillarda uch marta qo'yilgan. Ustoz san'atkor uchala spektaklda ham qatnashib, har safar har xil rol o'ynagan. Birinchisida Salimboyvachcha, ikkinchisida Yormat, uchinchisida Mirzakarimboy obrazlarini muvaffaqiyat bilan talqin qilgan.

Zikr Muhammadjonov radiospektakl va postanovkalarda ham asosiy rollarni ijro etgan. Aktyor dublyaj sohasida ham samarali mehnat qilib, "O'zbekfilm" kinostudiyasida dublyaj qilingan talaygina filmlardagi qahramonlarga ovoz bergan.

Ustoz san'atkor qalam sohibi hamdir. Uning "Ta'zim", "O'zim ko'rgan-bilganlarim", "Ulug'lar orasida" nomli bitiklari kitobxonlar tomonidan sevib o'qilmoqda. Alloma 1962-yil "O'zbekiston xalq artisti" faxriy unvoni, 1994-yil "Shuhrat" medali, 1996-yil "Do'stlik", 1998-yil "Buyuk xizmatlari uchun" ordenlari bilan taqdirlangan. 2003-yil "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvonga sazovor bo'lgan.

Aktyor o'zbek teatr san'ati va kinosini rivojlantirishdagi ko'p yillik va halol xizmatlari uchun haqli ravishda faxriy unvonlar, orden va medallar, mukofotlar, sovrinlar va diplomlarga sazovor bo'lgan. *"Lekin muhtaram Yo'l boshchimiz qo'llaridan "Buyuk xizmatlari uchun" ordenini qabul qilib olgan onlarim hayotimning eng quvonchli, eng unutilmas damlari bo'ldi, – deydi ardoqli san'atkorimiz. – Bu – umrimni yangi mazmun bilan boyitdi, yangi ijodiy maralarga chorladi"* [4,14-b].

Zikr Muhammadjonov 2012-yil 24-avgustda Toshkent shahrida vafot etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammadjonov Z. Ta'zim. – T.: "Yozuvchi", 1996-y.
2. Muhammadjonov Z. O'zim ko'rgan bilganlarim. – T.: "O'qituvchi", 1998-y.
3. Muhammadjonov Z. Ulug'lar orasida. – T.: "Sharq", 2003-y.
4. Abdusamatov H. "Aktyor, arbob, adib". "Teatr" jurnali, 2001-yil, 6-son.

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi



Nashrga tayyorlovchi:
Ozoda Shobilolova

Sahifalovchi-dizayner:
Abdug'ani Sodiqov

Bosishga ruxsat etildi: 2.06.2025-yil
Ofset bosma usulda bosildi.
"Arial" garniturası. Bichimi 60×841/8.
Shartli bosma tabog'i 12,25.
Buyurtma raqami №. Adadi: 100 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13

